

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

«O'ZBEK FOLKLORI»  
fanidan

**Ma'ruzalar matni**

- |                      |                                                                   |
|----------------------|-------------------------------------------------------------------|
| <b>Sulaymonov I</b>  | - f.f.n. SamDU O'zbek tili va adabiyoti<br>kafedrasi o'qituvchisi |
| <b>Muhiddinova N</b> | - SamDU O'zbek tili va adabiyoti<br>kafedrasi o'qituvchisi        |

**Samarqand - 2016-y.**

# **1-MAVZU: Fanning maqsadi va vazifalari, manbalari. Folklor – xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlari.**

## **REJA:**

1. Xalq og‘zaki ijodi fanining maqsad va vazifalari.
2. Fanning asosiy manbalari, mazmuni va uning tarkibi.
3. Xalq og‘zaki poetik ijodining o‘ziga xos belgilari.
4. Xalq og‘zaki poetik ijodi haqida umumiy ma‘lumot.

**Tayanch iboralar:** Xalq og‘zaki ijodi fanining maqsad va vazifalari.

**Darsning maqsadi:** Xalq og‘zaki ijodi fanining maqsadi va vazifalari haqida fanning o‘z oldiga qo‘ygan rejalari haqida atroflicha ma‘lumot berish.

**Darsning vositalari:** Ko‘rgazmali o‘quv qurollari, fol‘klorshunos olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

**Darsning metodi:** Blits so‘rov, an‘anaviy ma‘ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

Darsning mazmuni: So‘z san‘atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo‘lishi bilan yuzaga kela boshladi. Xalq og‘zaki poetik ijodi – mehnatkash omma ijodi, xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi, xalq san‘atining boshqa turlaridan (muzika, teatr, raqs, o‘yin, tasviriy va amaliy san‘at hamda boshqalardan) o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og‘zaki so‘z san‘atidir. Har bir xalqning asrlar orzusini aks ettirgan boy og‘zaki so‘z san‘ati bo‘lganidek, o‘zbek xalqining ham og‘zaki adabiyoti durdonalari mavjud. Mehnatkash omma tomonidan og‘zaki yaratilib, xalqning istedadli vakillari ijrosida sayqal topib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan badiiy asarlar o‘zbek xalq poetik ijodini tashkil etadi.

Og‘zaki so‘z san‘ati «fol‘klor» yoki «xalq og‘zaki poetik ijodi» («xalq poetik ijodi», «xalq og‘zaki ijodi») terminlari bilan ifodalanadi. «Fol‘klor» termini birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi Vil‘yam Toms tomonidan 1846 yilda qo‘llangan bo‘lib, u ikki so‘zdan iborat: «fol‘k» (folk) – xalq, «lor» (lore) – bilim, donolik, donishmandlik, ya‘ni «xalq bilimi», «xalq donoligi», «xalq donishmandligi» demakdir. «Fol‘klor» – xalqaro termin.

O‘zbek fol‘klorshunosligiga «fol‘klor», «o‘zbek fol‘klori» terminlarini birinchi marta Hodi Zarif kiritdi (1932, 1935). U oliy o‘quv yurtlari uchun tuzilgan birinchi xrestomatiya kitoblarini «O‘zbek fol‘klori» deb atadi (1939, 1941). Ungacha «El adabiyoti», «Og‘zaki adabiyot», «O‘zbeklarda og‘zaki adabiyot» kabi atamalar ishlatilar edi. Bu atamalar sohani aniq ifodalamasligi tufayli iste‘moldan chiqib ketdi va hozirgi kunda «O‘zbek fol‘klori», «O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi» terminlari fanda mustahkam o‘rnashib qoldi.

Milliy mustakillik xalkimizning o‘z bobolari zakovati tufayli yaratilgan ulkan madaniy merosga bulgan munosabatini tubdan yangilab, ajdodlarimiz tarixi, madaniyati, ma‘naviy kadriyatlari tizimini keng kulamda targ‘ib etishning misli

kurilmagan imkoniyatlarini ochib berdi. Istiklol sharofati bilan dunyokarashimizda, ongimizda ruy bergan yangilanish, ruhiy poklanish va ma'naviy tiklanish jarayoni fol'klor san'atining taraqqiyotida ham yaqqol aks etmokda. Zero, fol'klor san'ati an'analari "mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalash", dek ulug'vor maksadlarga xizmat qiladi.

O'lkamiz mustaqillikka erishganidan keyin xalk og'zaki ijodiyotiga bo'lgan qiziqish kuchaydi va bu narsa fol'klorni o'rgatuvchi, xalk og'zaki badiiy ijodi buyicha dars beruvchi, fol'klor san'ati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar oldiga ham dolzarb vazifalarni qo'ydi. Ayniqsa, an'anaviy fol'klorni tadqiq etish, uning qadimiy uzvlarini tiklash, nodir ijro yo'llari, fol'klor janrlari va ularning badiiyati haqida darslik, o'quv qo'llanmalari va dasturlar yaratish fol'klorshunoslikning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biriga aylandi.

Ajdodlarimizning ko'p acrlilik badiiy tafakkur durdonalarini bebaho milliy kadriyatlar tizimi sifatida saklab kolish, targ'ib va tadqiq etish, uning eng nodir namunalarini keng ommalashtirishda fol'klorshunoslik fanining xizmatlari benihoya kattadir. Asrlar davomida xalqimizni yuksak ma'naviy komillik ruhida tarbiyalashdek ezgu maksadga xizmat qilib kelgan ana shu badiiy qadriyatlarni to'plash, fol'klor asarlarini arxivlashtirish, uning eng yaxshi namunalarini nashr etish, ilmiy urganish va ommalashtirish fol'klorshunoslikning asosiy maksadini tashkil etadi.

Fol'klorshunoslik fanining asosiy maksadi va vazifalari bu fanning o'ziga xos ilmiy mezonlari va kriteriyalarini ko'rsatish, fol'klorshunoslikdagi asosiy metodlar va ilmiy maktablar, hozirgi kunga qadar erishilgan asosiy natijalar, o'zbek fol'klorini mustakillik davrida urganishning yangicha tamoyillari va bu fanning istiqbollari haqida chuqur bilim berishdan iboratdir.

Fol'klor asarlarida muzika, raqs, teatr san'ati elementlari qo'shilib ketadi, shu sababdan fol'klor sinkretik san'at deyiladi. Ayni vaqtda fol'klor asarlari san'atning boshqa turlaridan o'ziga xos tomonlari bilan farq qiladi. Fol'klorda so'z, kuy va ijro birligi doimo saqlanadi. Xalq og'zaki ijodi uzoq davrlardan beri tarixning yo'ldoshi, uning chinakam aks sadosi bo'lib kelgan.

Xalq ijodini o'rganuvchi, tekshiruvchi fan *fol'klorshunoslik* deb yuritiladi. Bundan tashqari, fol'klor asarlari bilan bir qancha fanlar shuqullanadi: tarixchilar tarixiy voqealarning xalq og'zaki ijodida qanday aks etganini o'rganadi; etnograflarni xalqning urf-odatlarini qiziqtiradi; san'atshunoslar esa fol'klordagi muzika, raqs, o'yin, xoreografiya va boshqalarni o'rganadilar; tilshunoslar xalq

ijodi tilining lahja va dialektlari bilan, adabiyotshunoslar fol'klor asarlarining yozuv adabiyoti bilan munosabatlarini tekshiradilar.

Xalq poetik ijodi yozuv paydo bo'lmasdan ko'p zamonlar ilgari yuzaga kelgan. Uning yaratilishi va tarqalishi jonli og'zaki an'ana bilan bog'liqdir. Og'zakilik xususiyati uni xalq san'atining boshqa turlaridan (masalan, muzika, raqs, o'ymakorlik) ajratib turadi. Fol'klor asarlarining uzoq asrlar davomida og'zaki yaratilishi va og'zaki ijro etilishi uning shakl va mazmuniga ta'sir etmasdan qolmas edi. Ma'lumki, ayrim tarixiy faktlarning to'liq esda qolmasligi, zamon taqozosi bilan unutilishi natijasida ularning asardan tushib qolishi yoki o'zgarishi, qorishtirib talqin etilishi mumkin. SHuning uchun ham tarixiy voqea va hodisalar fol'klorda aynan aks etavermaydi. Ba'zan esa dostonlarda mavjud bo'lgan she'riy parchalarning unutilishi mazkur janrni ertak shakliga keltirib ham qo'yishi mumkin. YOki aksincha, ertakning dostonga aylanishi ham ehtimoldan xoli emas. Fol'klor asarlarida yuz berishi mumkin bo'lgan bunday hodisa uning g'oyaviy-badiiy, estetik qimmatini kamaytirmaydi. CHunki har bir fol'klor asarida, u qaysi forma va janrda bo'lmasin, ijodkor xalqning voqelikka bo'lgan aktiv munosabati ifodalanadi. SHuning uchun ham fol'klor asarlari g'oyaviy-badiiy jihatdan puxta ishlanadi.

Xalq og'zaki ijodining o'z ijodiy metodi mavjudligi. Uni shartli ravishda romantizm tipidagi ijodiy metod deyish mumkinligi, chunki folklor asarlarida fantastika, badiiy uydirmalar, hayotiy asos bo'lishi, yo'g'rilgan xayoliy voqea va hodisalar hayotni tasvirlashning o'ziga xos uslubi sifatida namoyon bo'lganligi.

"Folklor" termini haqida tushuncha. Xalq og'zaki badiiy ijodi tarixi va uning asosiy janrlari. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi va boshqa xalqlar folklorining mushtarakligi, farqli tomonlari va an'alarining badiiy ifodasi sifatida.

Xalq og'zaki poetik ijodining asosiy xususiyati ijodiy jarayon-yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining kollektivlik xarakteriga egaligi. Uning og'zakilik, variantlilik, ommaviylik, traditsionlik, anonimlik kabi belgilarini kollektivlik tomonidan yaratilgan poetika elementlari, an'anaviy uslub vositalari asosida yuzaga kelishi. U muayyan eshituvchilar guruhiga mo'ljallangan bo'lishi va kollektiv tomonidan e'tirof etilgandagina ijtimoiy va tarixiy ahamiyat kasb etishi.

Folklor namunalari og'zaki yaratilib, og'zaki ijro etilishi. Xalq og'zaki poetik ijodining kollektivlik xarakteri individual ijodchilar faoliyatini inkor etmasligi. Iste'dodli ijodkorlar folklor namunalarini saqlab qolishi va keng ommalashtirish bilan birga og'zaki an'analari doirasida uni yanada mukammallashtirgan holda, yangilarini yaratilishi.

Fol'klor asarlari o'zining hayotiyligi, ijtimoiy tabiati, g'oyaviy mohiyati hamda o'ziga xos badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xalqning mehnati, urf-odati, turmush sharoiti, orzu istagi, kurash va g'alabalari uning mavzusi va

g'oyaviy mazmunida aks etadi. Bu xususiyat asosan tom ma'nodagi so'z san'ati, doimo mehnatkash el manfaati, orzu va istagi va intilishlariga mos keladi. Fol'klor so'z san'atining boshlang'ichi, yuksak mahoratli badiiy tuzilishdir. Xalq og'zaki ijodining har bir namunasi asrlar davomida ko'plab iste'dodli xalq ijodchilari tomonidan yuksak san'at namunasi darajasiga ko'tarilgan. Bugina emas, fol'klor san'atning boshqa turlari adabiyot, teatr, muzika, kino va boshqalarning taraqqiyotida ham muhim rol o'ynadi va o'ynamoqda.

Xalq og'zaki badiiy ijodini o'rganuvchi fan fol'klorshunoslik yoki fol'kloristika deb yuritiladi. Fol'klorshunoslik turli davrlarda va turli mamlakatlarda goh etnografiya, goh adabiyotshunoslik va muzikashunoslik, goh madaniyat tarixi, goh antropologiyaning va hatto sotsiologiyaning bir qismi kabi qaralib kelingan. Bizning mamlakatimizda esa xalq og'zaki badiiy ijodi haqidagi mustaqil va maxsus fan sifatida rivojlandi. SHu bilan birga, fol'klorshunoslik tekshirish predmetining ko'лами va xilma-xilligi jihatidan adabiyotshunoslik va musiqashunoslik, etnografiya va antropologiya kabi fanlar bilan uzviy bog'liqdir.

Fol'klorni o'rganish tarixi unga nisbatan faqat ilmiy maqsadlarda yondashilganlikni kuzatish bilangina cheklanmaydi, balki insoniyat tafakkuri taraqqiyotida unga turlicha munosabatda bo'lgan ilm-fan va madaniyat arboblarning adabiy qiziqishlarini ham hisobga olishni taqozo etadi. SHu ma'noda fol'klorshunoslik asoslari qadimgi dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi. Qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlar, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning fol'klor to'g'risidagi ilk fikrlari fol'klorshunoslik uchun muhimdir. Fol'klorni yozib olishdagi birinchi tajribalar XI asrdan boshlab ko'zga tashlanadi (Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asaridagi fol'klor materiallari). Ayni paytda yozuvchilar tomonidan xalq ertaklari, miflar, afsona va rivoyatlarini qayta ishlash jarayoni ham boshlanadi.

XX asrning boshlarigacha o'zbek fol'klori bilan hech Kim shug'ullanmagan, unga nisbatan qiziqish bo'lmagan, degan ma'no chiqmaydi, albatta. Mahmud Koshg'ariy yiqqan mehnat, urf-odat, mavsum-marosim qo'shiqlari, afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, ularning mazmuni, qo'llanish o'rni haqidagi ma'lumotlar, Abulqosim Mahmud Zamaxshariyning maqol va matallarning badiiy xususiyatlari haqidagi mulohazalari, Alisher Navoiy, G'iyosiddin Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Darvish Ali CHangiy, Vosifiy asarlaridagi mavjud qayd va izohlar fol'kloristika tarixi uchun muhim ahamiyatga ega. Fol'kloristika tarixi xalq ijodiga faqat ilmiy maqsadlar bilan yondashilganlikni o'rganish bilangina cheklanmaydi, balki fol'klorni turlicha tushungan va undan o'z asarlarida foydalangan yozma adabiyot namoyandalarining xalq ijodiga qiziqishlarini (tarixiy-badiiy asarlardagi fol'klorizmni) tekshirishni ham o'z ichiga oladi.

XX asrning 2-choragidan boshlab xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash va u haqidagi ilmiy tadqiqotlarni e'lon qilish ancha izga tushdi. Bu ish dastlab markazlashtirilgan hay'at tomonidan amalga oshirildi. Bu o'rinda elbek, G'.O.YUnusov, G'ulom Zafariy kabi olimlar xalq og'zaki ijodiga oid bo'lgan ayrim janrlarni yozib olishga va ilmiy maqolalar e'lon qilishga erishdilar. Bu o'rinda fol'klorshunos olimlardan Xodi Zaripovning xizmatlari kattadir.

Olim xalq og'zaki ijodining yirik janri bo'lgan dostonlarni Fozil Yo'ldosh o'g'lidani, ergash Jumanbulbul o'g'lidani, Po'ltan shoir tilidan «Alpomish», «SHayboniyxon», «Rustam», «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Hasanxon», «Avazxon», «YUnus pari», «Misqol pari» kabi dostonlarni yozib oladi. Bu o'rinda fol'klorshunos olimlardan Mansur Afzalov, Muzayana Alaviya ham xalq og'zaki ijodini to'plab nashr ettiradilar. Xususan, Muzayana Alaviya xalq qo'shiqlarini to'plab, birinchi marta e'lon qildi. Keyinchalik fol'klorshunos olimlarning qatoriga X.Imomov, Z.Xusainova, B.Sarimsoqov, Z.Mirtursunov, J.Qobilniyozov kabi olimlar qo'shildilar va qator monografiya va risolalar e'lon qildilar. eng diqqatga sazovor tomoni shundaki, 1964 yildan boshlab 45 tomga mo'ljallangan o'zbek xalq ijodi asarlarini nashr etishga kirishildi va bir necha tomlari, jumladan, «Intizor», «Dastagul», «Murodxon», «Orzigul» va boshqa dostonlar nashr ettirildi.

YUqorida amalga oshirilgan ishlardan so'ng fol'klorshunos olimlar M.Saidov, M.Murodov, B.Sarimsoqov kabilarning xalq dostonlariga doir tadqiqotlari e'lon qilindi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, zamonamizning buyuk dostonchisi ergash Jumanbulbul o'g'lining, Fozil Yo'ldosh o'g'lining, Islom shoirning, Po'ltan shoirning asarlarini o'rganishda yangi bosqich boshlandi. Xalq og'zaki ijodining ikkinchi nasriy turi ertaklar haqidagi birinchi tadqiqot M.Afzalov tomonidan «O'zbek xalq ertaklari» haqida kitobi nashr ettirildi. K.Imomovning esa «O'zbek satarik ertaklari» monografiyasi ham ertak janri xususiyatlarini yoritib berdi. SHu bilan birga, ertaklarni nashr etishga ham alohida e'tibor berildi. M.Afzalov, Z.Husainova, X.Rasulovlar tomonidan «O'zbek xalq ertaklari»ning ikki tomligi nashr ettirildi. Xalq qo'shiqlarini o'rganishda esa M.Alaviyaning «O'zbek xalq marosimi qo'shiqlari» monografiyasi alohida o'rinda turadi.

O'zbek fol'klorshunosligining etakchi ilmiy maktablari va ularning asosiy nazariyalari, fol'klorni o'rganishning asosiy metodlari to'g'risida ham mufassal ma'lumot beriladi. CHunki uzbek xalq oqzaki badiiy ijodini o'rganuvchi mutaxassis fol'klorshunoslik tarixida "fin maktabi", "mifologik maktab", "tarixiy maktab", "antropologik maktab", "ritual-mifologik maktab" kabi nomlar bilan atalgan ilmiy maktablarning izlanishlari va ular tomonidan yaratilgan ilmiy-nazariy kontseptsiyalarning xalq ijodini tadqiq etishdagi ahamiyatini yaxshi bilishi, ularning filologik tadqiqotlar tizimida tutgan o'rniga to'g'ri baho bera bilishi lozim.

O'zbek fol'klori xilma-xil janrlardan tarkib topgan behad qadimiy so'z san'ati bo'lib, unda o'tmishda yashagan ajdodlarimizning turish-turmushi, dunyoqarashi va e'tiqodi, kurash va mag'lubiyatlari ifodalangan. V.M.Miller xalq ijodiyotiga «xalqshunoslikning tarkibiy qismi»<sup>1</sup> sifatida qarab, uning xalq rasm-rusumlarini ifodalagan etnografik mohiyatini ta'kidlaydi. Fol'klorning betakror so'z san'ati sifatidagi mohiyati xalq turmushini ifodalaganligi tufayli etnografiya bilan, xalq ruhiyati va e'tiqodiy qarashlarini aks ettirib ruhshunoslik va din tarixi bilan, xalq axloqiy qarashlarini ifodalab tarbiyashunoslik bilan, musiqa, raqs va harakatlarga omuxtaligi bois san'atshunoslik bilan va nihoyat jonli so'zlashuv tilida yaratilganligi sababli tilshunoslik fanlari bilan singishganligida namoyon bo'ladi.

Fol'klorda an'anaviylik o'ziga xos xususiyatlardan bo'lib, uning g'oyaviy – estetik mohiyatini belgilaydi. An'anaviylik xalq ijodida u yoki bu asar matnining og'izdan-og'izga o'tishi jarayonida nisbatan barqarorliknigina anglatib qolmay, balki o'sha asarning avloddan-avlodga o'tish jarayonida dastlabki ijrosiga xos xususiyatlarni, kuyi va shaklini, ifodaviy vositalari va qahramonlarini nisbatan o'zgarmagan holda saqlab qolganligini ham anglatadi.

Xalq ijodiyotida an'anaviylik g'oyaviy – badiiy mazmunda keng ko'lamga ega. Zero, mavzu mohiyatiga ko'ra uning barcha tur va janrlaridagi namunalarida Vatan, xalq va mehnatni ulug'lash, adolatsizlikka nafrat bilan qarash, do'stlik va birodarlikni qadrlash, chin insoniy muhabbatni sharaflash mushtarak an'anaviy motivlardir. SHuningdek, an'anaviylik fol'klorning har bir turi va janrining kompozitsion tarkibiga xos unsurlar umumiyligini ham namoyon etadi. Aytaylik, qo'shiq janri tabiatiga daxldor an'anaviy unsurlarning hammasi ham doston janri tabiatiga to'g'ri kelavermaydi. Dostonlargagina xos an'anaviy epik ko'lamdorlik, epik qoliplar, umumiy tipik o'rinlar va boshqalar qo'shiqlarda uchramaydi. Lekin bular xalq eposi uchun an'anaviy unsurlar sanaladi. YOki xalq eposini an'anaviy boshlama va tugallanma, otni egarlash va ta'riflash, otda bahodirona chopish, janglar tasviri, safarga otlangan qahramonga nasihat qilish, jangga kirish oldidan o'zini maqtashi, sevishganlar uchrashadigan chorbog'lar tavsifi, malikalar, kanizaklar, ko'sa va maston kampirlar tasvirisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bularsiz dostonlarda an'anaviy shjet qurilmasini tasavvur qilish qiyin.

An'anaviylik fol'klorninggina emas, balki xalq musiqasi, raqsi va amaliy san'atining ham xos belgisi sanaladi.

An'anaviylik o'zining ijtimoiy – tarixiy manbalariga ega. CHunonchi, fol'korning ilk namunalari ibtidoiy jamiyatda yaratilgan, ularda o'sha zamon kishilarining nisbatan qaror topgan urf-odatlar va hayotga oid qarashlari aks etgan.

---

<sup>1</sup> Miller V.F. Leksii po istorii russkoy narodnoy slovestosti. M., 1911.

Bu hol fol`klor asarlari shakli, obrazlari va motivlari muayyan barqarorlik kasb etishini ta`minlagan.

**Fol`klor asarlari** jonli ijro jarayonidagina yashaydi. Uning ayrim janrlarida so`z va kuy omuxtaligi etakchi bo`lsa, ayrimlarida sahna san`ati unsurlari ustun turadi. Bu hol fol`klor asarlariga qorishqlik (sinkretiklik) xususiyatini baxsh etgan. Fol`klor namunalari ijrosi xilma-xil san`at turlariga xos unsurlarni o`zida mujassamlashtirgan. Uning talay namunalari so`z va kuy uyg`unligida ijro etiladi. CHunonchi, doston va termalarni do`mbira jo`rligida kuylash an`anaviy bo`lsa, qo`shiq dutor, childirma jo`rligida kuylanadi. Aksariyat fol`klor asarlarida so`z etakchi o`rinni egallaydi. Ertak, afsona, naql, rivoyat, latifa, maqol va topishmoq janrlari shunday xarakterga ega. Xalq ertaklarida, xalq dramasida harakat va mimika muhim qimmat kasb etadi. Biroq ko`pgina asarlar ijrosida kuy g`oyaviy-badiiy mazmunni ifodalashda bir qadar qimmat kasb etsa-da, baribir so`z mazmunini ochuvchi asosiy vosita bo`lib qolaveradi. Bu fol`klorning so`z san`ati sifatidagi mohiyatini to`la-to`kis tasdiqlaydi.

**Xalq – fol`klorning ijodkori.** Fol`klor qabila, urug`, elat, xalq yoki millatning mafkurasi va ruhiyatini aks ettiradi. Uning paydo bo`lishida hal qiluvchi rol` o`ynaydi. Ibtidoiy jamiyatda fol`klor hayot bilan mustaqil kurash vositasiga aylanib shakllandi. Qoyalardagi tasvirlar, bolta va boshqa mehnat qurollari qadimiy ajdodlarimizning tabiiy tuyg`ularini shakllantira bordi, hayvonlardan farqli o`laroq, badiiy ijod qilish iqtidorini uyg`ota boshladi, ulardagi ma`naviy kuchning qo`pol amaliy ehtiyojlar asirligidan qutulishiga ko`maklashdi. Xayolga erk berish zahirida ibtidoiy odamda estetik tuyg`u shakllana bordi, go`zallikni tushunish va anglash teranlashdi va shular zahirida xalq og`zaki ijodiyotining dastlabki namunalari hzaga keldi. Mehnat jarayoni, ijtimoiy taraqqiyot tufayli mehnatning turli tarmoqlarga taqsimlanishi esa, o`z navbatida, so`z san`atini ham shaklan, ham mazmunan xilma-xil xarakter kasb etishini ta`minladi.

Jamiyat

toifalariga bo`lindi. Bu hol manfaatdorlik nuqtai nazaridan ular o`rtasida ma`lum ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Natijada fol`klorda zolimlardan norozilik, zolim kuchlarga nafrat motivlari paydo bo`la boshladi. Mazlum omma hayot haqidagi tushunchalarini, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-falsafiy, badiiy-estetik, diniy-axloqiy qarashlarini ifoda etish bilan fol`klor asarlarining g`oyaviy mazmundorlik jihatidan xalqchilligini ta`minladi.

Xalq oq

qudratga ega pafos darajasiga ko`tarilgan.

Fol`klor qadimiy so`z san`ati sifatida nafaqat chuqur g`oyaviyligi, balki hksak badiiyligi bilan ham ajralib turadi. Unda voqelikni ifodalashning doston,



ertak, maqol qo'shiq, topishmoq, afsona, rivoyat va askiya singari xilma-xil janrlari shakllangan.

Fol'klor asarlari tili – jonli so'zlashuv tili, shu bilan birga arxaik ifodalar va dealiktizmlar ular uchun norma sanaladi. Bu xususiyati bilan fol'klor tili adabiy jihatdan sayqallangan badiiy adabiyot tilidan farq qiladi. Fol'klor tili – muttasil harakatdagi jonli so'zlashuv tili bo'lib, hamma zamonlarda ham adabiy tilning boyish manbai bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi.

O'zbek xalq ijodiyotida ifodaviy-tasviriy vositalarning badiiy adabiyotdan farq qiluvchi o'ziga xos butun bir tizimi ishlangan. Bu xalq qo'shiqlaridagi ramziy obrazlar, doimiy sifatlashlar, an'anaviy qoliplar (klishe'lar), turg'un iboralarning farovonligida, fol'klor asarlari tilida erkalovchi, kichraytiruvchi qo'shimchalarning serobligida, ayniqsa, muvoziylik (parallelizm), mubolag'a va saj'ning behad faol va o'ziga xos qo'llanilishda yorqin ko'rinadi.

Fol'klor asarini aniq ijodkorga nisbat berib bo'lmaydi. Ularning yaratilishi paytini ham aniq ko'rsatishning imkoni yo'q. Chunki fol'klor asari uzoq muddatli ijodiy jarayonda og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, ustozdan – shogirdga o'tib hzaga keladi va yashaydi. Badiiy adabiyot namunasining muallifi ham, yozilgan vaqti ham ma'lum bo'ladi. Fol'klor asarlari muallifining noaniqligi – anonimligi (grek anonumis-no'malum) o'sha asarning qachonlardir individual ijodkor tomonidan yaratilganligini inkor etmaydi. V.G.Belinskiy aytganidek, fol'klorda «mashhur nomlar yo'q, uning muallifi hamisha xalqdir. Uning navqiron xalq yoki qabila ichki va tashqi hayotining jimjimalarsiz va aniq tasvirlangan oddiy va soddagina qo'shiqlarini kim to'qiganini hech kim bilmaydi...va bu qo'shiq urug'dan – urug'ga, avloddan-avlodga o'tadi; va vaqtlar o'tishi bilan o'zgarib boradi; goh uni qisqartirishsa, goh uzaytirishadi, goh yangidan to'qishadi, goh unga boshqa qo'shiqni ulashsa, goh unga qo'shimcha qilib boshqa bir qo'shiqni to'qishadi – shunda qo'shiqdan doston chiqadi. Faqat xalq unga o'zini muallif sanay oladi. Adabiyot – boshqa ish; endi xalq emas, balki xalq hayotining turli tomonlarini o'z aqliy faoliyatlarida aks ettiruvchi alohida shaxslar uning arbobi. Adabiyotda shaxs to'la xuquq bilan maydonga chiqadi va adabiy bosqich hamisha shaxslarning nomi bilan ajralib turadi».<sup>2</sup> Ko'rinayotirki, fol'klor asarlari qachonlardir noma'lum shaxs (indivud) tomonidan to'qilsa-da, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tish jarayonida jamoa (kollektiv) ijodkorligi namunasiga aylanadi; jamoa ijodiy salohiyatidan to'lishib, mukammallashib, g'oyaviy-badiiy kamolot kasb eta boradi.

Abdurauf Fitrat bu masalaga o'z munosabatini bildirar turib, og'zaki va yozma adabiyotlarning o'zaro tafovutli xususiyatlariga to'xtalarkan, «buning

---

<sup>2</sup> Belinskiy V.G. Poln. Sobr. Soch. V. 13-ы tomax, T. 5, M., 1954, s.-625

ayirmasi yozma bo'lmashligida, yo egasining ma'lum emasligini»ni ta'kidlab, «har bir doston, maqol, topishmoq, ashula, asosan, bir kishi tomonidan chiqoriladir-da, so'ngra umumiy lashib ketadir», - deya fol'klor asari ham individual ijoddan boshlanajagiga, so'ngra «umumiy lashib» jamoa ijodi mahsuliga aylanishiga ishora qiladi. SHu bilan birga u fol'klorning asl mohiyatini xalqona ruhga sug'orilganligida ko'radi. SHu ma'noda fol'klor betimsol og'zaki badiiy – ma'naviy boylik ijodkori bo'lgan xalqning o'zi haqidagi fandir.

Shuni aytish o'rinliki, fol'klor qadim zamonlarda jamoaning ommaviy ijodi sifatida hzaga kelgan edi. Ilk namunalariyoq hammabop va ommabop to'qilgan bo'lib, uning ijrosiga mo'ljallangan. O'sha zamonlarda shaxsiy ijodkor jamoadan hali to'la-to'kis ajralib chiqmagan edi. Ijtimoiy – siyosiy munosabatlarining takomillasha borishi, xalq estetik tafakkurining o'sishi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi jarayonida davrlar o'tishi bilan alohida ijrochilar – qo'shiqchilar, ertakchilar, baxshilar, qissasozu qissaxonlar, latifago'ylar (bazlago'ylar), hazzollar (hazilkashlar), qiziqchilar, xalfalar o'z mahoratlari bilan yarqirab ko'rina boshladilar. Ammo bu talantlar ham jamoa dahosi bilan to'qilib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan asarlarni kuylar, ijro etar va albatta, shu jarayonda o'zidan ham nimanidir qo'shib, individual mahoratlarini namoyon etar edi. Tilla kampir, Sulton kampir, Jolmon baxshi. Bo'ron shoir, Jumanbulbul, Jossoq, Xonimjon xalfa, Bibi shoira, Ernazar baxshi, Riza baxshi, Suyar baxshi, Amin baxshi, Yo'ldoshbulbul, Sultonmurod, Qurbonbek, Xidir shoir, Yo'ldosh shoir. Suyar shoir, SHerna hzboshi, Mulla Xolnazar, Haybat soqi, Qunduz soqi, Fozil Yo'ldosh o'g'li. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'ltan Jonmurod o'g'li, Islom Nazar o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li, Abdulla shoir, Umir Safar o'g'li, Nurmon Abduvov o'g'li. Xolyor Abdukarim o'g'li, Bola baxshi, Bolta baxshi, Qodir baxshi Rahim o'g'li va boshqalar o'z individual ijrochiliklari tufayli jamoa dahosi bilan yaratilgan asarlarni avloddan-avlodga etkazib keldilar. Ularning ba'zilari esa shu jamoa ijodkorligiga xos an'analarga mustahkam tayangan holda o'zlari ham ijod eta boshladilar, aniqrog'i, an'anaviy dostonlar kuychisi darajasida qolib ketmay, baxshilikdan shoirlik darajasigacha ko'tarildilar.

Fol'klor – og'zaki ijod. Og'zakilik – xalq ijodining yashash va yaratilish tarzi. CHunki u hali yozuv kashf qilinmagan uzoq o'tmishdagi ajdodlarimiz turish–turmushining, dunyoqarashi va e'tiqodining, kurashlardagi zafari va mag'lubiyatlarining ifodachisi sifatida hzaga kelgan. Fol'klor og'izdan-og'izga o'tib yashasa, badiiy adabiyot yozuv vositasida yashaydi. Fol'klor asari og'zaki aytiladi (ertak, maqol, topishmoq, rivoyat, afsona, latifa, naql va boshqalar), ijro etiladi (doston, og'zaki drama, lof, askiya va boshqalar), kuylanadi (qo'shiq). Badiiy adabiyot esa faqat o'qiladi, ijrosiga xos xususiyatlar esa fol'klordan ijodiy o'zlashtirilgan. Og'zakilik fol'klorning o'zgarmas shakli bo'lib, o'z navbatida,

xotirada saqlamoqni, yodlab eslamog'ni taqozo etadi. Buning uchun esa, kuchli hofiza zaruriyatga aylanadi. O'zbek baxshi va shoirlari orasida qirqdan ziyod an'anaviy dostonlarni, tag'in qanchadan – qancha termalarni bilgan, kuylagan, yana o'zi to'qiganlarning borligi shu an'anaviy ehtiyojning hosilasidir.

Fol'klor asari og'izdan-og'izga o'tishi tufayli shaklan va mazmunan qanaqa o'zgarishga uchramasin, bu hol uning g'oyaviy – badiiy, ijtimoiy-estetik qimmatini tushirmaydi. Chunki unda ijodkor xalqning voqelikka munosabati aks etgan. Fol'klor asarlarining og'izdan-og'izga o'tib, uzoq asrlar davomida yashab kelayotganining asosiy sababi shunda.

Davrlar o'tishi bilan ayrim fol'klor janrlari badiiy tizimida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, yangi dostonlarda, garchi an'anaviy dostonchilikka xos, epiklikka, tayyor qoliplarga, motivlarga suyanilsa-da, biroq bular endi an'anaviy dostonlardagidek g'ayritabiiylik asosida emas, balki hayotiy reallikka, ob'ektivlikka asoslangan holda ifodalanadigan bo'ldi. An'anaviy dostonlarning ideal qahramonlari g'ayritabiiy kuchlar madadkorligida harakat qilib g'alaba qozonsa, yangi dostonlarning qahramonlari real tarixiy shaxslar bo'lib, ular yangi voqelikka suyanib harakat qiladi va o'z maqsadiga erishadi. Bunday farqni an'anaviy dostonlar bilan yangi dostonlar konfliktini misolida ham ko'rish mumkin. Konflikt an'anaviy dostonlarda yakka shaxs manfaati taqozosi, yangi dostonlarda esa omma manfaatlari taqozosi hosilasidir. Binobarin, yangi dostonlar konfliktini hayotiy zaminga ega va uning echimi ham realdir.

Xalq ijodiyoti namunalari jonli ijro jarayonida xilma – xil variantlardagina yashaydi. Variantlik – fol'klorning jonli yashash tarzi. «Variantlik, - deb yozadi T.Mirzaev,- fol'klor tabiati, uning estetikasi, yaratilishi va jonli og'zaki ijroda yashash qonuniyatlari hamda funktsiyasidan kelib chiqqan xususiyatidir. U fol'klorning hamma tomonlari va elementlarini – shjeti, obrazliligi, stilistikasini, umuman, poetikasi va janr xususiyatlarini qamrab oluvchi belgisidir».<sup>3</sup> Binobarin, variant – ma'lum bir asarning jonli og'zaki epik an'ana zaminida vujudga kelgan, bir-birini inkor etmasdan yonma-yon yashay oladigan va o'zaro faqlanuvchi turli-tuman matnlari. Chunonchi, «Alpomish» dostonining yigirma sakkiz dostonchidan yozib olingan o'ttiz uchta to'liq, parcha va mazmunidan iborat variantlari mavjud.

Variantlar na mazmun, na shakl jihatlaridan farq qilmasligi mumkin. Lekin ularda qay bir ma'nosi yaqin so'z almashingan bo'lsa-da, motiv an'analogiga xalal etmaydi.

Anoring dona-dona,  
Ko'yingda men devona.

---

<sup>3</sup> Mirzaev T. Xalq baxshiladining epik repertuari. T.: «Fan», 1979, 71-b.

Ikkilikning bu varianti ikkinchi shaxsdagi «anoring» soʻzi keyingi variantda uchinchi shaxsdagi «anori» shaklini olgan, «koʻyingda» soʻzi «ishqida» soʻzi bilan almashingan: natijada birinchi ikkilikda qahramon lirik «sen»ga, ikkinchisida esa lirik «u»ga izhori ishq aylayotir. Motivdagi shu tafovutning oʻziyoq ularning har biriga mustaqil asar, aniqrogʻi, el orasida keng tarqalgan qoʻshiqning bir-biridan farqlanuvchi variantlari sifatida qarashga asos boʻla oladi:

Anori dona-dona,  
Ishqida men devona.

Xalq ijodiyotida variantlar bir – birlaridan, avvalo, asar matnining saqlanishi, yaʼni toʻlaligi, qisqarganligi, parcha holiga kelganligi yoki kontaminatsiya (lotincha: contaminatio – bir-biriga tegdirmoq, aralashtirmoq, qorishtirmoq)ga uchraganligi, soʻngra esa, badiiy shaklining oʻzgarib turishi, aytaylik, band yo bayt tarkibining oʻzgarib turishi, bir matnning goh u va goh boshqa bir janr tarkibida oʻrin almashtirishi natijasida farqlilik kasb etadilar. SHu sababli folʼklorda har bir variant toʻla va teng xuquqqa ega mustaqil asar sanaladi.

Variantlikning muhim xususiyati versiya ichida harakat qilishidir. Binobarin, versiya mohiyatan ancha keng hodisa boʻlib, “kompozitsion va gʻoyaviy-badiiy tasvir vositalari jihatidan bir-biridan printsiptial ravishda keskin farq qiluvchi xalq ogʻzaki poetik ijodining bir shjet va janrdagi namunalari (tekstlari)»<sup>4</sup> dan tashkil topgan. CHunonchi, «Alpomish» dostonining oʻzbek, qorakalpoq, qozoq va boshqa xalqlarga mansub versiyalri kabi. Gohida birgina doston birgina xalqning oʻzida ham ikki va undan ortiq versiyaga ega boʻlishi mumkin. Masalan, «Alpomish», «SHirin bilan SHakar» va «Sohibqiron» dostonlari oʻzbek xalqi orasida ikki versiyada tarqalgan.

SHunday qilib, variantlilik folʼklor asarlarining xalqchilligini hamda tarqalish chegarasini belgilaydi, folʼklorda kechayotgan oʻzgarishlarning sabablarini oʻrganish asosida xalq ijodiyotidagi jarayonlarga xos qonuniyatlarni ochish uchun boy material beradi.

Xalq badiiy tafakkuri hali ilk bosqichida dunyoni stixiyali materialistik tarzda anglashga, idrok etishga moyil va qodir edi. Bu hol oʻsha real hodisalarni ajabtovur moʻʼjizaviylik yoki sehrilik fonida tasavvur qilishga olib keldi. Natijada xalq badiiy tafakkurida reallik fantastikaga yoʻgʻrilab koʻrina boshladi. SHu tariqa folʼklorda shartlilik – fantastika va hayotiylik – reallik oʻzaro singishib, tipik holga aylanib bordi. Fantastika va romantika mehnat ahliga oʻz xayoli –oʻylarida yorqin kelajakni yaratish imkonini bergan: manzildan manzilga tezroq borish istagi – uchar gilam, gʻirot, boychibor, simurgʻlarni; dushmandan qasos olish istagi – urtoʻqmoq, bir sermaganda qirq gaz choʻziladigan keskir qilichni, ichi qovoqariga toʻla tarvuzni; jahon ayvonidagi voqealardan vofiq boʻlishi istagi – oynai

---

<sup>4</sup> Oʻsha asar, 75-b.

jahonnamoni; hayot ishq bilan yashash istagi-insonni yashartiruvchi yoki har qanday xastaliklardan xalos etuvchi obi hayot, sehrli olma va hokazolarni yaratganki, kishilik jamiyatining hozirgi bosqichida qachonlardir sehrlik timsoli bo'lgan bu obrazlar tezuchar samolyotlar, tezhrar avtomobillar, avtomat, minomyot, kathshalar, televizor va hayotbaxsh dorilar tarzida reallashdi.

Fol'klordagi bir qator janrlarda, jumladan, maishiy –hayotiy ertaklarda, tarixiy va lirik qo'shiqlarda voqelik ham, qahramon ham real ifodalanadi. Bu, shubhasiz, xalq oniginig mifologik tasavvurlardan qutula borib, o'z – o'zini anglashi ancha chuqurlashgan, oilaviy va ijtimoiy turmush tarzidagi o'zgarishlarni teranroq idrok eta borishi tufayli nisbatan keyinroq sodir bo'lgan hodisadir.

Fol'klor haqidagi fan – **fol'klorshunoslik (fol'kloristika)** bo'lib, sotsiologiya, etnografiya, til, tarix, arxeologiya, san'atshunoslik, musiqashunoslik va boshqa fanlar bilan aloqadorlikda ish ko'radi. CHunki fol'klor sinkretik so'z san'ati sifatida san'atning barcha turlari bilan chambarchas bog'langan.

Fol'klorshunoslik fani uch tarmoqdan tarkib topgan holda shakllangan: a) xalq ijodiyoti namunalarini to'plash; b) xalq og'zaki ijodiyoti bo'yicha to'plangan namunalarni nashr etish; v) xalq og'zaki badiiy ijodini tadqiq qilish.

Fol'klor asarlari xalq urf-odatlarini, rasm-rusumlarini chuqur aks ettiradi. Bu jihatdan, ayniqsa, marosim fol'klori namunalari alohida ajralib turadi. Ana shu jarayonlarni tadqiq etishda fol'klorshunos etnografiyaga tayanadi. Aks holda uning tadqiqoti bir yoqlama bo'lib qoladi.

Bu holdan ko'rinadiki, ilmiy jamoatchilik tomonidan fol'klor maktabi rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin.

#### **ZARURIY ADABIYOTLAR:**

1. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi (X.Razzoqov, T.Mirzaev, O.Sobirov, K.Imomov). Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti, 1980 yil.
2. H.Zaripov. Fozillar fazilati. 1969 yil.
3. SH.Xolmatov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –S.: SamDU, 1980.
4. O'zbek adabiyot tarixi. 5 tomlik 1 tom. eng qadimgi davrlardan XV asrning II yarmigacha. –T.: Fan, 1978, 328 b.
5. B.Sarimsoqov. O'zbek adabiyotida saj'. Toshkent, 1978 yil.
6. Safarov O., Jo'rayev M., Tursunqulov A. Folklor praktikasi. Buxoro, 19
7. E.Musurmonov. O'zbek fol'klori materiallarini to'plashga oid metodik tavsiyalar. –S.: SamDU, 2005.
8. Jumanazarov U. Xalq og'zaki ijodi asarlarini tanlash, yozib olish va folklor praktikasini o'tkazish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar. Toshkent, 1988.
9. Folklor praktikasidan metodik tavsiyalar. Tuzuvchilar: UmurovH., Ochilov T., Azimov A., Xoliqulov J. Samarqand, 1981.

## **2-MAVZU: Xalq og'zaki ijodi janrlari tasnifi va tavsifi: Qadimgi miflar, afsona va rivoyatlar.**

### **REJA:**

1. Ibtidoiy tasavvurlar – anemizm va totemizm haqida ma'lumot.
2. Qadimgi afsonalar. Avesto va undagi qahramonlarning badiiy tasnifi.
3. Kayumars va Jamshid haqidagi afsona.
4. Qadimgi qahramonlik dostonlari (To'maris, SHiroq va Rustam haqidagi afsonalar).

**Tayanch iboralar:** Anemistik, totemistik qarashlar, «Avesto» zardo'shtiylarning muqaddas kitobi. Afsonalar, qahramonlik dostonlari.

**Darsning maqsadi:** Talabalarga Afsona, asotir, rivoyat qadimgi davr xalq og'zaki ijodi haqida atroflicha ma'lumot berish.

**Darsning vositalari:** Ko'rgazmali o'quv qurollari, qadimiy afsona va rivoyatlarga ishlangan rasmlar (SHiroq, To'maris, Rustam).

**Darsning metodi:** Blits so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

**Darsning mazmuni:** So'z san'atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshladi. Uning tashkil topishida o'sha davr shart-sharoiti, odamlarning mehnat va turmush tajribalari, dunyoqarash va tushunchalari hal qiluvchi rol o'ynagan. eng avval og'zaki nasriy turning dastlabki namunalari vujudga kelgan. Ular nihoyatda sodda bo'lib, turli xildagi undov-xitoblar va voqealar bayonidan iborat bo'lgan. Mehnat jarayoni hamda ongning rivojlanishi voqea va hodisalar talqinida oddiy bayondan obrazli tasvirlashga olib keldi. Sodda va takroriy jumlar badiiy til vositalari bilan boyiy boshlagan. Oddiy so'z o'rnini ko'chma ma'noli so'z, sifatlash, mubolag'a va o'xshatishning ilk namunalari egallay borgan. SHunday qilib, dunyoni badiiy va estetik did bilan fahmlay olish, badiiy so'z tajribalarining taraqqiyoti fol'klorning dastlabki janrlarini yuzaga keltirdi. eng avval kichik-kichik naql va miflar, mehnatni engillashtiruvchi, ruhan tetik qiluvchi, xayol og'ushiga olib kiruvchi ertak va afsonalar yaratildi, mehnat jarayonini ifodalovchi qo'shiqlarning namunalari paydo bo'ldi.

Demak, eng qadimgi fol'klor namunalari yozuv yuzaga kelmasdan ancha oldin paydo bo'lgan va yozma adabiyotning tashkil topishiga muhim hissa qo'shgan. Qadimiy fol'klor namunalari asl holida, to'la ravishda bizgacha etib kelmagan. U og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib ijodiy ishlangan. Har bir material turli xil ijtimoiy qatlamlar ta'sirida o'zgarib, shakl va mazmunida yangi-yangi ma'lumotlar yuzaga kelgan.

**Ibtidoiy tasavvurlar – animizm va totemizm.** Turkiy xalqlar fol'klori bilan urf-odatlarida izlari saqlanib qolgan animistik va totemistik qarashlar qadimiy tasavvurlar sistemasini tashkil etadi. Ma'lumki, ibtidoiy inson o'ziga noma'lum bo'lib ko'ringan tabiat kuchlaridan talvasaga tushar ekan, ayni paytda ularni engishga harakat qilgan. Buning uddasidan chiqa olmay, ilajsiz qolish tabiatga sig'inish, notabiiy ko'ringan hodisalarga topinish, ularni madaniyat darajasiga ko'tarishga olib kelgan. Bu hol tabiat va jamiyat hodisalariga qarashda g'ayri ilmiy (ibtidoiy inson nazarida haqiqiy) animistik va totemistik tasavvurlarni tug'dirgan.

Ibtidoiy odam tabiat haqidagi tasavvurida o'zini tabiat kuchlari va hodisalari bilan aynan bir narsa deb hisoblaydi, jonsiz narsalarga jonli deb qaraydi. Bu xildagi ibtidoiy tushunchalar kompleksi animizm nomini olgan. Uning yorqin namunasi ertaklarning qadimiy motivlarida o'z ifodasini topgan. «Oq bilakxon» ertagida yigitning toshga aylanib qolishi, «Ochil, ochil, qamishlar»da qizning qamish orasiga kirib ketishi, «YOriltosh»da toshning yorilish mo'jizasi, qizni bag'riga olib yana yopilishi, «YAlmog'iz kampir» ertagida odamlarning toshga aylanib yotishi, «Qilich botir»da esa qahramonning joni qilichida ekanligi kabilar ana shu animistik tushunchalar natijasidir.

«YOril, yoril, toshlar-ay», «Ochil, ochil, qamishlar», «Sangil sopol tosh, sen menga yo'ldosh», «Sim-sim, och eshigingni» kabi iltijo qilib yolvorishlar o'sha narsada jon bor degan tushunchaning obrazli ifodasidir. YAqin kunlargacha to'y va boshqa marosimlarda gulxan yoqish, uning atrofida aylanish, quyosh, oy tutilganda qozon, chelak, jom kabilarni chalish hollari mavjud ediki, bu, o'sha yo'qolib borayotgan qadimiy tasavvurlarning izlaridir.

Totemizm odamning ko'pincha bir hayvon yoki o'simlik, ba'zan jonsiz narsa yoki tabiat hodisalari bilan aloqasi borligi haqidagi ishonch-e'tiqoddan kelib chiqqan. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek urug'larining ota-bobolari quyosh, suv, olovga topinganlar, keyinchalik esa ot, ho'kiz, ilon, bo'ri, it va boshqa hayvonlarga e'tiqod qo'yganlar. Bo'rini balo, ofatlardan saqlovchi, himoya qiluvchi kuch, urug' kabilarning ajdodlari deb bilganlar. SHu tariqa totemlar yuzaga kelgan. Totem – u yoki bu urug'ning e'tiqod qo'ygan himoyachisidir. Totemlar bilan bog'liq bo'lgan bir qancha afsonalar ham mavjudki, ularda ko'proq ot va bo'ri madaniyati hikoya qilingan.

Bo'ri qadimgi o'zbek urug'lari orasida totem hisoblangan. Qadimiy manbalarda keltirilgan turk afsonalarida bo'ri turk urug'ining ajdodi sifatida namoyon bo'ladi. Afsonada tasvirlanishicha, qadimgi turklar ona bo'ridan va dushman tomonidan qirilgan urug' ichida tirik qolgan o'n yoshli o'g'il boladan tarqalgan. Bu bolani ona bo'ri qo'l-oyoqlari qir qilgan holda topib olgan va uni go'sht berib boqqan. SHundan so'ng tog'larning biriga kirib ketgan va u erda o'nta

bola tuqqan. Ularning har biri turk urug'larining asoschilari bo'lgan. Hatto Ashina ismli turk urug'larining birida bo'ri kallasini tasvirlangan bayroq ham bo'lgan. Ibtidoiy kishilar og'ir va ayanchli turmushni yaxshilashga intilganda ham bo'riga yolvorgan va sig'ingan.

Bo'ri bilan bog'liq bo'lgan e'tiqod yangi tug'ilgan bolani salomat saqlash, yaxshi hayot kechirish, qo'y va qoramol podalarini ehtiyotlash, dehqonchilik ekinlarini yovuz kuch ta'siridan saqlab qolishdan iborat bo'lgan. Bo'ri totemiga aloqador ba'zi ertak («Cho'loq bo'ri», «Bo'ri qiz», «Bo'ri») va afsonalar hozirgi kunga qadar xalq orasida yashab kelgan.

Ot madaniyati qadimgi kishilarning turmush-tirikchiligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, otlarni ish hayvoni sifatida xo'jalikda foydalanish, xonakilashtirish davomida yuzaga kelgan. Arxeologiya qazilmalarida aniqlangan yarmi ot, yarmi odam sifat ishlangan rasmlar, hali-haligacha ekin maydonlari, polizlarda otning kala suyagining qo'riqchi sifatida qo'yilishi va boshqalar ibtidoiy inson ongida mavjud bo'lgan ot madaniyati haqidagi e'tiqodning timsoli hisoblanadi. Qadimgi Baktriyadagi Zariaspa, Xorazmdagi Hazoraspa singari geografik joy nomlari aslida ot madaniyatiga aloqador bo'lgan urug' nomlari bilan bog'lanadi. O'zbek xalq dostonlarida G'irotda, Boychibor, Jiyronqush, Majnun ko'k kabi epik ot obrazlarining g'oyat katta o'rin tutishi ham bejiz emas. Demak, tabiat va hayot haqida yuzaga kelgan ibtidoiy tushuncha va e'tiqodlar animistik va totemistik qarashlarni vujudga keltirdi. Bu qarashlar o'z navbatida ilk bor to'qilgan ertak va afsonalarning motiv va syujetlarini tashkil etdi.

Afsona – o'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimgi, an'anaviy va keng tarqalgan janrlaridan biri. Hayotiy voqelikni xayoliy uydirmalar orqali bayon etadigan, biror ma'lumot haqida tinglovchiga xabar berish maqsadida hikoya qilinadigan og'zaki nasriy asarlar **afsona deyiladi**.

Afsona professional ijrochilikka asoslanmaydi. Uni bilgan kishi o'zi istagan shaklda aytaveradi. Demak, afsona keng ommaviy ijro etiluvchi janrdir. Afsona sof axborot beruvchilik vazifasini bajaradi. U ko'pincha biror –bir voqea- hodisaga kishilarni ishonitirish maqsadida aytiladi. SHuning uchun ko'pchilik afsonada bayon qilingan voqelikni haqiqat sifatida qabul qiladi. Aristotel afsonalarni «Haqiqatdan xabar beruvchi yolg'on hikoyalardir» deb ko'rsatadi.

Mifologik afsonalarda, asosan, er va osmon xudolari, homiy kuchlar, pirlar, avliyolarning g'ayritabiiy ishlari, insonlarga ko'magi, mifologik pahlavonlar, er hzida odamning paydo bo'lishi haqida hikoya qilinadi. Ularning epizodlarida islomga qadar amal qilgan qadimgi dinlarga aloqador talqinlar uchraydi. Ibtidoiy insonlarning dunyoqarashi, tasavvur-tushunchalari, diniy e'tiqodlari namoyon bo'ladi.



Geneologik afsonalarda urug`-qabila, xalq va elatlarning kelib chiqishi va nomlanishi haqida hikoya qilinadi: «Laqay», «Do`rmon», «Qirg`iz» urug`larining kelib chiqishi haqidagi afsonalar shular jumlasiga kiradi.

Tarixiy voqea va tarixiy shaxslar haqidagi afsonalarlarda o`tmishda yashab o`tgan donno kishilarning sarguzashtlari, mo`jizakor ishlari, ajdodlarimizning bunyodkorlik faoliyati, shahar va qo`rg`onlarning barpo etilishi haqida hikoya qilinadi. Bunga Buxoro Arki, Xiva qal`asi, Minorai Kalon qurilishi haqidagi afsonalar misol bo`la oladi.

Kasb-hunarlar haqidagi afsonalarda u yoki bu kasb-hunarning kelib chiqishi, ularning piri haqida hikoya qilinadi. Aytaylik, bo`yoqchilik kasbining kelib chiqishi Hazrati Ayhb, temirchilik kasbining kelib chiqishi Dovud payg`ambar nomi bilan bog`lab talqin qilingan afsonalar shu siraga kiradi.

Kichik hajmli, mazmunan sodda bayon va hikoyalar shaklida tashkil topgan afsonalar o`zbek xalq og`zaki ijodining eng qadimgi namunalaridan hisoblanadi. Afsonalar ijtimoiy hayot bilan bog`liq bo`lgan voqea va hodisalarni xayoliy shaklda hikoya qiladi. Ular insoniyatning tabiat va jamiyat haqida bilish va tushunishga bo`lgan intilishi jarayonida vujudga kelgan. SHuning uchun ham afsonalar ijtimoiy hayot va madaniyat, dunyoqarash va ruhiy kechinmalar, urf-odat va tarixiy hodisalardan darak beradi.

Afsona forsha so`z bo`lib, fantastika, sehr-jodu hamda hayotiy uydirmalar asos bo`lgan nasriy hikoyalar demakdir. Bu xildagi hikoyalar Mahmud Koshg`ariyning «Devonu lug`otit turk» asarida *caw* so`zi orqali ifodalangan bo`lib, juda keng ma`noni bildiradi. Bu so`z devonda hikoya hamda qissa deb izohlangan.

Afsonalarni tematik jihatdan uch xil turga bo`lib o`rganish maqsadga muvofiq. Birinchisi – xayoliy voqea va xayoliy qahramonlar haqida hikoya qiluvchi afsonalar, ikkinchisi – tarixiy voqea va tarixiy shaxslar haqida hikoya qiluvchi afsonalar, uchinchisi jangnoma tipidagi afsonalar yoki qahramonlik afsonalari.

Xayoliy voqea va xayoliy qahramonlar haqida hikoya qiluvchi afsonalar ibtidoiy dunyoqarash, u yoki bu kuchni muqaddas bilib, unga sig`inish, e`tiqod qo`yish hamda sevgi-sadoqat kabi kechinmalar ta`sirida paydo bo`lgan «Devqal`a», «SHirin qiz», «Kalta minor», «Ilon buzgan» singari to`qima afsonalar mazkur turkumga oiddir. Bu afsonalar O`rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Ular insonlarning beqiyos kuchi va go`zalligini madh etadi. Bu afsonalar fantastik uydirmalar zaminida naql etilgan bo`lib, syujeti ko`proq xayoliy epizodlardan tashkil topadi va ma`lum bir tarixiy joylar, tepaliklar, qal`alar bilan bog`liq ravishda hikoya qilinadi. Qoraqum sahrosida «YOrbakir», «SHirvon», «SHmaxa», «Xalaf» nomi bilan mashhur bo`lgan qal`alarning xarobalari mavjud bo`lib, ular

«SHohsanam va G'arib» afsonasi, «Devqal'a» esa, SHarqda mashhur bo'lgan «Farhod va SHirin» afsonasi bilan bog'lanadi.

Rivoyatlar – voqelikni hayotiy uydirmalar asosida aks ettiruvchi, shjet tizimida mifologik obrazlar uchramaydigan, voqelik talqini hududiy –etnografik lokallik kasb etishi bilan xarakterlanadigan, qadimiy asoslarga ega bo'lgan, xalq orasida keng ommalashgan fol'klor janridir. Ularda hayot voqeligi real aks ettiriladi. SHuning uchun o'zbek xalq og'zaki ijodining qadimiy, an'anaviy va keng tarqalgan janrlaridan biri bo'lgan va hayotiy voqelikni hayotiy uydirmalar orqali bayon etadigan, biror ma'lumot haqida tinglovchiga xabar berish maqsadida hikoya qilinadigan og'zaki nasriy asarlar **rivoyat deyiladi**.

Rivoyatlar g'oyaviy-mavzuiy jihatdan rang–barang bo'lib, toponimik va tarixiy rivoyat kabi turlarga ajratiladi.

Toponimik rivoyatlar yana aholi yashaydigan joylar nomining kelib chiqish sabablarini izohlovchi oykonomik rivoyatlar; suv havzalari - daryo, ko'l, quduq, soy, chashma, ariq nomining kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan gidronomik rivoyatlar; tog'u toshlar, tepaliklar, g'orlar, cho'llar to'g'risidagi oronomik rivoyatlar; mozor, qabirston nomlari, ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolarining nomi bilan bog'liq nekronomik rivoyatlar kabi ichki turkumlarga bo'linadi.

Toponimik rivoyatlarda muayyan jug'rofiy atamaning paydo bo'lishi aniq faktlar va etnofol'kloriy detallar bilan tushuntiriladi, joy nomining vujudga kelish sababi izohlanadi.

Tarixiy rivoyatlarda haqiqatda hayotda bo'lib o'tgan voqealar, yashab o'tgan shaxslar to'g'risida so'z hritiladi. Atoqli va mashhur shaxslarning hayoti va faoliyatini hikoya qilish orqali axloq va odobning ideal normalari tashviq etiladi. Jumladan, To'maris, SHiroq kabi vatanparvarlar, Ibn Sino kabi buhk tabib, Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi olim va shoirlar, Mashrab singari ilohiy ishq yo'liga kirgan oshiq, Amir Temur kabi jasoratli va dono hukmdor, Imom Ismoil Buxoriy, xoja Ahmad YAssaviy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Xoja Ahrori Valiy singari din va tasavvuf arboblari haqida qator rivoyatlar yaratilganki, ularni xalq hamisha sevib tinglaydi.

Rivoyat hayotiy voqealarni badiiy uydirmalar vositasida hikoya qiluvchi, realistik xarakterdagi og'zaki ijod turlaridan bo'lib, g'oyaviy-tematik jihatdan rang-barangdir. Rivoyatlar tarixiy voqealar va ayrim shaxslar bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni, ijtimoiy hayot va turmush, geografik joylar – sahro, ko'l, cho'l, dengiz, shahar, qishloq, qal'a, Saroy va boshqalarning barpo bo'lishi hamda vayron qilinishi haqida hikoya qilishi mumkin. Mazkur hikoyalar u yoki bu voqelik haqida xabar berish va uni tasdiqlash funksiyasini bajaradi. Rivoyatlarda lutf va nazokat, aql va tadbir, ishq va vafo, yaxshilik va odamiylik kabi ilg'or g'oyalar jamiyatda uchragan zulm va zo'rlik, haqsizlik va adovat singari illatlarga

qarshi qo'yiladi. Rivoyatlarni ikki turkumga bo'lish mumkin. Biri muayyan voqea va tarixiy shaxslar bilan bog'liq bo'lgan rivoyatlar, ikkinchisi toponimik rivoyatlar. Tarixiy rivoyatlar biror shaxs faoliyati va xalq qahramonlari bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni hikoya qiladi, axloq va odobning ideal normalarini tashviq etib, muayyan faktlar haqida axborot beradi. Alisher Navoiy, Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniy, Mashrab kabi olim va shoirlar, Amir Temur, Sulton Mahmud singari tarixiy shaxslar haqida yaratilgan rivoyatlar shular jumlasidandir.

**Qadimgi miflar.** Porloq kelajakni orzu qilib, unga umid ko'zi bilan boqqan uzoq o'tmishdagi avlod-ajdodlarimiz kishilarning qudratli rivojini oldindan sezib, ularning qobiliyatini ideallashtirgan mifologik obrazlarni yaratgan. Ana shu mifologik obrazlarning ilk bor namunalari ko'hna mif, afsonalarda naql etildi. Qadimgi davr fol'klor namunalari ichida mifologik tasavvurlar asosida yaratilgan afsonalar va miflar alohida o'rin tutadi.

Mif grekcha so'z bo'lib, xudolar va pahlavonlar haqidagi to'qima afsonadir. Mifologiya ibtidoiy insonning tabiatni bilishga intilishining natijasi hisoblanadi. Darhaqiqat, insonning tabiatga qarshi kurashdagi ojizligi uni noma'lum ko'ringan hodisalarga javob topishga, qandaydir tushuncha va tasavvurlar yaratishga majbur etgan. Bo'ron, zilzila, suv toshqini, sel kabi g'ayri tabiiy ko'ringan kuchlar dahshatidan talvasaga tushgan inson yovuz kuchlarga qarshi kurasha oluvchi homiy izlagan. Nihoyat, yaxshilik va yomonlik haqidagi mifologik tasavvurlar paydo bo'lgan.

Olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlar ana shu tarzda yuzaga kelgan bo'lib, u o'z navbatida osmon, oy, quyosh hamda turli xil hayvonlar haqidagi xudolarni, g'ayri tabiiy tasvirlangan pahlavonlar haqidagi miflarni hosil qildi. Mazkur miflar kishilarga ruhiy kuch, tetiklik va osoyishtalik baxsh etgan, nihoyat, insoniyatni g'alabaga chorlagan. Qadimgi ertaklar, afsona, miflarning asosiy g'oyasi qadimgi davrlardagi mehnat kishilarining yukini engillashtirishga, ishning unumini oshirishlariga, to'rt oyoqli va ikki oyoqli dushmanlarga qarshi qurollanishlariga hamda so'z kuchi – «avrash», «afsun» yo'li bilan tabiatning kishilarga xatarli bo'lgan hodisalariga ta'sir etishlariga qaratilgan. Ko'rinadiki, mif zo'r kuch va qudrat, osoyishta yashash hamda yovuz kuch ustidan g'alaba qila olish haqidagi orzu-umidning yakunidir.

«Avesto» da ikki yaratuvchi kuch – yaxshilik va yomonlik Axuramazda va Axriman qiyofasida namoyon bo'ladi. Mazkur kitob g'oyasiga ko'ra, tabiat va jamiyatdagi hodisalarning barchasi yaratuvchining o'zaro kurashidan kelib chiqqan.

Axuramazda yaxshilik, yorug'lik, obodonlik va ezgu kuchlarning xudosidir. Unga qarashli narsalar inson turmushini yaxshilashga va xizmat qilishga

qaratilgan. U o'z yordamchilari orqali olov, chorva, metall, er-suv va o'simliklar dunyosini boshqaradi.

Angra Man'yu (Axriman) barcha yovuzlik va yomonlikni boshqaradi. U Axuramazdaga qarshi chiqadi va o'ziga qarashli devlar yordamida odamlarga azob-uqubat, mashaqqat, kulfat keltiradi. Axriman zo'r kuch va qudratga ega bo'lsa-da, biroq Axuramazda kabi har narsaga qodir va qobil emas, shu sababli yomonlik kuchlari yaxshilik oldida doimo mag'lubiyatga uchraydi. YOrug'lik manbai quyosh deb ko'rsatiladi. Quyosh nuri insonga hayot bag'ishlaydi. Olov esa quyoshning bir parchasidir. SHuning uchun ham inson olovni muqaddas hisoblab, otashkadalarda saqlar edi. Bunday otashkadalar Xorazmda, Jonbos qal'ada topilgan. Demak, o'zbeklar orasida quyoshga – olovga e'tiqod qo'yib, unga topinish juda qadimdan davom etib kelgan. Mitra – quyosh va yorug'lik xudosi, Noxit – obodonlik va farovonlik xudosi, Humo – baxt, tole va davlat xudosi, Anaxita va Xubbi (Farg'onada er Xubbi) – suv xudosi, Mirrix – urush va g'alaba xudosi, yaxshilik va ezgulik esa Kayumars, Yima (Jamshid), Gershasp kabi mifologik obrazlarda mujassamlashgan. Yomonlik kuchlari esa ajdar, dev, jin kabi salbiy miflar orqali tasvirlangan. Ko'ramizki, ilk bor yuzaga kelgan badiiy obrazlar ibtidoiy inson orzularining naqadar hayotiy ekanligidan dalolat beradi. Bu diniy personajlarning har biri «Avesto»ga kirmasdan oldin ham madadkor ruh yoki yovuz kuch sifatida xalq o'rtasida mavjud bo'lgan.

**Ardvisura Anaxita haqida mif.** «Avesto»da Anaxita zabardast, xushqomat, kamarini baland bog'lagan, to'g'ri so'z, marhamatli go'zal qiz sifatida namoyon bo'ladi. U kishilarga kuch-qudrat baxsh etuvchi, suvning mo'l bo'lishini ta'minlovchi ma'buda. Xudo ibtidoiy kishilar tasavvurida mavhum tushuncha, xayoliy mavjudot emas, balki u yoki bu mehnat quroli bilan qurollangan real siymo edi.

«Avesto»da shuhrat topgan qahramonlarning yovuzlik timsoliga (Aji Dahok, dev va sehrgarlar) qarshi qo'yilgan qismlar bor. Ularda tasvirlanishicha, yovuzlikka qarshi chiqqan pahlavon jang oldidan g'alaba qozonishni so'rab, muqaddas homiyga sig'inadi, iltijo qiladi: «O, marhamatli, zabardast Ardvisura Anaxita, menga madad ber, uch og'iz va uch boshli, olti ko'z va ming xil kuchlar sultoni, bahaybat Aji Dahok ustidan g'olib chiqay». SHunday ekan, bu motiv ertak va dostonlardagi qahramonlarning ajdar bilan jang qilish epizodini eslatadi. Demak, ana shu jang motivi mazkur kitob yaratilmasdan burun ham xalq og'zida mavjud bo'lgan. Kitob avtori Zaratushtra ana shu motiv shuhratidan foydalangan va uni o'z g'oyasi uchun xizmat qildirgan. Anaxita, asosan suv va hosildorlik ma'budasi bo'lgan. Anbarona esa Anaxitaning keyingi variantidir.

**Kayumars va Jamshid haqida miflar.** Kayumars haqida mif qadimgi O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Uning turli xil variantlarini qadimiy yozma

manbalardan «Avesto», «Tarixi Tabariy» hamda Abu Rayhon Beruniyning «O'tmish asrlardan qolgan yodgorliklar» nomli kitobida, Firdavsiyning «SHohnoma» asarida ko'rish mumkin. Kayumars «Avesto»da, asosan Gaya Maretan, ba'zi o'rinda esa Gaya Martan deb yuritildi. «G'iyosul lug'at»da esa Kayumars Gavomard deb ko'rsatiladi. Arxeolog S.P.Tolstovning fikricha, Gavomardning ma'nosi inson-buqa. U Amudaryo bo'yida yashagan. Bo'yi daryoning u beti bilan bu betiga etgan. Gavomard – Kayumars Xorazmda yashagan.

Ushbu mifning Beruniy asaridagi bayoniga ko'ra, Axrimanning yomon qilmishlaridan xudo hayratda qoladi. Uning peshanasidan ter chiqadi. Terni artib tashlaganda, ter donasidan Kayumars tug'iladi. Xudo Kayumarsni Axriman yoniga jo'natadi. Kayumars Axriman yoniga etib kelib, uning elkasiga minib oladi vash u holda dunyoni aylana boshlaydi. Nihoyat, Axriman bir hiyla bilan Kayumarsni elkasidan uloqtirib tashlaydi va uning ustiga minib olib eyajagini aytadi. Seni qaysi tomoningdan eyay, deb so'raydi Axriman. Oyoq tomonimdan, deb javob beradi Kayumars, toki dunyo go'zalligidan uzoqroq bahra olib turayin. Ammo Kayumars Axrimanning u aytgan gapning teskarisini qilishini bilar edi. Axriman Kayumarsni boshi tomonidan eya boshlaydi. Beliga etganda Kayumarsning urug'donidan ikki dona erga tushadi. Ulardan o'simlik o'sib chiqadi. O'sha o'simliklardan bir o'g'il, bir qiz (Meshi va Meshona) paydo bo'ladi.

Mifda Kayumars erda paydo bo'lgan birinchi odam sifatida ta'riflangan. Kayumars yaxshilik va ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi haqidagi ibtidoiy ishonchning obrazli ifodasidir.

Mifning qisqacha mazmuni quyidagicha: O'tgan zamonda Nuh payg'ambar bo'yi bulutga etadigan bir duradgor ustani chaqirib, kema yasab berishni so'rabdi. Bu odamning nomi Odami Od ekan. U nihoyatda baland bo'yli, kuchli bo'lib, daryo va dengizda baliqni ushlab, quyosh issig'iga tutib pishirib, eb keta berar ekan. Odami Od Nuh payg'ambarni elkasiga mindirib toqqa olib chiqibdi. Qaerda baland daraxt bo'lsa, kema uchun kesmoqchi bo'libdi. Tog'da to'rtta katta chinor bor ekan. U chinorlarni tomir-pomiri bilan sug'urib olib, o'z elkasiga ortib, ustiga Nuh payg'ambarni o'tqazib, dengiz bo'yiga ravona bo'libdi. Odami Odning qorni hech ovqatga to'ymas ekan. Nonushtasiga bir hovuz suvga non to'g'rab er ekan. Odami Od kemani bitiribdi. Hamma odamlarni kemaga solib, dengizga tushib, o'zi kemani torta ketipti.

Hikoyada Odami Od odamlar ajdodi birinchi odam sifatida namoyon bo'lgan. Mazkur naqla qadimgi inson dunyoqarashi o'z ifodasini topgan. Od so'zi tojik va fors tilida ulkan odam ma'nosini bildiradi. Binobarin, mifologik obraz qadimiy urug'lardan birining himoyachisi, homiysi bo'lgan bo'lishi kerak. Od

naqlda umumxalq manfaatini ko'zlab ish tutadi. Nihoyatda ulkan va g'ayri tabiiy kuchga ega.

Demak, mazkur mif didaktik mazmun kasb etgan. Umuman olganda, mif, afsona, asotir, rivoyat va boshqa qadimgi asarlarda insoniyatni yaxshilikka etaklash, ezgulik asosida tarbiyalash bosh mavzu qilib tanlanganligini ko'ramiz. Bir so'z bilan aytganda, bu janrlar tom ma'nodagi didaktik masalalarni qamrab olgan va asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan. Hozir ham bu noyob asarlar o'z qimmatini yo'qotgan emas. Bu manbalar yozma adabiyotga ham katta xizmat qilib kelmoqda.

### **ZARURIY ADABIYOTLAR:**

1. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi (X.Razzoqov, T.Mirzaev, O.Sobirov, K.Imomov). Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti, 1980 yil.
2. SH. Xolmatov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. SamDU, 1980 yil.
3. N.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti, 1976 yil.
4. A.Abdurahmonov. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2004 yil.
5. O'zbekiston xalqlar tarixi. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1992 yil.
6. U.Jumanazarov. Tarix haqiqati va xalq ijodi badiiyati (ilmiy risola). Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2007 yil.

### **3-MAVZU: Kichik janrlar: maqol, matal va topishmoq, olqishlar va qarg'ishlar janrlar poetikasi.**

#### **REJA:**

1. Maqol – mantiqiy mushohada namunasi va dono gap donishmandlik mahsulidir.
2. Topishmoq, jumboq, matal, cho'pchak deb nomlanuvchi janrdir.
3. Maqol, topishmoq, lof janrlarining mavzu doirasi va badiiy talqini.
4. Olqishlar va qarg'ishlar janrlar poetikasi.

**Tayanch iboralar:** Xalq og'zaki ijodi fanida muhim o'rin tutgan kichik janrlar haqida ma'lumot.

**Darsning maqsadi:** Maqol, topishmoq, lof janrlarining xalq og'zaki ijodida tutgan o'rni, ularning tili va badiiy xususiyatlarini yoritib berish.

**Darsning vositalari:** Ko'rgazmali o'quv qurollari, fol'klorshunos olimlarning kichik janrlarga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

**Darsning metodi:** Blits so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

**Darsning mazmuni:** So'z san'atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshladi. Maqol – mantiqiy mushohada namunasi, odob va axloq qoidalarini jamuljam etgan dono gap. Ular qadimdan xalq donishmandligi, aql-idroki, fikr-o'ylarining ifodasi sifatida yashab kelganlar; sinalgan, turmush tasdiqidan o'tgan tushunchalarni ifodalab, unga qanot baxsh etganlar. Maqollar ta'lim-tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega. U kishilarni ogohlantiradi («*Birovga kulma zinhor, senga ham kulguvchilar bor*»), maslahat beradi («*Yo'l bilmasang yo'l so'ragin yurgandan, gap bilmasang gap so'ragin bilgandan*»), tanbeh berib, tanqid qiladi («*CHolni ko'rib buvam dema*»), mehnatni ulug'laydi («*Ishlaganning og'zi oshga tegar, ishlamaganning boshi toshga tegar*»), hajviy kulgi ostiga olib, fosh etadi («*Ishtonsiz tizzasi yirtiqqa kular*») va boshqalar. Ko'ramizki, maqollarda chuqur mazmun, mehnatkash ommaning donoligi, milliy an'ana, uzoq asrlik hayot tajribalari, tabiat va jamiyat hodisalari haqida fikri, bahosi, mehnat yakunlari mujassamlashgan. SHuning uchun ham maqollar uzoq umrli bo'ladi. Maqollarda har bir tarixiy davr, ijtimoiy-siyosiy voqealar ma'lum darajada o'z izini qoldiradi. SHuningdek, yangi-yangi maqollar yaratilib, so'z san'ati xazinasini boyiyveradi.

Maqollar ko'p jihatdan matallarga o'xshasa ham, ularning har qaysisi o'ziga xos xususiyatga ega. «*Temirni qizig'ida bos*», «*YOvni ayagan yara er, kaltagini sara er*», «*Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar*», «*Er yigitga ikki nomus – bir o'lim*» kabilar tom ma'noli maqollar bo'lib, ularning mazmunida tugal fikr, umumiy xulosa bor. «*Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi*», «*Tosh qattiqmi, bosh*», «*Ko'rgan bilan eshitgan bir emas*», «*Ayozxon, haddingni bil*» kabilar esa matallar hisoblanadi. CHunki ularning mazmunidan umumiy xulosa, tugal fikr anglashilmaydi, balki xususiy belgining o'zigina ifodalangan.

Darhaqiqat, «*Temirni qizig'ida bos*» maqolida faktlar jamlanib, tugal fikr, umumlashma ma'no kelib chiqqan. Nasihat, o'git hamma ishni o'z vaqtida bajarishga qaratilgan bo'lib, ma'no nihoyatda keng. «*Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi*» matalida esa, tugal, umumlashma ma'no yo'q, xulosa ko'rinmaydi, faqat xususiy ma'no ifodalangan, xolos. SHunday qilib, maqol chuqur va keng ma'noli, ibratomuz, tugal fikr anglatga, matal juz'iy belgi anglatuvchi ta'sirchan nutq bezagidir.

Maqollar xalq tushunchasi, hayot tajribalari, mulohazalarining umumlashma xulosasigina bo'lib qolmay, haqiqatning obrazli ifodasi, u yoki bu masala ustidan chiqarilgan hukm hamdir. Maqol hajmi ixcham, qisqa bo'lib, puxta ishlangan,

keng ma`noni ifodalovchi obrazli nutq namunasidir. Biror jumla, gap shaklida kelgan maqolda ortiqcha so`z bo`lmaydi. Har bir so`z aniq, o`z o`rnida ishlatilgan va ahamiyatli bo`lib, o`ziga xos ritm, ohang, tuzilishga ega.

O`zbek xalq maqollari uzoq davrlar davomida yashab, alohida janr sifatida shakllandi, avloddan-avlodga, og`izdan-og`izga o`tib kelmoqda. O`tmish madaniy yodgorliklarda maqollar ko`plab uchraydi. XI asr qomusi hisoblangan Mahmud Koshg`ariyning «Devonu lug`otit turk» asarida keltirilgan maqollarda o`sha zamon ruhi, dunyoqarashi, kishilarga, mehnatga munosabatning turli xil shakllari o`z ifodasini topgan. Bu maqollar qadimgi turk urug`lari va qabilalari orasida keng tarqalgan bo`lib, ularning turlari bizgacha etib kelgan.

Maqollar tarixiylik xususiyatga ega. Ular ko`pincha tarixiy voqea va hodisalar ta`sirida vujudga kelgan. SHuning uchun ham maqollarning g`oyaviy mazmunida xalq hayotining turli xil tomonlari o`z aksini topgan. Ma`lumki, turkiy xalqlar qadimdan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug`ullanib kelgan. Binobarin, ba`zi bir maqollar chorvachilik va dehqonchilik bilan bog`lanadi. Ularda xalqning mehnat tajribalari umumlashtiriladi.

Mo`g`ullar istilosi davrida (XIII asr) CHingizxon zulmi juda ko`p naql, matal, afsonalarning yaratilishiga sababchi bo`lgan. O`sha davrda to`qilgan maqollarda tarixiy faktlar ham ko`zga tashlanadi.

Ma`lumki, feodal tuzum sharoiti hamda hukmron sinf vakillari mehnatkash dehqon, kosiblar hayotini iqtisodiy jihatdan og`ir ahvolga solib qo`ygan edi. Bu holat nochorlik, ochlik, kambag`allik haqidagi maqollarning yuzaga kelishiga sabab bo`ldi.

Ayni choqda zulm va zo`rlikka qarshi ochiqdan-ochiq norozilik, isyonkorlik ruhi bilan sug`orilgan maqollar ham yaratildi.

Maqollar, asosan o`z va ko`chma ma`nolarni ifodalaydi: «Ilon chiqqan ola arqondan qo`rqar», «Bo`rining qulog`i ovda». Bu xildagi maqol va matallar ma`lum bir voqea, hodisa bilan bog`liq holda ishlatiladi, aytilmoqchi bo`lgan fikr majoziy ma`noda, kinoya tarzida ifoda etiladi.

Maqol shaklan qisqa bo`lib, voqelikni yoyiq holda ifoda qila olmaydi. Binobarin, maqollarda voqelikni siqiq va ixcham ifodalaydigan aniq va hayotiy obrazlar mavjudki, ular umumiy mulohazalarning yakunidan kelib chiqqan xulosani ko`chma ma`nolarda belgilash imkonini beradi, «Sen bo`rini ayasang, bo`ri seni talaydi», «Jo`jani kuzda sana». Birinchi maqolda «bo`ri» orqali qonxo`r dushman, yovuz niyatli kishi, obrazi gavdalansa, ikkinchi maqolda har bir ishda xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak deyilmoqchi. Ba`zan u yoki bu maqol topishmoq singari tuzilgan bo`lib, voqelik qiyos qilish, solishtirish orqali aniqlanadi: «YOz yomg`iri loy bo`lmas, o`g`ri aslo boy bo`lmas».



Maqollar tuzilish jihatdan nihoyatda sodda va ixcham. U ko'pincha sodda gapdan iborat bo'ladi: «Til – tig'dan o'tkir», «Insofsiz – imonsiz». ega va kesimdangina tashkil topgan mazkur maqollarda asosiy mazmun lo'nda ifodalangan. Ularning har birida o'z yoki ko'chma ma'noli obrazlar qarama-qarshi qo'yiladi: «G'amsiz boshim – g'avg'osiz boshim», «Ot aylanib qozig'ini topar, suv aylanib yorig'ini topar». Birinchi gap ikkinchi gap mazmunini takrorlab, uni izohlaydi, yoki aksincha, ikkinchi gap birinchi gap mazmunini ta'kidlab izohlaydi. Mazkur maqollarda kelgan qarama-qarshi bo'laklar o'zaro mos tarzda qofiyalashgan. «Usti yaltiroq – ichi qaltiroq», «Ish yoqmasga it boqmas» kabi maqollarda esa, birinchi bo'lakka urg'u tushishi bilan yaxlitlanib obraz yaratadi, ikkinchi bo'lak esa, birinchi bo'lakning kesatiq mazmunli izohi bo'lib, obraz xarakterini aniqlaydi. Ular mantiqan bir butun obrazlikni tashkil etadi.

Maqollarda qofiyalanish ham o'ziga xosdir: «Jondan kesmasang, jonona qayda, Toqqa chiqmasang, do'lona qayda», «Mehnat – mehnatning tagi rohat». Ko'ramizki, turli xil shaklga ega bo'lgan bo'laklar o'zaro qofiyadosh so'zlar bilan bog'landi. Har bir maqolda asosiy mazmunni ifoda etgan so'z qarama-qarshi yoki o'ziga mos tushgan so'z bilan qofiyalanadi: «Ko'cha xandon, uy zindon», «Qo'li ochiqning, yo'li ochiq».

Maqollarda vazn, ritm, qofiya, ohangdorlikning quyma birligi katta rol o'ynaydi. Binobarin, ko'pchilik maqollar she'riy formada kelib, ba'zan bir misra yoki bir baytdan, ba'zan esa, to'rt misradan tashkil topadi. Misralardagi takror so'zlar ohangdorlikni yanada oshiradi:

YAxshi otga bir qamchi,  
YOmon otga ming qamchi.  
YAxshi topib so'zlar,  
YOmon qopib so'zlar.

Maqollarda sifatlash, o'xshatish kabi badiiy tasvir vositalari va omonim, antonim so'zlardan foydalanish ularning badiiyligini yanada oshiradi, ifodalangan fikrning tinglovchiga tez etib borishini ta'minlaydi.

Maqollar donishmandlik ramzi. Ular o'quvchi va tinglovchilarni fikrni chuqur, ixcham, aniq va obrazli qilib ifodalashga o'rgatadi, kishilarni, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda muhim vosita vazifasini o'taydi.

Xalq orasida topishmoq, jumboq, ba'zan matal, topar, cho'pchak kabi terminlar bilan yuritilib kelingan topishmoq janri o'zbek fol'klorida qadim zamonlardan hozirgacha yashab kelmoqda va rivojlanmoqda. Uzoq o'tmish davrlarda topishmoq insonni o'rab olgan muhit va tabiatning turli-tuman hodisalari haqidagi tushunchalarining badiiy ifodasi sifatida maydonga kelgan. Tog' va o'rmonlar, daryo va ko'llar, cho'lu biyobon, er va osmon, quyosh va oy, yulduz va fasllar, zulmat va yorug'lik, toshqinlar, chaqmoq va momoqaldiraq, hayvonot

olami, oila-ro'zg'or jihozlari, dov-daraxt, mehnat qurollari va boshqalar haqida kollektiv ijodning mahsuli bo'lib to'qilgan topishmoqlar avloddan-avlodga o'tib, katta va kichikka hayot, tabiat sirlari haqida o'ylashni, bilishni o'rgatib kelganligi bilan g'oyat ahamiyatlidir.

«Topishmoq» so'zi «top» buyruq fe'liga «ish-moq» yasovchilari qo'shilishi bilan chigal, murakkab, belgi-xususiyati yashirin berilgan biror noma'lum narsani topish mazmunini ifodalaydigan yasama otga aylangan. Tabiat va jamiyat hodisalari kishilar oldiga ko'p murakkab jumboqlar, muammolar qo'ygan. Insonning o'sha masalalarni topishi, sirli bo'lib ko'ringan narsalarning tub, haqiqiy mohiyatini ochishi uchun aql-idrok va o'tkir did talab qilingan.

Tabiatning sirli hodisalari inson taqdirini asossiz, taxminiy farazlar, turli e'tiqod vositasida passiv anglash, folbinlik, astrologiya kabi og'zaki ijodning g'ayri ilmiy shakllarini ham maydonga keltirgan. Topishmoqlar bo'lsa, xalq og'zaki ijodida eshituvchilardan ongli ravishda yashirilgan, berkitilgan narsa, hodisalarning asosiy mazmunini topish, echishning o'ziga xos poetik formasidir. SHuning uchun topishmoqni eshituvchilar uni tabiat yoki turmush siri deb emas, yashirilgan muayyan, aniq bir narsa deb biladilar, shunday tushunadilar.

Topishmoqlar og'zaki ijodning ommaviy va maxsus janrlaridan biri. Ularning uslubi metafora (istiora), ko'chim, kinoya, qochiriq yo'li bilan so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatib, yashirilgan narsa, hodisalarning belgilariga ikkinchi bir narsa, hodisalarning belgilarini qiyoslash, imo-ishora qilishdan iboratdir. Topishmoqlarning shu xususiyati haqida qadimgi yunon filosofii Aristotelning: «Juda yaxshi metafora tuzish yo'li», deyishi bejiz emas.

Topishmoq aytish qadimgi zamonlardan boshlab turli xalqlarning hayoti, ijtimoiy shart-sharoitlari, dunyoqarashlari, urf-odatlar, mifologik tasavvurlari bilan bog'liq bo'lgan. O'zbek xalqi ham boshqa qardosh xalqlar kabi kuz va qish kechalari g'o'za chuvish, charx yigirish, olacha to'qish kabi qo'l mehnati bilan bajariladigan turli-tuman ishlar davomida topishmoq aytishgan. Topishmoq aytish qaysi bir xalqda bo'lmasin u aql-ziyraklik musobaqasi, ko'ngil ochish, o'yin-kulgi vositasi. Topishmoq aytish, asosan, yoshlarning so'z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi bilim-tushunchasi, idroki va mulohazalarini kengaytirish uchun zarur tarbiya vositalaridan biri bo'lgani tufayli ular soddadan murakkabga, osondan qiyinga borish usulida yaratilgan. Topishmoqlar orasida maktab yoshigacha bo'lgan bolalar osonlik bilan topa oladiganlari bo'lgani kabi katta yoshdagi bolalar, hatto turmush tajribasi ko'p kishilarning ham boshini qotirib, o'ylashga majbur qiladiganlari ham bor. Masalan, «Otdan baland, itdan past», «Qoziq ustida qor turmas» kabi *egar*, *tuxum* haqidagi topishmoqlar xalq orasida keng tarqalganligidan topishmoq aytilib bo'linmay, eshituvchilar uning javobini topa oladi. Ammo «Uzundan uzoq, havoga tuzoq» (*tutun*) kabi topishmoqlar ancha

o'ylantirib qo'yadi. Topishmoqni hamma – kattadan kichik aytadi, uni topishga ham ko'pchilik ishtirok etadi. Xalq orasida nisbatan ko'p topishmoq biladigan kishilar topishmoqchi, jumboqchi ham deb yuritiladi.

Topishmoqlarda savol tarzida aytiladigan fikrlar ma'lum bir badiiy shaklga tushgan bo'ladi. Ular xuddi maqollar kabi ixcham, quyma, ta'sirchan formada yaratiladi. Badiiy tafakkur mevasi bo'lgan topishmoqlarda fikr timsoliy yo'l bilan ifodalanadi, uning savol va javobini ichki mantiqiy qiyoslash boshqarib turadi.

Topishmoq aytuvchi qanoat hosil qilguncha shu tariqa savol-javob davom etadi. Javob topa olmagan shaxsning deyarli barcha tana a'zolari «sotib olinadi». «Sotdim-oldim»da kishining ko'zini – jin chiroqqa, burnini – hushtakka, boshini – toshga, og'zini – o'raga va boshqa a'zolarini turli-tuman narsalarga o'xshatib, masxara qilinadi. Ko'rinib turibdiki, topishmoq aytishish mehnat ahlining o'ziga xos ko'ngil ochishi, xursandchilik qilishining bir yo'lidir. Topishmoq aytish orqali davrada ajoyib xushchaqchalik, ruhiy ko'tarinkilik paydo bo'ladi. Topishmoqlarni yaxshi biladigan keksalarning guvohlik berishicha, topishmoq aytish kechalari juda maroqli o'tgan, ayniqsa yoshlarga tarbiyaviy-ta'limiy jihatdan katta foyda etkazgan.

Ayrim topishmoqlar maqollik xususiyatiga ham ega bo'ladi. Masalan, «Hammaga to'n tikaman, o'zim yalang'och» (*igna*) topishmog'i chuqur ijtimoiy mazmuni bilan ajralib turadi. O'zgalarning, to'g'rirog'i, boy-amaldorlarning foydasiga kechasiyu kunduzi tinmay mehnat qilib, o'zi quruq qolgan, och-yalang'och, muhtojlikda yashagan mehnatkashlar ommasining og'ir, achinarli ahvoli g'oyat obrazli ifodalangan. Lekin igna va ish haqidagi boshqa bir topishmoqni («Kichkina Xotin, lachagi uzun») bunday deb bo'lmaydi. Unda ayollar mashg'uloti ko'zda tutilganligini payqash qiyin emas.

Topishmoqlarda hokim sinf tabaqasiga mansub kishilarning nomlari ishlatilishi ham bejiz emas. Masalan, «Abdullaxon – beustixon» (*bit*). «Tokchama-tokcha, Samatjon boyvachcha» (*sichqon*). «Hovuz yonida Sulton boyvachcha» (*qurbaqa*). Bunday topishmoqlarning umumiy mazmunida zaharxanda, piching bor. Birinchi topishmoqda xalqning qonini so'rib, zolimlikda nom chiqargan Buxoro xoni Abdullaxonning nomi nafrat Bilan tilga olinmoqda. Ikkinchisida tekinxo'rlik, zararkunandalik, tayyorga ayyor, ucharlik sichqon obrazi misolida qaysi bir Samatjon degan qallobga tenglashtiriladi. Sulton boyvachcha esa, odamlarni ishlatib, faqat o'z jonining huzurini biladigan, o'zini koyitmaydigan bir amaldorga nisbat berilganligi aniq.

Topishmoqlarda topilayotgan narsaning belgisi bo'rtib ko'rsatiladi. Buning sababi shundaki, topishmoqda o'xshatilayotgan narsaning belgisi aynan o'sha narsada yanada aniqroq, yorqinroq namoyon bo'ladi. Masalan, lampochkaning qorong'ulikni qisman yoritishini kuchaytirib ko'rsatish uchun uning yorug'lik

kuchi kunduzning yorug'ligiga qiyoslanadi: «Nur sochadi yulduzdek, tunni qilar kunduzdek». Chumolilaming mehnatkashligi, ulaming tartibli harakati, darhaqiqat, kishilaming hayratiga sabab bo'ladi. Biroq qumursqalar nihoyatda mayda hasharot bo'lganligi sababli ulaming bunday faoliyati har doimo ham ko'zga tashlanavermaydi. Quyidagi topishmoqda bu narsaga urg'u berish va kishilar ko'z o'ngida haybatli tasvimi yaratish maqsadida ular karvonga o'xshatilayapti: «Qora-qora, qorakarvon, ertayu kech tashirdon».

«Gul tagida olifta ashulachi» topishmog'ida bulbulga sha'ma qilinmoqda. Ma'lumki, bulbul o'zining chiroyli sayrashi, go'zalligi va gullami sevishi bilan boshqa qushlardan ajralib turadi. Qushning bu jihatlarini bo'rttirib ko'rsatish uchun u rang-barang mato parchalaridan kuylak kiyib, turlicha maqom va noz - ishvalar bilan kuylaydigan olifta ashulachiga qiyoslanmoqda.

Ayrim topishmoqlaming qofiyalari topishmoqda yashiringan narsa nomiga qofiya yoki omonim so'z bo'lishi mumkin:

Yedirib, yedirib, o'zi yer. (*Yer*)

Uyog'i alang, bu yog'i *alang*,

*O'rtasidaola* to'palang. (*Chang*)

Bunday topishmoqlaming tuzilishi, qo'llangan qofiyalarning ohangdorligi, ulaming javobini topuvchining mushkulini biroz bo'lsa-da osonlashtiradi. Shuningdek, ayrim topishmoqlardagi qofiya topiladigan narsa nomi bilan ayrian qofiya bo'lmasa-da, biroq ohangdosh bo'lishi mumkin:

Cho'pchagim *cho'pchak*,

*Oltin* belanchak,

Yetli qizning onasi,

*Halgacha* kelinchak. (*Qo'g'irchoq*)

*Anora*, *minora*,

*O'ng qo'lga* qo'nara. (*Piyola*)

*Uxlabyotarkunduzi*, -

Shoinda oghilar te'zi. (*fitlduz*) !,

O'zbek xalq topishmoqlarining ko'pchilik qismini metaforik topishmoqlar tashkil etishini aytib o'tdik. Topishmoqlaming so'roq mazmunidagi masala-topishmoqlari ham mavjud bo'lib unga misol tariqasida yuqorida keltirganimiz g'ozlar haqidagi topishmoq mansubdir. Bundan tashqari o'zbek xalq topishmoqlari orasida topishmoq ~ maqol, topishmoq - o'yin, topishmoq - tez aytish, topishmoq - qo'shiq, topishmoq - ertak kabi turlari bor.

Topishmoqlar tuzilishi jihatidan ba'zan nasriy, ko'pchilik hollarda she'riy shaklda bo'lib, ularda ma'lum bir musiqiylik, zarb, turoq, vazn, qofiya kabi she'riyatning formal talablariga amal qilingan. Qofiya, vazn topishmoqning silliq,

ixcham, ohangdor, esda qoladigan bo'lib tuzilishini ta'minlashga xizmat etadi. Masalan: «To'rt oyoqli, temir tuyoqli» (ot).

Topishmoqlar bir savol-javobli (bir predmetli) bo'lish bilan birga, ko'p savol-javobli (ko'p predmetli) ham bo'ladi. Bunday topishmoqlar ko'pchilik hollarda yaxlit she'riy parcha tarzida tuziladi:

Tog'da talaymonni ko'rdim,  
Suvda sulaymonni ko'rdim,  
Tuzsiz pishgan oshni ko'rdim,  
YUmalab yotgan toshni ko'rdim.

(Bo'ri, baliq, sumalak, toshbaqa.)

Ba'zan topishmoqlarning bir nechasi nazm ipiga tizilgandek bo'ladi va ularning javoblari ham shu tarzda bo'lishi talab etiladi:

Qamish uchi qaltiroq, uni toping, dilbarim,  
Igna uchi yiltiroq, uni toping, dilbarim,  
Sassiq ko'lda it hurar, uni toping, dilbarim,  
Taqir-tuqir taqravon, uni toping, dilbarim,  
Ichidagi mehribon, uni toping, dilbarim...

Topishmoqlar fol'klorning boshqa janrlari bilan mahkam bog'liq. Ular epik asarlarda tez-tez uchrab turadi. Hatto maxsus topishmoqli ertaklar ham mavjud. Bunda topishmoqlar epik asarlar uslubiga moslashadi. Asosan doston va ertak qahramonlari orasidagi dialoglarda ishlatiladi, ya'ni jumboqli savolga asarning asosiy qahramonining javobi tarzida qo'llaniladi. Bunday savol-javobli topishmoqlar dostonlarda qahramonlarning aql-farosatini sinash, ma'lum shartlarni bajarishda, qobiliyatini bilishda ishlatiladi. Bu xil savol-javobli topishmoqlar «Oshiq Oydin», «Oshiq Alvand», «Xirmon dali», «YOzi bilan Zebo» dostonlarida, Maxtumquli va Durdi Qilich aytishuvlarida tez-tez uchrab turadi. «Alpomish» dostonining Po'ltan shoir aytgan variantida Barchinning jumbog'iga Alpomishning bergan chiroyli javobi mavjud. Topishmoqlar ertaklarda ham qahramonlarning aql-farosatini, serfahmligini, achchiq hayot tajribalarini boshdan kechirganligini bilish maqsadida ishlatilgan.

O'zbek xalq og'zaki ijodida kichik hajmdagi nasriy asarlar ichida latifa va loflar bir lahzalik kulgi uyg'otishi, kishilarga zavq bag'ishlashi bilan ajralib turadi. Ularda voqelik mo'jiz shaklda, daf'atan hozirjavoblik bilan aks ettiriladi. Latifa va loflarning bunday o'ziga xos xususiyati aytuvchi – latifago'y va lofchidan alohida mahorat talab etadi. U so'zlarga urg'u berish yoki qochirish, kosa tagida nim kosa borligiga shama qilish kabi zehnni o'tkirlashtirish uchun qo'llanadigan barcha tasvir vositalarini ishga soladi. Latifago'y va lofchilar talantli, hayotiy tajribaga boy kishilar bo'ladi. Qadimgi insonlar so'zning magik qudratiga ishonganlari tufayli olqish va qarg'ishlarga ishonadilar. Olqish va qarg'ishlar so'z

magiyasiga asoslangan marosim fol`klori namunalari hisoblanadi. Chunki ular tarixan maxsus marosimlar aytimlari sifatida shakllangan va taraqqiy topgan. Lekin bora-bora ular marosim bilan aloqadorligini, asosan, yo`qotgan. Biroq hozir ham olqish va qarg`ishlarning ayrim namunalari marosimlar paytida ijro etilishi kuzatiladi.

Olqishlar kishilarga yaxshilik, ezgu niyat, xotirjamlik, qut-baraka, sog`liq tilash maqsadida aytiladi. Ular kishilarning ruhini ko`tarib, yaxshilikka da`vat etadi. SHuning uchun janr nomi turkiy tillarda «maqtash», «sharaflash», «yaxshi istaklar bildirish» kabi ma`nolarni anglatuvchi qadimgi turkcha «ol» fe`li o`zagidan yasalgan «olqish» atamasi bilan hritiladi. Atama «ol» o`zagiga –“qı” buyruq mayli hamda –“a (sh)” harakat nomi yasovchi qo`shimchalarning qo`shilishidan hosil bo`lgan.

Olqishlar o`z ijro o`rniga, vazifasiga va poetik tabiatiga ega. Ularni shu xususiyatlariga ko`ra talab qilingan o`rinda yoshi nisbatan ulug`roq kishilar tomonidan aytiladigan kundalik maishiy olqishlariga, an`anaviy marosimlar tarkibida ijro etiluvchi olqishlarga bo`linadi.

Kundalik maishiy olqishlar ijtimoiy turmush bilan chambarchas bog`liq bo`lib, inson faoliyatining deyarli barcha tomonlarini mazmunan qamrab olganligi bilan diqqatni tortadi. SHunga ko`ra, ularni ijro o`rni va ijro maqsadiga qarab, yana ichki turlarga bo`lish mumkin. Binobarin, biror kishi boshqa biror shaxs bilan uchrashib qolganida, bir-birlarini tanish-tanimasliklaridan qat`iy nazar hol-ahvol so`rashishdan oldin o`zaro bir-birlariga yaxshi tilak – istak bildirishlari, hzlariga fотиha tortib sog`lik-omonlik istashlari uchrashuv olqishlari sifatida e`tirof etiladi. Uchrashuv olqishlari kishilarning bir-birlariga nisbatan hurmat-ehtiromlarini namoyon etadi. Ular shaxsning axloqiy tarbiyasi darajasini ko`rsatib beradi. Masalan, «Omin, qadam etdi, balo etmasin, Tinchlik, omonlik, xotirjamlik bo`lsin» aytimi uchrashuv olqishi hisoblanadi. SHundan keyingina uchrashgan kishilar bir-birlaridan hol-ahvol so`rashishga o`tadilar.

Olqishlar silsilasida dasturxon olqish aytimlari alohida mavqega ega. Ular uch holatda: a) dasturxon atrofida tanovvul qilish uchun o`tirishgan vaqtda; b) ovqatlanib bo`lingach, dasturxonni yig`ishtirib olayotganda; v) dasturxonda qolgan ovqat qoldiqlari-h non ushoqlarini qoqayotganda aytilishi o`ziga xos odat tusiga kirgan.

O`zbek xalqi –pazandalik hadisini olgan xalq. Uning milliy taomlari juda ko`p va rang-barangdir. Qadimdan har bir taom eyilgach , unga bag`ishlab maxsus olqish aytilgan. Jumladan, go`shtli taomlarni iste`mol qilgach: «Olti urug`ning oshin bersin, Luqmoni Hakim yoshin bersin. Qushday quyib bersin, tovday uyib bersin, ollohu akbar» deyilgan. Bunday olqishlar, asosan, chorvadorlik bilan

shug`ullanuvchi aholi o`rtasida tarqalgan. Ularni dehqonchilik bilan shug`ullanuvchi aholi o`rtasida uchratish qiyin.

Dehqonlar o`rtasida qovun egandan keyin aytiladigan olqishlar alohida: “SHirin sharbat yoki ozod, manzil obod, payg`ambari xudoga salavot, ekkanning, tikkanning, eganning otasiga rahmat, ollohu akbar” kabi. Ko`rinib turibdiki, bunday olqishlarda, asosan, dehqonning xayrli va saxovatli mehnati ulug`lanadi. Dehqonga uzoq umr, kuch-quvvat tilanadi. SHu istak dehqon barobarida qovunni eganlar uchun ham tegishli ekanligi alohida uqtiriladi.

Kishilar biror ishni boshlashdan oldin ham, uni yakunlagandan keyin ham, albatta, olqish aytishlari o`ziga xos odat tusini olgan. Aytaylik, biror imorat qurishdan oldin yoki uni qurib bo`lgach, ichiga ko`chib kirganda, albatta, olqish aytiladi. YOKi erga ekin ekkanda ham, hosilni yig`ishtirib olayotganda ham olqish aytish an`anaviydir. Bunday olqishlarda, odatda, shu ishlarning piri sanalgan mifologik personajlar nomiga murojaat qilinadi. Ulardan homiylik ko`rsatib, madad berishlari so`raladi. Masalan, imorat qurish ustachiligida Nuh alayhissalom nomiga, dehqonchilikda hosildorlik kul`ti Hazrati Xizir yoki Bobo dehqon nomiga murojaat qilinib olqish aytiladi.

Kishilar biror yoqqa safarga chiqishdan oldin keksa otaxon va onaxonlarning oq fotihasini olishga harakat qiladilar. Safar olqishlari hozirgacha yaxshi saqlanib qolgan. Ularda safarga chiquvchi uchun omad tilash, manziliga eson-omon etib, yana o`z jigarlarining oldiga sog`-omon qaytib kelishi tilanadi.

Odamlar yangi oyni ko`rganlarida maxsus olqishlar aytadilar. Bunday olqishlarning kelib chiqishida ibtidoiy insonlarning Oy kul`ti, umuman, kosmogonik tasavvur-tushunchalari, qarashlari asos bo`lgan. YAngi oyni ko`rganda «Oyni ko`rdim, omonlik» yoki «Oy ko`rdim, omon ko`rdim, oxiratda iymon ko`rdim» aytimlarini aytadilar.

SHuningdek, yangi kiyim-kechak kiyganda aytiladigan maxsus olqishlar ham bor. Ularda kiyimga qarata «sen bir yillik, men ming yillik» deyiladi-h, kiyimning o`ng etagi o`ng oyoq tagiga olinib, uch marta tepkilanib qo`yiladi. Bu bilan insonning jamiyki narsalardan, har qanday boylikdan ulug`ligi va ustunligi ta`kidlanadi.

Qabriston yonidan o`tayotgan kishi, albatta, dafn qilingan marhumlar ruhiga olqish aytib o`tadi. Bu ham xalqimiz orasida axloqiy normaga aylangan hatti-harakatlardan biridir. Bunday olqishlarning genetik ildizi ibtidoiy insonlarning ruhga aloqador animistik tasavvurlariga borib taqaladi. Bunday vaziyatda «YOtganlarning arvohi shod, yotgan eri yaxti bo`lsin» aytimi aytiladi. SHundan so`ng unga bog`lab «Qur`on»ning ixcham oyatlarini qo`shib qiraot qilish an`anaga aylangan.

Xalq orasida azaga borganda aytiladigan olqishlar alohida guruhni tashkil etadi. Ularda marhum ruhiga tinchlik, xotirjamlik, jannatdan joy tilash ma'nolari etakchilik qiladi.

Xalqimiz orasida to'y marosimlariga aloqador olqishlarning ajoyib namunalari uchraydi. Ularning mazmunini to'yning xarakteri belgilab turadi. Beshik to'ylaridan chaqaloq sharafiga, sunnat to'ylarida to'ybolaga, nikoh to'ylarida kelin-kuyovga qarata olqishlar aytiladi. Masalan, kelin-kuyovlar uchun «Omin, qo'shgani bilan qo'sha qarisin, uvali-juvali bo'lishsin, ollohu akbar» deya alqansa, to'ybolaga «Omin, to'ylarga etishtirsin, to'y- bolaning umri uzoq, to'rt muchasi sog' bo'lsin, katta kishi bo'lib yursin, ollohu akbar» deya yaxshi istak bildiriladi.

### **ZARURIY ADABIYOTLAR:**

1. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi (X.Razzoqov, T.Mirzaev, O.Sobirov, K.Imomov). Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti, 1980 yil.
2. SH. Xolmatov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. SamDU, 1980 yil.
3. N.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti, 1976 yil.
4. A.Abdurahmonov. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2004 yil.
5. O'zbek xalqlar maqollari. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1978 yil.
6. O'zbek xalq topishmoqlari. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1978 yil.

### **4-MAVZU: Xalq dramasi: qo'g'irchoq teatri, og'zaki drama va ijro san'ati.**

#### **REJA:**

1. Xalq teatri haqida ma'lumot.
2. Og'zaki drama va ularning ijro yo'llari.
3. Qiziqchi va masxarabozlar teatri haqida ma'lumot.
4. Xalq teatri san'atining tili va badiiy xususiyatlari.
5. Qo'g'irchoq teatri va uning paydo bo'lish tarixi.

**Tayanch iboralar:** Xalq og'zaki ijodida bolalar fol'klori va uning ijro yo'llari, mavzu doirasi haqida ma'lumot.



**Darsning maqsadi:** Og`zaki dramalar-xalq ijodining mustaqil turi. Og`zaki drama va folklor teatrlari. Og`zaki dramaning g`oyaviy -tematik yo`nalishi. Masxaraboz va qiziqchilar teatri. Og`zaki drama ijrochilari haqida.

**Darsning vositalari:** Ko`rgazmali o`quv qurollari, fol`klorshunos olimlarning bolalar fol`klori janrlariga bag`ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

**Darsning metodi:** Blits so`rov, an`anaviy ma`ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

**Darsning mazmuni:** So`z san`atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo`lishi bilan yuzaga kela boshladi. Masxaraboz, qiziqchi va qo`g`irchoqbozlar tomonidan yaratilgan, ular ijrosida, an`anaviy xalq teatri, spektakl` sifatida avloddan-avlodga og`zaki ravishda o`tib kelgan dramatik asarlar og`zaki badiiy ijodning maxsus turini tashkil etadi. Og`zaki dramalar an`anaviy xalq teatrining asosiy repertuari hisoblanadi.

Xalq orasida og`zaki tarzda yaratilgan va xalq san`atkorlari tomonidan sahnada namoyish etiladigan fol`klor asarlari **og`zaki drama** deb ataladi. Og`zaki drama –xalq ijodining mustaqil janri sifatida juda qadim zamonlarda shakllangan. Uturli xil o`yin-kulgilardan, dramatik holatlardan, har xil qiyofaga kirgan tomoshachilarning monolog va dialoglaridan, sahna harakatlari ovoz ohanglaridan tashkil topadi.

Og`zaki dramani **fol`klor teatri** deb ham hritadilar. Davr uchun muhim axloqiy normalar, mavjud tuzumga doir muammolar xususida tomosha ko`rsatish og`zaki dramaning asosiy vazifasi sanaladi. Bundan tashqari og`zaki drama o`z ichiga turli xil o`yin, to`y, bazm, marosim, sayllarni hamda ertakchi, baxshi, qissaxon va roviylarning ijrochilik san`atini ham qamrab oladi.

Og`zaki dramani sahnada **professional qiziqchi** va **masxarabozlar** ijro etadi. SHu sababli, odatda, u askiyaboz, qiziqchi, masxarabozlar yashagan joylarda tashkil topgan hamda satira va hmorga asoslangan.

Og`zaki drama tomoshalarida ko`pincha hayot qiyinchiliklari, turmush muammolari, sinfiy munosabatlar keskinligi xususida to`xtanilgani bois ularda ijrochilar harakati kontrast asosida qurilgan. Fosh etish san`ati tomoshabinga ma`naviy zavq bag`ishlagan.

Og`zaki dramalarda ko`zbo`yamachi, poraxo`r amaldorlar, ochko`z, zolim boylar, adolatsiz, zo`ravon va qonxo`r hukmdorlar, maishiy buzuq din arboblari obrazi ko`rsatib berilgan va fosh etilgan.

O`zbek fol`klorshunosligi og`zaki dramani masxaraboz va qiziqchilar teatri hamda qo`g`irchoq teatriga bo`lib o`rganadi. Masxaraboz va qiziqchilar teatrida dramaturgiya, sahna bezagi, qiziqchi aktyorlar, musiqa asosiy o`rin tutadi. Sirasini aytganda, masxarabozlik va qiziqchilik – asrlar davomida shakllangan og`zaki an`anadagi professional teatr hisoblanadi. Uni havaskorlik harakatidan

farqlovchi xususiyati ham an'anaviy xalq teatri sanalganligi bo'lib, XX asrning boshlaridayoq hzaga kelgan evropacha tipdagi o'zbek professional teatrining sarchashmasiga aylanganligidir.

O'zbek an'anaviy xalq teatri o'ziga xos dramaturgiyaga ega. Bu **og'zaki drama** deyilib, undagi personajlar o'z individual qiyofasiga, mijozi (temperamenti)ga, aqlu zakovatiga, hissiyot va kechinmasiga, tanasi va unga mos harakatlariga ega. Bu teatrning ijrochi - artisti masxaraboz (masxara), qiziqchi (qiziq) va taqlidchi (muqallid) nomlari bilan hritiladi.

“Masxaraboz” arabcha so'z bo'lib, kulish, mazax va taqlid qilish ma'nolarini anglatadi. Arablar istilosidan so'ng tilimizga o'zlasha boshlagan esada, arablarning o'zlari komik aktyorni “muhabbiz” deb ataganlar. SHunday bo'lsa-da, “masxara” so'zi o'zbek tilida ham komik aktyor, ham kulgili hajviy tomosha ma'nosida qo'llaniladi. Taxminan XYI asrning oxiri va XYII asrning boshlaridan e'tiboran arabcha “masxara” so'ziga fors-tojik tilidagi “bozi” (o'yin) so'zidan –“i” tovushi qisqargan holatda “-boz” shaklida qo'shilib, “masxaraboz” istilohi bunyod etilgan. Lekin aktyor ma'nosida ham masxara, ham masxaraboz istilohlari baravar qo'llanib boravergan. SHu ixtisosdagi ijrochilar nomlari esa shu istiloh bilan sifatlangan holda hritilishi an'anaviy tus olgan. Binobarin, masxaraboz yoki masxara – xalq teatrining komik aktyori bo'lib, mazax vositasida voqeani muayyan matnga solib, hajviy tomosha ko'rinishida ijro etib beruvchi kulgi ustasi sanaladi.

O'zbek an'anaviy xalq teatri uch lokal guruh doirasida tashkil topgan va rivojlangan: Bular Buxoro masxarabozligi, Xorazm masxarabozligi va Farg'ona qiziqchiligidir.

Buxoro masxarabozligi ikki tipga bo'lingan: birinchisi – qishloq masxarabozligi bo'lib, ko'pincha 3-5 kishidan iborat holda tomoshalar ko'rsatgan. Ular kichik guruhdan tarkib topganlari sababli kichik hajmdagi maishiy mavzudagi tomoshalarni ko'rsatishda so'zga emas, asosan, harakatga va mimikaga zo'r berib ijro etishgan.

SHahar masxarabozligida ham, asosan, mehmonxonalarda kichik hajmli maishiy komediyalar o'ynalgan bo'lsa-da, sayllarda, katta to'ylarda yirikroq tomoshalarni namoyish etishgan. SHahar masxarabozligida, ayniqsa, buxorolik To'la masxara (1842-1916) to'pi ajralib turgan. U, xususan, salbiy personajlarga ijtimoiy tavsiflar berib, ularni fosh etishda ayricha mahorat ko'rsatgan.

Xorazm masxarabozligida “Xatarli o'yin” turkumi ko'p o'ynalgan. Bunda dialog, kuy, qo'shiq, raqs va muallaq, pantomimadan unumli foydalanilgan. Ular orasida, ayniqsa, Quvvat kalta, Boltaqul masxara, Matyoqub ko'r, aka-uka Eshmat va Do'smatlar shuhrati butun Xorazmni tutgan.

Xalq teatrining keng rivoj topgani Farg'ona qiziqchiligi bo'lib, ular, asosan, Qo'qon va Marg'ilon shaharlari va ularning atrofida yashagan Zokir eshon

(1815-1885), Sa`di Maxsum, Mulla Hoshim, Usmon qiziq, Abulhasan Qashg`ariy, Marasul qora, Normat og`zi katta, Abduaziz qiziq, Bahromboy, Hasan bukri, Kalsariq, Mo`min qishloqi, Rizo kiyik, Rahimbek hez, Davlat novcha, Hsufjon qiziq SHakarjonov, Oxunjon qiziq Huzurjonov, Tesha qiziq, Muhiddin qiziq Darveshov, Zaynobiddin qiziq, Hojiboy Tojiboev va boshqalar tomonidan muvaffaqiyat bilan davom ettirilmoqda. Bulardan tashqari dorbozlar, huqqibozlar va nayrangbozlar ham xalq teatrining xodimlari sanalib, ular tarkibida yana sozandah o`yinchilar ham bo`lgan.

Xalq teatri tomoshalari ikki xil ko`rinishda tashkil etilgan. Aytaylik, ba`zi tomoshalar ma`lum matn (og`zaki dramaturgiya) asosida ikki yoki uch aktyor ijrosida tashkil etilsa, ba`zilarida faqat birgina aktyor matnni ijro etib bergan. Bu yakka aktyor teatri deyilgan. U matndagi ijobiy va salbiy obrazlarni bir o`zi ijro etgan. YOki u turli qushlar, jonivorlar ovozig, xatti-harakatiga taqlid qilib, pantomimalar ko`rsatgan. Pantomimalar ma`lum va taniqli shaxslarning fe`l-atvori, qiliqlariga taqlid qilib ham yaratilgan. Biroq xalq teatrlarida ko`pincha og`zaki hikoyalar instsenirovka qilingan. Masalan, “Namoz”, “O`lik hvish” kabi instsenirovkalar shular jumlasidandir.

Masxarabozlar, asosan, erkaklardan iborat bo`lgan. O`tmishda Buxoro, Xorazm va Farg`onada maxsus masxarabozlar teatrlari mavjud bo`lgan. Ularda buxorolik aka Buxor, To`la va Gadoy masxarabozlar, farg`onalik Hsufjon qiziq SHakarjonov, Orifjon Toshmatov singari professional qiziqchi va masxarabozlar faoliyat ko`rsatgan.

Qiziqchilar orasida xotin-qizlar ham bo`lgan. Xotin-qizlarning qiziqchilik teatri mustaqil faoliyat hritgan. Ular shakl va mazmuniga ko`ra masxarabozlar teatriga o`xshagan. Xotin-qizlar teatrining muhim belgilari shundaki, uning ijrochilari va tomoshabini faqat ayollardan iborat bo`lgan. Erkak kishi rolini ham ayollar erkakcha kiyinib, soqol-mo`ylov yasab ijro etadi. O`z tomoshalarini erkaklardan uzoqroq, chetroq, pana joylarda namoyish qilganlar. Xalqimiz orasida professional qiziqchi ayollardan samarqandlik Zulfi Suydieva, pskentlik Kuydiniso Rasulmatova, toshkentlik Salomat Mutalova kabilarning nomlari mashhurdir.

Qiziqchi ayollar o`z tomoshalarida zolim, bevafo erlarning kirdikorlari, kundoshlik azobi, sof muhabbat haqida tomoshalar ko`rsatganlar. Jumladan, “Bozorda to`lg`oq tutib qolgan xotin”, ”CHo`pon va uning xotini”, “Kundoshchilik”, “O`sma qo`yish” kabi og`zaki dramalar xotin-qizlar teatrida mahorat bilan ijro etilgan.

Og`zaki dramatik asarlar yo monolog, yo dialog shaklida yaratiladi. Ularni ijro etuvchi qiziqchi va masxarabozlar turli ovoz ohanglari, qiliqlar, shartli harakat va pantomimalarni bajarib, turli xushchaqchaq va hazil qo`shiqlarni aytib, raqsga

tushib, voqealar rivojini ta'minlab borganlar. SHu orqali ajoyib ta'sirchan sahna asari hzaga kelgan.

Og`zaki drama va p`esalarda, komediyalarda xalqning qochirimlaridan, xalq iboralaridan ustalik bilan foydalanganlar. Personajlar nutqida ko`chma ma`noli so`zlarni, iboralarni ko`p ishlatganlar. Personajlar xarakterini ochib berishda zid qo`yish san`atidan unumli foydalanilgan. Voqealarning bo`lib o`tgan o`rni va vaqti aniq ifodalanmay, keng badihago`ylikka erishilgan.

Qo`g`irchoq teatri ham xalqimizning qadimiy og`zaki teatri sifatida qaror topgan an`anaviy san`atdir. Uning qadimiyligini Umar Xayyom (1048-1123) ning tubandagi ruboiysi ham tasdiqlaydi:

Mo lo``batakonemu falak lo``batboz,  
Az ro`i haqiqat, na ki az ro`i majoz;  
Bozicha hamekunem bar nat`i vujud,  
Aftem ba sanduqi adam yak-yak boz.<sup>5</sup>

Bu ruboiy SH.SHomammedov tarjimasida shunday jaranglaydi:

Bizlar qo`g`irchog`u, falak qo`g`irchoqboz,  
Bu so`zim chin so`zdir, emasdir majoz.  
Yo`qlik sandig`iga bir-bir tushamiz,  
Vujud palosida o`ynagach bir oz.<sup>6</sup>

Qo`g`irchoq vositasida biror hayotiy voqelikni ko`rsatish niyatida qo`g`irchoqlarni o`ynatuvchi, ya`ni boshqarib turuvchi kishilarni **qo`g`irchoqbozlar** yoki **korfarmonlar** deb hritiladi. Ular sahna oldida, yo sahna ortida turib, qo`g`irchoqlarning o`zaro munosabatiga aralashadilar, aniqrog`i, ularni harakatga solib, o`zaro munosabatga kirishuvlarini ta`minlaydilar. Har bir qo`g`irchoqning ruhiyatiga, ko`rinishiga moslab ovoz beradilar, bunda ovozni turlantirish uchun tillari tagiga maxsus safil (kichkina plastinka moslama) qo`yib oladilar. Binobarin, qo`g`irchoqlarni jonlantirib, voqelik mantiqiga mutanosib harakatga omuxta ovozda so`zlash uchun korfarmon (qo`g`irchoqboz)larda alohida aktyorlik iste`dodi shakllangan bo`lmog`i zarur. Qolaversa, ularning o`z leksikasi mavjuddir. So`z ularning asosiy quroli hisoblanadi. Ular jonli xalq tilidan ustalik bilan foydalanib, qo`g`irchoq ijro etayotgan personajning individualligini ta`minlaydilar.

Qo`g`irchoqbozlik san`ati sirlari esa o`tmishda avloddan-avlodga o`tishi uchun korfarmonlar o`z hunarlarini bolalariga o`tkazish asosida an`anaviylik kasb etgan. Buning uchun esa o`tmishda hrtimizda qo`g`irchoqbozlar alohida mahallalarda yashagan, hatto chetdan qiz ham olmagan va chetga qiz ham chiqarmay, o`z kasblarini farzandlariga o`rgatishgan. Faqat ko`rsatgan

---

<sup>5</sup> Umar Xayyom. 100 ruboiy. Dushanbe: "Irfon", 1984, s.38.

<sup>6</sup> Umar Xayyom. Ruboiylar. T., 1981, 13-b.

tomoshalaridan tushgan daromad evaziga ro`zg`or tebratishgan. Buxoroda O`g`lon darvozasi mahallasida qo`g`irchoqboz va sozandalarning hzga yaqin oilasi yashagani ma`lum. Toshkentda ham Ko`kcha, Sebzor, Beshyog`och va SHayxontohur dahalarida qo`g`irchoqbozlar oilalari istiqomat qilishgan.

Qo`g`irchoq teatri o`ziga xos o`yin-kulgi vositasi bo`lib, xalqning ijtimoiy-maishiy turmush tarzi, axloq normalari, turli munosabatlarini satira va hmor orqali namoyish etish san`ati sanaladi. Qo`g`irchoq teatrining tarixiy-genetik ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Uning ilk ildizlari ajdodlarimizning o`tmishdagi urf-odatlar va marosimlariga bog`liq bo`lib, ibtidoiy insonning tabiat hodisalari oldida o`zini ojiz sezib, turli ma`budlarga sig`inishi, tabiiy ko`ringan hodisalarni ta`riflash maqsadida yasalgan ramziy shakllarga, totem sanalgan hayvonlar qiyofasini aks ettiruvchi niqoblarni kiyib ritual raqsga tushishi hodisalari pirovardida qo`g`irchoq teatri hzaga kela boshlagan. Tadqiqotchilarning aniqlashicha, qo`g`irchoq teatrining paydo bo`lishi dunyodan o`tgan ajdodlarni teatrlashtirilgan holda yodga olish marosimi asosida hz bergan. Bu marosim qoidasiga ko`ra, marhumning eng yaqin kishisi uning niqobini kiyib, xuddi o`sha marhumga o`xshab va o`xshatib gapirgan, harakat qilgan. Keyinchalik esa, bu marosim o`zidagi urfiy belgilarini yo`qotib, oddiy tomoshaga aylana borgan, ibtidoiy-mifologik ishonchlarning kuchsizlanishi va yo`qola borishi natijasida mazkur ramziy shakllar qo`g`irchoqbozlar qo`liga o`tib, tanqidiy vazifani ado eta boshlashi tufayli qo`g`irchoq teatri shakllangan. Qo`g`irchoq teatrining mavzulari kengaya boshlashi oqibatida niqoblar arsenali ham turfalashib ko`paya borgan. XI-XII asrlarda O`rta Osiyoda qo`g`irchoq teatri juda tez rivojlangan. Temuriylar davriga kelib qo`g`irchoq teatri yanada gullab-yashnaganki, buni Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida odamlar hayotini qo`g`irchoq teatriga o`xshatib ta`riflagani ham yaqqol tasdiqlaydi. Qolaversa, XY asrda yashagan Husayn voiz Koshifiy “Futuvvatnomai sultoniyy yoxud juvonmardlik tariqati” asarining to`rtinchi fasli ikkinchi qismini maxsus “Qo`g`irchoqbozlar bayonida”gi sarlavha bilan xalq qo`g`irchoq teatrining tabiati va turlarini tavsiflashga bag`ishlangani bejiz emas.

Ayni zamonda qo`g`irchoq teatrining uch ichki turi keng taraqqiy etayotir:

1. **«CHodir jamol» qo`g`irchoq teatri.** Bunda qo`g`irchoqlar qo`lga kiyilib, barmoqlar vositasida harakatga keltirilgan. Bu teatrdan, asosan, uch ko`rinishli “Polvon Kachal sarguzashtlari” xalq komediyasi o`ynalgan. O`z-o`zidan ayonlashayotirki, bu teatrning (komediyaning ham) bosh qahramoni Kachal polvon bo`lib hisoblanadi. “Kachal” so`zining lug`aviy ma`nosi kal bo`lib, ko`chma holda “maymoq, qaltiroq, qo`rqoq” degan ma`nolarda qo`llanilib, istehzo va pichingni ifodalaydi.

CHodir jamol”da o`ynovchi qo`g`irchoqbozning kamida 20 ta qo`g`irchoq bo`lgan. Spektakl jarayonida shulardan 8-12 tasini qo`lga kiyib, 4-6 epizodni

namoyish qilgan. U, asosan, kunduzi o`ynalganligi sababli “ro`z bozi” deb ham atalgan.

Professor M.Qodirov “CHodir jamol”da 100dan ortiq qo`g`irchoq qatnashganini ta`kidlab, ularni tubandagicha to`rt guruhga taqsimlab tasvirlaydi:

1. *Satirik personajlar*: rais, yasovul, sudxo`r, hoji kampir, tergovchi, ko`knori, dalla-sovchi...

2. *Xalq tiplari*: o`zbek, rus, qozoq, yahudiy, turkman, Abram mujik va Oyqiz SHura.

3. *San`at ahli*: sozanda, yallachi, masxaraboz, raqqosa, dorboz, maymunboz, tosboz...

4. *Hayvonlar va afsonaviy maxluqlar*: yalmog`iz kampir, ajdaho, shayton, Qoravoy it va boshqalar.

Bu personajlarning har biri betakror qiyofaga ega va xalq komediyasida o`zigagina xos ijtimoiy-estetik vazifani bajarishlari tufayli asarning g`oyaviy-badiiy maqsadini ochishga xizmat qilgan va tomoshabinlarga zavq va saboq berishgan.

2. **“CHodir xayol” qo`g`irchoq teatri.** Buni hozir zamonaviylashtirib **marionetka teatri** deyiladi. “CHodir xayol” teatrida qo`g`irchoqlar harakati iplar yordamida amalga oshiriladi. Qora iplarga bog`langan qo`g`irchoqlar kechasi qora parda fonida harakatlantirilgani uchun iplari ko`zga tashlanmaydi va qo`g`irchoqlar go`yo o`zi harakatlanayotganday ko`ringani uchun tomoshabinlarda katta qiziqish hamda estetik zavq uyg`otgan. Bu teatrdan, asosan, “Sarkardalar” xalq komediyasi o`ynalgan.

“CHodir xayol”da ham 100 ta qo`g`irchoq –personaj mavjud. P.A.Kamarov kolleksiyasida shulardan 47 tasi mavjud, qolganlari esa hanuzgacha noma`lum.

“CHodir xayol” spektaklida voqea, asosan, xon saroyida kechadi. SHu vajdan unda harbiylarni ifodalovchi qo`g`irchoq – personajlar ko`p. CHunonchi yasovul, rus sarbozlari, xitoy sarbozlari va xalq komediyasining bosh qahramoni Yo`ldosh yasovul shu silsilaga kiradi.

SHuni ta`kidlash joizki, “CHodir xayol” spektaklida kamida 50 tacha qo`g`irchoq ishtirok etganligi tufayli ularni ip bilan boshqarish zaruriyatga aylangan. Bu tomosha, asosan, kechqurun o`ynalganligi tufayli “shab bozi” deb ham hritilgan.

3. **“Fonus xayol yoki soya qo`g`irchoq teatri.** Bu teatrdan tomoshalar qo`g`irchoq yoki qo`l barmoqlarining soyasini devorga tushirib, turli-tuman shakllar hosil qilish orqali namoyish qilingan.

Qo`g`irchoq teatri jahon xalqlarining barchasida mavjud umumfol`kloriy hodisadir. Har bir xalqning o`z milliy ruhiyatini ifodalovchi milliy qahramoni bor. Endilikda xalqona qo`g`irchoq teatrlari ham professional teatrlarga aylana

bormoqda. Ular qo'g'irchoq teatrlari arboblarning xalqaro ittifoqi (UNIMA) atrofida to'langanlar. UNIMAning esa hozirgacha XII kongressi va qator festivallari bo'lib o'tdi. Ularda qo'g'irchoq teatrlari taraqqiyotining o'ziga xos tamoyillari belgilanib, ijro mahoratini tobora takomillashtirish va tajriba almashtirishga qaratilgan tanlov – ko'riklar ijobiy natijalar bormoqda. SHunday festivallardan biri 1969 yilda Toshkentda o'tkazilib, o'zbek qo'g'irchoq teatrini rivojlantirishga kuchli ta'sir ko'rsatdi. O'shanda respublikamizda birgina qo'g'irchoq teatri poytaxtda faoliyat ko'rsatardi, bugunga kelib Andijon, Samarqand, Buxoro va boshqa bir qator viloyatlar markazlarida ham qo'g'irchoq teatrlari faoliyat ko'rsata boshlagani quvonarli holdir, albatta.

Xullas, xalq qo'g'irchoq teatri kattalar va ayniqsa, bolalarning sevimli teatri sifatida professional qo'g'irchoq teatrlariga aylangungacha uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tdi.

**Qiziqchi va masxarabozlar teatri.** Xalq teatrida bosh ijodkor masxaraboz, qiziqchi va qo'g'irchoqbozlardir. Ular ham yaratuvchilik, ham ijrochilik, ham tashkilotchilik vazifalarini bajaradi. «Qiziqchi», «masxaraboz» atamaları har joyda har xil ma'noda qo'llaniladi. Bu ikki atama orasida bir-biriga yaqinlik bo'lsa-da o'ziga xos ma'nolari bor. Nutqi, hajviy xatti-harakatlari bilan odamlarni kuldirib yuruvchi, oddiy, sho'x va hazilkash kishilar ko'pincha qiziqchi deb yuritiladi. Odamlarni kuldirishni o'zlariga hunar qilib olgan va maxsus kiyinib, yuzlarini bo'yab, sayil, to'y-bazm, bayramlarda tomosha ko'rsatib yuruvchi kishilar masxaraboz deb atalgan.

Masxaraboz va qiziqchilar orasida o'z san'atini puxta egallagan va uni xalqqa manzur qilgan mashhur ustalar bilan bir qatorda, bu ishga onda-sonda aralashadigan havaskorlar ham bo'lgan. Mashhur qiziqchi va masxarabozlar sayil va to'ylarda o'z kasb-hunarlarini namoyish etganlar. Qiziqchilarning asl nomi bilan bir qatorda, ular ijro etgan qahramonlarning kasb-hunarlarini ham ilova tarzida ularning ismiga qo'shilgan. Qiziqchi va masxarabozlar rol ijro etibgina qolmay, xalq teatrida rejissyorlik vazifasini ham bajargan.

**Oqzaki dramaturgiya.** Xalq teatrlari og'zaki dramaturgiyasida dramatik harakat, sahnaviy o'yin matn bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning birini ikkinchisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Xalq p'esalarining «O'yin» deb atalishi ham uning mana shu xususiyatidan kelib chiqqan. Og'zakilik xalq ijodining, jumladan, masxarabozlar dramasiining etakchi xususiyatlaridan biridir. Xalq teatrida qishloq ko'chasi, shahar bozori, hovli yuzasi sahna bo'lsa, tabiat manzarasi daraxtzor, sahro sahna bezaklari vazifasini bajaradi. Ijroda esa, dialog, ishora, harakat, pardozi aniq va yorqin bo'lmog'i kerak. Bundan tashqari, tomoshabinlar sahnadagi gap, harakat va imo-ishorani hayajon bilan qabul qilgan holda o'z his-hayajonlarini ham izhor etadilar.

Og'zaki dramaning ahamiyatli tomoni shundaki, u jamiyatdagi illatlarni fosh etadi. Ularda asosan, boylar, sutxo'rlar va savdogarlar qattiq hajv ostiga olinadi. Hajviy kulgi, tanqidning ta'sirli ko'rinishidir. Kulgi qanchalik asosli va kuchli jaranglasa, tanqid shuncha zo'r va o'tkir bo'ladi. Unda hayotda g'ov bo'ladigan hamma narsa fosh etiladi. YUmor u yoki bu voqea-hodisalarni ko'proq tuzatish va yaxshilashga, yo'qotishga xizmat qiladi. U do'stona hayrixox kulgidir.

Og'zaki satirik komediyalarda amaldorlar, boylar, o'g'rilar, qimorbozlarni fosh etish markaziy o'rinda turadi. Xalq satirasining o'tkir tig'i illatlarni fosh etishga qaratilgan. Masalan, «Rais», «Xirmon ko'tarish», «Mirob», «Qozibozlik» kabi qator dramalarda ma'muriy – diniy amaldorlar hajviy vositalar bilan fosh etiladi.

**Qo'g'irchoq teatri.** Qo'g'irchoqbozlik eng qadimgi davrdan boshlab xalq orasiga keng tarqalgan dramatik shakl bo'lib, unda turli obrazlar yog'och o'yinchoqlar, uni o'ynatuvchi va o'rgatuvchi, o'yin boshlovchilar ijro etadi. Qo'g'irchoq o'yini asosan, bolalar, yoshlar orasida namoyish qilinadigan o'yin-kulgi vositalaridandir. SHuningdek, qo'g'irchoq teatri sayil-tomosha, to'y, bozor kabi yig'inlarda ijro qilingan. Hozirgi kungacha o'tmishda yaratilgan qo'g'irchoqbozlik ma'lumotlari turli manbalar orqali bizgacha etib kelgan. Ularning ayrim matnlari «Kachal polvon», «Sarkardalar», «Tegirmonchining uylanishi» kabilardir. Bu tomoshalar hozirgi kunda deyarli o'ynalmaydi. «Oftobxon va Moxtobxon» komediyasida ko'p zamonlardan beri xalqni alba kelgan duoxon va avliyolar o'tkir hajv kulgi bilan masxara qilinadi. Qo'g'irchoq teatrini tashkil etish juda murakkab bo'lib, ijrochilardan chidamli mehnat talab qilingan. Ko'rsatiladigan tomosha mavzularini tomoshabinlarning didi, zavqiga qarab belgilagan. Ular hayot hodisalari, kishilarning o'zaro munosabatlari yog'och qo'g'irchoq obrazida aks ettiriladi. Ular bisotidagi asosiy kulgi chiqarish vositasi so'z o'yinlaridir. Qahramonning xususiyatlarini ochishda lutf – qochirim yo'llari bilan birga, birdan ortiq ma'no ifodalaydigan so'z va gaplarni ishlatish ham muhim o'rin tutgan.

Qo'g'irchoqbozlar ham o'z ijrosi jarayonida keng tarqalgan an'anaviy tomoshalar qatorida zamon ruhiga moslab yangi-yangi dramalar ijod qiladilar. Ular xalq orasida mashhur bo'lgan, ba'zi ertak, hajviy hikoya va latifalar mazmunidan ham tez-tez foydalangan. SHulardan biri «Tegirmonchining uylanishi» tomoshasidir.

### **ZARURIY ADABIYOTLAR:**

1. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi (X.Razzoqov, T.Mirzaev, O.Sobirov, K.Imomov). Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti, 1980 yil.



2. H.Zaripov. Fozillar fazilati. 1969 yil.
3. M.Qodirov. O'zbek xalq og'zaki dramasi. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1963 yil.
4. M.Afzalov. O'zbek xalq ertaklari haqida. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1974 yil.
5. B.Sarimsoqov. O'zbek adabiyotida saj'. Toshkent, 1978 yil.
6. M.Qodirov. Masxaraboz va qiziqchilar san'ati. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1971 yil.
7. M.Qodirov. Xalq qo'g'irchoq teatri. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1972 yil.
8. G'.Jaxongirov. O'zbek bolalar fol'klori. Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 1975 yil.

## **5-MAVZU: Satirik va yumoristik janrlar: lof, askiya, latifa.**

### **REJA:**

1. Lofning o'ziga xos xususiyatlari.
2. «Askiya» janri tabiati va o'ziga xos ijro xususiyati.
3. Latifalarning janriy tabiati va bosh qahramoni.

**Dars maqsadi:** O'zbek va jahon folklorshunosligining yangi yutuqlari, lof va og'zaki drama janrlari borasidagi ilmiy xulosalarini, mavjud materiallaringizga tayangan holda lof va og'zaki dramalardan namunalar o'rganganib qiyoslash.

**Dars vositalari:** Ko'rgazmali o'quv qurollari, fol'klorshunos olimlarning bolalar fol'klori janrlariga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** Blits so'rov, an'anaviy ma'ruza, dars mazmunini tushuntirish, matn bilan tanishtirish, matn tahlili, suhbat, savol-javob.

**Darsning mazmuni:** Xalq qo'g'irchoq teatri kattalar va ayniqsa, bolalarning sevimli teatri sifatida professional qo'g'irchoq teatrlariga aylangungacha uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tdi.

Askiya – o'zbek fol'klorigagina xos janr. Bu janr boshqa xalqlar fol'klorida uchramaydi. SHu jihatiga ko'ra askiya o'zbek fol'klorida alohida diqqatni tortadi hamda o'zbek fol'klorining milliy o'ziga xos tarkibini belgilaydi.

Askiya, asosan, to'y-tomoshalarda, xalq yig'inlarida, sayllarda, bayramlarda ijro etiladi. U so'zga chechan, hozirjavob, hazil-mutoyibaga moyil, zakovatli, topqir, badihago'y kishilar ma'naviy musobaqasidir. SHuning uchun askiya professional ijroga moslashgan. Askiya ijrochilari **askiyaboz**, **askiyachi** deb hritiladi. Askiya aytishuvida har kim ham ishtirok etavermaydi, chunki askiyachilikda so'z o'yiniga usta, so'z va jumalardagi ko'chma ma'noni ilg'ab olishga qodir, hozirjavob, shama' va piching qila bilish san'atkorligiga ega bo'lish

talab etiladi. Zero, **askiya** soʻz va jumalardagi tagdor kesatiq, istehzo, piching, pisanda, mazax, shamaʼ va boshqa hmorga moyil rang-barang koʻchma maʼnolarni ilgʻab olib unga munosib javob topa bilishdan iborat soʻz oʻyini sanʼatidir.

Askiya tarafma-taraf boʻlib ijro etishga asoslangan. Tarafma-taraf boʻlib askiya aytishni boshlangan askiyabozlarni tinglovchilar ommasi kuzatib turadi va tomonlardan qay biri mantiqli ilmoqli luqmasi bilan ustun ketmasa, kulgi –qahqaha bilan ularni maʼqullab, chapak chalib, olqishlab turadi. SHu xususiyati tufayli askiya tomonlar tortishuviga aylanib boradi.

Tomoshabinlarning qarsagi va olqishini askiyabozning tortishuvda zarur va kerakli soʻzlarni topa bilishi va ularni oʻz oʻrnida mahorat bilan ishlata olishi belgilab turadi.

Askiyaning badiiy qurilishi tugallangan ikki fikrning bir-biriga qarshi qoʻyilishidan tashkil topadi. Undagi har bir fikr oʻziga xos tugunga va echimga ega boʻladi. Qarshi qoʻyilayotgan fikrlar oʻzaro bir-birini inkor etishi yoki tasdiqlashi, yoxud kuchaytirishi kerak.

Har bir askiya asosida satira va hmor teng yotadi. CHunki askiyada, albatta, ikki xil kulgi tugʻiladi. YAʼni, tomonlardan biri yaramas illatlarni ochish uchun ramziy yoki koʻchma maʼnodagi soʻz va iboralarni qoʻllaganda, zaharxanda (satirik kulgi) koʻtarilsa, shu paytda uning fikri qaratilgan ikkinchi tomondagi askiyachilardan biri noqulay holatga tushib qoladi. Bu kulgi –engil, begʻubor hmoristik kulgini tashkil etadi. Bunday kulgini hosil qilish uchun kinoya ishlatiladi, u yoki bu soʻz, ibora kuchaytiribroq, boʻrttirib qoʻllaniladi. Raqib tomon askiyachisi kulgili narsa yoki hodisalarga qiyoslanadi.

Askiyaning har xil turlari mavjud. SHulardan eng keng tarqalgan, anʼanaviylashgani **payrov**dir. **Payrov** - *muayyan mavzu atrofida ijro etiladi*. Masalan, mevalar nomi, kino nomlari, parranda, qushlar, fasllar, badiiy asarlar nomi payrovlarga mavzu qilib keltirilishi anʼanaga aylangan.

Payrovlarning hajmi ixcham, shjeti sodda boʻladi. Payrovda biror-bir soʻz, atama chertib aytiladi va u garchi oʻz maʼnosida qoʻllanayotgandek tuhlsa-da, aslida koʻchma maʼnoni boʻrttirib ifodalab keladi.

Payrovda belgilangan mavzudan uzoqlashmaslik shart. Bu payrovda bellashayotgan, tortishayotgan tarafkash askiyabozlar uchun maʼlum qoidaga aylangan. SHuning uchun askiyaboz belgilangan mavzudan uzoqlashsa, pala – partish soʻz aytsa, payrov buzilgan va engilgan hisoblanib, askiya toʻxtatib qoʻyiladi.

Payrovda yana askiyachining «raqib»iga aytgan soʻz va jumlasini koʻchma maʼno kasb etishi shart. SHuningdek, askiyachi oʻz nutqida turli badiiy tasvir vositalaridan ham unumli foydalana olmogʻi lozim.

Askiya payrovlaridan askiyaboz o'z «raqibi»ning fe'l – sajiyasiga, xulq-atvoriga, qiliqlariga, tashqi ko'rinishiga, portretiga mos laqabni topa olishi va ularni so'z o'yini orqali sha'ma qilib o'tishi kerak. Bularning bari payrov askiyaning tabiatini belgilab turadi.

Askiyaning ichki turlarini «Bo'lasizmi?», «O'xshatdim», «Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?», «Safsata», «Qofiya», «Radif» kabi kichik, ixcham, savol-javob shakliga ega bo'lgan namunalar tashkil etadi.

Payrovga nisbatan oldinroq shakllangan askiyaning bu turida dialog kompozitsion asos hisoblanadi. Ulardagi savol-javoblarining har biri kichik hajmdagi epizodlardan tashkil topadi.

«O'xshatdim», «Bo'lasizmi?», «Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz» tipidagi askiyalar bir xil xarakterda bo'lib, ularda o'xshatish orqali bir-birini tanqid qilish shakli namoyon bo'ladi. Tanqidga mo'ljallangan askiyaboz kulgili narsalarga – jonivorlarga, gul turlariga o'xshatiladi. Unga qarshi tomon ham shu xilda javob qaytaradi. Ularda satira, tanqid alohida o'rin tutadi. «Safsata» tipidagi askiyalarda tarafkashlarning piching yo'lida aytgan hazili namoyon bo'ladi. Askiyaning yana bir turi «Tutal», «Rabbiya» shakllari hisoblanadi. Ular, asosan, to'y-sayillarda, bayramlarda, gap-gashtak va choyxonalarda ijro etiladi.

«Tutal» va «Rabbiya» ko'pincha she'riy yo'lda aytilishi bilan askiyaning boshqa turlaridan ajralib turadi. Askiyaning tutal usulida hmsheq kulgi hukmronlik qiladi.

Askiya professional ijroga asoslangan janrdir. Xalq orasida hatto o'tkir didli askiyachilar yashab o'tganligi ma'lum. Jumladan, marg'ilonlik Hsufjon qiziq SHakarjonov (1869-1959), qo'qonlik Erka Qori Karimov (1880-1956), Mamahnus Tillaboev, Komiljon Rahimov (1905-1964), Oxunjon qiziq Huzurjonov (1903-1967) va boshqalarni eslatish mumkin.

Xullas, askiya ijtimoiy hayot hodisalari, ayrim siyosiy muammolar, odamlarning turmush tarzi, o'zaro muomala-munosabati, yaxshi-yomon odatlari, orzu-istaklari asosida yaratiladigan ixcham va kulgili asarlardir. U aytuvchi va tinglovchilarga cheksiz zavq-shavq, ta'limiy-tarbiyaviy ozuqa baxsh etadi, kishilarni hozirjavoblikka, badihago'ylikka etaklaydi.

Lof - o'zbek o'zbek xalq og'zaki ijodining o'ziga xos, alohida mustaqil janrlaridan biridir. Uning tabiatida epiklik va dramatiklik o'zaro uyg'unlashib ketganligi tufayli lof epizodik og'zaki drama namunasi sifatida ko'zga tashlanadi. Loflar sahnaga mo'ljallangan, satira va hmoraga asoslangan, tomoshabinlar guruhining mavjud bo'lishini taqozo etadigan asarlar bo'lib, ular o'ziga xos ijro usuliga ega. Loflar askiyalar kabi so'zga chechanlik va hozirjavoblikni talab etadi. Harakatning kontrast asosida qurilganligi-h, kuchli mubolag'aga asoslanishi bilan alohida ajralib turadi.

Loflar kishida bir lahzalik kulgu uygʻotib, unga cheksiz zavq-shavq bagʻishlashi bilan diqqatga sazovordir. Ularning shjeti dialog asosida quriladi. Lof aytish mubolagʻali savol-(epizod)ga undan kuchliroq mubolagʻaviy mantiqiy javob qaytarishdan iborat soʻzga chechanlik musobaqasi shaklida namoyon boʻladi.

Lofchilarning soʻzamollik bobidagi tortishuvi bevosita lofni hzaga keltiradi. Loflar hech qanday kirishlarsiz boshlanadi. Shjet echimi esa latifalarnikidek favqulodda hz beradi.

Loflar odatda ikki qismdan tashkil topadi: Birinchi qismida biror voqea yo hodisa boshlovchi tomonidan boʻrttirilgan holda bayon etilsa, ikkinchi qismida esa ikkinchi lofchining undan-da oshirib-topilgan javobi keltiriladi. SHu tariqa loflar shjeti birikib, yaxlit kompozitsiyali asarni tashkil etadi.

Lof, asosan, **qiziqchi va askiyabozlar**, shuningdek, talantli, hayotiy tajribaga boy kishilar orasida shakllangan va ijro etilgan. Lofchilik, lof urish, lof aytish, lofbozlik oʻz sajiyasiga binoan xalq ogʻzaki sanʼatining askiya, qiziqchilik masxarabozlik, latifagoʻylik turlariga juda yaqin turadi.

Lofchilar ustoz-shogirdlik munosabati orqali maxsus tayyorgarlikdan keyin etishib chiqqan. Hozir soʻzga chechan kishilar tomonidan u keng ijro etilaveradi. Lof kishilarning oʻzaro suhbatida ham tez-tez ishlatiladi. Bu esa loflarning kelib chiqish tarixi ijtimoiy zaruriyat bilan bogʻliqligini koʻrsatadi.

Xalq hayotini, turmush tarzini oʻziga xos tarzda tasvirlovchi folʼklor namunalaridan yana biri **latifalar**dir. Latifalarning asosida engil mutoyiba va oʻtkir hajv yotadi. Ular hajman muxtasar, mazmunan ixcham boʻladi. YAKka ijroda aytiladi. Xalq hajviyoti va mayin hmorga asoslangan latifalarda hayot haqiqati uydirma, soʻz oʻyini, kinoya va qochimlar vositasida aks ettiriladi. Latifalar echimida satira va hmor hal qiluvchi rolʼ oʻynaydi. Echim tasodifan koʻtarilgan kulgu-qahqaha yoki soʻz oʻyiniga asoslanadi. Soʻz oʻyini latifa kulʼminatsiyasini tashkil etadi. Nasriddin Afandi latifalarning etakchi qahramoni hisoblanadi.

Latifa – arabcha lutf, latif soʻzlaridan olingan boʻlib, nozik, nafis maʼnolarini anglatadi. Latifa aytuvchilarni latifagoʻy deyiladi. Latifalar xalq orasida keng tarqalgan boʻlib, xalq ogʻzaki prozasining voqeaband, hajman kichik, yumoristik xarakterdagi xalq hajviyoti janrlaridan hisoblanadi. Latifalar juda qadimiy boʻlishiga qaramay, ularning Nasriddin nomi bilan bogʻlanishi nisbatan keyingi davrlarga xosdir. XIX asrning II yarmida ozarbayjon yoki turk tilidan qilingan latifa tarjimalarining tarqalishi bilan oʻzbek latifalari qahramoni nomini Xoʻja Nasriddin nomi siqib chiqargan va barcha latifalar uning nomi bilan bogʻlangan. SHundan keyin barcha latifalar «Afandi latifalari», «Nasriddin Afandi» yoki qisqagina qilib «Afandi» deb yuritila boshlagan.

**Mustaqil oʻqish uchun adabiyotlar:**

1. Bobolardan qolgan naqlar. To'plab, nashrga tayyorlovchilar: M.Jo'raev, U.Sattorov T.: «Fan», 1998, 35-41-b.
2. Jumanazarov U. Tarix, afsona va din. T.: "O'zbekiston", 1990.
3. Jo'raev M. O'zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar. T., 1994.
4. Jo'raev M. O'zbek xalq samoviy afsonalari. T.: «Fan», 1995.
5. Jo'raev M., SHomusarov SH. O'zbek mifologiyasi va arab fol'klori. T., 2001.
6. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. T.: «Fan», 1981.
7. Latifalar. O'XI. Ko'p tomlik, T.: G'ASN, 1971.
8. Oxunjon qiziq hangomalari. T.: "Meros", 1993.
9. Farg'onalik qiziqchilar. T.: "Mehnat", 1994.
10. Qadimgi afandi latifalari. T., 1993.
11. Qodirov M. O'zbek xalq og'zaki dramasi. T., 1963. Yana: Xalq qo'g'irchoq teatri. T.: G'ASN, 1979; Masxaraboz va qiziqchilar san'ati. T.: "O'qituvchi", 1981, 36-57- va 123-204-b.

## **6-MAVZU: Xalq qo'shiqlari – lirik janr sifatida. Xalq qo'shiqlarining tasnifi va badiiy xususiyatlari.**

### **REJA:**

1. Xalq og'zaki ijodi janrlari tasnifi.
2. Xalq qo'shiqlari va ularning turlari haqida ma'lumot.
3. Mehnat qo'shiqlari (Qo'shchi qo'shig'i, O'rim qo'shig'i, Ho'p-xayda qo'shig'i, yorg'ichoq qo'shig'i, Sog'im qo'shig'i, Hunarmandchilik qo'shig'i).
4. Mavsum-marosim va urf-odat qo'shiqlari (Alla, Sus xotin, Lapar, O'lan, Yig'i-yo'qlovlar, Termalar).

**Tayanch iboralar:** Janrlar tasnifi, qo'shiqlar va ularning turlari, mehnat, mavsum, marosim qo'shiqlari.

**Darsning maqsadi:** O'zbek xalq og'zaki ijodi janrlari va xalq qo'shiqlari haqida talabalarga ma'lumot berish.

**Darsning vositalari:** Ko'rgazmali o'quv qurollari, qadimiy afsona va rivoyatlarga ishlangan rasmlar (SHiroq, To'maris, Rustam).

**Darsning metodi:** An'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test savollari.

**Darsning mazmuni:** Badiiy adabiyotda bo'lganidek, fol'klor asarlari ham tuzilishi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlarga ko'ra, o'zaro o'xshash hamda farqli tomonlarga ega bo'lib, muayyan gruppalarni tashkil etadilar. Bunday farqli va o'xshash tomonlarni ko'rsatish uchun fanda adabiy turlar va janrlar terminlari qo'llaniladi. Adabiy tur va janrlar hayotni badiiy tasvirlash shakli sifatida tarixan shakllangan bo'lib, ularning paydo bo'lishi, taraqqiyoti, o'rin almashishi va inqirozi adabiyot va fol'klor tarixida etakchi jarayon hisoblanadi.

Adabiyotda tur (rod) nihoyatda keng tushuncha bo'lib, o'z ichiga turli janrlarni qamrab oladi. Qadimgi grek filosofi Aristotel' (384-322), nemis olimi Gegel' (1770-1831) va ulug' rus revolyutsion demokrati V.G.Belinskiy (1811-1848) lar adabiyotni uch turga bo'lib ko'rsatadilar. Bular: epos, lirika va drama. epos voqelikni syujetli, hikoyaviy formada aks ettirsa, lirika insonning voqelikdan olgan taassurotlarini, ichki his-hayajonlarini tasvirlaydi. Drama esa personajlar nutqi va harakati orqali hayot kartinalarini chizadi.

Bunday bo'linishni muayyan istisnalar bilan fol'klorda ham qo'llash mumkin. Gap shundaki, fol'klor janrlarining ayrimlari turli urf-odat va marosimlar bilan bog'liq bo'lsa, ba'zilar kuylash uchun mo'ljallangan bo'ladi. Binobarin, uning ayrim namunalarini yuqoridagi uch turning bittasiga ham kiritish mumkin emas. Mana shu holatlarni hisobga olib, o'zbek fol'klori janrlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin. O'zbek fol'klori asarlari, avvalo ikki katta gruppaga bo'linadi:

1. Urf-odat va mavsum-marosimlar bilan bog'liq asarlar.

2. Turli urf-odat va marosimlar bilan bog'liq bo'lmagan fol'klor janrlari.

Birinchi gruppaga:

a) mehnat qo'shiqlari (ho'p-mayda, turey-turey, churey-churey, ho'sh-ho'sh va boshqalar);

b) mavsum qo'shiqlari;

v) marosim qo'shiqlari (tug'ilish, to'y, aza va boshqalar);

g) olqish, afsun va qarg'ishlar;

d) aytimlar kiradi.

Ikkinchi gruppaga epik (doston, ertak, afsona, rivoyat, lof, latifa), lirik (qo'shiq, ashula, terma), dramatik (aksiya, og'zaki drama) va kichik (maqol, topishmoq) janrlarni o'z ichiga oladi. Har bir janr o'z navbatida yana ichki turlarga bo'linadi. Masalan, ertaklarni hayvonlar haqidagi, sehrli, fantastik, hayotiy-maishiy va hajviy turlarga bo'lish mumkin.

Asosan mustaqil to'rtliklardan tashkil topgan, tugal fikrni badiiy ifodalovchi, el orasida keng tarqalgan va kuylangan xalq she'ri namunalariga qo'shiq deyiladi. Qo'shiq termini keng ma'noda bo'lib, xalq she'riyati, lirik qo'shiqlar, xalq lirikasi, ashulalar degan umumiy nomlar ostida yuritilib kelinadi. SHu bilan birga, uning

konkret namunalarining o'z nomlari bor. Masalan, «YOr-yor», «O'lan», «Lapar», «Lirik terma», «Alla», «Bayt-g'azal», «Kelin salom», «Xush kelibsiz», «Yig'i» va boshqalar. Qo'shiqlarni ijro etuvchilar qo'shiqchi, go'yanda, ashulakash (ashulachi), laparchi, o'lanchi deb nomlanadi. Qo'shiqlarda ham kollektivlik, og'zakilik, variantlilik, anonimlik kabi xususiyatlarni ko'ramiz. Ular, asosan, barmoq vaznida yaratilgan bo'lib, ba'zan aruzda to'qilganlari ham uchraydi. Xalq qo'shiqlari uchun musiqiylik, ravonlik, kuylashga (ijrochilikda ko'pchilik yoki yakka) moslik xosdir.

Qo'shiq termini birinchi marta XI asrda yozilgan, ilmiy adabiyotlarning bizgacha etib kelgan eng qadimiysi hisoblangan Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida *qoshug'* shaklida berilgan bo'lib, bu so'zning izohi she'r, qasida deb ko'rsatilgan. SHuningdek, «qo'shiq» so'zini YUsuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida, XII asrda yozilgan Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddimatul-adab» lug'atida ham xudi shu ma'nolarda uchratamiz. Xususan, Alisher Navoiyning «Mezonul-avzon» va Zahiriddin Bobirning «Risoi aruz» asarlarida qo'shiq so'zi surud, ayolg'u, lahn, turki tarona, ashula, o'lan, chipga (chinka) nomi bilan ham tarqalgan, ular qo'shiqning turli janrlarini atash uchun qo'llanilgani bayon qilinadi.

**1. Mehnat qo'shiqlari.** Mehnat qo'shiqlari mazmunan dehqonchilik, bog' va bog'chachilik, chorvachilik, ovchilik, hunarmandchilik va boshqa kasblarga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Mehnat turlari xilma-xil bo'lganidek, mehnat qo'shiqlari ham turli-tumandir. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlarga qo'shchi, o'rim, xirmon yanchish, yorg'ichoq qo'shiqlari kiradi.

**a) Qo'shchi qo'shig'i.** Qahraton qishdan bola-chaqasi bilan toliqib chiqqan dehqon bahor kelishi bilan er haydashga kirishadi. Tabiat jonlangan, xushhavo, biroq uning ho'kizi ishga yaramaydi – o'lguday och, madori qurigan. Dehqon ilk bahordagi nochor ahvolini ho'kiz tilidan shunday tasvirlaydi:

SHoxlarim quloch-quloch,  
Yo'q madorim, qornim och,  
Tepamda qo'ngan qaldirg'och,  
Men qaytib qo'shga yarayman.

**b) O'rim qo'shig'i.** O'roq va o'roqchilar guruhi tomonidan o'rim paytida aytiladigan o'rim qo'shiqlarida dehqonning umidi ro'yobga chiqayotgani, ko'tarinki ruh bilan ishga kirishayotgani bayon etiladi. Dehqonning yuragida kuch-g'ayrat jo'sh uradi. U g'allani tezroq o'rib, g'aram qilish niyatida:

O'rog'im olmos,  
O'rishdan qolmas,  
Sira ham tolmas,  
O'rmasa bo'lmas.

**v) *Ho'p-mayda.*** Xirmon yanchish vaqtida dehqonlar tomonidan aytiladigan qo'shiqlar *ho'p-mayda* yoki *maydagul* deb yuritiladi. Ho'p-mayda baland ovoz bilan cho'zib aytiladi. Ularda dehqonning hosilni yig'ishtirish, ro'zg'or-tirikchilikni ta'minlashga intilishi, ho'kizning – ishchi hayvonning dehqon hayotida g'oyat katta o'rin tutishi unga bo'lgan muhabbatini tasvirlash bilan ko'rsatiladi. SHuning uchun ho'p-mayda qo'shiqlarida ho'kizning tavsifi, uning tuyog'idan shoxigacha bo'lgan tasviri beriladi:

Ayri-ayri tuyoqqa, mayda-yo, mayda,  
Ayri nahal yarashar, mayda-yo, mayda,  
Jilviragan quloqqa, mayda-yo, mayda,  
Tilla sirg'a yarashar, mayda-yo, mayda.

**g) *YOrg'ichoq qo'shiqlari.*** YOrg'ichoq deb atalgan qo'l tegirmonini kuni bo'yi aylantirish mashaqqatli mehnat. Bug'doy, arpa, jo'xori, tariqni un qila turib aytiladigan qo'shiq mehnat kishisiga hamroh. Og'ir toshning g'o'ldirab, bir joyda aylanib turishi ohangida to'qilgan qo'shiqlar ham vazmin, ham cho'zib aytiladigan bo'ladi:

YOrg'ichoq torta-torta toldi qo'lim,  
Ikki tosh orasida qoldi qo'lim.

**d) *Sog'im qo'shig'i.*** Sigir, qo'y, echki, biya, tuyalarni sog'ishda erkalash ohangida aytiladigan qo'shiqlarni sog'im qo'shiqlari deyiladi. Sigir sog'ish bilan bog'liq qo'shiqlar – «ho'sh-ho'sh» yoki «ho'shim» deyiladi. Ular ham boshdan-oyoq govmish sigirga murojaat shaklida to'qilgan bo'lib, sutli sigir mehnat ahli ro'zg'orini to'kin qiladigan xazina deb ardoqlanadi, sog'ish paytida silab-siypab aytilgan qo'shiq govmishni iydirdi:

Saralab eding o'tingni, ho'sh-ho'sh,  
Iyib bergin sutingni, ho'sh-ho'sh,  
Olmazor buloq o'ting bor, ho'sh-ho'sh,  
Oqar buloq suting bor, ho'sh-ho'sh.

**e) *Hunarmandchilik qo'shiqlari.*** O'zbek xalq qo'shiqlari orasida hunarmandchilik qo'shiqlari anchagina salmoqli o'rin egallaydi. Bunday qo'shiqlarda hunarmand yoki kosibning uzoq tarixiy sharoitlardagi moddiy va ma'naviy hayoti, ichki ruhiy kayfiyati ibtidoiy ish qurollari tufayli tug'ilgan mehnat mashaqqati bilan qo'shilib tasvirlanadi:

Bo'z to'qiymiz qirog'ini o'xshatib,  
Moki otaman dastginamni qaqshatib,  
Bozordagi shoyilardan yaxshi etib,  
Nafisdan o'xshagan bo'zim yaxshidir.

**2. Mavsum-marosim va urf-odat qo'shiqlari.** Insonning yashash va hayot kechirish tarzi, yilning to'rt fasli, mehnat oylari, bayramlar, urf-odatlar,



marosimlar, mavsumiy ish-harakatlar bilan bog'liq ravishda juda ko'p qo'shiqlar yaratilgan. Marosimlar, odatlar, turli-tuman bo'lganidek, bularga bag'ishlangan qo'shiqlar ham xilma-xildir: boychechakning ochilishi, yangi yil – navro'zning kelishi, bahor yomg'iri, laylak kelishi, ekinlarning pishishi, xirmon quvonchi, donlarni qushlardan saqlash singari voqealarga qo'shiq bag'ishlangan. Qo'shiqlar xalqning oila bayramlarini, marosimlarini bezab kelgan. Mavsum va marosim bayramlarida kishilar o'yin-kulgi qilgan, dam olishgan, yangi mehnat faoliyatiga ilhomlanganlar.

**a) Alla.** Bolalarni uxlatish vaqtida onalar tomonidan kuylangan qo'shiqlar alla deb ataladi. O'tmish alla qo'shiqlarida zahmatkash, mushtipar, ezilgan mazlum sharq onasi obrazi gavdalanadi. Uning betinim xatti-harakati, beminnat mehnati tufayligina murg'ak go'dak ulg'ayadi, voyaga etadi.

**b) YO, ramazon.** eski yil kalendaridagi ramazon oyida bolalarning (ilgarigi zamonda kattalarning ham) hovlima-hovli yurib aytadigan qo'shiqlari edi.

**v) Sus xotin.** Qurg'oqchilik munosabati bilan yomg'ir chaqirish marosimida aytiladigan «Sus xotin», «Talabi boron» («YOmg'ir talab») qo'shiqlari turli irimlar qadimdan qolgan animistik tushunchalar bilan bog'langan.

**3. To'y qo'shiqlari.** To'y juda qadim zamonlardan beri kishilar hayotida muhim voqea bo'lib kelgan. Xalqning ma'naviy boyligi to'y-tomoshalarda namoyon bo'ladi. To'y marosimlari – uylanish to'yi, xatna to'yi, yosh to'yi, beshik to'yi singari xilma-xil bo'lganidek, uning qo'shiqlari ham turli-tumandir. Quyida, asosan nikoh to'ylarida aytiladigan qo'shiqlar haqidagina fikr yuritamiz. Bunday qo'shiqlarda yigit-qizning baxtini tilash, ularning yaxshi kelajagini orzu qilish, muhabbat taronalari kuylanadi.

**a) «YOr-yor»lar.** Qiz uzatar kechasida aytiladigan qo'shiqlardan biri «yor-yor»lardir. «YOr-yor» qo'shiqlari musiqiyli, ma'lum cho'ziq ohangda ko'pchilik bo'lib kuylanishi, naqoratlari bilan ajralib turadi.

**b) Lapar.** Nikoh to'ylarida qizning uyida kechqurun o'tkaziladigan «Qiz oqshomi», «Qizlar majlisi», «Qiz oshi», «Lapar kechasi» deb ataladigan bazmlarda lapar aytiladi. Qizlar bilan yigitlar tarafma-taraf turib, oshiqona g'azal-baytlar aytishganda, xuddi so'z bilan tortishmachoq o'ynaganday bo'ladi.

**v) O'lan.** Nikoh to'ylari, ba'zan bayram kunlari, ayrim yig'inlarda, asosan cholg'usiz, aytiladigan o'lanlar ko'proq chorvadorlar, dehqonlar orasida tarqalgan. O'lanlarda cho'pon yigit bilan cho'pon qiz sevgi dardlaridan bahs etib, so'zamollikda, chechanlikda, odamiylikda bir-birlarini sinaganday bo'ladi, musobaqadosh tomonlar bir-birlariga sovg'alar beradi.

**g) Kelin salom.** Kelinchakni kuyovning yaqin qarindosh-urug'lari bilan tanishtirish marosimida kelin salom yoki betochar qo'shiqlari aytiladi. Uy egalari, to'yga kelganlar esa «alik salom» deb javob qaytaradilar.

**d) Yig'i-yo'qlovlar.** Qadrdon kishining vafoti munosabati bilan ayollar tomonidan yig'lab aytiladigan aza, yig'i, yo'qlov, aytim, bo'zlov qo'shiqlarida marhumning eng yaxshi sifatlari yo'qlanadi, shafqatsiz o'lim tufayli boshga tushgan musibat, judolik ifodalanadi.

**4. Termalar.** Terma o'zbek fol'klorining mustaqil janri bo'lib, uning yaratilishida baxshilarning roli nihoyatda kattadir, ko'pchilik hollarda ular dostonchilarning individual ijodi hisoblanadi. Pand-nasihat, odob-axloq, soz va so'z haqida yaratilgan, ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta'rif yoki tanqidiga bag'ishlangan, baxshilar tomonidan kuylanadigan 10-12 satrdan 150-200, ba'zan undan ortiq misralargacha bo'lgan lirik, lirik-epik she'rlarga *terma* deyiladi. Terma so'zining ma'nosi terib, tanlab tizish demakdir, ya'ni nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan forma va mazmun jihatidan bir-biriga yaqin bandlarni (har bir band 3, 4, 5, 6 va undan ortiq misralardan iborat bo'lishi mumkin) tuzilish jihatdan yaxlitlashtirishdir.

Xalq qo'shiqlarida insonning ruhiy olami, ichki kechinmalari, turmushida sodir bo'luvchi ko'ngilli va ko'ngilsiz voqealar, g'am-anduh yoki shodligu xurramliklari, mehnat mashaqqatlari, sevgi iztiroblari his-tuyg'ular orqali aniq badiiy obrazlarda gavdalandiriladi.

Xalq qo'shiqlari tarixan raqslar bilan ham yaxlitlashgan va albatta, kuylanishga muvofiqlashgani bilan ajralib turadi. Xalq orasida qo'shiq ijrochilari qo'shiqchi, xalfa, satang, go'yanda (nahvagar), ashulakash (ashulachi), laparchi, o'lanchi tarzida farqlanadi. Qo'shiqchi ko'pincha to'rtliklarni ijro etsa-da, aslida nisbatan kengroq ma'noda umuman qo'shiq ijrochisi va ijodkori bo'lsa, go'yanda (nahvagar) asosan yig'i-yo'qlovlarni kuylashga ixtisoslashgan qo'shiqchidir. Ashulakash yoki ashulachi ko'pincha maqom tarkibidagi qo'shiqlarni yoki katta ashula deyilguvchi jo'rsiz ijro etiladigan qo'shiqni kuylay oladiganlardir. Laparchi raqsga tushgan holda qo'shiq aytuvchi bo'lsa, o'lanchi to'y marosimi qo'shiqlarini ijro etuvchidir. Xalfa Xorazmda keng tarqalgan ayol qo'shiqchiligi bo'lib, ular ham to'y, ham aza qo'shiqlarini barovar ijro etaveradilar. Satang Namanganda xalq qo'shiqlarini doira jo'rligida ijro etuvchi ayollardir. Xalq qo'shiqlari turli joylarda turlicha ijro etiladi.

Qo'shiqlar yaratuvchilar va ijro etuvchilarning mehnat faoliyati – ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik ishlari, kulolchilik, o'ymakorlik va boshqa san'atlarga bevosita aloqadorligi hamda qadimiy urf-odatlar, xilma-xil marosimlari va e'tiqodlari negizida yashab kelmoqda.

Xalqimiz o'z mehnatining barcha jarayonlarini qo'shiq bilan ziynatlagan, qo'shiq bilan izhori dil qiladi, yovuzlikka nafratini qo'shiqda ifoda etadi, mavsumlar almashinishini qo'shiq bilan kutib oladi, qo'shiqqa sig'inadi, shundandirki, qo'shiq bilan chaqaloqni uxlatadi, farzandini uylantiradi, hatto eng

yaqin kishisidan ajralganida ham uni yig`i va yo`qlovlarni bo`zlab kuylagan holda so`nggi manzilga kuzatadi.

Qo`shiqlar mazmunan ijtimoiy turmushning barcha sohalarini qamrab olgan. Turmushda ro`y bergan har bir ijtimoiy hodisaga ular hozirjavobdir. SHu xususiyatiga ko`ra, ularni an`anaviy va zamonaviy qo`shiqlarga bo`lib o`rganish mumkin. Xalq qo`shiqlarining asosiy salmoqli hissasini badiiy jihatdan pishiq va hksak ohangdorlikka ega an`anaviy qo`shiqlar tashkil etadi. Biroq hayot muttasil harakatda bo`lgani bois unga hozirjavoblik bilan yaratilayotgan, yangi zamon va uning kishilari ruhiyatini ifodalayotgan zamonaviy qo`shiqlar ham ijod qilinmoqda. Xususan, mustaqillik tufayli xalq ijodiyotiga, ayniqsa, qo`shiqchiligiga nisbatan qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Respublikada o`tkazilayotgan turli darajadagi xalq qo`shiqchiligi ijrochiligiga oid tanlovlar, aytaylik, allalar, to`y marosimi qo`shiqlari ko`rik –tanlovlari, xususan, HNESKO tashabbusi bilan o`tkazilayotgan «Boysun bahori» xalqaro qo`shiq ko`rik-tanlovlari bu sohadagi jonlanishni yanada kuchaytirmoqda. Natijada qisqa muddatda ko`plab fol`klor –etnografik dastalari paydo bo`ldi. Ulardan Boysunning «SHalola», Urgutning «Besh qarsak», Buxoroning «Mohisitora», «Nozanin» va boshqa qator fol`klor –etnografik dastalar nafaqat mamlakatimizda, balki uning sarhadlaridan tashqarida ham e`tirofga sazovor bo`lishdi. Ularning repertuarini, asosan, an`anaviy xalq qo`shiq va termalari tashkil etsa-da, zamonga hamqadamliklarini ifodalovchi zamonaviy qo`shiqlarni ham yaratib ijro etayotganlari ko`zga tashlanib turibdi.

O`zbek xalq qo`shiqlari janr mansubiyati, ijro maqsadi, o`rni va vazifasi jihatidan uch katta guruhga bo`linadi:

I. Marosimga aloqador xalq qo`shiqlari yoki marosim fol`klori. Bu mavsumiy, oilaviy – maishiy va so`z magiyasiga mansub marosimlarga daxldor qo`shiqlarni o`z ichiga oladi.

II. Marosimga aloqasi bo`lmagan xalq qo`shiqlari yoki nomarosimiy fol`klor. O`z navbatida, bu guruhga mansub qo`shiqlar ham janriy shakli, ijro xususiyati va motivlari hamda ijtimoiy-estetik vazifasiga qarab to`rt ko`rinishda namoyon bo`luvchi mehnat qo`shiqlari, lirik qo`shiqlar, tarixiy qo`shiqlar va termalarni qamrab oladi.

III. Bolalar poetik fol`klori yoki bolalar qo`shiqlari. Bu xususda bolalar fol`klori bahsida batafsil to`xtaniladi.

Qo`shiq kishining ongi va hissiyotlariga ta`sir etish qudratiga ega. Aksariyat qo`shiqlarda xalqning urf-odati, milliy an`analari, axloq normalari o`z aksini topgan. SHu vazifasiga binoan ular etnopedagogik qimmat kasb etadi.<sup>7</sup>

---

<sup>7</sup> B u haqda qarang: Safarov O., O`raeva D. O`zbek xalq qo`shiqlarida etnopedagogik qarashlarning ifodalanishi. – Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotlari, 2003, 1-son, 14-21 –b.

Mazmunan mehnat jarayoni bilan bog'liq bo'lgan qo'shiqlar mehnat qo'shiqlari deb hritiladi. Mehnat qo'shiqlari xalqimizning qo'shiqchilik repertuarida alohida va mustaqil o'rin tutadi. Mehnat qo'shiqlarining mazmun-mundarijasini, janr xususiyatlarini mehnat turlari va uni amalga oshirish jarayoni belgilaydi. Mehnat qo'shiqlari o'ziga xos ohangda sozsiz ijro etiladi.

Mehnat qo'shiqlari xalq she'riyatining eng qadimiy shakllaridan biridir. Ilk namunalari M.Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kitobi orqali bizgacha etib kelgan. Mehnat qo'shiqlari ibtidoiy insonning mehnat faoliyati bilan bevosita aloqadorlikda vujudga kelgan va taraqqiy topa borgan. Dastlabki mehnat qo'shiqlari mehnat jarayonidagi muayyan harakat ritmiga mos keluvchi undov, xitob va nidolar xarakteridagi poetik parchalardan iborat bo'lgan. Bora-bora ular she'riy shaklga tushgan va kuylana boshlangan.

Mehnat qo'shiqlari ish jarayonida ijro etiladi. SHu sababli mehnat turining o'zgarishi yoki yo'qolishi tufayli o'sha jarayonda ijro etiladigan qo'shiqlar ham yo'qoladi. Masalan, charx va yorg'ichoq ishlatilmay qolgandan buyon charx va yorg'ichoq qo'shiqlari ham kuylanmay qoldi.

Mehnat qo'shiqlari mehnat turlariga qarab har xil bo'ladi. Ular tubandagi uch katta guruhga bo'lib o'rganiladi:

Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar.

CHorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar.

Kasb-hunar bilan bog'liq qo'shiqlar.<sup>1</sup>

Xalqimiz qadimdanoq chorvachilik bilan ham shug'ullanib kelgan. Bu kasb xalqimiz hayotida muhim o'rin egallagan. CHorva hayvonlarini boquvchi kishilar chorvador yoki cho'pon deb hritiladi. Ot, tuya, sigir, ho'kiz, qo'y, echki kabilar chorva jonivorlari hisoblanadi. Xalq orasida ot boquvchini yilqiboqar, tuya boquvchini tuyaboqar, sigir va ho'kiz boquvchini podachi, qo'y-echki boquvchini qo'ychivon yoki cho'pon, tovuq boquvchini-parrandaboqar deyish an'anaga aylangan. Turli-tuman qushlarni parvarish qiluvchilar nomiga «qushchi» nisbatini qo'shib aytishgan.

CHorvachilik faoliyatining vujudga kelishiga ibtidoiy insonlarning u yoki bu jonivorga e'tiqod qo'yishi, uni o'ziga homiy va madadkor hisoblab, totem darajasida e'zozlashi, shu asosda hzaga kelgan turli totemistik qarashlari muhim omil bo'lgan.

Xalqimixz orasida sigir, qo'y, echki, biya, tuya singari uy hayvonlarini iyydirishga xizmat qiluvchi sog'im qo'shiqlari shakllangan. Sog'im qo'shiqlari sog'iladigan hayvon turiga qarab turlanadi. Sigir sog'ish jarayonida kuylanadigan qo'shiqlar - «Ho'sh-ho'sh» qo'shiqlari yoki «govmishim», qo'yni sog'ishda

---

<sup>1</sup> Qarang: Kamol Ochil. Qaldirg'ochni qo'ndirgan qo'shiq. Samarqand: «Zarafshon» nashriyoti, 1992, 5-b.

aytiladigan qo`shiqlar - «turey-turey»lar, echkini sog`ish qo`shiqlari esa «churey-churey» yoki «churiya»lar deb nomlanadi. Ular sog`ilayotgan hayvonni tinchlantirish, uni iyydirish uchun kuylanadi. CHunki tinch va iyigan jonivordan ko`proq sut sog`ib olish mumkin.

«Ho`sh-ho`sh»larni kuylashdan oldin sog`uvchi sigirning bolasi-buzoqni emizishga qo`yadi. Buzog`ini ko`rib sigir iyyidi. SHunda sog`uvchi darhol buzoqni tortib, sigirni qo`shiq yordamida iyyitishda davom etadi va sutini sog`ib oladi. «Ho`sh-ho`sh»lar sigirni iyyitishiga ishonilgan. Bu ishonch sog`im qo`shiqlarida alohida ta`kidlanadi:

«Ho`sh-ho`sh»lasam iyyasan, ho`shey-ho`shey,  
Kovshabgina turasan, ho`shey-ho`shey,  
Angraymagin jonivor, ho`shey-ho`shey,  
Sen bolangga to`yasan, ho`shey-ho`shey.

Ko`z magiyasi, kinna kirishiga ishongan qadimgi chorvadorlar zotdor, ko`p sut beradigan sigirlarni yomon ruhlardan asrash uchun turli tadbirlarni qo`llaganlar. Ularning shoxlariga maxsus duolar yozilgan tumorlar, qalampirmunchoq yoki ko`zmunchoqlar shodasini ilib qo`yishgan. Aks holda ko`z tekkan sigir yo o`ladi, yo kasallanib kam sut bera boshlaydi, deb irim qilingan. Tabiiyki, bunday e`tiqod va qarashlar «ho`sh-ho`sh»larda ham «ko`z tumor» detali orqali badiiy ifoda etiladi:

Seni haydab boqayin,  
Ko`z tumorlar taqayin, ho`sh-ho`sh

Qo`ylarni sog`ish va qo`zilarni emizish jarayonida kuylanadigan «turey-turey» qo`shiqlarida ona sovliqni madh etish, uni iyydirishga qaratilgan erkalash motivlari etakchilik qiladi.

«Turey-turey»lar ko`pincha qorako`lchilikda terisini olish uchun 3-4 kunligidayoq (barraligidayoq) so`yib hborilgan qo`zichoqlarning onalarini sog`ish uchun kuylanadi. SHu sababli ularda ona qo`yning o`z bolasini qidirishi, uni izlab ma`rashiga hamdardlik bildirish, achinish motivlari katta o`rin tutadi.

Qo`ylar juda hid sezuvchi bo`lishadi. Agar ular yangi tug`ilgan qo`zilariga boshqa hayvonning hidi urib qolsa, uni emizmay qo`yishgan. SHunda ham ona qo`ylarni iyydirish va qo`rqitish maqsadida «turey-turey» qo`shiqlari ijro etilgan.

«CHuriyalar» yoki «churey-churey»lar echkilarni sog`ish yoki uloqlarni emizish paytida ijro etilgan. Ularda echkini iyydirish, bolasini emdirishga qarshilik qilmaslik motivi ustunlik qiladi. CHuriyalarda ko`pincha echkining, sersut elini, soqoli, shoxi yoki qashqasi maqtaladi:

Og`ziginangda o`ting bor, churey-churey,  
Elinginangda suting bor, churey-churey,  
Sersoqolim jonivor, churey-churey,

Kerilib turgan buting bor, churey-churey.

Xalqimiz azal–azaldan dehqonchilik bilan ham shug`ullanib, shuning orqasidan tirikchilik o`tkazib kelgan. Dehqon mehnati erta bahorda er haydashdan boshlanadi. Biroq erta bahorda, ilik uzildi vaqtida kamquvvat bo`lib qolgan inson uchun er haydashdek og`ir jismoniy mehnatni bajarish oson kechmaydi. SHu paytda dehqonlar qo`shiq kuylab, o`zlarini ovutganlar va shu orqali biroz bo`lsa-da, og`ir mehnatning qiyinchiligini unutganlar. Qo`sh haydash paytida ijro etiladigan qo`shiqlar **qo`sh qo`shiqlari** deyiladi. Ularda qo`shchi yoki qo`shga qo`shilgan ho`kiz tilidan og`ir mehnatdan qilingan shikoyat yoxud ish hayvoniga murojaat motivlari etakchilik qiladi.

Qo`shchi qo`shiqlari qadimiy mehnat qo`shiqlari sirasiga kiradi. Uning asosiy vazifasi og`ir mehnat paytida dehqonning o`z ko`ngil dardlarini aytib, o`z-o`ziga taskin berish, o`zini ovutish, ruhini ko`tarishdan iborat.

Qo`shchi qo`shiqlari orqali zamonamiz yoshlari o`tmishda dehqonchilikda erni hozirgiday texnika vositalari yordamida emas, balki bo`yniga bo`yinturiq bilan omoch osilgan ho`kizlarning kuchi bilan haydalganligini bilib oladilar. Qo`shiqda shu tarixiy manzara badiiy o`z ifodasini topgan.

Hozirgi paytda erlarning traktorlar yordamida haydalishi qo`sh qo`shiqlaridan foydalanishni bekor qildi. SHu sababli qo`sh qo`shiqlari yaratilishdan va jonli ijroda yashashdan mahrum bo`ldi.

**O`rim qo`shiqlari**–dehqon mehnatining samarasi hzaga chiqayotgan o`rim lahzalarida kuylanadi. O`roqchi hasharchilarning o`rim-yig`im paytida o`zlarini ovutish uchun maxsus to`qigan qo`shiqlari o`rim qo`shiqlari deb hritiladi. Bu xil qo`shiqlarda dehqonning bilak kuchi, uning asosiy mehnat quroli-o`roq maqtaladi. Arpa, bug`doyning xalq tirikchiligi uchun naqadar qimmatligi, ro`zg`orning qut-barakasini ta`minlovchi vosita ekanligi tarannum etiladi.

Hozirgi paytda donni, asosan, kombaynlar yordamida o`rib-yig`ib olish tufayli o`rim qo`shiqlarini ijro etish deyarli so`nib, ular unutilib bormoqda.

**YAnchiq qo`shiqlari yoki ho`p –maydalar.** Bu turkumga kiruvchi mehnat qo`shiqlari xalq o`rtasida «Ho`p qo`shiqlari», «Maydalar», «Ho`p maydalar» yoki «Maydagul» deb hritiladi. Ularni o`rilgan donni xirmon qilib yanchayotganda, mungli baland ovoz bilan cho`zib ijro qiladilar. Bu xil qo`shiqlarda dehqonning yoz bo`yi qilgan og`ir mehnati natijasida etishtirilgan hosilni tezroq yanchib olish istagi bayon etiladi. YAnchiq qo`shiqlari galagov tashkil qilingan maxsus maydonda kuylanadi. SHuning uchun yanchiq qo`shiqlarida “galagov” so`zi ko`p uchraydi:

Mayda dedim, xo`p deding, mayda-yo, mayda,  
Ho`pga maylim yo`q deding, mayda-yo, mayda,  
Galagovga qo`shganda, ho mayda-yo, mayda,

Ko`rgiligim ko`p deding, mayda-yo, mayda.

Galagov maydonida doni ajratilmagan bug`doy doira shaklida yoyib qo`yiladi va doira markaziga yo`g`on yog`och ustun o`rnatilib, unga bir necha ishchi hayvonlar: ot, ho`kiz, eshak kabilar bir-biriga yonma-yon matab bog`lanadi. Mana shu matalib bog`langan hayvonlar to`dasi galagov deyiladi. Galagovga donni bir tekis yanchishi uchun tut, qayrag`och kabi qattiq daraxt shoxlaridan to`qilgan chokar bog`lab qo`yilgan.

G`allani o`rish va yanchish ishlari texnika yordamida amalga oshirila boshlangach, mayda qo`shiqlari ham asta-sekin unutilib bormoqda.

**YOrg`ichoq qo`shiqlari.** YOrg`ichoq qo`l tegirmoni bo`lib, u suv va shamol tegirmonlari kashf etilmasdan oldin paydo bo`lgan. Uni ko`l yordamida aylantirganlar. YOrg`ichoq aylantirish-og`ir va unumsiz ish. Bu ishni, asosan, ayollar bajarishgan. SHu sababli yorg`ichoq qo`shiqlarining ijodkorlari ham ayollar hisoblanadilar.

YOrg`ichoq qo`shiqlarida kun bo`yi yorg`ichoq tortishning jismoniy va ma`naviy mashaqqati, og`ir toshni aylantirish ayol kishi uchun naqadar qiyin ekanligi, binobarin, tegirmonning undan afzalligi, ayollarning turmush tashvishlari mungli nidolar bilan kuylanadi.

YOrg`ichoqni taq-taqijon deydilar-o,

Tegirmonni rohatijon deydilar-o.

YOrg`ichoq tortmas edim,

Och qolganimdan tortaman...

YOrg`ichoq qo`shiqlaridan olingan bu parchadan yorg`ichoq tortish mashaqqatining butun dahshatini to`la his etish mumkin.

Hozirgi paytda yorg`ichoqdan foydalanilmayotgani bois unga aloqador qo`shiqlar ham kuylanmay qoldi.

Hunarmandchilik kasbi ibtidoiy jamoa tuzumining emirilish davrida, ov hamda boshqa mehnat qurollarini yasashga nisbatan ehtiyojning tug`ilishi tufayli paydo bo`lgan. Hunarmandchilikning paydo bo`lishi shahar hayotining taraqqiy etishi bilan ham bog`liq. Hunarmandchilik mahsulotlarini sotish esa yana bir mehnat turi-savdo-sotiqni ham keltirib chiqargan. Hunarmandchilik ishlarini bajarish jarayonida kuylanilgan qo`shiqlar hunarmandchilik qo`shiqlari deb hritiladi. O`zbek xalq hunarmandchilik qo`shiqlari orasida charx yigirish, urchuq yigirish, o`rmak o`rish, kashta, to`n tikish, gilam, bo`z to`qish bilan bog`liq qo`shiqlar asosiy o`rin tutadi. SHular orasida ip yigirish, kashta, do`ppi, to`n tikish, gilam to`qish kabi mehnat turlarini, asosan, ayollar bajargan. SHu bois bu jarayonda aytiluvchi qo`shiqlarni ham xotin-qizlar yaratib, ijro etishgan.

Hunarmandchilik qo`shiqlarida hunarmandlarning og`ir turmush tarzi, mashaqqatli mehnat sharoiti, ruhiy olami, o`z aksini topgan. Ularni to`quvchilik va tikuvchilik qo`shiqlari tarzida ikki katta guruhga bo`lish mumkin.

To`quvchilik qo`shiqlarida, asosan, xomashyoni tayyorlash va shu jarayonni amalga oshiruvchi mehnat qurollari ta`rifi etakchi motivga aylangan. Ip yigirish va bunda charxning, jundan ip tayyorlash va bunda urchuqning vazifasi, shuningdek, bevosita bo`z, to`r, gilam va sholcha singarilarni to`qish jarayonlariga aloqador mehnat mashaqqatlari ifodalangan.

**CHarx qo`shiqlari** to`quvchilik qo`shiqlari silsilasida keng tarqalgan bo`lib, ularda ip yigirish quroli bo`lgan charxning tavsifi, charx yigirishning mashaqqati, charx yigirma, tirikchilikning o`tmay qolishi, charx yigiruvchi ayolning o`z mehnati samarasidan bahramand bo`lish orzusi kuylanadi.

O`tmishda turli matolarga bo`lgan ehtiyoj faqat qo`l mehnati orqali, oddiy to`qish dastgohlari vositasida qondirilgan. Hozirgidek to`qimachilik sanoati mavjud bo`lmagan. Mehnatkash, hunarmand kishilar oddiy dastgohlarda atlas, kimxob kabi matolar bilan bir qatorda bo`z ham to`qiganlar. Bo`z arzon va pishiq, qishda issiq, yozda esa salqin bo`lishi tufayli atlas va kimxobga nisbatan ancha xaridorgir bo`lgan. Uni ko`pincha mehnatkash xalq olib kiygan. Atlas va kimxobni to`yda kiyish o`rinli bo`lsa, bo`zni kundalik mehnat jarayonida kiyish ancha qulay bo`lgan.

Bo`z to`qish dastgohlari zax va qorong`i hujralarda joylashgan. Bo`z to`quvchini bo`zchi deb aytganlar. Bo`z to`qish nihoyatda qiyin hmush bo`lgan. Bo`z to`qish uchun kecha-kunduz dastgohlar oldidan jilmay ishlashga to`g`ri kelgan. SHunday qiyinchilikni engish, charchoqni unutish maqsadida bo`zchilar ko`plab qo`shiqlar yaratganlar. Ular tomonidan yaratilgan qo`shiqlar bo`zchi qo`shiqlari deb hritiladi.

Bo`zchi qo`shiqlarida unumsiz va mashaqqatli bo`lgan bo`z to`qish mehnatining qiyinchiligi, bo`zchi bozorining kasodligi, to`quvchilarning oilalaridagi muhtojlik va qashshoqlik xususida kuylanadi:

Go`sht ololmay gurda olgan bo`zchi,

Qiz ololmay beva olgan bo`zchi.

Munchalar shildirab o`tar nochasi,

Qip – qizil shalg`omga o`xshar pochasi.

Hozirgi paytda mato to`qish ishlarining texnik jihatdan avtomatlashtirilishi oddiy to`qish dastgohlarini siqib chiqarmoqda. Faqat Farg`ona vodiysining ayrim joylarida (ayniqsa, atlas o`lkasi hisoblanmish - Marg`ilonda) atlas to`qish dastgohlari kam miqdorda saqlanib qolgan, xolos. SHundamikin, bo`zchilar qo`shiqlari ham asta-sekin unutilib bormoqda.



O`tmishda gilam, shol va boshqa jun matohlarni tayyorlashda jun ipdan foydalanilgan. Jundan ip yigirishda urchuq asbobi ishlatilgan. Urchuqda ip yigirish, asosan, xotin-qizlar mashg`uloti sanalgan. Xotin-qizlar urchuqda ip yigirishday og`ir va mashaqqatli mehnatni bajara turib, o`zlarining ayanchli turmushlaridan, erksiz hayotlaridan qalblarida tug`ilgan iztirobu alamlarni qo`shiqqa solganlar va shu qo`shiqlarni kuylash asnosida bir lahza bo`lsa-da, turmush mashaqqatlarini unutganlar. Bu qo`shiqlar urchuq qo`shiqlari deb hritiladi.

Xalqimiz orasida keng tarqalgan hunarlardan biri gilam, sholcha to`qish, ya`ni o`rmak o`rishdir. SHu jarayonda ijro etilgan qo`shiqlar o`rmak qo`shiqlari deb hritiladi. Gilam va sholcha to`qish bo`z to`qishdan ham og`ir va mashaqqatli bo`lgan. U kishidan katta sabr-toqatni va matonatni talab qilgan.

Tikuvchilik qo`shiqlari xalqimizning uzoq asrlar davomida shakllangan tikish-bichishga aloqador an`analarini ifodalaydi. Ular, aksar hollarda, tikiladigan kiyimlarning turlari va ularga daxldor e`tiqodlarga qarab ichki xilma-xillik hosil qilgan. SHu sababli bir kiyimga atalgan namunasi boshqa kiyimni tikayotganda aytilmaydi. SHu zaylda bir-biridan farq qiluvchi kashtachilik, do`ppido`zlik, to`ndo`zlik, zardo`zlik va boshqa turkumlarga mansub qo`shiqlar paydo bo`lgan.

O`zbek kashtachiligi dunyoga mashhur. Xalqimiz bu hunar bilan juda qadim zamonlardan beri shug`ullanib keladi va uni san`at darajasiga ko`tarishga erishgan. Kashtachilikning bir necha turlari mavjud. *Bular bosma, jimalay, sanama, ilma* deb hritiladi. Ularning xar biri kashtachidan alohida mehnat va mahoratni, bilim va qobiliyatni talab etadi.

Kashta tikish bilan ayollar shug`ullanishadi. O`tmishda har bir qizdan kashta tikishni bilish talab etilgan. CHunki u o`z sepin o`zi tikkan kashtalari bilan to`ldirishi lozim sanalgan. Kashtaning turiga qarab, uni tikkan qizning qandayligiga, fe`l-atvoriga, qobiliyatiga baho berishgan va bu hol kashtachilik qo`shiqlarida o`z ifodasini topgan:

*Bosma* tikkan botir qiz,  
*Jimaloy* tikkan chevar qiz.  
*Sanama* tikkan sardor qiz,  
*Ilma* tikkan ilgir qiz.

O`tmishda mahalliy boylar uy bekalarini, qiz-juvonlarni, cho`rilarni kashta tikishga yollab ishlatganlar va ularga og`ir mehnati evaziga arzimas haq to`laganlar. SHu sababli ba`zi kashtachilik qo`shiqlarida kashtado`z ayollarning rahmsiz boylardan shikoyati yangraydi:

Kashta tiktiradi boy,  
Kashta guliga gadoy.  
Kecha-kunduz tik deydi,  
Nega hribdi o`lmay?

Tikuvchilik ishlari orasida kashta tikish to`n, ko`rpa, ko`ylak kabi narsalarni tikishga qaraganda bir muncha qiyin va mas`uliyatlidir. Bu kashtachilik qo`shiqlarida alohida tilga olib o`tilgan:

Jomovdi jonli tikadi,  
To`rmagin egri tikadi.  
To`n tikish, ko`rpa tikish-  
Uni ko`r ham tikadi.

Hozirgi paytda kashtachilik san`ati milliy qadriyatlarimizdan biri sifatida nihoyatda qadrlanadi. Uni yanada rivojlantirish, kashtado`zlikni rag`batlantirish uchun qator chora-tadbirlar ko`rilmoqda. Har yili kashtachilarning an`anaviy ko`rik-tanlovlari o`tkazilib turilibdi. Eng yaxshi kashtado`zlar uchun maxsus sovrinlar tashkil etilmokda.

**Do`ppido`zlik qo`shiqlarida** bosh kiyimni e`zozlash, Vatan va yorga sadoqat motivlari kuylanadi.

Do`ppi tikdim childirma,  
CHo`pu-xasga ildirma.  
Hrtingni chindan sevsang,  
Dushmaningga bildirma;

**To`ndo`zlik qo`shiqlarida** lirik qahramonning o`z kasbiga muhabbati, yorga muhabbat tuyg`usiga singishib, o`zgacha joziba kasb etib keladi:

Banorasdan to`n tikay,  
Oldiga po`pak tutay.  
YOqasiga gul solay,  
Arabiyning xatiday.

**Sarboz qo`shiqlarida** o`tmishdagi amirlik navkarlarining nojo`ya xatti-harakatlaridan norozilik kayfiyati etakchidir:

Karmana hrtidan chiqdim dalaga,  
Bir to`da sarbozdan qoldim baloga.  
Bir to`da sarbozga gel berib qochdim,  
Buxor darvozasin nayzalab ochdim.

O`zbek xalq mehnat qo`shiqlari juda boy va janr e`tibori bilan rang-barang bo`lib, ular orasida *qandolatchilik* va *pazandachilikni* ifoda etuvchi namunalar ham bor. CHunonchi, taomlarimiz sultoni sanaluvchi palov ta`rifidagi mana bu qo`shiq hamon el og`zidan tushmay kelayotir:

Nimcha guruchdan osh bo`lur,  
Qozonga solsam-chosh bo`lur.  
Mehmonni ko`ngli xush bo`lur,  
Vaqosiz ko`rsa- tush bo`lur.

SHuningdek, moshova, chuchvara, atala, sumalak, ugro, sho`rva, piyoba, chalpak va boshqa qator milliy taomlarimiz bilan bog`liq kechinmalarni ifodalagan qo`shiqlar hali – hanuz uchrab turadi. Lekin ular juda kam miqdorda bizgacha etib kelgan. Keyingi vaqtlarda mehnat jarayonining mexanizatsiya va avtomatizatsiyalashtirilishi natijasida mehnat turlarining tabiatida turli o`zgarishlar hz bermoqda yoki muayyan mehnat turi batamom yo`qolib bormoqda. Natijada o`tmishda ular bilan bog`liq tarzda yaratilgan ayrim mehnat qo`shiqlari ham unutilib, yo`qolib bormoqda.

Oilaviy munosabatlar, ishq-muhabbat mavzusi, oshiqning ma`shuqaga dil izhori yoki sevib sevilgan oshiq yoki ma`shuqaning dil o`rtanishlari, muhabbatni baxtsizlik tomon olib boradigan feodal munosabatlaridan norozilik, turmushdan nolish, xotinlarning qiyin ahvoli, adolatsizlikdan shikoyat, vafodorlikni talab etish, visol onlariga intiqlik, hijron kulfatlari, yorni sog`inish, uning yo`liga intizorlik kayfiyatlari, bevafoqlikni qoralash, saodatli sevgi va turmushga intilish g`oyalari lirik qo`shiqlarda tarannum etiladi.

Lirik qo`shiqlar professional ijroga moslanmagan. Ularni istagan shaxs istalgan joyda ijro qilib ketaverishi mumkin. Lirik qo`shiqlarni, odatda, matnni yaxshi biluvchi, hofizasi kuchli, yoqimli ovozga ega bo`lgan kishilar xalq o`rtasida kuylashi odat tusiga kirgan. Bunday shaxslar xalq orasida qo`shiqchi, ashulachi, hofiz yoki g`azalxon deb hritiladi. Biroq bundan lirik qo`shiqlarning ijrosi professional ijrochilar bilan bog`liq degan qat`iy fikrga kelib bo`lmaydi.

### **ZARURIY ADABIYOTLAR:**

1. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi (X.Razzoqov, T.Mirzaev, O.Sobirov, K.Imomov). Toshkent: «O`qituvchi» nashriyoti, 1980 yil.
2. G`.Jalolov. O`zbek fol`klorida janrlar aro munosabati. Toshkent, 1979 yil.
3. M.Qo`shmoqov. CHEchanlikda suvga suvdayin oqib. Toshkent, 1978 yil.
4. M.Alaviya. O`zbek xalq qo`shiqlari. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1959 yil.
5. M.Alaviya. O`zbek xalq marosim qo`shiqlari. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1974 yil.
6. O.Madaev, T.Sobitova. O`zbek xalq og`zaki ijodi. ToshDU, Toshkent, 1999 yil.

### **7-MAVZU: Xalq ertaklarining janr xususiyatlari va mazmuniga ko`ra turlari**

#### **REJA:**

1. Ertak janri haqida umumiy ma`lumot.
2. Sehrli, fantastik va uydurma ertaklar.
3. Hayotiy-maishiy ertaklar.
4. Hayvonlar haqida ertaklar.
5. Hajviy ertaklar.
6. Latifa janri haqida ma`lumot.
7. Ertaklarning tili va badiiy xususiyatlari.

**Tayanch iboralar:** Xalq og'zaki ijodi fanida muhim o'rin tutgan ertak va latifa janrlari haqida ma`lumot.

**Darsning maqsadi:** ertak va latifa janrlarining mavzu doirasi xalq og'zaki ijodida tutgan o'rni, ularning tili va badiiy xususiyatlarini yoritib berish.

**Darsning vositalari:** Ko'rgazmali o'quv qurollari, fol'klorshunos olimlarning ertak janrlarga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

**Darsning metodi:** Blits so'rov, an'anaviy ma`ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

**Darsning mazmuni:** So'z san'atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshladi. ertak termini Mahmud Koshg'ariyning XI asrda yozilgan «Devonu lug'otit turk» asarida *etuk* shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Hozir fol'kloristik termin sifatida ertak so'zi qabul etilgan bo'lsa-da, Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona o'zbeklari orasida matal deb yuritiladi. Buxoro atrofidagi rayon va qishloqlarda, shuningdek, boshqa erlardagi ikki tilda (o'zbek va tojik tillarida) so'zlashuvchi aholi orasida ushuk deb ataladi. Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak termini ham ishlatiladi. O'zbeklar orasida ertak, matal, cho'pchak terminlaridan boshqa yana hikoya, afsona, o'tirik, tural kabi atamalar uchraydi. Alisher Navoiy asarlarida afsona, ertak va masal ma'nolarida cho'rchak so'zi ishlatilganki, u ham cho'pchak so'ziga to'g'ri keladi. Cho'pchak kichik hikoyalarni to'plash, hikoya qilish, topish, izlash ma'nosida bo'lgani uchun ba'zan topishmoq o'rnida ham qo'llangan.

**Ertak** xalq og'zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, katah kichiklar uchun baravar qiziqarli bo'lgan janridir. Ular juda uzoq o'tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlar, marosimlari asosida paydo bo'lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng olijanob insoniy fazilatlar haqidagi orzu-o'ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

Ertaklar professional ijrochilikka asoslangan. O'tmishda ertaklar yilning ma`lum davrida, belgilangan paytda ijrochilik salohiyatiga ega bo'lgan yoshi ulug',

dono, hurmatli va e'tiborli kishilar tomonidan aytilgan. Odatda bunday professional ijrochilar ertakchi deb hritiladi.

Xalq ertak aytmoqqa jiddiy qaragan. SHu haqdagi nuqtai nazarini «Ertak ermak emas, ertakchi og`ziga kelganini demas» maqolida ifodalagan. Ertak ertakchi tomonidan yo bir kishiga, yo butun bir jamoaga qarata aytiladi. Bunda aytish mohiyatan ijroga teng. Aytaylik, ertakchi tinglovchilar diqqatini qozonmoq uchun ertak mazmuniga mos ruhiy holatlarga kiradi, ertak sirli olamini ta`minlash uchun ovoz jilosiga, hz va gavda harakatlariga (mimika va pantomimikaga) alohida e'tibor beradi, ertakni baqirib-chaqirib aytmaydi, balki goh shivirlab, goh ovozini ko`tarib, ko`zlarini har xil holatga solib, hmsheqlik bilan samimiy hikoya qiladi. Hayvonlarga xos ovozlarni taqlid qilsa, mifologik obrazlar ovozi vahmkor ohangda bo`lishini ta`minlaydi. SHu taxlitda butun bir ertakni bir o`zi ijro etadi, asardagi ruhiy olamni o`z kechinmalari bilan to`ldiradi va hayajonbaxshligini ta`minlaydi. SHu ijro xususiyatiga ko`ra ertak ijrochiligi xalq yakka aktyor teatrini eslatsa-da, aslida har qanday dekoratsiyalardan va boshqa sahnaviy atributlardan xoliligi bilan undan farq qiladi.

Ishlab chiqarishning dehqonchilik turi etakchilik qilgan davrlarda ertak, odatda, dehqonlarning dala hmushlari tugagan paytda- kuz va qish mavsumlarida, uzun va zerikarli oqshomlarda aytilgan va bu o`ziga xos an`ana tusini olgan. Ertakchilik oqshomlari shomdan tonggacha davom etgan. SHundandirki, xalqning o`zi bu hodisani «Doston kunda aytiladi, ertak tunda» degan maqolida maxsus ta`kidlab qo`yishni unutmagan.

Garchi ertak eng qiziqarli nuqtasiga – kul`minatsiyasiga kelib qolganiga qaramay, tong otgan zahoti uni aytishdan to`xtanilgan. Xususan, sehrli-fantastik ertaklar ijrochiligida bunga qat`iy amal qilingan. Sababi - sehrli-fantastik ertaklarda mavjud dev, pari, ajina singari qorong`ulik olamining mavjudotlari yorug`lik olamiga chiqib, insonlarga, ayni paytda ertak tinglovchilariga ziyon-zahmat etkazishlari mumkin degan e`tiqod tufayli shunday yo`l tutilgan. Qolaversa, ertaklarga xos sirlilikning yo`qolishidan, uning moddiy hayot qobig`iga singib ketishidan qo`rqilgan. SHomdan boshlanuvchi qorong`ulik tonggacha hukmron bo`lganligidan ertaklar olamiga xos sirlilikni kuchaytirgan omilga aylangan. Ertakning kechqurun aytilishi an`anasi aslida ana shu asosda qaror topgan.

Ertaklarning ayrim qismlari bevosita dramatik harakat yordamida ijro qilinadi. Bunday ijroga amal qilinmasa, ertakning badiiy-estetik qimmati pasayadi. Ertaklar ijrosi uch xil usulda tashkil etilishi mumkin:

- a) teatrlashtirilgan shaklda;
- b) deklamatsion shaklda;
- v) ohangga solingan shaklda.

Ertaklarda va ular ijrochiligida tayyor qolipga aylangan anʼanaviy birikmalar juda koʻp uchraydi. Ular oʻquvchi va tinglovchini qiziqtirishdan tashqari, voqealarni bir-biriga bogʻlashda, uzoqni yaqin qilishda muhimdir. CHunonchi, «qirq hujra bor, hujraning qirqinchisiga kirma», «qilichni bir silkitdi, qilich qirq gaz choʻzilindi», «endi soʻzni boshqa tomondan eshiting», «shohning qahri kelib, ilonday zahri kelib», «oy desa ogʻzi bor, kun desa-koʻzi bor, shirindan shirin soʻzi bor», «suv ichsa tomogʻidan, sabzi esa biqinidan koʻrinadi», «kulsa – ogʻzidan gullar sochilar, hrsa-oyogʻidan tilla sochilar», «yoʻl hrib, yoʻl hrsa ham moʻl hrib, togʻu sahro, choʻl hrib...» kabilar shular jumlasidandir.

Ertak ijrochiligining oʻziga xos tabu – taqiq va irimlari bor. CHunonchi, ertakchi ertak aytayotganda eshikni mahkam tambalagan, oʻchoqqa olov yoqqan, yoniga achchiq va keskir narsalar, shuningdek, non, suv, tosh singari narsalarni qoʻygan.

Oʻzbekistonning turli joylarida ertakchilik matablari boʻlgan. Ularda ustoz ertakchilar oʻzlariga munosib shogirdlar tayyorlagan. SHogirdini ertak aytish sanʼatining nozik qirralari bilan tanishtirgan va unga ertak ijrochiligining sir-sinoatlaridan maxsus saboq bergan.

Ertak epigrafi, anʼanaviy kirish qismi va boshlamasi ertakchining mahoratini baholashga xizmat qiladi, ular, asosan, sajʼ orqali yaratilgan boʻlib, ertak ohangdorligining jozibasini taʼminlaydi, ertakka taʼsirchanlik baxsh etib turadi.

Oʻzbek ertaklari a) sehrli –fantastik ertaklar; b) hayvonlar haqidagi ertaklar; v) maishiy-hayotiy ertaklar kabi ichki turlarga boʻlinadi.

Sehrli va hayvonlar haqidagi ertaklar voqelik asosan xayoliy uydirma negizida hikoya qilinib, ularda hayotda boʻlmagan, boʻlmaydigan gʻayritabiiy narsa-hodisalar tilga olinadi. Maishiy-xayoliy ertaklarda hayotiy uydirma etakchilik qiladi.

Ertaklar janr sifatida uzoq muddatli shakllanish jarayonini kechirgan. Ular ibtidoiy odamlarning turmushdagi biror voqeani oddiygina hikoya qilishlari asosida hzaga kelgan. Davrlar oʻtishi bilan hikoya qilish ham takomillashib borgan. Soʻzga sigʻinish, ilohiy kuchlarga sigʻinish, animistik, totemistik, fetishistik eʼtiqodlar, gallitsunatsiya va tush taʼsirida fantastik (taxayyuliy) vositalarga toʻlisha borsa, hayvonlarni ovlash, xonakilashtirish, ular inonchlariga ishonish, hayvon mahsulotlaridangina emas, balki kuchidan ham foydalanish jarayonlarida hayvonlar haqidagi ertaklar paydo boʻla boshladi. Asta-sekin shu xildagi ertaklarda turmush tajribasini omuxtalashtira borish, u yoxud bu xildagi qusur va kamchiliklardan kulish ertakdagi obrazlarga majoziylik (allegorik) xususiyatni baxsh etdi. Natijada hayvonlarga oid ertaklar tarkibida majoziy namunalar hzaga kela boshladi.

Feodal munosabatlar tarkib topib, unda ijtimoiy jarayon takomillasha borgach, ertaklarda ham shu ijtimoiy munosabatlarni ifodalash tamoyili chuqurlasha bordi, natijada hayotiy uydirmalar asosidagi maishiy ertaklar paydo bo`la boshladi. SHu zaylda ertaklar ijtimoiy – estetik hodisa sifatida xalq epik ijodiyotida mustahkam qaror topdi.

Ertak janri barcha xalqlarning og`zaki ijodida mavjud bo`lib, har bir xalqning umuminsoniy fazilatlari, olijanob qarashlari, hksak orzulari va intilishlarini o`ziga xos milliy ruhda ifodalaydi. Jumladan, o`zbek xalq ertaklarida xalqimizning o`tmish va kelajak maishiy turmushi haqidagi qarashlari, axloqiy me`yorlari, ruhiy olami, o`y-istaklari, orzu-armonlari, shuningdek, jonajon diyorimizning tabiiy iqlimi, geografik muhiti, hayvonot va nabotot olami ona tilimizning boy imkoniyatlaridan foydalanilgan holda badiiy obrazli tarzda aks ettirilgan. SHu vajdan har bir xalqning ertagi o`sha xalq tarixini ma`naviy-madaniy turmush tarzini, ichki dunyosini, imon-e`tiqodini boshqa qardosh elu elatlar bilan ijtimoiy munosabatlarini, urf-odatlarini, yashash joyining iqlimi va tabiiy shart-sharoitlarini o`rganishda muhim manba vazifasini o`taydi.

Deyarli barcha ertaklarning g`oyaviy yo`nalishi yagona maqsadga- mehnat ahlining buhk va yorqin kelajak uchun olib borgan kurashlarini, intilish va orzularini aks ettirishga qaratilgan. SHuning uchun ertaklar hamisha yaxshilik va murodga etishdan iborat umidbaxsh g`oya bilan yakun topadi.

**Maishiy – hayotiy ertaklarning** mazmuni bevosita real hayotga bog`liqdir. Ularda real ijtimoiy voqelik hayotiy uydirma asosida tasvirlanadi, hayotiy real kishilar bosh qahramon bo`lib keladi. Maishiy-hayotiy ertaklar taxayyulotdan deyarli xoli bo`lib, ayrim hollardagina fantastik detallar uchrashi mumkin.

Maishiy-hayotiy ertaklarda voqelik makoni aniq shahar yoki qishloqda kechadi, aniq qahramon ishtirokida hz beradi. Ular mazmun-mundariyasi va g`oyaviy yo`nalishi, obrazlariga ko`ra sehrli-fantastik va hayvonlar haqidagi ertaklardan farq qiladi. Ularda aniq shaxsning o`z aql kuchi, tadbirkorligi, chidam va matonati, hksak insoniy fazilatlari tufayli murod-maqsadiga etishuvi ko`rsatib beriladi. SHu sababli maishiy-hayotiy ertaklar shjetini ijtimoiy-maishiy mazmundagi voqelik tashkil etadi. Ularning aksariyatida jamiyatdagi ijtimoiy kamchiliklar, nosozliklar, mehnat ahlining hukmron tabaqa vakillaridan noroziligi umumlashma obrazlarda ochib beriladi. “Ertaklar hech vaqt bekorchi, ermak narsalar emas,- deb yozgandi ulug` adib Muxtor Avezov,- ular hamma vaqt zo`r ijtimoiy va tarixiy ahamiyatga egadirlar. Bahaybat maxluqlar haqida hikoya qiluvchi ertak va afsonalar hamda bu boy janrning boshqa turli ko`rinishlarida u yoki bu davrning ijtimoiy, hayotiy kurashlari, xalq manfaatlari badiiy ifodasini topgandir.” Ularda ajdodlarimizning yashash va kurash sabog`i ifodalangan.

Ertaklar xalqning necha-necha ming yilliklar davomidagi hayotiy tajribalarini umumlashtirgan holda uning ijtimoiy ongida, estetik didida, axloqiy qarashlarida e'tiqodida kechgan o'sish-o'zgarishlarning badiiy tarixi sifatida ayrica ahamiyat kasb etgan. SHu bois hozir ham miriqib tinglanadi, sevilib o'qiladi, eng muhimi, navqiron avlodning ma'naviy-axloqiy kamol topishida beqiyos ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Ertaklar xalq ijodining epik turiga kiradi. Uning o'ziga xos xususiyati – voqeabandligi, biror voqeani mukammal hikoya tarzida bayon qilishidir. ertaklar turmush voqeligini ajoyib va g'aroyib, jozibali qilib, kishilarda badiiy zavq uyg'otadigan holda aks ettiradi.

Ertak fol'klor asari. SHuning uchun ham xalq og'zaki ijodiga xos barcha sifatlar: kollektivning ijodiy mahsuli bo'lib, ko'pchilik tomonidan aytilishi, og'zaki yo'l bilan tarqalishi, an'anaviylik, ijodchisining noma'lumligi – anonimlik, bir syujetning xalq orasida bir qancha variantlarda ijro etilishi – ertaklarga ham xosdir.

Turli davrlarda ertaklar ham turlicha o'zgarishlarga uchrab kelganlar. SHu sababdan ertaklarning g'oyaviy yo'nalishi, qahramonlarining vazifalari o'zgarib, yangidan-yangi versiyalar yuzaga kelib turadi. Buning ustiga har bir ertak aytilganda ijrochining ijodiy qobiliyati, dunyoqarashi, turmush voqeligini aks ettira olishi, ertak an'analarini qay darajada bilishi, tajribasi, psixologik holatlariga qarab turib yangidan tug'iladiki, natijada bir ertakning o'zi bir necha variantlarda xalq orasida yashab yuradi. ertaklarning badiiy formasi va poetikasi o'ziga xos bo'ladi.

Ertakchilar xayoliy «uchar gilamlar»ni aeroplanlar ixtiro qilinmasdan necha asrlar ilgari, afsonaviy tez harakatlarni parovoz, gaz va elektromotorlar bunyodga kelmasdan birmuncha vaqt ilgari bilgan edi... Fikrimcha, insonning ajoyib xususiyatlaridan biri – ... «faraz»ni ham fantaziya, «uydirma» vujudga keltirib tarbiyalagan.

Fantastika ertak mezoni, uning joni va qonidir. ertaklar fantastikaning tutgan o'rni, me'yori va funksiyasiga qarab ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga fantastika elementlari ustun bo'lgan ertaklar, ikkinchisiga esa, fantastika elementlari kuchsiz, element shaklida keladigan yoki umuman bo'lmaydigan, hayotiy uydirmalar asosida yaratilgan ertaklar kiradi. Hayvonlar haqidagi ertaklar bilan sehrli ertaklar syujeti ko'proq fantastik voqealar asosiga qurilgan. Maishiy va hajviy ertaklar syujeti asosida esa, hayotiy voqealar yotadi. Birinchi guruhdagi ertaklar («YOriltosh», «CHo'loq bo'ri», «Oltin sandiq» va boshqalar) tom ma'nodagi ibtidoiy tushunchalar mazmunini aks ettiradi. Ikkinchi guruhdagi ertaklar («Malikai Husnobod», «Uch og'ayni botirlar», «Uch yolg'onda qirq yolg'on») esa, asosan ijtimoiy mazmunni ifoda etadi.

Ertaklarda voqealar asosan mo'jizali tarzda ifodalanadi. Binobarin, mo'jiza yoki fantaziya voqea va hodisalarni hayot bilan bog'lab, haqiqat, ozodlik,



to'g'rilik, odamiylik kabi didaktik g'oyalarni tashviq etadi, syujet rivojiga kuch bag'ishlaydi, tinglovchi e'tiborini o'ziga jalb qilib, ajoyibotlar olamiga olib kiradi, shirin tuyg'ular dunyosiga g'arq etadi.

Ertak ijrochiligining xarakterli belgilaridan biri shundaki, hikoya qilinayotgan voqea va hodisalar aytuvchi va tinglovchi tomonidan «bo'lgan voqea» deb emas, balki «muqarrar bo'lmagan hodisalar», deb tushuniladi. SHuning uchun ham ertaklarda voqea va hodisalarning bo'lib o'tgan o'rni va zamoni noaniq, umumiy tarzda ifodalanadi. Bundan tashqari, ertaklarning zamon va makon e'tibori bilan yuzaga kelgan o'rni ham turlicha. Ularning tili va stili shakl va mazmuniga ko'ra o'zaro farq qiladi. U yoki bu ertakni qaysi turga taalluqli ekanini aniqlash uchun uning asosida bo'lgan uydirmaning davr e'tibori bilan tashkil topgan o'rnini aniqlash, hayot haqiqatiga bo'lgan munosabati va asosiy funktsiyasini belgilash lozim bo'ladi. Masalan, sehrli ertaklar hamda hayvonlar haqidagi ertaklar bilan ishqiy-sarguzasht tipidagi yoki hajviy ertaklarning mustaqil janr sifatida tashkil topishi ham turli xil davrlarga to'g'ri keladi. SHuning uchun ham har xil davrda yaratilgan va turli xil jamiyat qatlamlari ta'sirini o'zida saqlagan «Kenja botir», «Qilich qora», «Qiron aka», «Malikai Husnobod», «Bulbuligo'yo», «Ur to'qmoq», «CHol bilan kampir», «Bo'ri bilan tulki», «Qo'ng'iz bikach», «Baxtli kal» kabi ertaklarning syujet sostavi, xarakteri, obrazlar sistemasi, tili va hikoya qilish uslubida o'xshash va farqli tomonlar mavjud. Negaki, ertak o'zining taraqqiyoti davomida ba'zi bir motiv, obrazlarni yo'qotishi, yangi-yangi belgilarni qabul qilishi mumkin, ba'zan esa an'anaviy elementlar yangicha talqin etilgan bo'ladi. Xullas, har bir ertakning syujet tuzilishi, uning g'oyaviy mazmuni, badiiy vositalarning o'ziga xos tomonlari u yoki bu davrni hamda u yoki bu turga xos xususiyatni ko'rsatib turadi. «Zumrab bilan Qimmat» yoki «Oltin tarvuz» kabilar, asosan sehrli ertaklardir. Biroq asosiy qahramonlar qiyofasi, ularning xatti-harakatlari hajviy ertaklarning bosh qahramonlarini eslatadi. Lekin bu ertaklarda hajviy ertaklarda bo'lganidek, aql-idrok, tadbirkorlik ustun emas, aksincha, fantastik uydirmalar asar echimida hal qiluvchi vazifalarni o'taydi. Bu belgi ularni hajviy ertaklardan ajratib turadi. Demak, satira va yumorni faqat hajviy ertaklarga xos belgi deb qaramaslik kerak. CHunki satira va yumor sehrli va hayvonlar haqidagi ertaklarda ham mavjud. Faqat bularning u yoki bu ertaklardagi mazmun darajasi, ishlatilish o'rni, maqsad, vazifalarini e'tiborga olish kerak. SHundagina u ertak qaysi bir turga xos ekanligi ma'lum bo'ladi.

Turli xalqlar ijodida o'xshash syujetli ertaklarni ko'p uchratish mumkin. Bunday ertaklarning tema va obrazlar sistemasi o'ziga xos aynanlikka ega. Bularni ko'proq «sayyor syujetli ertaklar» deb yuritiladi. Biroq ular qanchalik o'xshash bo'lmasin, badiiy shakl, obrazlar talqini, til vositalari jihatidan o'zaro farq qiladi. Ularda har bir xalqqa xos an'ana, milliy kolorit, falsafiy-estetik qarashlar namoyon

bo'ladi. Bu xildagi o'xshash syujetlar u yoki bu xalqning bir xildagi iqtisodiy, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligidan kelib chiqadi.

Ertaklar o'ziga xos tuzilishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, kirish qism, boshlama, tugallamalar alohida ko'zga tashlanadi.

Kirish qismi, avvalo, ertakchining mahoratini ko'rsatadi, qolaversa, tinglovchilar diqqatini jamlab, ertak eshitishga hozirlaydi.

Boshlama ertakning dastlabki qismini ta'riflaydi. ertaklarda an'anaviy boshlama voqeaning qayvaqt bo'lib o'tganini bildirmaydi, noaniq, umumiy tarzda ifodalaydi: «Sizga bog' bo'lsin, bizga hayot, zamonlarning zamonida, qadimlar ayyomida, bir podshohi zolim bor ekan». Ba'zan boshlama qisqa bo'ladi. «bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir podachi bor ekan». Ba'zan esa, u voqelik bilan qo'shilib ketadi. «O'tgan zamonda bir podshoh yakka o'zi ovga chiqib, ov qilib yurib, uzoqda bir narsa ko'ribdi».

Hayotiy-maishiy ertaklarda esa boshlama nihoyatda ixcham va sodda. Bunda ham voqelikning bo'lib o'tgan vaqti noaniq. Biroq sirlik sezilmaydi, hayotiylik hukmron. Voqea bo'lib o'tgan joy va qahramon nomi aniq hamda to'liq beriladi. Bu syujet asosini tashkil etgan voqea va hodisalarning realligini, tabiiyligini ko'rsatadi. «Zomin yurtida bir boy bor ekan, u boyning xizmatkori bo'lar ekan». «Boltaboy akasi Teshaboyni ochlikdan o'ldirgan zolim boydan o'ch olish uchun boyning hovlisiga qarab to'g'ri yo'l olibdi». Ko'rinadiki, boshlama bayonida personajlarning Kim ekani, kasb, amal, laqablari ma'lum bo'ladi.

Demak, hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lib, fantastik hamda hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalar *ertak* deb ataladi. ertaklar obrazlar talqini, g'oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, fantastik uydirmaning o'rni va funktsiyasi hamda tili va stiliga ko'ra shartli ravishda *hayvonlar haqidagi ertaklar*, *sehrli ertaklar*, *hayotiy-maishiy ertaklarga* bo'linadi.

**Hayvonlar haqidagi ertaklar.** Hayvonlar haqidagi ertaklar qadim zamonlarda vujudga kelgan bo'lib, unda ibtidoiy tuzum davridagi insonning hayoti, mehnati, dunyoqarashi, tabiat haqidagi tushunchalari ifodalangan. Keyinchalik hayvonlar haqidagi ertaklarning bir qismi o'z ma'nosini yo'qotib, ko'chma ma'no kasb etdi – majoziy ertaklarga aylandi, ya'ni ba'zi qo'y, buzoq va echki singari hayvonlar orqali tadbirkor kishilar, bo'ri, tulki orqali ochko'z, yovuz, aldamchi, makkor kishilar obrazlari berilla boshladi.

**Sehrli ertaklar.** Sehrli ertaklarning yuzaga kelishi qadimiy tarixga ega bo'lib, ildizi boshlang'ich jamiyatga borib etadi. Ma'lumki, ibtidoiy inson noma'lum bo'lib ko'ringan tabiat hodisalari oldida talvasaga tushgan. Har qadamda uchraydigan xavf-xatarlar uning ruhiga ta'sir etgan. Ana shular dunyo

haqida yuzaki mulohaza yuritishga va g'ayri tabiiy bo'lib ko'ringan hodisalarni o'zicha izohlashga majbur qilgan.

**Hayotiy-maishiy ertaklar.** Ular real, hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan bo'lib, fantastika elementlari yordamchi motivlar shaklida namoyon bo'ladi. Hayotiy-maishiy ertaklar sehrli ertaklar asosidagi an'analardan kelib chiqqan va ko'p jihatlari ularga o'xshab ketsa-da, biroq ulardan real hayot voqealari asosida qurilganligi bilan ajralib turadi.

**Hajviy ertaklar.** Ular xuddi hayotiy-maishiy ertaklardek, ijtimoiy hayotda real asoslari bo'lgan hayotiy uydirmalar zaminiga qurilgan bo'lib, o'tkir satira va xushchaqchaq yumor asosiy xususiyatini belgilaydi. Syujet tuzilishi ixcham, voqea va hodisalar lo'nda ifodalanadi. Naql – o'zbek xalq og'zaki ijodida alohida, mustaqil, keng tarqalgan janrlardan biri. Turmushdagi turli narsa va hodisalarni izohlashga qaratilgan axloqiy-didaktik mazmundagi, ramz va majozga asoslanuvchi kichik og'zaki hikoyalar **naql** deb hritiladi.

Naql xalq donoligining o'ziga xos ifodasi bo'lib, asosan, axloq normalari haqida bahs hritadi. Naqlar ma'lum bir hayotiy ehtiyoj munosabati bilan aytiladi. Besabab aytilmaydi. U ko'pincha muhokamaga sabab bo'lgan voqeani tasdiqlash yoki axloq qoidalarini buzib ish hritayotgan biror-bir shaxsni ogohlantirish yoxud noto'g'ri tushunchani tartibga solish maqsadida aytiladi.

### **ZARURIY ADABIYOTLAR:**

1. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi (X.Razzoqov, T.Mirzaev, O.Sobirov, K.Imomov). Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti, 1980 yil.
2. H.Zaripov. Fozillar fazilati. 1969 yil.
3. O'zbek xalq ertaklari. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1969 yil.
4. M.Afzalov. O'zbek xalq ertaklari haqida. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1974 yil.
5. B.Sarimsoqov. O'zbek adabiyotida saj'. Toshkent, 1978 yil.
6. Qadimgi afandi latifalari. T., 1993.
7. Qodirov M. O'zbek xalq og'zaki dramasi. T., 1963. YAna: Xalq qo'g'irchoq teatri. T.: G'ASN, 1979; Masxaraboz va qiziqchilar san'ati. T.: "O'qituvchi", 1981, 36-57- va 123-204-b.
8. O'zbek xalq maqollari // O`XI. T.: G'ASN, 1989.
9. «O'zbek xalq ijodi» ruknida FACH tomonidan nashr etilgan ertaklar to'plamlari: «Suv qizi» (1966), «Oltin olma» (1966), «Gulpari» (1969), «Kulsa-gul», «yig'lasa-dur» (1983), «Oltin beshik» (1985), «Zumrad va Qimmat» (1988), «Luqmoni hakim» (1998).

- 10.«O`zbek xalq fantastikasi» ruknidagi to`plamlar: «Oymomoda ajdah» (1-kitob, 1983), «Qora dev» (2-kitob, 1984), «Ilon pari » (3-kitob, 1985), «YOnar daryo» (4 kitob, 1986), «Samo tulpori» (5-kitob, 1987), «Guliqahqah» (6-kitob, 1988), «Sehrli qiz» ( 7-kitob, 1989).

## **8-MAVZU: Xalq dostonlari, dostonchilik maktablari, dostonlar tavsifi.**

### **REJA:**

1. Dostonchilik maktablari haqida ma`lumot.
2. Xalq dostonlarining mavzu doirasi.
3. Dostonning tili va badiiy xususiyatlari.

**Tayanch iboralar:** Dostonchilik maktablari haqida ma`lumot, doston ijrochilari, baxshilar haqida ma`lumot.

**Darsning maqsadi:** Qo`rg`on, Bulung`ur va boshqa dostonchilik maktablari va ular yaratgan dostonlar haqida ma`lumot.

**Darsning vositalari:** Ko`rgazmali o`quv qurollari, fol`klorshunos olimlarning xalq dostonlariga bag`ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

**Darsning metodi:** Blits so`rov, an`anaviy ma`ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

**Darsning mazmuni:** So`z san`atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo`lishi bilan yuzaga kela boshladi. Fol`klorshunoslikda buni shartli ravishda *dostonchilik (baxshilik) maktablari* deb yuritiladi. Hozirgi kunda o`zbek fol`klorshunosligida Bulung`ur, Qo`rg`on, SHahrisabz, SHerobod, Janubiy Tojikiston, Xorazm kabi poetik dostonchilik maktablari – baxshilik san`atining ajoyib markazlari aniqlangan.

1. Bulung`ur dostonchilik maktabi qahramonlik dostonlarini ijro etish bilan mashhur bo`lgan. Sodda, yuksak, o`ta an`anaviy, nisbatan arxaik bo`lgan qahramonlik eposi uslubi bu dostonchilarning poetik yo`li hisoblangan. Bulung`ur dostonchilik maktabining so`nggi talantli vakili Fozil Yo`ldosh o`g`li (1872-1955) hisoblanadiki, undan «Alpomish», «YOdgor», «YUsuf bilan Ahmad», «Malikai ayyor», «Mashriqo», «Zulfizar», «Balogardon», «Intizor», «Nurali», «Jahongir», «Murodxon», «Rustam», «SHirin bilan SHakar», «Ra`no bilan Suxangul», «Zevarxon» kabi ajoyib dostonlar yozib olingan.

2. epik san`atning ikkinchi bir muhim Qo`rg`on dostonchilik maktabi bo`lib, uning eng so`nggi talantli vakillari ergash Jumanbulbul o`g`li (1868-1937) va

Po'ltan shoirilar (1874-1941) hisoblanadi. Bu talantli san'atkorlardan «Alpomish», «YAkka Ahmad», «Oysuluv», «Kuntug'mish», «Qironxon», «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «YUnus pari», «Misqol pari», «Gulnor pari», «Xushkeldi», «Hasanxon», «CHambil qamali», «Dalli», «Ravshan», «Avazxon», «Qunduz bilan YUlduz», «Xoldorxon», «Hilomon», «Berdiyot otliq», «Zamonbek», «Xidirali elbegi» kabi dostonlar yozib olingan.

3. XIX asrda mavjud bo'lgan yana bir epik markaz SHahrisabz dostonchilik maktabidir. Bu maktabning so'nggi namoyandasi Abdulla Nurali o'g'li (1874-1957) XIX asrning yirik dostonchisi Rajab shoirning shogirdidir. Bu baxshilar dostonlarni sho'x, quvnoq, ko'tarinki ruhda aytishlari, kuylarining yoqimlilik bilan ajralib turadilar.

Atoqli xalq shoiri Islom Nazar o'g'li (1874-1953) bir tomondan, SHahrisabz, ikkinchi tomondan, Qo'rg'on dostonchilik maktabi bilan bog'liq bo'lgan. Uning ijro usuli va undan yozib olingan «Orzigul», «Sohibqiron», «Erali va SHerali», «Zulfizar bilan Avazxon», «Gulixiromon», «Kuntug'mish» kabi dostonlarga nazar tashlar ekanmiz, ularda har ikki maktab xususiyatlari yaqqol ko'rinadi.

4. O'zbekistonning janubida yashovchi ko'pgina baxshilar SHerobod dostonchilik maktabi bilan bog'liqdir. XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida yashagan bu maktabning mashhur vakili SHernazar Beknazar o'g'li bir qancha shogirdlar etishtirgan. Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Umir Safar o'g'li, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Nurali Boymat o'g'li, Mamadrayim baxshi, Bo'riboy Ahmad o'g'li, YUsof O'tagan o'g'li kabi o'nlab dostonchilar shu maktabga birlashadi va ulardan bir qancha dostonlar yozib olingan.

5. Janubiy Tojikistonda yashovchi o'zbek-laqay baxshilari ham ijro yo'llarining badiiy tasvir vositalari jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu baxshilar Dang'ara rayonining Jorubqo'l qishlog'i bilan bog'liq. Bu erda XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida Haybat SHomol o'g'li, Qunduz soqi degan mashhur dostonchilar o'tgan. Hozir ham ularning davomchilari bor. O'zbek-laqay baxshilarining dostonchilikdagi asosini «Go'ro'g'li» dostonlari turkumi tashkil etadi. Bu dostonlar o'zlarining nihoyatda mo'`jazligi bilan ajralib turadi.

### **O'zbek xalq dostonlarining mavzu doirasi**

O'zbek xalq dostonlari nihoyatda ko'p bo'lib, uzoq asrlar davomida yaratildi va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylanib keldi. Bu hol ularni muayyan turlarga bo'lib o'rganishni taqozo etadi. Dostonlar, dastlab V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov, keyinroq M.Saidov tomonidan nashr qilindi. O'zbek xalq dostonlari *qahramonlik, jangnoma, tarixiy, romanik, kitobiy* dostonlarga bo'linadi.

**1. Qahramonlik dostonlari.** Qahramonlik dostonlari bizgacha sof holida «Alpomish» misolida etib kelgan.

**2. Jangnoma-dostonlar.** Hukumron tabaqa islom dinini harbiy kuch bilan yoygan shaxslarni xalq orasida targ'ib qilish maqsadida jangnoma asarlaridan foydalangan. Natijada «Jangnomai Abo Muslim», «Jangnomai Sayid Battol G'oziy», «Jangnomai Amir Hamza» kabi islom dinini zo'rlik bilan targ'ib etgan shaxslarning nomi bilan bog'langan jangnomalar yuzaga kelgan. O'rta Osiyoda keng tarqalgan jangnomalarning qadimgi namunalariga Firdavsiyning «SHohnoma»sini va «Jangnomai Jamshid», «Qahramoni Qotil», «Ho'shang», «To'maris» kabilarni ko'rsatish mumkin.

**3. Tarixiy dostonlar.** Tarixiy dostonlar tarixdagi konkret voqealar va faktlarni tasvirlash xarakteri, hujjatiylikning darajasi jihatidan bir-birlaridan jiddiy farq qiladilar. Ularni shu xususiyatiga qarab:

- a) tarixiy-qahramonlik;
- b) tarixiy-fantastik;
- v) tarixiy-konkret yoki yangi dostonlar;
- g) avtobiografik dostonlar

kabi ichki turlarga bo'lish mumkin. Tarixiy-qahramonlik dostonlarining eng yaxshi namunalaridan biri «Oysuluv» dostonidir.

Tarixiy-fantastik dostonlarga «Tulumbiy», «SHayboniyxon» kabilarni kiritish mumkin. «SHayboniyxon» dostonida epik voqelik yarim tarixiy, yarim afsonaviy xarakterga ega bo'lsa, «Tulumbiy»da ayrim tarixiy shaxslar nomidan bo'lak hech narsa qolmagan, ya'ni unda syujet tarixiy voqelik asosida emas, balki ishqiy-sarguzasht asosida rivojlanadi. Bunday dostonlarda qachonlardir bo'lib o'tgan tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar epik bayon uchun umumiy fon vazifasini o'taydi, xolos. Xalq orasida ertak va afsonalar holida juda keng tarqalgan «Xurshidoy» qissasining ikkinchi qismi sifatida «SHayboniyxon» dostoniga kiritilishi va SHayboniyxonning hukmdorlik davri bilan bog'lanishi ham shu bilan izohlanadi.

Tarixiy-konkret yoki yangi dostonlarga XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida baxshilar tomonidan yaratilgan asarlar kiradi. Bunday dostonlar o'zlarining mustahkam tarixiy asoslariga, qahramonlarining ... ega. «To'lg'onoy», «Namoz», «Mamatkarim polvon», «Jizzax qo'zg'oloni», «Mardikor», «Amir qochdi», «Ochildov», «Hasan batrak» kabilar yangi dostonlarning eng yaxshi namunalari hisoblanadi. Aniq faktlar va hujjatlarga asoslanish bunday dostonlarning bosh xususiyatidir.

Ergash Jumanbulbul o'g'lining «Tarjimai hol», Fozil Yo'ldosh o'g'lining «Kunlarim», Islom Nazar o'g'lining «Baxtiyor avlodlar», Abdulla Nurali o'g'lining «Kunlarim» kabi dostonlari buning yorqin namunalaridir.

**4. Romanik dostonlar.** Romanik dostonlarning tuzilishi nihoyatda murakkab. Qahramonlik dostonlarida romanik elementlar bo'lganidek, romanik dostonlardan qahramonlik elementlari, jangnomalar xususiyatlari ham mustahkam o'rin olgan. Hatto bir dostonda bir necha tema baravar ishlangan bo'lishi mumkin. SHularni hisobga olib, bu tip dostonlarni:

- a) qahramonlik-romanik;
- b) ishqiy-romanik;
- v) maishiy-romanik

dostonlar kabi ichki turlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir.

5. Qahramonlik-romanik dostonlarda («Rustamxon», «YAkka Ahmad», «Go'ro'g'li» turkumiga kiruvchi bir qancha asarlar) qahramonlik yo'nalishi ustun tursa, ishqiy-romanik dostonlarda («Kuntug'mish», «Go'ro'g'li» turkumining so'nggi xalqalari) sevgi mojarolari, sarguzashtli voqealar tasviriga alohida e'tibor beriladi. Maishiy-romanik yoki ijtimoiy-maishiy dostonlarda («Sohibqiron», «Orzigul», «Erali bilan SHerali» va boshqalar) realistik momentlar, mavjud tuzumdan ijtimoiy norozilik kayfiyatlari, maishiy turmush bilan bog'liq turli-tuman tafsilotlarni batafsil tasvirlash etakchilik qiladi. Bunday dostonlar syujeti feodalizm sharoitida o'zining real zaminiga ega. Bu xil dostonlarda xalqimiz va baxshilarning demokratik qarashlari yanada yorqinroq aks etgan.

**4. Kitobiy dostonlar.** Kitobiy dostonlarning bir guruhi klassik adabiyot namunalarining baxshilar tomonidan qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan. Masalan, «Farhod va SHirin», «Layli va Majnun», «Bahrom va Gulandom» Alisher Navoiy dostonlari, «YUsuf va Zulayho» shu syujetdagi forsiy va turkiy asarlar, «Rustami Doston», «SHohnoma», «Varqa bilan Gulshoh», «Vomiq bilan Uzro» forschadan ozarbayjonchaga qilingan tarjimalar asosida yaratilgan. Kitobiy dostonlar orasida yana shunday namunalar borki, ularning yaratilishida asos bo'lgan manbani topish qiyin. Ammo asarning temasi, uslubi, tasvir mohiyati kitobiy manbaga asoslanganligi va yozma adabiyotga yaqin turganligini aniq ko'rsatadi. «Sanobar», «Zevarxon» kabi dostonlar shunday asarlardan hisoblanadi. Xorazm dostonchiligida, shuningdek, «Malikai Dilorom», «Tohir va Zuhra» kabi bir qancha dostonlarda og'zaki va yozma adabiyotning juda murakkab formalariga, turli-tuman adabiy shakllarni o'ziga xos ravishda chatishib ketganligiga duch kelamiz.

Xalq dostonchilarini O'zbekistonning ayrim erlarida baxshi so'zidan boshqa nomlar bilan ham hritiladi. Masalan, Surxondaryo va Qashqadaryoning ayrim joylarida hzboshi, Janubiy Tojikiston o'zbeklari orasida soqi, Surxondaryo va Janubiy Tojikistonning ayrim joylarida sozanda, Farg'ona vodiysida sanovchi, ayrim tumanlarda jirov, jirchi, oqin, oxun va hokazo.

O'zbeklarda xalq dostonchisini shoir deb atash ham keng tarqalgan. SHoir arabcha so'z bo'lib, poetik asarlar ijodkori bo'lgan yozma va og'zaki adabiyot vakillariga nisbatan qo'llaniladi. Og'zaki nutqda bu so'z ba'zan, ko'chma ma'noda hozirjavob, shirinsuxan shaxsga nisbatan ham ishlatiladi. Xalq ijodida badihago'y ijodkorlar, epik an'ana doirasida o'zlarining yangi-yangi variantlarini, hatto yangi dostonlarni ham yarata oladigan baxshilar shoir deb ataladi. Masalan, Ergash shoir, Fozil shoir, Islom shoir, Po'ltan shoir va boshqalar.

Baxshilar xalq dostonlarini biror sozda, ko'p erlarda do'mbira, ayrim joylarda qo'biz yoki dutorda kuylaydilar. Xorazm baxshilari esa dostonlarni, asosan, dutorda ijro etadilar, ularga g'ijjak va balomonda sozandalar jo'r bo'ladi. 30-yillarda Xorazm baxshilari dostonlarni tor va rubobda kuylay boshladilar. SHu munosabat bilan ayrim baxshilar ansamblida g'ijjak o'rniga skripkadan foydalanish, ansamblga doirachi, hatto o'yinchi olib kirish hollari bo'ldi. Bola baxshi va uning ansambli bunga misol bo'ladi. Xorazmda ba'zan epik asarlar yoki ularning parchalarini garmonda ijro etish hollari ham mavjud. Bunday hollarda ularni baxshi emas, balki sozchi deb hritilgan. Masalan, Qurbon sozchi, Qodir sozchi va boshkalar. Sozchilar epik asarlarni to'la ijro etishdan ko'ra, undan parchalar, termalar va o'zlari yaratgan asarlarni kuylashga alohida e'tibor berganlar.

Demak, epik asarlarni elga etkazishda O'zbekistonning deyarli barcha erlarida yakka ijrochilik hukmron bo'lsa, Xorazmda, asosan, jamoaviy ijrochilik etakchilik qiladi. Ijro davomida dostonlarning she'riy qismlari kuylansa, prozaik o'rinlari baxshilarning o'zlariga xos ifodali tilda bayon etiladi. Xorazmda epik asarlarni, ulardan olingan parchalar va ayrim termalarni kuylovchi ijodkorlarning yana bir turi xalfalar, deb hritiladi. Xalfachilik, asosan, ayollar orasida keng tarqalgai.

Xalfachilik san'ati ikki xil: a) ansamblli xalfalar; b) yakka xalfalar. Ansamblli xalfalar uch kishidan iborat. YA'ni ustoz xalfa (ayni vaqtda garmon chaladi va ashula aytadi), doirachi (ashulaga jo'r bo'ladi, ba'zan raqsga tushadi) va o'yinchilar (raqsga tushadi, qayroq bilan o'ynaydi, yalla va lapar aytadi, ba'zan doira chaladi) birlashib, ansamblni tashkil etadilar. Bu tip xalfalar xalq dostonlarini, ulardan olingan parchalarni, to'y qo'shiqlarini, lapar va yallalarni, o'zlari yaratgan yoki boshqa ijodkorlar asarlarini garmon va doira jo'rligida kuylaydilar. Bibi shoira, Xonimjon xalfa, Ojiza, Onajon Safarova, Nazira Sobirova kabilar shunday xalfalardandir.

Yakka xalfalar doston va qo'shiqlarni sozsiz ijro etadilar. Ular dostonlarni yoddan yoki qo'lyozma va kitobdan yoqimli ohangda o'qish, «YOr-yor», «Kelin salom», «Muborak» kabi to'y qo'shiqlarini ijro etish bilan shuhrat qozonganlar. Roziya Matniyozov qizi, Saodat Xudoyberganova, Poshsho Saidmamat qizi,



Ambarjon Ro`zimetova, Anorjon Razzoqova kabilar yakka holda xalfachilik qilganlar.

Xalfalar ko`proq «Oshiq G`arib va SHohsanam», «Oshiq Oydin», «Asilxon», «Hurliqo va Hamro», «Qumri», «Qissai Zebo», «Tulumbiy», «Zavriyo», «Durapsho», «Bozirgon», «Xirmon dali» kabi dostonlarni, Maxtumquli she`rlarini, turli marosim qo`shiqlarini va o`zlari yaratgan asarlarni ijro etadilar. Ular mahalliy xalqning barcha to`y-hashamlarida, turli marosimlarda, ayollar yig`inlari va bayramlarda qatnashadilar, to`y va marosimlarni boshqaradilar. Xalfachilik ayollar san`ati sifatida Xorazm vohasida shu kunlarda ham keng davom etmoqda.

O`tmishda epik asarlarni xalqqa etkazuvchilar qatorida qissaxonlar ham bo`lgan. Qissaxonlar xalq dostonlarining qayta ishlangan nusxalarini, qiziqarli tarjima hikoyalarni, mumtoz adabiyot namunalaridan «fol`klorlashtirilgan» variantlarni, turli xil jangnomalarni choyxonalarda, turli yig`inlarda, xalq to`plangan joylarda yodaki aytganlar yoki qo`lyozma va bosma matn asosida o`zlariga xos ohangda o`qiganlar.

Qissaxonlar «Rustami Doston», «Tohir va Zuhra», «Hikoyati Go`ro`g`li sulton», «Bahrom va Gulandom» kabi dunyoviy qissalarni ijro etish bilan birga, ko`proq diniy mazmundagi asarlarni ham o`qib hrganlar. Ayrim hollarda eng qobiliyatli qissaxonlarning o`zlari qissa tuzishgacha, ba`zan yangi asarlar yaratishgacha ko`tarilganlar, aytayotgan asarlariga ijodiy yondashganlar.

O`tmishda qissaxonlik shahar joylarda keng rivojlangan bo`lib, keyingi vaqtlarda, umuman, uchramaydi. Bu narsa ko`plab kitob bosib chiqarilishi, jumladan, ilgari aytilib hrilgan qissalarning ham nashr etilishi, xalqimizning yoppasiga savodxon bo`lishi bilan bog`liqdir.

Epik asarlarni keng mehnatkashlar ommasi orasida kuylashda, ularni avloddan avlodga etkazishda har doim baxshilar etakchilik qilganlar. O`tgan asrda ikki hzdan ortiqroq dostonchi aniqlandi va ro`yxatga olindi. Ulardan Jumanbulbul, Jossoq, Bo`ron shoir, Jolmon baxshi, Sulton kampir, Tilla kampir, Xonimjon xalfa, Bibi shoira, Suyav baxshi, Amin baxshi, Yo`ldoshbulbul, Sultonmurod, Qurbonbek, Xidir shoir, Yo`ldosh shoir, Suyar shoir, SHerna hzboshi, Haybat soqilar xalq orasida shuhrat qozongan. Ergash Jumanbulbul o`g`li, Fozil Yo`ldosh o`g`li, Po`lkan shoir, Islom Nazar o`g`li, Umir shoir, Abdulla shoir, Xolyor Abdukarim o`g`li kabi etuk shoirlar baxshichilikdagi juda boy an`analar asosida muhim voqealarni tasvirlovchi yigirmadan ortiq yangi dostonlar yaratdilar.

Baxshi o`zlashtirgan va ijodiy tarzda kuylab kelgan barcha asarlar uning repertuarini tashkil etadi. O`zbek xalq baxshilari repertuari janr e`tibori bilan nihoyatda cheklangan. Ular fol`klorning faqat ikki janridagi asarlarni, ya`ni termalar va dostonlarni kuylab kelganlar. Baxshilar terma va dostondan boshqa

asarlar (ertak, qo`shiq, latifa va shu kabilar) ni bilsalar ham, ularni aytmaganlar. Mabodo biror dostonning mazmunini hikoya qilib bersalar, uni «ertak qilib aytish» deb hisoblaganlar. Biroq bunday aytish professional dostonchi uchun odatdagi hol emas.

O`zbek dostonchiligida an`anaviy doston kuylash tartibi bor. Odatda, dostonchilik kech kuzdan erta bahorgacha kechqurunlari uhshtirilgan. Baxshi taklif qilingan mehmonxonaga barcha eshituvchilar uning devorlari bo`ylab qator qo`r tashlab o`tirishgan. Baxshini eng to`rda o`tqizganlar. Doston kuylash kichik bir ziyofatdan keyin boshlangan. Baxshi dastlab bir yoki bir necha terma kuylagan. Xorazm baxshilari esa, terma sifatida dostonlardan bo`laklar, Maxtumquli she`rlaridan, pand-nasihatlari bilan bog`liq turli parchalarni ijro qilganlar. Xorazmdan bo`lak joylarda esa, ko`p hollarda «Nima aytay?» («Doston terish») termasi bilan auditoriyaga murojaat etilgan. Bunda baxshi o`zida va eshituvchilarda jiddiy temalardagi poetik asarlarni kuylash va tinglash uchun kayfiyat hosil qiladi. So`ng tinglovchilarning xohishi yoki baxshining tanlashiga ko`ra biror doston ijro etiladi. Odatda, dostonchilik o`tirishlari tongga ulanadi. O`zbek xalq dostonlarining ko`pchiligi bir kun kuylashga mo`ljallangan. «Alpomish»dek monumental asarlar ikki va undan ortiq kechalar ijro etilgan.<sup>8</sup>

Baxshi ijro davomida dostondagi har bir tasvirga mos so`z va kuy topib avjga chiqib boradi, o`zlarining ta`biri bilan aytganda, «qaynaydi». O`rni-o`rni bilan eshituvchilarga murojaat etib, ularning diqqatini o`zida saqlab turadi. Avj nuqtalarga etganda, baxshining gavda harakatlari, boshini sarak-sarak qilishi, do`mbiraning bir muvozanatda borib-kelishi kuy va so`zga qo`shilib yaxlit ritmik holat hzaga keltiradi. Bunday paytlarda to`rdagi baxshi poygakka, tomoshabin esa, to`rga chiqib qolganligini hech kim payqamay qoladi. SHu tariqa qo`r tashlab o`tirganlar davrani bir necha marta aylanib chiqishlari mumkin. Baxshi qizib va terlab ketganda, ustidagi yaktaklarini birin-ketin echa boradi. Baxshining shogirdi yoki davradagi biror kishi vaqt-vaqti bilan unga qaynatilgan va bir oz sovutilgan suv tutib turadi. Baxshi suvdan bir ho`plab, ijroni to`xtovsiz davom ettara beradi.

Dostonni kuylash juda ham qiziqarli o`ringa, avj pardalarga etganda, yarim tunda dam olish uchun tanaffus e`lon qilinadi. Buni baxshilar «do`mbira to`ntarmoq» deb aytadilar. Bunda baxshi eshituvchilarga yoki o`z do`mbirasiga murojaat tarzida bir necha qistirma misralar to`qib, ijroni to`xtatadi. SHundan keyin baxshi belbog`ini va do`mbirani to`nkarilgan holda qoldirib, tashqariga chiqadi. Bu payt davradagilardan biri baxshi belbog`ini o`rtaga yoyadi. Har kim o`z imkoniyatiga yarasha pul yoki biror narsa tashlaydi. Baxshi qaytib xonaga kirguncha, yig`ilgan pul ea narsalar tugib qo`yiladi. So`ng dostonning qolgan qismini kuylash davom ettiriladn. Xorazm baxshilari esa, doston ijrosi tugashi

---

<sup>8</sup> O`sha asar, 29—31-b.

bilan «To`yingda qaytsin» kuyini chalib turadi. Davra yoki to`y oqsoqollari bu payt mehmon va mezbbonlar o`z xohishi bilan bergan pul yoki buhmlarni yig`ib, baxshiga beradi.

Baxshi taklif qilingan qishloq yoki xonadonda dostonchilik kechalari ba`zan bir necha kun davom etadi. Baxshi ketar paytda uni taklif qilgan sohibi xonadon unga yana qo`shimcha sovg`alar (to`n, sarpo, qo`y, ot va hokazo) berishi mumkin. SHuni aytilish kerakki, baxshiga beriladigan sovg`alar hech mahal majburiy va oldindan kelishilgan holda bo`lmaydi. Bu to`la ixtiyoriy bo`lib, haqiqiy xalq baxshilari hech mahal o`z san`atlariga daromad manbai sifatida qaramaganlar.

O`tgan asrda doston kuylash sharoitlari birmuncha o`zgardi. Baxshilar kolxoz-sovxoxt teatrilarida (masalan, Abdulla shoir, Bola baxshi, Bolta baxshi kabilar) faol ishtirok eta boshladilar. Umumxalq hasharlarida (masalan, Kattaqo`rg`on suv ombori, Katta Farg`ona kanali qurilishi), ijtimoiy-siyosiy marosimlarda (masalan, saylov oldi uchrashuvlari), turli yig`inlarda doston va undan parchalar kuylash odatga aylanib qoldi. Baxshilar bilan uchrashuvlar, ko`riklar tashkil etildi.

Baxshi tayyorlash o`zining qat`iy an`anaviy tartiblariga ega bo`lgan. Baxshilar qishloqma-qishloq dostonchilik qilib hrgan paytlarida mehnatkashlar orasidagi talantli, qobiliyatli, she`riyatga qiziquvchi yoshlarni tanlaganlar, safar davomida ularni sinab borganlar, istiqboli borlarini o`z yonlariga tortganlar.

SHogird tayyorlashda barcha o`qitish, o`rgatish ishlari, do`mbira mashqi ham og`zaki ravishda amalga oshirilgan, chunki o`tmishda ustoz o`qish-yozishni bilmaganidek, shogird ham savodsiz bo`lgan. Ahyon-ahyonda uchrab turadigan baxshilarning savodliligi ham bunga monelik qila olmagan. Negaki, xalq dostonlarini eshitish va kuylash orqali og`zaki o`rganish professional ta`limning eng birinchi va asosiy sharti bo`lgan.

O`rgatishning keyingi yillarida ustoz shogirdni o`zi bilan birga dostonchilik yig`inlariga, to`y-hashamlarga olib hradi. Bunday paytlarda shogird ko`pchilik oldida termalar, dostonlardan parchalar kuylaydi. SHogird ancha pishib qolgach, ustoz auditoriyaning ruxsati bilan o`zi kuylayotgan dostonning davomini unga ayttiradi.

Hozirgi kunda o`zbek fol`klorshunosligida Bulung`ur, Qo`rg`on, Shahrisabz, Qamay, Sherobod, Janubiy Tojikiston, Xorazm kabi poetik dostonchilik maktablari — baxshilik san`atining ajoyib markazlari aniqlangan.

Bulung`ur dostonchilik maktabi vakillari qahramonlik dostonlarini ijro etish bilan mashhur bo`lganlar. Bu maktabning so`nggi iste`dodli vakili Fozil Yo`ldosh o`g`li (1872—1955) hisoblanadi, undan «Alpomish», «Yodgor», «Hsuf bilan Ahmad», «Malika ayyor», «Mashriqo», «Zulfizar», «Balogardon», «Intizor»,

«Nurali», «Jahongir», «Murodxon», «Rustam», «SHirin bilan SHakar», «Ra`no bilan Suxangul», «Zevaxon» kabi ajoyib dostonlar yozib olingan.

Xulosa o`rnida xalq dostonlarining mavzu doirasini nihoyatda kengligini alohida e`tirof etish mumkin. Yirik hajmdagi bu janrlar yozma adabiyotga ham o`z ta`sirini o`tkazishi natijasida noyob xalq og`zaki ijodining namunalari yozuvchilar tomonidan yaratildi va o`quvchilariga taqdim etildi. Bu o`rinda, Mirkarim Osim, Hamid Olimjon va boshqa ijodkorlarning asarlarida xalq dostonlarining ta`siri ko`zga yaqqol tashlanadi.

### **ZARURIY ADABIYOTLAR:**

1. X.Razzoqov va boshqalar. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. Toshkent: «O`qituvchi», 1980, 210-221 betlar.
2. T.Mirzaev. «Alpomish» dostonining o`zbek variantlari. Toshkent: «Fan», 1979.
3. E.Musurmonov. O`zbek xalq dostonlari. SamDU, 2005.
4. Bulbul taronalari. e.Jumanbulbul o`g`lining doston va termalari. 5 tomlik. Toshkent: «Fan», 1973.
5. O`zbek xalq dostonlari. 1-2 tom. Toshkent: «Fan», 1956-1957.
6. . Avaxon / Go`ro`g`li dostonlari. To`rt jildlik. II kitob. T.: «YOzuvchi», 1997.
7. Afzalov M. Po`lkan shoir. T., 1955.
8. Go`ro`g`lining tug`ilishi. «Go`ro`g`li» dostonlari . To`rt jildlik. I kitob. T.: «YOzuvchi», 1996.
9. Malikai ayyor / O`XI, T.: FASN, 1988.
10. Mirzaev T. «Alpomish» dostonining o`zbek variantlari. T.: «Fan», 1968; Yana: Xalq baxshilarining epik repertuari. T.: «Fan», 1979.

### **9. MAVZU: Qahramonlik dostonlari. «Alpomish» dostonining variant va versiyalari.**

#### **REJA:**

1. Qahramonlik dostonlari
2. «Alpomish» dostonining variant va versiyalari
3. «Alpomish» dostoning badiiy tahlili

**Darsning maqsadi:** Qo'rg'on, Bulung'ur va boshqa dostonchilik maktablari va ular yaratgan dostonlar haqida ma'lumot.

**Darsning vositalari:** Ko'rgazmali o'quv qurollari, fol'klorshunos olimlarning xalq dostonlariga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** Blits so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

**Darsning mazmuni:** «Alpomish» – qadimiy dostonlardan biridir. U qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligini kuylovchi ulkan eposdir. Unda bir oila taqdiri misolida vaziyat taqozosi bilan bo'linib ketgan qadimiy bir o'zbek urug'ining qayta birlashishini badiiy aks ettirish orqali millat birligi g'oyalari, uning qahramonona shon-shuhrati va istiqboli, el-yurt farovonligi, oila baxti va Vatan ravnaqi uchun kurash baralla kuylangan. SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov dostoniga juda yuqori baho berib, shunday degan edi: «Alpomish» – o'zbekning o'zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o'tkazib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir... «Alpomish» dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozarlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi<sup>1</sup>.

Bundan ming yillar avval xalq baxshilari tomonidan og'zaki ravishda yaratilgan hamda bizgacha kuylab kelingan bu doston o'zbek-qo'ng'iro't urug'i boshliqlari aka-uka Boybo'ri va Boysarilarning farzandsizligi tasviri bilan boshlanadi. Unda Hakimbek va Barchinning ajoyib-g'aroyib holatlarda tug'ilishi, Hakimbekning bahodirona yoshligi va birinchi bor pahlavonlik ko'rsatishi, Boysarining Boybo'ridan arazlab, qalmoq eliga ko'chishi, qahramonning yorini olib kelish uchun o'zga mamlakatga safari va qalmoq alpi Qorajon bilan do'stlashishi, raqiblari – qalmoq alplari bilan yonma-yon turib, Barchinning shartlarini bajarishi va Barchinni olib o'z eliga qaytishi, qaynatasi Boysarini qutqarish uchun ikkinchi marta safar qilganda, etti yil zindonda qolishi, asirlikdan oti Boychibor yordamida qutulib, xotini Barchinning zo'ravon Ultontoz bilan bo'layotgan to'yi ustida o'z eliga kelishi hamda Ultontozni engib, o'z hokimiyatini o'rnatishi voqealari tasvirlanadi. «Alpomish» dostonining bosh qahramoni Hakimbek – Alpomishdir. U xalqning qahramonlik orzularini o'zida mujassamlashtirgan, el-yurt farovonligi yo'lida mardliklar ko'rsata olgan bahodir, xalq dahosi yaratgan quyma obrazdir. Qadimgi davrlar va o'rta asrlarda inson

---

<sup>1</sup> Karimov I. "Alpomish" dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq. "Xalq so'zi" gazetasi, 1999-yil, 9-noyabr.

beqiyos kuch-qudrat egasi hisoblangan, chunki o'sha sharoitda odamlarning ijtimoiy hayoti va tabiat hodisalariga qarshi kurashlarida jismoniy kuch hal qiluvchi rol o'ynagan. SHuning uchun ham barcha xalqlarning qahramonlik eposlarida har ishga qodir pahlavonlar, yakkama-yakka olishuvlarda g'olib chiqqan bahodirlar, vahimali ajdar va devlarni mahv eta oladigan botirlar, tish-tirnog'igacha qurollangan lak-lak dushman qo'shinini yolg'iz o'zi enggan alplar siymolari yaratilgan. Alpomish xudi shunday qahramondir.

Dostonda Alpomishning kuch-qudrati, uning bahodirlik salohiyatini tasvirlashga alohida e'tibor berilgan. U etti yoshida bobosi Alpinbiydan qolgan o'n to'rt botmonlik sari yoydan otib, Asqar tog'ining cho'qqisini uchirib yuborganligi uchun ham alp ataladi. Yakkama-yakka olishuvda Qultoy va Qorajondan g'olib chiqadi. Uning kuch-qudrati Barchin shartlarini bajarishda, qalmoq alplari bilan kurashda, ayniqsa, yorqin namoyon bo'ladi. Doston maishiy hayot detallariga boyligi, real epizodlarni keng qamrab olganligi bilan alohida ajralib turadi. Masalan, baxshi etti yillik tutqunlikdan keyin Alpomishning o'z yurtiga qaytishida uni qarindoshlari, cho'ponlar, yilqichilar, karvonlar, turli toifadagi kishilar bilan uchrashtirish orqali mamlakatdagi ahvol bilan tanishtiradi, odamlarning qahramonga va uning raqibi Ultontozga munosabatini yaqqol gavdalandiradi. Bu lavhalar Alpomishni ideal qahramon va oddiy inson sifatida har jihatdan xarakterlab beradi. Yo'ldagi uchrashuvlarda Ultontozning zo'rlik bilan Barchinni olish uchun to'y qilayotganligini bilgan Alpomish Qultoy qiyofasida to'yxonaga keladi. To'yxonada Alpomish Ultontoz tomonidan kamsitilgan va o'g'li hajrida alam tortayotgan ota-onasiga hamdardlik qiladi, haqoratlangan o'g'li Yodgorning boshini silaydi, Ultontozga xushomadgo'ylik qilgan bakovul va oshpazlarning ta'zirini beradi, o'zining kuch-qudratini, Barchinga hamda oilasiga sodiqligini yana bir bor namoyish etadi.

Dostonning Alpomishdan keyingi etakchi obrazlaridan biri Barchindir. U o'zbek eposida har tomonlama mukammal ishlangan ayol obrazi hisoblanadi. Dushmanlarning «qirq mingini bir deb sanab qirishga» tayyor turgan jasur Barchin siymosida qahramonlik dostonlariga xos alp qiz haqidagi an'anaviy tushuncha ham o'z ifodasini topgan. Qizdagi jasurlik, mardlik va dovyuraklik, o'z kuch-qudratiga ishonish uni Toychixon alplari zo'rlik bilan olib ketmoqchi bo'lgan holatlar tasvirida yaqqol gavdalanadi. Barchin faqat jasur va dovyurak bo'lib qolmay, unga uylanmoqchi bo'lgan yigitdan ham salohiyat va bahodirlikni talab qiladi. Bu jihatdan uning Alpomish va to'qson alp oldiga to'rt shart (yoy tortish, ming qadamdan tanga pulni urish, poyga, kurashda to'qson alpni engish) qo'yishi xarakterlidir. Qahramonlik va mardlikni tarannum etuvchi Barchin shartlari dostonda badiiy go'zal tasvirlangan. Fozil shoir xalqning boy ijodiy tajribasini, turmushdagi eng mayda ikir-chikirlarni ham juda yaxshi biladi, har bir detalni

chuqur mushohada qiladi hamda o'z o'rnida qo'llaydi. Bu shartlarning bajarilishida Barchin bevosita bo'lmasa-da, bilvosita ishtirok etadi. U kurashda Ko'kaldoshni yiqitishga qiynalgan Alpomishga ma'naviy madad beradi. YOki, poygada Ko'kaldoshning oti Ko'kdo'nondan o'za olmagan Boychibor Barchinning «qur-hayt» degan ovozi eshitishi bilan marraga birinchi bo'lib etib keladi.

«Alpomish» dostoni 1922 yildan beri o'zbek fol'klorshunoslari tomonidan xalq baxshilar og'zidan yozib olib kelinmoqda. Hozirgacha uning 40 dan ortiq variantlari yozib olingan. Ularni aytib bergan baxshilar ulkan dostonchilardir. Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan shoir, Berdi baxshi va boshqa baxshilardan alohida-alohida kitoblar tarzida to'la ravishda yozib olingan. Boshqa baxshilardan esa variantlarning parchalari nashr etilgan. «Alpomish» dostoni «Alpamis», «Alpamis botir», «Alip-Manash» nomlarida qoraqalpoq, qozoq, oltoy xalqlarida doston holida, «Alpomsho», «Alpomsho va Barsin hiluv» nomlarida tatar va boshqird xalqlarida ertaklar shaklida yozib olingan va nashr etilgan. Demak, «Alpomish» dostoni turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan eposdir. Har bir xalq unga o'zining milliy dostoni sifatida munosabatda bo'lib, o'rganib kelmoqda. Olimlarning xulosalariga ko'ra barcha milliy versiyalar va ularning variantlariga nisbatan ham olganda Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti badiiy yuksak va mukammal dostonidir.

«Alpomish» dostoni qadimiy qahramonlik eposining yorqin namunalaridandir. «Alpomish» dostoni yigirma sakkiz xalq baxshisidan o'ttiz uch marta yozib olingan. Unda ayrim urug' oqsoqollarining hukmronlikka intilishi, patriarxal-urug'chilik munosabatlarining emirila borishi va feodalizmning tug'ilish jarayoni voqealari o'ziga xos tarzda badiiy aks ettirilgan.

«Alpomish» dostoni qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligi va urug' birligini kuylovchi ulkan eposdir. Doston qo'ng'iroq urug'i boshliqlari— aka-uka Boybo'ri va Boysarilarning farzandsizligi tasviri bilan boshlanadi. Unda bo'lajak qahramonlar— Alpomish va Barchinlarning ajoyib-g'aroyib holatlarda tug'ilishi, Alpomishning bahodirona yoshligi va birinchi bor pahlavonlik ko'rsatishi, Boysarining Boybo'ridan arazlab qalmoq eliga ko'chishi, qahramonning yorini olib kelish uchun o'zga mamlakatga safari va Qorajon bilan do'st tutinishi, raqiblari— qalmoq alplari bilan yonma-yon turib, Barchinning shartlarini bajarishi va yorini olib o'z eliga qaytishi, qaynatasi Boysarini qutqarish uchun ikkinchi marta safar qilganda, etgi yil tutqunda qolishi, asirlikdan oti Boychibor yordamida qutulib, o'z eliga xotini Barchinning zo'ravon Ultontoz bilan bo'layotgan to'yi ustiga kelishi hamda raqibini engib, o'z hokimiyatini o'rnatishi voqealari tasvirlanadi.

«Alpomish» dostoni qadimiy qahramonlik eposining yorqin namunalaridandir. «Alpomish» dostoni yigirma sakkiz xalq baxshisidan o'ttiz uch

marta yozib olingan. Unda ayrim urug` oqsoqollarining hukmronlikka intilishi, patriarxal-urug`chilik munosabatlarining emirila borishi va feodalizmning tug`ilish jarayoni voqealari o`ziga xos tarzda badiiy aks ettirilgan.

«Alpomish» dostoni qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligi va urug` birligini kuylovchi ulkan eposdir. Doston qo`ng`irot urug`i boshliqlari— aka-uka Boybo`ri va Boysarilarning farzandsizligi tasviri bilan boshlanadi. Unda bo`lajak qahramonlar— Alpomish va Barchinlarning ajoyib-g`aroyib holatlarda tug`ilishi, Alpomishning bahodirona yoshligi va birinchi bor pahlavonlik ko`rsatishi, Boysarining Boybo`ridan arazlab qalmoq eliga ko`chishi, qahramonning yorini olib kelish uchun o`zga mamlakatga safari va Qorajon bilan do`st tutinishi, raqiblari— qalmoq alplari bilan yonma-yon turib, Barchinning shartlarini bajarishi va yorini olib o`z eliga qaytishi, qaynatasi Boysarini qutqarish uchun ikkinchi marta safar qilganda, etgi yil tutqunda qolishi, asirlikdan oti Boychibor yordamida qutulib, o`z eliga xotini Barchinning zo`ravon Ultontoz bilan bo`layotgan to`yi ustiga kelishi hamda raqibini engib, o`z hokimiyatini o`rnatishi voqealari tasvirlanadi.

## **ZARURIY ADABIYOTLAR:**

- 11.X.Razzoqov va boshqalar. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. Toshkent: «O`qituvchi», 1980, 210-221 betlar.
- 12.T.Mirzaev. «Alpomish» dostonining o`zbek variantlari. Toshkent: «Fan», 1979.
- 13.E.Musurmonov. O`zbek xalq dostonlari. SamDU, 2005.
- 14.Bulbul taronalari. e.Jumanbulbul o`g`lining doston va termalari. 5 tomlik. Toshkent: «Fan», 1973.
- 15.O`zbek xalq dostonlari. 1-2 tom. Toshkent: «Fan», 1956-1957.
- 16.. Avazxon / Go`ro`g`li dostonlari. To`rt jildlik. II kitob. T.: «YOzuvchi», 1997.
17. Afzalov M. Po`lkan shoir. T., 1955.
- 18.Mirzaev T. «Alpomish» dostonining o`zbek variantlari. T.: »Fan», 1968; Yana: Xalq baxshilarining epik repertuari. T.: «Fan», 1979.
- 19.Alpomish. O`zbek xalq qahramonlik dostoni. T.: «SHarq», 1998.
- 20.Alpomish. O`zbek xalq qahramonlik eposi. Akademik nashr. T.: «Fan», 1999.



## **10-MAVZU: Go'ro'g'li turkumidagi dostonlar. Go'ro'g'li xalq orzu qilgan milliy qahramon sifatida**

### **REJA:**

1. Qardosh xalqlar adabiyotida Go'ro'g'li turkumidagi dostonlar tasnifi.
2. O'zbek xalq dostonlarida Go'ro'g'li turkumi.
3. Dostonning qisqacha g'oyaviy talqini.
4. Dostonning tili va badiiy xususiyatlari.

**Tayanch iboralar:** «Go'ro'g'li» dostoni hamda uning qardosh xalqlar xalq og'zaki ijodidagi versiyalari haqida ma'lumot.

**Darsning maqsadi:** «Go'ro'g'li» dostoni va uning o'zbek xalq og'zaki ijodidagi tutgan o'rni.

**Darsning vositalari:** Ko'rgazmali o'quv qurollari, fol'klorshunos olimlarning «Go'ro'g'li» dostoniga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

**Darsning metodi:** Blits so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

**Darsning mazmuni:** So'z san'atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshladi. «Go'ro'g'li» dostonlari xalq dostonchiligida har biri mustaqil yashagan va ayrim-ayrim nomga ega bo'lgan asarlar silsilasi, muayyan omillar bilan bir-biriga birlashgan kattakon turkum bo'lib, YAqin va O'rta SHarqda juda keng tarqalgan. Bu turkum o'zbek, tojik, qozoq, qoraqalpoq, tatarlarda Go'ro'g'li; turkmanlarda Go'ro'g'li, Ko'ro'g'li, Karo'g'li; ozarbayjon, gruzin, turk va boshqalarda Ko'ro'g'li nomi bilan shuhrat qozongan.

«Go'ro'g'li» turkumi dostonlari kattakon ikki tarmoqqa bo'linadi. Fanda biri Zakavkaz'e va YAqin SHarq versiyalari (ozarbayjon, arman, gruzin, turk va boshqalar) deb yuritilsa, ikkinchi O'rta Osiyo versiyalari (o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, turkman, tojik va boshqalar) deb ataladi. Bu ikki tarmoq o'zaro muayyan umumiylikka ega bo'lsa-da, dostonlarda qamrab olingan voqelik, epik an'ana va bosh qahramonga berilgan baho, ularning hajmi, sostavi, kuylanish va tarqalish xususiyatlari jihatidan bir-biridan pirntsipial ravishda farq qiladi.

Demak, ozarbayjon versiyasida konkret shaxs va davr bilan bog'liq voqealar tengsiz kuch-qudrat va shijoat, olijanob insoniy fazilatlar ideali nuqtai nazaridan kuylanadi. Ammo bunda umumlashtirish va ideallashtirish muayyan davr va tarixiy voqealarni inkor etish darajasida emas, balki u (xalq ideali) konkret biografik detallar va hayotiy lavhalar bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

O'rta Osiyo versiyalari, xususan, o'zbek variantlarida esa umumlashtirish va ideallashtirishning juda yuqori darajasini ko'ramiz. Bunda qahramonona o'tmish

konkret tarixiy voqealar aspektida emas, balki mislsiz romantik lavhalarda, xalqning beqiyos ideallari ko'lamida tasvirlanadi. Hamma narsa – hayot ham, xalq turmushi ham, tarixiy voqelik ham, mavjud zamon etishtirgan qahramonlar ham ko'tarinki romantik bo'yoqlarda, bepayon badiiy ideal tasavvurlarda, cheksiz obrazlar girdobida gavdalanadi. Ana shu bepayon ideallik va cheksiz romantika bu dostonlarni yanada real, hayotiy, xalqqa yaqin va davrimizga hamohang qilgan.

O'zbek dostonlarida Go'ro'g'li turkman va o'zbeklarning begi, qonuniy hukmdor, o'z xalqi, vatani uchun qayg'uruvchi va uni turli dushmanlar bosqinidan himoya qiluvchi dono murabbiy, ko'plab xalq botirlarini tarbiyalab etishtirgan engilmas bahodir sifatida tasvirlanadi. Bosh qahramonga berilgan mana shu bahodan kelib chiqib, CHambil yurtining afsonaviy hukmdori Go'ro'g'lining bahodir qirq yigiti bilan birgalikda ona erining xavfsizligi va ozodligiga tahdid soluvchi qo'shni podsholiklarga qarshi olib borgan kurashi butun xalq harakati, chambil eli, qabila ozodligi urushi tarzida namoyon bo'ladiki, bu o'zbek eposidagi asosiy masaladir.

O'zbekistonning Xorazmdan bo'lak erlarida tarqalgan «Go'ro'g'li» dostonlari ham alohida mustaqil bir versiyani tashkil etib, hajmining kattaligi, «monumentalligi» bilan ajralib turadi. Har ikki versiyada bosh qahramonning umumiy faoliyatida va bir qancha motivlarda o'xshashlik ko'zga tashlanadi. Ammo alohida olingan dostonlarda o'xshashlik deyarli yo'q, ya'ni birida bo'lgan doston (masalan, «Xirmon doli») ikkinchisida, ikkinchisidagi (masalan, «Ravshan») birinchisida mavjud emas. Versiyalar orasida bu darajada printsiptial ayirmalarning mavjudligi turkumga birlashgan dostonlarning muayyan qismi ikki joyda, ikki xil ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yaratilganligi va mustaqil rivojlanishda davom etganligini ko'rsatadi.

«Go'ro'g'lining tug'ilishi va bolaligi» dostoni ko'p planli asar bo'lib, unda G'irot biografiyasiga oid ham ajoyib ma'lumotlar bor. Bu ma'lumotlarga ko'ra, qahramonni emizgan baytal bilan Xuroson ko'lidan chiqib kelgan ayg'irdan («suv oti»dan) urg'ochi qulun tug'iladi. Bu qulun uch yashar bo'lgach, Go'ro'g'li Rayxon arabning dongi chiqqan tulporidan nasl olishga harakat qiladi. Natijada uchinchi ot – G'irko'k tug'iladi. G'irko'k etti kunlik bo'lganda onasi o'ladi. Go'ro'g'li unga turli hayvonlarning sutini berib tarbiya qiladi. Go'ro'g'li bilan G'irot orasida juda ko'p o'xshashliklar bor: dostonda har ikkalasi ham uchinchi naslgacha tilga olinadi. (To'liboy – Ravshan – Go'ro'g'li; qahramonni emizgan baytal – «suv ot» – G'irko'k); ikkalasi ham etim; ikkalasi shirxo'ra va hokazo. Bu bilan qahramon va uning jangovar oti o'rtasida eposga xos ajoyib bir aloqa yuzaga keltiriladiki, bu butun turkum bo'ylab izchil davom etadi. Dostonda yosh qahramonning chiltonlar bilan uchrashuvi, kelajak yo'lining oldindan belgilanishi, epik CHambil yurtining bunyod etilishi, YOvmit eliga xon qilib ko'tarilishi kabi

voqealar juda qiziqarli tasvirlanadi. SHoxdorxon va Ravshan, Ravshan va Urayxon, Rayxon va Go'ro'g'li to'qnashuvlarida butun turkumga xos bo'lgan ijobiy va salbiy sifatlar namoyon bo'ladi. Turkumning ushbu birinchi dostonidayoq o'zbek «Go'ro'g'li»siga xos bo'lgan cheksiz fantaziya, ko'z ilg'amas geografik va etnografik kengliklar to'la namoyon bo'ladi. Bu hol, ayniqsa, «YUnus pari», «Misqol pari», «Gulnor pari» dostonlarida yanada yorqin ko'rinadi. Bu asarlar Go'ro'g'lining uylanishi va shu bilan bog'liq qahramonliklariga bag'ishlangan.

«Go'ro'g'li» tsiklidagi dostonlarda parilar podsholigi, undagi saroy va oilaviy hayot inson turmushining ko'rinishi sifatida keng va hayotiy lavhalarda tasvirlanadi. Dostonlarning tuzilishi an'anaviy andoza asosida bo'lib, o'rni bilan o'zaro almashinib turadigan nazm va nasriy matnlar tashkil qiladi. Dostonlardagi she'rlar, asosan 7, 8 va 11 hijoli barmoq vaznida bo'lib, turoqlarning o'zgarib turishi, band tuzilishi va qofiyalanish shakliga ko'ra o'ziga xos xususiyatga ega.

«Go'ro'g'li» turkumi dostonlari xalq hayoti, turmushi va maishatini, orzu-umidlari va g'oyalarini, axloqiy-estetik va ijtimoiy qarashlarini keng hajmda tasvirlovchi eposdir. «Go'ro'g'li» turkumidagi anchagina dostonlar qahramonning asrandi farzandlari Hasan, Avaz, nevaralari Nurali, Ravshan va evarasi Jahongirlarning qahramonona sarguzashtlariga bag'ishlangan bo'lib, bular ham o'zaro muayyan turkumlarni tashkil qiladi.

Bu ichki turkumlar asrandi farzandlarining olib kelinishini tasvirlovchi dostonlar (Hasanxon, Avazxon) bilan boshlanadi. Hasan va Avazning o'z taqdiri bor. Ularning har biri turkumda muayyan o'rin tutadi. Hasanxon turkumda faqat bir doston «Dalli»ning bosh qahramoni sifatida ishtirok etadi. Avazxon esa, butun bir dostonlar «Balogardon», «Intizor», «Bo'tako'z», «Qunduz bilan YUlduz», «Malikai ayyor» va boshqa turkumning bosh qahramonidir.

Bir so'z bilan aytganda, «Go'ro'g'li» tsiklidagi dostonlar o'zbek xalqi orasida keng tarqalgan bo'lib, o'z muxlislariga egadir. O'zbek xalqi Go'ro'g'li va uning yigitlari haqida qator termalar yaratgan. Bu termalarni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, «Go'ro'g'li» turkumi dostonlari o'zbeklar orasida bir necha versiyada tarqalgan. Bu versiyalarni chuqurroq o'rganish va qiyosiy tahlil qilish kelajakdagi amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalardan biridir.

### **ZARURIY ADABIYOTLAR:**

1. X.Razzoqov va boshqalar. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent: «O'qituvchi», 1980, 210-221 betlar.
2. E.Musurmonov. O'zbek xalq dostonlari. –S.: SamDU, 2005, 52 b.
3. E.Musurmonov. O'zbek xalq dostonlari. SamDU, 2005.
4. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Dostonlar. Toshkent: «Fan», 1969.
5. O'zbek xalq dostonlari. 1-2 tom. Toshkent: «Fan», 1956-1957.

## 11-MAVZU: “Ravshan” dostoni tahlili

### REJA:

4. G‘o‘ro‘g‘li turkumidagi dostonlar silsilasi va “Ravshan” dostoni
5. “Ravshan” dostonida obrazlar tizimi
6. “Ravshan” dostoni ijrochilari haqida

**Darsning maqsadi:** «Go‘ro‘g‘li» dostoni va uning o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi tutgan o‘rni.

**Darsning vositalari:** Ko‘rgazmali o‘quv qurollari, fol’klorshunos olimlarning «Go‘ro‘g‘li» dostoniga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

**Qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalari:** Blits so‘rov, an‘anaviy ma‘ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

**Darsning mazmuni:** “Ravshan” dostoni g‘oyaviy-badiiy jihatdan ishqiy-sarguzasht dostonidir. U 1928- yilda birinchi bo‘lib Xodi Zarif tomonidan Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan yozib olingan va 1941-yilda nashr ettirilgan.

Ergash shoir “Ravshan”ni otasi Jumanbulbuldan, u esa ustози Kichik Bo‘rondan o‘rgangan. Bu doston ham “G‘o‘ro‘g‘li” turkumiga mansub.

“Ravshan” pok va samimiy muhabbatni kuylovchi, maqsadga erishish yo‘lida mardlik va botirlikni ulug‘lovchi, zulm va adolatsizlikni qoralovchi asardir. Bu dostonning sayqal topib, badiiy go‘zal asar shaklini olishida Jumanbulbul va Ergash baxshilarning alohida xizmatlari bor.

Dostondagi Ravshan, Zulxumor, Hasanxonlar bosh obrazlar bo‘lsa, shirvonlik kampir-ena, aka-uka kallar, oqqiz, uning Maston onasi epizodik obrazlardir.

Taqdiriga bitilgan Zulxumorni qo‘lga kiritish niyatida olis yo‘lga yakka o‘zi chiqqan Ravshan yoshligi, soddaligi tufayli osongina bandi etilib, zindonga tashlanadi. Ammo u qo‘rqoqlik qilmaydi. Yigitlik sha‘niga dog‘ tushinnaslikka intiladi. Qoraxon a‘yonlarining dinini o‘zgartirish haqidagi taklifini rad etib, o‘z e‘tiqodidan, dinidan kechmasligini aytadi. Muhabbat uchun chekilgan iztirob, iymon yo‘lidagi azobga aylanadi. Chin muhabbat egasi bo‘lgan botir yigit o‘limdan hayiqmaydi. Dostonda Ravshan hech qanday kamchiliksiz, har jihatdan yetuk odam sifatida tasvirlaninaydi. Uning o‘jizligi, g‘o‘rligi, tajribasizligi tufayli xatolar qilishi, aldanishi haqqoniy ko‘rsatiladi. Hasanxon - Go‘ro‘g‘lining tarbiyasini olgan dongdor polvon. Zulxumor mayna orqali yollagan maktubni olgan Hasanxon

G'irotda uch oylik yo'lni yigirma kunda bosib o'tadi. Dostonda shu o'rinlar nihoyatda hayajonli, ta'sirchan va go'zal ifodalangan.

Doston - she'riy san'atlarga, badiiy tasvir vositalariga juda boy. Zulxumoming qiyofasi, fe'l-atvori, tabiat manzaralari yuksak raahorat bilan chizilgan. Zulxumoming bog'i tasvirini o'qisangiz, ulkan e'tibor ila parvarishlangan, shohona ko'slik va qasrli so'lim maskan, jannatday bir oromjoy ko'z o'ngingizda namoyon bo'ladi. Yoki Shirvon bozorining 145 misralik tasvirini olaylik. Dostonda sershovqin, to's-to'polon Sharq bozorining o'ta tabiiy, jozibador tasviri berilgan. She'riy parchalar anvoyi poetik tasvir vositalariga nihoyatda boy qofiyalar bilan mohirona ziynatlangan. «Ravshan» dostoni qofiyali nasr (saj)ning go'zal namunasi. Deyarli har bir nasriy parcha - qofiyali. Dostonning vazni ham o'ziga xos.

She'riy qismi asosan yetti, sakkiz va o'n bir bo'g'inli barmoq vaznida. Baxshi qahramonning ruhiy holati, his-hayajoni, voqea rivojining sur'atiga ohangdosh, ayni shu holatga mos tasvir yo'sinini topadi. Sakkiz bo'g'inli vazn urush va jangovarlik holatiga juda mos keladi. Asarda tasvir etilayotgan voqea yo harakat sur'ati tezlashgan holatlarga esa, yetti bo'g'inli she'rlardan foydalaniladi. Bunday o'rinlarda tinglovchi o'zini go'yo asar qahramoni bilan yonma-yon ot qo'yib borayotganday his etadi. Shoir qahramonlar ruhiy holatini chuqur his etadi va uni doston tinglovchilariga ham yuqtira biladi. Dostonning tili - sodda, rang-barang. Unda adabiy tilimizni boyitishga xizmat qiladigan so'z va atamalar juda ko'p. Ko'plab misralarda xalq maqollari va hikmatli so'zlari o'rinli qo'llangan.

Badiiy adabiyot hayotni, undagi insonlarning ruhiy holati, o'y-fikrlarini aks ettiradi. Hayot hamisha insonlarning tirikchiligi, raehnat faoliyati, kurashi, his-tuyg'ulari, kechinmalaridan iborat. Adabiyotning tasvir mavzusi, avvalambor, insondir. Inson tasviri yo'q, u ko'zda tutilmagan joyda badiiy adabiyot ham bo'lmaydi. Shunga ko'ra adabiyotshunoslik ilmida markaziy o'rinni egallovchi tushuncha ham obruz, qahramon yoki personaj tushunchasidir. Obraz - timsol tushunchasining keng va tor ma'nolari mavjud. Keng ma'nodagi timsol tushunchasi ijodkoming fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi, tor ma'noda badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi. Biz bu o'rinda timsol tushunchasining ko'p qo'llaniladigan ma'nosi haqida fikr yuritamiz. Yozuvchi hayotni badiiy timsollar orqali tasvirlaydi. Shuning uchun ham biror badiiy asar o'qiganimizda unda aks ettirilgan voqelik ongimizda shu asarda tasvirlangan kishilarning obrazlari orqali muhrlanib qoladi. Mana, siz «Ravshan» dostonini o'qib chiqdingiz. Bulling natijasi o'laroq, Ravshan, Zulxumor, Hasanxon, Aynoq, Jaynoq, Ersak, Tersaklarning

mahorat bilan chizilgan timsollari, Shirvon bozori, Zulxumorga qarashli bog'ning ajoyib-g'aroyib manzaralari xotirangizda mahkam o'mashib qoladi.

«Ravshan» badiiy jihatdan g'oyat pishiq ishqiy-sarguzasht dostonidir. Xalq orasida u o'tgan asrda ham mashhur bo'lgan. Ammo doston folklorchi olim Hodi Zarif (1905-1972) tomonidan birinchi marta 1928-yilda Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868-1937) og'zidan yozib olingan va 1941-yilda nashr ettirilgan. Ergash shoir «Ravshan»ni otasi Jumanbulbuldan, u esa ustozi Kichik Bo'rondan o'rgangan. Dostonning sayqal topib, badiiy go'zal asar shaklini olishida Jumanbulbul va Ergash baxshilarning alohida xizmatlari bor. «Ravshan» otashin va saraimiy muhabbatni kuylovchi, pok va haq islomiy e'tiqod yo'lida sobit tura oladigan iymonli kishilarni inadh qiluvchi, ezgulikni, inardlik va botirlikni ulug'lovchi, zulm va zo'ravonlikni, adolatsizlikni qoralovchi asardir. Suyukli xalq shoiri Ergash Jumanbulbul o'g'lining ulkan mehnati, iste'dodi hamda dostonni yozib olgan folklorshunos va noshirlarning og'ir mehnati tufayli avlodlarga meros bo'lib qolgan «Ravshan» dostoni kitobxonlarni mustahkam islomiy e'tiqod, chin va pokiza muhabbat, or-nomus, e'tiqod, qahramonlik, ota yurt va xalqqa sadoqat ruhida tarbiyalaydi.

#### **ZARURIY ADABIYOTLAR:**

6. X.Razzoqov va boshqalar. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent: «O'qituvchi», 1980, 210-221 betlar.
7. E.Musurmonov. O'zbek xalq dostonlari. –S.: SamDU, 2005, 52 b.
8. E.Musurmonov. O'zbek xalq dostonlari. SamDU, 2005.
9. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Dostonlar. Toshkent: «Fan», 1969.
10. O'zbek xalq dostonlari. 1-2 tom. Toshkent: «Fan», 1956-1957.

#### **12-MAVZU: “Kuntug'mish” dostonida sevgi va vafo ifodasi**

##### **REJA:**

7. “Kuntug'mish” dostonining yaratilishi
8. Dostonning o'ziga xos xususiyatlari
9. “Kuntug'mish” dostonida sevgi va vafo ifodasi

**Tayanch iboralar:** «Kuntug'mish» dostoni hamda undagi obrazlar tahlili

**Darsning maqsadi:** «Kuntug'mish» dostoni va uning o'zbek xalq og'zaki ijodidagi tutgan o'rni.

**Darsning vositalari:** Ko'rgazmali o'quv qurollari, fol'klorshunos olimlarning «Kuntug'mish» dostoniga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

**Darsning metodi:** Blitz so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

**Darsning mazmuni:** «Kuntug'mish» dostoni o'zbek xalq dostonlari orasida g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlardan biridir. Dostonning yozib olingan va ijro etilgan variantlari juda ko'p. Uning xilma-xil kolrinishdagi variantlari ko'pligining boisi shundaki, ilgari baxshilarning iste'dodiga, ushbu dostonni qanday aytishiga qarab baho berilgan, natijada barcha baxshilarimiz «Kuntug'mish» dostonini to'la o'zlashtirishga intilganlar. Dostonning Ergash Jumanbulbul o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Nurmon Abduvoy o'g'li, Egamberdi Ollamuroddan yozib olingan variantlari mavjud. Muhabbat insonni ezgulikka yetaklaydi, sevgan kishi har qanday qahramonlikka qodir hisoblanadi. Biz o'rgangan «Kuntug'mish» dostoni sevishganlar haqida chiroyli asar, uning janrini ishqiyy-qahramonlik dostoni, deb belgilash mumkin. Chunki Kuntug'mish dostonida katta qahramonliklar ko'rsatadi: yurtga qiron keltirgan ajdarni yengadi, tosh bostirib qo'yilgan kigiz ostidan chiqib ketadi. Bu qahramonliklar shunchaki o'zini ko'rsatish emas, avvalo xalqni ajdar ofatidan qutqazgan bo'lsa, sevikli yori, bolalarini deb g'oyat tang bir holatda yovlari o'rab-chirmab, ustidan tosh bostirib ketgan kigiz orasidan xalos bo'lib chiqadi.

Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha: No'g'ay yurtida Avliyoyi Qoraxon ismli, Qilichxon laqabli podsho bo'lib, Kuntug'mish uning yolg'iz o'g'li bo'ladi. Kuntug'mish o'n to'rt yoshga to'lguncha ilm-hunar o'rganadi, kasb-kamolot hosil qiladi. O'n to'rt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko'pkari chopish kabi S|pohilik hunarlarini o'rganadi, xullas, har tomonlama komil shahzoda bo'lib yetishadi. Zangardegan shaharning Buvraxon degan Podshosi bo'lib, uning Shoir va Tohir ismli vazirlari bor edi. Vazirlar pir-birlari bilan juda inoq edilar, ular: «Bizlarga farzand bersa, o'g'il bo'lsa qo'lqanot bo'lsin, qiz bo'lsa do'st bo'lsin», deya niyat qilar edilar. Kunlardan bir kuni Shoir vazirning xotini qiz ko'radi. Tohirning oilasida o'g'il tug'iladi. Qizning otini Xolbeka, o'g'ilning otini in qo'yishadi. Lekin Xolmo'minning onasi to'satdan vafot etadi, o'g'il go'dakni Xolbekaoning onasi emizishga majbur bo'ladi, natijada ular «shirxo'ra» (bir onani emgan) bo'lib, «nikoh yurmaydigan» bo'lib qoladilar. Xolbeka o'n to'rt yoshga yetgach, uning husni kamoli ovozasi olamga yoyiladi. U go'zal, ayni paytda aqlli, nard o'yiniga mohir qiz bo'lib yetishadi. Unga barcha mamlakatlardan sovchilar kela boshlaydi. Xolbeka sovchilarga: «Har kim meni olaman deb kelsa, oldiga nard o'yinini qo'yaman, o'ynayman, yutsa tegaman, utdursa so'yaman», deb shart qo'yadi. Hatto shahar podshosi Buvraxonga ham shu javobni aytadi. Podsho g'azablanib, shaharga Xolbeka deb kelgan odamni tutib qatl qildirishga farmon

beradi, shunday qilsam to'rt-besh yildan keyin menga tegishga majbur bo'ladi, deb o'ylaydi.

Xolbeka va Kuntug'mish tush ko'radilar, ular tushlarida bir-birlarining qo'lga uzuk taqishib, uylangan emishlar. Shundan so'ng Xolbeka bir mohir suratkashga o'z rasmini chizdiradi va uni sandiqqa solib, No'g'ay yurtiga oqizib yuboradi. Sandiq oqib borib daryo sohilida ov qilib yurgan Kuntug'mish qo'lga tushadi. Kuntug'mish Xolbeka visoliga yetish uchun Zangar yurtiga o'tlanadi, bu yurtga kelib Xolbeka bilan topishadi, so'ng ko'p sarguzashtlarni boshidan kechiradi: Buvraxon qo'lga tushib, o'limga hukm qilinadi, dahshatli ajdarni o'ldiradi, xiyonatkor Azbarxo'ja tufayli xotini, egizak o'g'illaridan vaqtincha judo bo'ladi. Doston so'ngida xotini, farzandlari Gurkiboy va Mohiboy, otasi Qoraxon bilan topishadi.

Dostonning bosh qahramoni - Kuntug'mish yolg'iz, erka o'g'il bo'lishiga qaramasdan aqlli, bilimli, jasoratli, elga g'amxo'r, xotini, bolalariga mehribon, vafodor yigit. Kuntug'mish va Xolbeka bir mo'jiza bilan Buvraxon jazosidan omon qolib, sahroda och, tashna qolishganda hayotdan umidini uzgan yori Xolbekaning «Meni tashlab ketaver, yo'qsa o'zing ham halok bo'lasan», degan iltijosiga «Bir g'ayrat qil, yo'limiz yaqin qoldi», deb dalda beradi, unga vafodorligini quyidagicha bayon qiladi:

Polat nayza qor ostiga yetarmi,  
Temir nayzang egovlasang o'tarmi,  
Sening to'rang nomardlardan emasdir,  
o'g'lon sevgisin tashlab ketarmi?..

Kuntug'mish o'z maqsadiga sodiq, har qanday sharoitda tushkunlikka tushmaydigan inson. U nomsiz, poyonsiz tog' darasidan vataniga boradigan yo'lni rosa izlaydi, bu orada egizak ,arzandli bo'ladi, ular uch yoshga to'lganda ham biror bir el , ragini topolmaydi. Xullas, Kuntug'mish fe'l-atvorida siz havas qiladigan, ergashadigan insoniy sifatlar juda ko'p. Dostonni inchiqlab mutolaa qilsangiz, bunga o'zingiz amin bo'lasiz.

Xolbeka siymosi ham dostonda baxshi bobomiz tomonidan alohida mehr, iliqlik bilan tasvirlangan. U o'z so'zida turadigan, barcha hunarlarga mohir qiz. O'zi qanchalik bir ishga mohir bo'lsa, bo'lajak jufti halolidan ham shuni talab qiladi. Shu ma'noda Xolbeka o'z xulqi va fazilatlarini bilan har jihatdan Kuntug'mishga teng va munosib bo'lgan inson. U haqiqiy muhabbatni tan oladi va unga ishonadi, e'tibor bering: u o'z suratini chizdirib, Kuntug'mish yurtiga yuborar ekan, agar «shu ko'rgan tushim rahmoniy bo'lsa, oshiq-ma'shuqlik avvaldan pok bo'lsa, Xudoyo xudovando shu sandig'im senga omonat, to'radan boshqasiga tegmasin», deydi. Xolbeka ham iyatli, g'ururi baland qiz. Garchi u Kuntug'mishni tushida sevib



qolgan, uchrashganda esa yigitni ko'rib biroz muddat ixtiyorini yo'qotgan bo'lsa-da, uning husniga talabgor barcha shoh-u shahzodalarga bergan va'dasi, ya'ni faqat nard o'yinida g'olib chiqqanga tegaman degan fikridan qaytmaydi. Kuntug'mish men uchun mashaqqat chekib kelibdi, deb unga tegib ketavermaydi, o'zi ko'ngil qo'ygan yigitning el-yurt oldida ham yuzi yorug' bo'lishini istaydi.

Dostonda Kuntug'mishning o'g'illari Gurkiboy va Mohiboy xarakterlari ham chiroyli va ta'sirchan tasvirlangan. Gurkiboy bosiq, vazmin, aql bilan ish ko'radigan bola bo'lsa, Mohiboy biroz shaddod, biroz quv yigit. Biroq ikki aka-uka bir-birlariga mehribon, ota-onalariga fidoyi yigitlar. Ular mehnatsevarlik va aql bilan ish ko'rganlari uchun boshlariga tushgan qiyinchiliklarni yengadilar.

Asarda Azbarxo'ja, Buvraxon, Zamonqul, Xolmo'min kabi qahramonlar qiyofasi o'ziga xos tarzda yoritilgan. Azbarxo'ja dastlab Kuntug'mish bilan do'stlashadi, so'ng o'z manfaatini deb unga Xiyonat qiladi. Buvraxon o'ziga bino qo'ygan, qahri qattiq podsho, biroq uning ko'ngilchan ekanligini ham ko'ramiz. Buvraxon avval Kuntug'mish va Xolbekani o'limga mahkum etadi, keyinroq esa xiyonati tufayli mashaqqatlarga duch kelishganini, ularni afv etadi. Azbarxo'jani jazolaydi. Dostondagi Qosim, Mo'min, Mullavachcha, Zamonqul va boshqa obrazlar ham sarda o'z o'rniga ega, ularsiz Kuntug'mish va Xolbeka taqdirini tasavvur qilish qiyin.

Umuman, Kuntug'mishning dostonidagi hayoti qahramonlik bilan kechadi. Uning Xolbeka visoliga yetishish uchun uzoq safarga o'tlanishi, yo'lidagi barcha to'siq-g'ovlarni yengishi haqiqiy insoniy jasorat, fidoyilikdir. Dostonidagi Xolbeka, Gurkiboy va Mohiboy harakatlarida ham qahramonlik belgilari mavjud. Axir Xolbekaning sevgan yori, bolalari uchun jonini berishga tayyorligi, Gurkiboyning ukasi uchun o'zini fido qilishga shayligi (uning dor ostidagi so'zlarini eslang) qahramonlik emasmi?!

Birgina «Kuntug'mish» dostoni emas, boshqa dostonlarda ham asar personajlari turli qahramonlik namunalari ko'rsatadilar, bu qahramonliklar odamlarning og'irini yengil qiladi, el-yurtga ro'shnolik keltiradi. Baxshi bobolarimiz sevib kuylagan «Kuntug'mish» kabi ishqiy-qahramonlik dostonlari bizni muhabbatdek ezgu tuyg'ularni qadrlashga undaydi, fidoyilik, qahramonlikka chorlaydi, chunki ishq-muhabbat, qahramonlik, jo'mardlik doimo egizak tushunchalardir.

#### **ZARURIY ADABIYOTLAR:**

- 11.X.Razzoqov va boshqalar. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent: «O'qituvchi», 1980, 210-221 betlar.
- 12.E.Musurmonov. O'zbek xalq dostonlari. –S.: SamDU, 2005, 52 b.
- 13.E.Musurmonov. O'zbek xalq dostonlari. SamDU, 2005.
- 14.Go'ro'g'lining tug'ilishi. Dostonlar. Toshkent: «Fan», 1969.

15.O'zbek xalq dostonlari. 1-2 tom. Toshkent: «Fan», 1956-1957.

### **13-MAVZU: Bolalar folklorining o'ziga xos jihatlari (xajm, sujet chizig'i, janrlar).**

#### **REJA:**

1. Bolalar xalq og'zaki ijodining janr turlari va ijro usullari.
2. «Ramazon», «Boychechak», «Oq terakmi–ko'k terak» qo'shiqlarining ijro yo'llari.
3. Bolalar o'yinlari va ularning mazmuni.
4. Bolalar fol'klorining tili va badiiy xususiyatlari.

**Tayanch iboralar:** Xalq og'zaki ijodida bolalar fol'klori va uning ijro yo'llari, mavzu doirasi haqida ma'lumot.

**Darsning maqsadi:** Bolalar fol'klori, janr turlari, qo'g'irchoq teatr va masxarabozlar teatrining xalq og'zaki ijodida tutgan o'rni, ularning tili va badiiy xususiyatlarini yoritib berish.

**Darsning vositalari:** Ko'rgazmali o'quv qurollari, fol'klorshunos olimlarning bolalar fol'klori janrlariga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

**Darsning metodi:** Blits so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

**Darsning mazmuni:** Bolalar tomonidan yaratilgan og'zaki ijod namunalari bolalar fol'kloriga kiradi. Ba'zan bolalar uchun kattalar ham bolalar fol'klorini yaratganlar. Bular «Alla» qo'shiqlari, ertaklar, tez aytishlar, topishmoqlar, o'yin qo'shiqlari, o'yinlar, ermaklar va boshqalar. Bolalar o'yinlari va o'yin bilan aytiladigan qo'shiqlarning ko'plari yil fasllari bilan bog'langan. «Boychechak», «Oftob chiqdi olamga», «CHittigul», «Laylak keldi, yoz bo'ldi», «Qurbaqa», «Qaldirg'och» singari qo'shiqlarni bolalar tom boshlarida, dalalarda, qishloq ko'chalarida aytishadi. Ular bahorning kelishi, qushlarning uchib kelishi, suvlarda qurbaqalarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. «YOmg'ir yog'aloq» qo'shig'i esa, dehqon bolalarini quvontirgan bahor yog'irini yog'ishini tasvirlaydi. Bolalar yilning hamma faslida o'yin bilan shug'ullanadilar. O'yin ham, qo'shiqlar ham bolalarning aqliy ham jismoniy kamolotga etishiga yordam beradi. Bolalar qo'shiqlari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, ularning intizomli, jasur va boshqa ijobiy sifatlarini tarbiyalaydi. Xalq og'zaki ijodida bolalar qo'shiqlari ham marosim va urf-odatlar bilan bog'liq bo'lgan. SHulardan biri «Boychechak»dir. Bu qo'shiqda bolalar boychechak o'simligini dala-qirlardan qidirib topgach, hovlima-hovli yurib qo'shiq aytganlar. Xonadonlar esa, qo'shiq aytgan bolalarni turli xil emishlar bilan ziyofat qilganlar.

Ijodkor xalq badiiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuchi va jozibasiga qadim zamonlardan oq ishongan. U o'zining eng noyob asarlarini so'z mo'jizasi bilan bunyod keltirgan.

Bolalar fol'klori kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosini uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlarning butun bir tizimi tarzida tarkib topgan Bolalar fol'klori bolalarda eng yaxshi fazilatlarni- vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, kishilarga ishonch, do'stlarga sadoqat tuyg'ularini ekattalar bilan birga tabiat stixiyalariga qarshi kurashish va ularni engish malakasini tarbiyalaydi. Bolalar fol'klorini yaratishda kattalar ham bolalar ham baravar hissa qo'shishgan. Kattalar bolalarni erkalash she'rlarini yaratishganki, alla, aytim, olqish, ovutmachokq, qiziqmachokq, singari erkalash xususiyatlariga ega bo'lgan bu janrlar onlaik fol'klari tarzida ifodalangan.

Onalik fol'klori keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, poetik namunalarda erekalash xususiyati etakchidir. SHu mantikka asoslanib, onalaik folb'ekloiridva poetik asarlar silsilasini nasriy asarlar guruhidan ravshanroq ajratish niyatilda onalarni erkalovchi she'rlari deb ham atash mumkin. O'z navbatida erkalash she'riyatiga mansub namunalarning ijro maqsadi, urni va bola yoshi, saviyasiga ko'ra guruhlariga bo'lnadi. Birinchi guruhga mansub qo'shiqlar bolaning beshikdagi davri bilan chambarchas bog'liq. SHuning uchun ularni beshik qo'shiqlari deyishadi. Allalar, aytimlar, olqishlar, ana shunday xususiyatlarga ega. Beshik qo'shiqlari bola uch yoshga to'lgunga qadar aytiladi. Allalar-ijtimoiy estetik qiymatiga ko'ra birinchidan-bolalarni uxlatishdan iborat., ikkinchidan-tarbiyaviy estetik mohiyat kasb etishdan iborat. Beshik qo'shiqlarida eng ko'zga ko'rinadigan mavzu- bola ta'rifi. Ona o'z bolasina o'zibilgan yaxshi so'zlar bilan ta'riflaydi.

Quzi boqqan qo'y etsin,  
Topganimga to'y etsin .  
To'y-to'ylarga ulansin,  
Davlat boshingga urnashsin.  
Alla-yo, alla.

Ikkinchi guruhga oid qo'shiqlar bola tug'ilganidan to 10-11 yoshga to'lguncha ijro etiladigan aslida beshik bilan bog'lanmagan onalik mehri tarovatidan yuzaga kelgan badihalardir. Bular suyish qo'shiqlari bo'lib, erkalatmalar, ovutmachoklar, qiziqmachoklardan tarkib topgan

Aytim-olqishlar erkalovchi ruhdagi rasm-rusum bo'lib, aksariyati, asosan, bolalarning beshik davriga oid turlm tuman marosimlarda ijro etiladi. CHaqoloq beshikka solinganda, cho'miltirilganda, birinchi qadamini bosganda, sochi birinchi olinganda, bola sha'nigasiriq tututilganda,xullas shunday rasm rusumlarning

mazmuniga yarasha aytim olqishlari mavjud. Bolaga yangi kiyim kiydirish qutlovigv aylangan quyidagi aytim-<sup>\*</sup>-olqishga e`tibor berish lozim.

San bir yillik,  
Man ming yillik,  
Kiya-kiya to`zdiraylik,  
Dugonalarimdan uzdiraylik.

**Erkalamalar.** erkalamalar kichkintoylar g`ashlanganda, baqirib- chinqirib yig`laganda, betoqatligi oshganda aytilib, kayfiyatning ko`tarinkiligini oshirish uchun ijro etiladi.

O., shugina, shiringina,  
Munchagina, tunchagina  
Kunchagina, shunchagina,  
YAshnab turgan kunchagina.

«YAsha», «Balli», «Ofarin», «Rahmat», kabi erkalovchi, olqishlovchi so`zlar ham bolaga quvonch bag`ishlaydi.

Ovutmachoqlar. Onaning bola bilan bo`lgan munosabatlarida juda qadim zomonlarlardagi odatlarning izlarini ko`rishimiz mumkin. Bular kishilarning tirikchilik shakllari, turli xil an`analari bilan birga, ularning o`z davarida animistik, totemistik tushunchalarda bo`lganligi larini tasdiqlaydi. Biz bu tushunchalarni ba`zi keksalarning harakatlari vaqtida kuzatamiz Masalan: ona bolani beshikka belayotganida o`ng qo`li bilan qovuzni tekislab, keyin bolani yotqizayotib, shunday so`zlarni aytadi:

egalari kirsin, bobovlari chiqsin.

Bolani beshikdan echib olayotganda esa: Uyquasi beshikda qolsin.- deydi. Diqqatimizni ikki narsa o`ziga jalb qilad; bir- beshikning egasi bola. Bolani beshikka belaguncha bu joyda, vaqtincha, boshqa bir narsa egallab turibdi. egasi kelganda u joyni bo`shatishi kerak. Ikkinchi: Uyqu bodadan ajrab, beshikda qolishi kerak ekan.

Mahmud Koshg`ariyning nazari xam bu faktni ham chetlab o`tmadi:- Isiriqq, isiriq deyilganda «Ey jin, es-hushingni yo`qot.» Deyilgani bo`ladi» deb izoh beradi olim.

Ovutmachoqlarning ma`lum bir turkumi onalarning qilgan harakatlarida o`lchovlik vazifalarini ham o`taydi. Masalan6 ona beshikdagi bolani echib olar ekan, o`ng bilagidan g`oz ko`tarib, «O`s, O`s,»- deydi, yana chap bilagidan ko`tarib, «O`s,...O`s,» deydi.

Ovutmachoqlar yana bolarning tinchlantirish ehtiyojini qondiruvchi maqtovlardir.

Vuy-vuy, shuginani kim urdi,  
Vuy-vuy, shuginaga kim lab burdi.

Yig'lama oppoqqinam,  
Boshimdagi qalpoqqinam.

Tez aytishlar va topishmoqlar. Tez aytishlar yoki so'z o'yinlari o'zbek xalq og'zaki ijodi turlaridan biri bo'lib, ayrim nutq tovushlarining ko'p qaytarilishi yoki tovushlarning so'z va iboralar tarkibida murakkab joylashtishiga asoslanadi. Tez aytishlar vositasida bolalar ona' tilidagi tovush va so'zlarni ravon, burro, aniq talaffuz etishni, tovushlar ohangdorligini, so'zlarning nozik ma'nolarini his va idrok qilish, aniqlash va ilg'ab olishni mashq qiladilar.

Qishda kishmish pishmasmish,  
Pishsa kishmish qishmasmish.

O'zbek xalq og'zaki ijldida tez aytishlar, so'zo'yinlari qadim zomonlardan beri bor. Lutfiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida ham so'z o'yinlarini uchratishimiz mumkin. A.Navoiy tuyuqlari haqida so'z yuritir ekan, uning ildizlari xalq poeziyasi janrlaridan kelib chiqishiga ishora qilib., tuyuqlarni- «yor-yor», «qo'shiq»lar bilan bir o'ringa qo'yadi. Tajnis va iyhom- ikki va undan ko'p ma'noli so'z san'ati deb ta'riflaydi. Aksariyat tez aytishlar talaffuzi bir-biridan katta farq qildigan fonemalar asosida, jumladan, «SH», «L», «R» undoshlari asosida tuzaladilar. Masalan: «Lola arralaydi, Sora allalaydi»

Bu birinchi turkumga kirgan tez aytishlar yordami bilan uch-to'rt yoshga kirgan bolalarning «R», «SH» tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishi yoki «L»va «S»ga almashtirib yuborishi ma'lum bo'ladi.

Ikkinchi bir turkum tez aytishlar borki, unda bolani ayrim tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish bilan birga, bolaning xayolini bir joyga yig'ishga, jumlaning mantiqiy urg'o'sini aniqlab olishga jalb qilinadi.

Masalan: Bir tup tut, bir tup tutning tagida bir bir tup turp. Bir tup tut bir tup turpning tomirini turtib turibdi, bir tup turp bir tup tutning tomirini turtib turibdi

Ko'rinib turibdiki, misoldagi «tut», «turp» so'zlarini to'g'ri talaffuz qilishdan tashqari, jumladan to'g'ri takrorlash, tutning va turpning turgan o'rni va holatlarini yodda saqlab qolish kerak.

Tez aytishlar kichik va maktab yoshidagi bolalar nutqida ayrim nutq tovushlarni buzib talaffuz etish hollarini tuzatishga, to'g'ri so'zlaydigan bolalarda esa adabiy talaffuz normalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Bolaga tish chiqishi bilan bog'liq irimlarda esa «yordamchi» so'zlar bulmay, bunda xalq og'zidagi afsonalar aytiladi., ba'zi odatiy ishlar qilinadi: Onalar qozonda bug'doy qovurib, chvqoloqning ustidan sochadilar, «chaqaloqning tishlari xuddi bug'doydek chiroyli chiqsin deyishadi To'plangan bolalarni bug'doy qovurmochi bilan mehmon qilinadi. Ba'zan bu odatni-bug'doy sochilishiyb- «nasibalik bo'lsin» deb tushuntiradilar. CHorvador joylarda chaqaloqning tishi

chiqish vaqtida otga mindirib olishadi., «ot tishi chiqadi» deyishadi. Agar qo'yga mindirilsa «qo'y tish» chiqar ekan.

**So'z o'yinlari.** O'zbek xalqining askiya, tuyuqlar, qochirimlar, bahri bayt singari og'zaki ijodlarida so'z o'yinlari asosiy rol' o'ynaydi.. Bolalar juda yoshligidan boshlab kattalar og'zidan eshitgan-ona tili boyligimizni juda ustalik bilan namoyish qilishning guvohi bo'ladilar. Ayni vaqtda bolalar bir so'zning bir necha ma'nosini tushunishga mashq qiladilar. Keyinchalik o'zlari ham so'z o'yiniga singari so' jumalari to'qiydilar Masalan, bolalar kattalardan mana shu so'z o'yinlarini eshitad:

Qizarib pishgan olmadi,  
Olmadan nega olmadi,  
Olmagani xo'b bubdi,  
endi kelsa olma, di.

Bu xalq og'zida aytilib yurgan to'rtlik tajnis asosida qurilgan, mumtoz adabiyotda tuyuqning o'zi. Bola buning aynan o'ziga uxshash boshqa bar variantini «to'qib» bera olmadi, balki, o'z kuchiga qarab, to'rtlik emas, balki ikki yo'ldan iborat so'z o'yini ijod qildi.

Olmaxon olmani ol, ma!  
Olmani olmaxondan olma.

Bu erda olma so'zi aavval buyruq, keyin inkor ma'nosida qo'llangan. Misralarda so'z o'yini ham shu ikki xil ma'no berish asosida qo'rilgan bo'lib, unda bolaning shu so'z ma'nolarini farqlay olishi talab etiladi.

**Bolalar qo'shiqlari.** Kishilar o'z mehnatlarini, turmushdagi barcha voqealarni qo'shiq bilan bezaganlar. O'zbek xalq og'zaki ijodiyoti boylıkları ichida kattalardan bollalarga meros qoladigan qo'shiqlarning salmoqli turi mehnat qo'shiqlaoidir.

Oq sigir , ko'k sigir,  
Qani tezroq bo'l sigir,  
Doni menga,  
Somonni senga,  
Xo'p, to'p.

Katatalarning bollarga aytib beradigan, keyinchalik bolalarga meros bo'lib qoladigan yana bir qo'shiqlar turkumi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» dan to bizning davrimizgacha aytilib kelingan jonli va jonsiz personajlar bahsidir.

Oq sholi, ko'k sholi,  
Oq sholini oqlaylik,  
Ko'k sholini ko'klaylik,  
Niyozbekka saqlaylik.

Xalq o'rtasida suv haqida juda ko'plab afsonalar. qo'shiqlar, ertaklar yaratilgan. O'zbek xalqining eng yaxshi orzulari suv bilan bog'langan. BU umumxalq ruhidan bolalar bolalar ham chetda qolmaganlar.. Ularning o'yin va ashulalarida ham suv, tabiat hodisalari mavzui bor.ulardan biri yomg'ir haqidadir.

YOmɡ'ir yog'aloq,  
echki sog'aloq,  
Boyning o'g'lini  
Qorni dumaloq.

Qo'shiqning bir necha variantlari mavjud:

YOmɡ'ir yog'aloq,  
YAm-yashil o'tloq,  
endi ekinlar,  
CHiqarar quloq.

Buxoro viloyatinig o'zbek va tojik tillari asosida shirin-shakar qilib;» YOmɡ'ir-yomg'ir bore bore yoqqaningni ko'ray»-deyishadi. Farg'onada yosh qizlar «YOmɡ'ir yog', Sochim o's!» deb qichqirishadi. Surxondaryoda esa yomg'ir yoqqanda aytiladigan shunday qo'shiq bor:

YOmɡ'ir yog'sin,  
O'ralar to'lsin,  
Sur xotin,  
Sur xotinga suv kerak,  
Qozon to'la un kerak.

Bunda yomg'irning «qozon- qozon un» keltirishi ochiqdan-ochiq aytib qo'yiladi. Don-un, un-non. Bolaga esa non ekrak. Qor haqida ham qo'shiqlar bor. Qadim zamonda qor kambag'allik, ochlik, yupinlik ramzi edi. Qorni yog'ishi inson irodasidan tashqari hodisa, odamning unga itoat qilishdan boshqa chorasi yo'q deb tushunilardi. SHuning uchun Qor xatlar: «Qor yog'dirgan xudoyimning o'zi» so'zlari bilan boshlanar edi. Qorda qolgan odam nochor odam sifatida tasvirlanadi. Ko'pincha, chol va kampirlar tilga olinardi. «Qolgan ishga qor yog'ar» maqollari esa omadsizlikdan. Ishni yurishmasligidan darak berardi. Qo'shiqlardan bir misol:

Qor yog'adi guppillab,  
Ammam kelar cho'kalab,  
Ko'rpacha soling yonimga,  
Ammam kelsa uyimga

Bahor fasli kelishi bilan balalar o'yinlarini boshlab yuboradilar. O'g'il bolalar osmonga varrak uchiradilar. Qiz bolalar sochlariga bargak taqadilar. Bolalar tol chiviqlarini qo'l bilan uqalab, asta po'stini shilib, o'zlariga sivizg'alar yasaydilar. Kichkintoylar xivichlarni «toy» qilib minishadilar. Boychechak

bolalarning birinchi qo'shig'iga sazovor bo'ladi. Ular bu qo'shiqni baland ovoz bilan bab-baravar aytadilar.

Boychechagim boylandi,  
Qozon to'la ayroni,  
Ayroningdan bermasang,  
Qozonlaring vayroni.

Kattik erdan kazlab chikkan boychechak,  
YUmshok erdan yugurib chikkan boychechak.  
Boychechakni tutdilar,  
Tut yogochga osdilar.  
Kilich minan chopdilar,  
Baxmal minan yopdilar.

O'zbek va tojik etnografiyasining, fol'klarining tadqiqotchisi professor E.M. Peshchereva suhbat vaqtida nega « boychechakni tutdilar, tut yog'ochga osdilar» deyilishiga diqqatimizni tortdi. Haqiqatdan havm, qadim SHarqda tut daraxti muqaddas daraxtlar dan biri deb hisoblangan. O'zbeklarda mazkur e'tiqodga ko'ra daraxtning «egasi bor» deb hisoblanadi., ehtiyot qilinadi, uning tanasidan xotinlar sochini tarash uchun tarok, bola belaydigan beshik kilinadi. Boychechak xalk orasida ramziy timsol bulsa kerak. Negaki, u xuddi odam singari tasvirlanadi. Uni «Tutadilar», «tut yogochga osadilar», «kilich bilan chopadilar», «baxmal bilan yopadilar». Bunday ishlar bundan 2-3 ming yil ilgari kadim Misr, YUnonda xam bulganini etnograf tarixchilar biladilar.

Boychechak bolalar tushunchasida ijodiy timsol u, yoshlik, jushkinlik ramzi. U uzbek bolalari ogzidan yozib olingan bir variantda boychechakni kilich bilan chopish «kamlik kiladi», uni «balgon» bilan uradilar va keyin kilich bilan chopadilar. Demak, u yana «isyonkor» xam ekan. Uzbek xalkida biror kishi uz kuchi bilan kiynalib usgan bulsa, «axir, u kattik erdan katalab chikkan boychechakning uzi-da!» deyishadi. Buning xammasi boychechak mexnatkash kishi timsoli ekanidan dalolat beradi. Toshkent viloyatida:

Boychechagim, boychechak,  
Etagim tula boychechak.

YOki:

Boychechagim bolasi,  
Kulogida donasi,  
Donasini olay desam,  
YUgurib chikdi onasi.

Baxor faslida «CHidti gul» kushiklari xam aytilib, kelingan. Bu kushik bilan bolalar kushikka mos xarakatlar bilan uynaydilar. Kushik oxangi uyinga ulchov



mezon bulib uni etaklaydi. Uyin esa kushikning mazmunini tuldiradi. Unga xarakat bagishlaydi. Bola bir vaktning uyindan xam ma`naviy, xam jismoniy jixatdan roxatlanadi. Kushik ijrosini kuz oldimizga keltirib kuraylik. Kizlar juft-juft bulishib, kaftlarini bir vaktida bir-biriga urib, aylanishib, yana urishtirib, kushik aytadilar. «CHittigulo-chittigul», deyilganda kizlar yuzma-yuz turadilar. Kullari ma`lum tartib bilan bir-birlariga karsillab tegib, chiroyli oxang kasb etadi. «Xay-yu, chittigul, xay-yu chittigul» deyilganda kizlar bir xil makom bilan turgan joylarida gir aylanadilar.

CHidti gul-o, chittigul,  
Xay-.yu chitigul,  
CHidti gulga gul bosay,  
Bir yonini yonbosay,  
Hay-yu chittigul,  
Hay-yu chittigul,  
Quling qulvog'dan bo'lsin,  
Beling belbog'dan bo'lsin  
Hay-yu chittigul,  
Hay-yu chittigul.

YOz faslida «Laylak keldi, yoz buldi» kushigi kuprok aytiladi. Bu kushiku kunlarning isishidan, ekinlarning unishidan, kushlarning kelishidan, ariklardan suvlarning tulib okishidan, bola kunglida kuvonch uygotadi.

Bolalar ota-onalaridan laylak xakidan kup ertaklar, afsonalar eshitganlar. Ular laylakni yoz faslini elchisi sifatida tasavvur etadilar.

Laylak keldi, yoz buldi,  
Kanoti kogoz buldi,  
Laylak boradi tokka,  
Kuloklarida xalka.  
Xalkasi tushib koldi.  
Utirdi yiglamokka.  
Laylak keldi ilon koch,  
Bola chakang olib koch,  
YAngi tuning kiyib koch.  
eski tuning tashlab koch.

Kushikning bolalar kushigiga xos yana bir tomoni bor: Kushik oxiri kutilmaganda «ilon koch», turtligi bilan tugallanadi. Avvalo ilonni bola yomon kuradi, ilon bor joyda chumilolmaydi.

Ikkinchidan laylak ilon eydi, shuning uchun kochish kerak. Uchinchidan, yoz bulib, laylak kelishi vaktidan ilon tullab, pust tashlaydi. Bu kushik fasl izining

kurinishidir. Kushikning variantlari kup. Ba`zi kushiklarda laylakni «opa» deb ataladi va unga xazil mutoyiba bilan murojaat kilinadi:

Laylak opa,  
Boshinga kapa,  
Takiyam suvga tushib ketdi.  
Olib bering, jon opa!

«Oftob chiqdi olamga» qo'shiqlari bir turkum she'rlarini tashkil qiladi. Aslida qo'shiq oftobning chiqishi bilan blalar, kattalar quvonchiga bag'ishlangan bo'lsada, bora-bora u maishiy tus olib ketadi. Bodalarning pishiqchilik-arpa, bug'doy pishishi, yantoq, quvray, ajriq qurib- o'tin bo'lishi, qozon- tandirlarda non yopilishi, bolarning to'yib non eyishi imkoni haqida qo'shiq aytilishi kutiladi.

Oftob chiqdi olamga,  
YUgirib bordim xolamga,  
Xol, xlo kulcha ber!  
Xolam dedi:- O'tin ter!  
O'tin terdim bir quchoq,  
Kulcha yopdi bir o'choq.  
O'g'liga berdi yog'liq kulcha,  
Menga berdi kuyuk kulcha.

**Bola termalari.** Bola hayotida qo'shiq, o'yin, mashg'ulotlardan tanaffus bo'lmaydi. YUqorida keltirib o'tilagn qo'shiqlardan ham mukammalroq, voqealari murakkabroq qo'shiqlar bor. Biz ularni xususiyatlaridan kelib chiqib, afsonaviy qo'shiqlar, voqeaband balo termalari deb atasak ham bo'ladi. Negaki, bolalarning jo'shqinligi va izlanuvchanligi, sabrsizligi va harakatchanligi to'lib toshgan luarning sermahsul fantaziyasi bilan ham yo'g'rilgan. O'zbek bolalari aytadigan «Osmondagi oy», «Asakaning yo'lida» singari qo'shiqlar diolog shaklidagi qo'shiqlar sarasiga kiradi.

-Osmondagi oy,  
Saydazim boy,  
Nima eyapsan?  
-Olma eyapman.  
-Olmangdan tashla  
-Acham urushadi.  
-Achang o'lsin.  
-Xudo saqlasin.  
-Hovlingni supur,  
Lo'li o'ynasin,  
Qozoningni yuv,  
Go'ja qaynasin.

O'zi kichig-u, ichida qancha xalq hikmati borligiga diqqat qiling: olma eyayotgan kishining davlati Toshkentdagi mashhur savdogar Saydazimboynikidan kam emas, Qizg'anchiq «acha»ning boridan yo'g'i yaxshi; hovli supurilsa to'y buladi, tuyda lulilar uyin kursatishadi; kozon yuvilishining xam xosiyati bor - ichi tulib, ovkat kaynaydi. Ovkating xam gujasi kaynasin (palov, shovla, xalim pishsin deyayotgani yuk!) Negaki, fakat guja kaynasagina bolalar tuyib-tuyib icha oladilar.

«Tepdim sandik ochildi» kushiklari vokeband kissa tarikasida aytiladigan kushiklardan biridir. Bu kushikning bir necha variantlari tuplanib, elbek tomonidan nashr ettirilgan.

Tilla sandik ochildi,  
Tagiga bodom sochildi.  
U bodomni terolmay,  
Kanolari kokildi.  
Kanol bering uchaylik,  
Ok saroyga tushaylik

Kushik 24 yuldan iborat va uyingning sharti xam bayon kilingan. Kushikda bola fantaziyasi e'tiborga olingan. Bunday kushiklar bolalar kushikchiligining takomillashmagan yukori darajadagi shakllar bulib, kushikchilikning avvalgi yoki keyinchalik kuriladigan mayda termalari boskichini utgandan keyingina yuzaga kelgan deyish tugri buladi.

**Bolalar o'yin fol'klori.** Xalk ijodi namunasi xisoblangan bolalar uyinglari uz tarkibida muayyan ritmik izchillikka asoslangan xatti-xarakat, ramziy ma'no kasb etuvchi etnografik detallar, poetik fol'klor namunalari, oxang va tomoshaviylik elementlarini yaxlit xolda mujassamlashtirgan sinkretik xodisadir. Bolalar uyinglari ajdodlarimiz tafakkurining eng kadimgi elementlaridan biri bulgan ibtidoiy rituallar va marosimlarning tarkibiy kismi sifatida juda kadim zamonlarda yuzaga kelgan. Davrlar utishi bilan bunday marosimlar tarkibidagi uyinglar uzining rituallik xususiyatini yukotib, oddiy tomosha unsuri yoki kungil ochar vositasiga aylangan.

Bolalar uyinglarining muayyan bir kismi bevosita kadimgi odamning uz turmush tarzini badiiy talkin etish extiyoji tufayli bevosita mexnat kilish jarayonida shakllangan. Ovchilik, chorvachilik, dexkonchilik, shuningdek, kadimgi xunarmandchilik, ajdodlarimizning kundalik turmush tarzi bolalar uyinglarining kelib chikishiga asos bulgan dastlabki va asosiy ijtimoiy banbalar sirasiga kiradi.

Ajdodlarimiz - kadimgi turkiy kavmlarining turmush tarzi ovchilik, chorvachilik bilan bevosita boglik bulgan. Kuchmanchilikka asoslangan turmush tarzi ajdodlarimizdan uz farzandlarini yaxshi chavondozi karagay mergan kuragi er kurmagan paxlvon kilib tarbiyalashni takozo etadi. SHuning uchun ot uyinglari, poyga, tirandozlik musobakalari kurash, tuya, kuchkor, xuroz urushtirish kadimdan keng rasm bulgan edi. ana shu an'analar asosida asrlar davomida uzbek bolalar

fol'klor uyinining badiiy tizim shakllangan. Bolalar uyin fol'kloriga oid manbalar tuplash

1. X1 asrdan X1X asrning ikkinchi yarmigacha bulgan davr.
2. X1X asrning oxiri XX asrning 30 yillarigacha bulgan davr
3. XX asr 30 yillaridan to bugungi kunga kadar

Bolalar uyinlari xakidagi ilik ma'lumot X1 asrda yashab utgan mashxur turkiyshunos olim M.Koshgariyning devonu lugatit turk asarida kayd etilgan. Turkiy kavmlar orasida tup bilan uynaladigan kadimiy uyinlardan biri CHavgon keng rasm bulgan. Bolalarning uyin tanlashdagi didi va uyin turlari yillar utib uzgarib bormokda. Bugungi kundagi uyinlarda vatanparvarlik ruxi yakkol kurina boshladi. Bu uyinlar xalk bilim va tajribasini yillar davomida mukammallashgan kurinishidir.

«Navro'zjon» qo'shig'i navro'z faslining erkalatib aytilishidir. Bunday vaqtlarda bolalarning bahorgi o'yin-kulgilari asosida qo'shiqlar yaratiladi. O'g'il va qiz bolalar orasida yaqin kunlargacha «To'p», «To'p tosh», «CHittigul» kabi o'yinlar bo'lardi. Bu o'yinlarning har birining o'ziga xos qo'shiqlari bo'lib, ular o'yin jarayonida bir bola yoki ko'pchilik tomonidan ijro etiladi. Topishmoqlar ham bolalar o'yinining bir turi hisoblanadi. Topishmoqlar bola taqdirida muhim o'rin tutgan, uning intellektual o'sishida faol ishtirok etgan, xalq pedagogikasining qo'shiqlar, ertaklar singari, o'z xususiyatlari bilan ulardan farq qiladigan poetik, aqliy mashg'ulotlaridan biridir. Bolalar topishmoqlarni topishda qatnashar ekan, o'zini qurshab turgan olamni kuzatishga, tabiat hodisalarini bilib olishga, ularga bo'lgan o'z munosabatini bildirishga o'rganadilar. Bolalar fol'klorida tez aytish ma'lum tovushlarni takrorlash orqali amalga oshiriladi. Bir so'z bilan aytganda, bolalar fol'klori bolalar adabiyotining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Uyinga chakirish - shaxar va kishlok bolalari odatda kechkurunlari tuplanib, gaplashib utiradilar. ertaklar aytadilar. Turli xil uyinlar uynaydilar. SHunday paytlarda bolalarni tuplash, uyinlarni uyushtirish, ayrim bolalar tomonidan tashabbuskorlik kursatish talab kilinadi. SHaxar joylariga uyinga kuyidagicha chakiriladi.

Tokchaga bugdoy sepuvdim,  
Undimikin-o, undimikin?  
Mashrabboy uydan chikmaydi,  
YOtdimikin-o, yotdimikin?

Kishlok joylarda esa keskinrok, murosasizrok ravishda chakiriladi:

Tomda tovuk kotarmi,  
Ayroningdan tortarmi?  
Uyin yokmas bolalar,  
Nomozshomdan kotarmi, Kel-xo!

Bolalar fol'klori navkiron avlodning psixologiyasi xususiyatlarini, badiiy ijodkorligi salohiyati va imkoniyatlarini ifodalagan, unda bolalarning vokelikka munosabatlari, estetik karashlari va rang-barang tuygu-kechinmalari muxrlangan.

#### **ZARURIY ADABIYOTLAR:**

1. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi (X.Razzoqov, T.Mirzaev, O.Sobirov, K.Imomov). Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti, 1980 yil.
2. H.Zaripov. Fozillar fazilati. 1969 yil.
3. M.Qodirov. O'zbek xalq og'zaki dramasi. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1963 yil.
4. M.Afzalov. O'zbek xalq ertaklari haqida. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1974 yil.
5. B.Sarimsoqov. O'zbek adabiyotida saj'. Toshkent, 1978 yil.
6. M.Qodirov. Masxaraboz va qiziqchilar san'ati. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1971 yil.
7. M.Qodirov. Xalq qo'g'irchoq teatri. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1972 yil.
8. G'.Jaxongirov. O'zbek bolalar fol'klori. Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 1975 yil.

#### **14-MAVZU: Mustaqillik davri o'zbek fol'klorshunosligi.**

##### **REJA:**

1. O'zbek marosim fol'klori va mustaqillik.
2. Fol'klor asarlarini barcha hududlar bo'yicha izchil to'planishi xususida.
3. Mustaqillik davrida fol'klor ekspeditsiya-sining tashkil etilishi haqida.
4. Xalq og'zaki ijodi namunalarining to'planishi va chop etilishi haqida.

**Tayanch iboralar:** Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish va uni ilmiy tadqiq etish. Mustaqillik va xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash va nashr ettirish masalalari haqida ma'lumot.

**Darsning maqsadi:** Mustaqillik davri xalq og'zaki ijodining tutgan o'rni, ularning tili va badiiy xususiyatlarini yoritib berish.

**Darsning vositalari:** Ko'rgazmali o'quv qurollari, fol'klorshunos olimlarning xalq og'zaki ijodiga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

**Darsning metodi:** Blitz so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

**Darsning mazmuni:** Soʻz sanʼatining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo boʻlishi bilan yuzaga kela boshladi. Bugungi tarixiy-folʼkloriy jarayon oʻziga xos taraqqiyot tamoyillariga egaligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimiz istiqloлга erishgandan keyin boshlangan keng koʻlamdagi maʼnaviy tiklanish jarayoni bilan uzviy bogʻliq holda ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilib, badiiy sayqal berib kelingan muhtasham folʼklor yodgorliklarining jahonshumul ahamiyati xususida soʻz yuritish, xalq ijodiyotining unutilish arafasiga kelib qolgan koʻplab janrlarini qayta tiklash, ijrochilik anʼanalarini rivojlantirishning misli koʻrilmagan imkoniyatlari yuzaga keldi. Natijada joylarda faoliyat olib borayotgan folʼklor-etnografik jamoalar soni koʻpaydi, nafaqat, Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatida, balki baxshichilik maktablarining jonli anʼanalari yoʻqolib ketgan deb hisoblangan Samarqand, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida ham baxshi-shoirlar etishib chiqa boshladi. «Alpomish» dostoni yaratilganligining 1000 yilligi tantanalari keng nishonlanishi va baxshi-shoirlar hamda oqinlarning koʻrik-tanlovlari anʼanaviy tarzda oʻtkazib kelinayotganligi ham koʻplab yangi ijrochilarni kashf etish bilangina cheklanib qolmasdan, «Alpomish», «Kuntugʻmish», «Goʻroʻgʻli», «Orzigul», «Oshiq Gʻarib va SHohsanam» singari anʼanaviy dostonlarning yangi variantlari yuzaga kelishiga yoʻl ochdi. Baxshi-shoirlar hur diyorimizda istiqloл yillarida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarini tarannum etuvchi termalarni yaratdilar. Oʻzbek marosim folʼklori, askiyachilik, qiziqchilik, tomosha sanʼati, xalq hunarmandchiligining qadimiy anʼanalari tiklandi.

Ayrim janrlar, jumladan, marosim folʼklorining koʻplab namunalari toʻplandi. Masalan, «yo ramazon» qoʻshiqlari, nikoh toʻyi marosimida ijro etiladigan fотиha olqishlari, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur singari ulugʻ yurtdoshlarimiz toʻgʻrisidagi tarixiy rivoyatlar, joy nomlari, qadimiy shaharlar, qalʼalar, ziyoratgohlar, muqaddas mozorlar va qadamjolar bilan bogʻliq afsonalar, xalqimizning qadimiy mifologik tasavvurlari hamda miflari yozib olindi. Istiqloл yillarida OʻzR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folʼklor boʻlimi xodimlari tomonidan bir nechta folʼklor ekspeditsiyalari oʻtkazildi.

Istiqloл sharofati tufayli OʻzR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining Folʼklor arxiviga mamlakatimizning boy madaniy merosini oʻzida mujassamlashtirgan noyob ilmiy obʼektlaridan biri maqomi berildi. Folʼklor arxivi mamlakatimizning etakchi ilmiy fondlaridan biri boʻlib, unda saqlanayotgan materiallar oʻzbek filologiyasining taraqqiyotini belgilovchi yirik ilmiy ishlarning yaratilishi uchun manba boʻladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin folʼklor asarlarini nashr etish borasidagi ishlar ham sifat, ham miqdor, ham qamrov jihatidan oʻsdi.

Ko'pgina dostonlar, xalq kitoblari ilk bor nashr ettirildi. O'zbek xalq ertaklarining bir nechta to'plamlari dunyo yuzini ko'rdi.

O'zbek fol'klorshunoslari, afsona va rivoyatlardan tuzilgan fol'klor to'plamlarini chop ettirdilar.

Istiqlol tufayli marosim fol'klorining ilgari nashr etilmagan yoki qisman ommalashtirilgan namunalari chop ettirildi. Xususan, o'zbek fol'klorshunosligi tarixida birinchi marta navro'z bayrami bilan bog'liq o'zbek fol'klori asarlaridan tuzilgan «Navro'z» kitobi.

O'zbek fol'klorshunosligi maktabining kelgusidagi rejalari o'zbek fol'klori materiallarini izchil to'plash maqsadida atoqli alloma H.Zarifov asos solgan ilmiy ekspeditsiya ishini yanada kengroq qamrovda o'tkazish va uning muntazamligini ta'minlash; H.Zarifov nomli O'zbek fol'klori arxivi materiallarini to'la ilmiy tavsif qilish va kataloglashtirishni amalga oshirish; fol'klorshunos olimlar tomonidan qariyb 80 yil mobaynida to'plangan arxiv materiallari va kelgusidagi ilmiy ekspeditsiyalar davomida yozib olinadigan fol'klor namunalari asosida «O'zbek fol'klori yodgorliklari» 100 jildlik akademik nashrini tayyorlash; fol'klor asarlarining ilmiy va ommabop nashrlarini tayyorlab chop ettirish; o'zbek fol'klori janrlarining tarixiy asoslari, tipologiyasi va poetikasini dunyo fol'kloristikasining ustuvor ilmiy metodlari asosida tadqiq etish; oliy o'quv yurtlari talabalari uchun xalq og'zaki badiiy ijodiyoti bo'yicha yangi darslik va qo'llanmalar yaratishdan iboratdir.

Xususan, M.Jo'raev Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlari aholisining tabiat hodisalari va osmon yoritqichlari bilan bog'liq mifologik qarashlarini to'pladi; M.Jo'raev, U.Sattarov, R.Saidovalar Buxoro va Navoiy viloyatlaridan toponimik afsonalarni yozib oldilar; M.Jo'raev va M.Pirmatovanning ko'p yillik izlanishlari natijasida Buxoro, Surxondaryo, Navoiy, Samarqand, Xorazm viloyatlari hamda Qirg'iziston respublikasining O'sh viloyatida istiqomat qiluvchi o'zbeklarning an'anaviy taqvimiga oid boy fol'klor materiallari yozib olindi. Fol'klor bo'limining ilmiy xodimlaridan X.Xolova Buxoro viloyatining Qorako'l va Olot tumanlarida ilmiy izlanish ishlari olib borib, to'y marosim qo'shiqlarini to'plagan bo'lsa, L.Xudoyqulova Surxon vohasi aholisining bola tug'ilishi bilan aloqador irim-sirimlari, beshik to'yi, sunnat to'yi va nikoh to'yi marosimi fol'klorini yozib oldi. «Alpomish» dostoni yaratilganligining 1000 yilligi keng nishonlanishi munosabati bilan professor T.Mirzaev bu dostonning Berdi baxshi, Po'ltan va ergash Jumanbulbul o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li variantlarini 1999 yilda alohida kitoblar holida to'la nashr ettirdi.

XX asr boshlarida mamlakatda qattiq ommaviy ocharchilik hz berdi. Bunga erlarni chigirtka bosib, ekin-tikinlarga katta talofat etkazgani ma'lum darajada sabab bo'lgan. SHu munosabat bilan bir necha mashhur termalar yaratilgan.

Jumladan, Fozil shoirning «Qahatchilik», «CHigirtka» kabi termalari shunday asarlardandir. Ularda kambagʻal dehqonning ogʻir ahvoli, turmush qiyinchiligi real aks ettiriladi.

Istiqlol oʻzbek folʻklorshunosligining jahoniy miqyosga intilishida keng yoʻl ochib berdi. Milliy hurlik baxsh etgan ijod erkinligi tufayli xalq ogʻzaki ijodi namunalarini uzoq ajdodlarimizning tarixi, turmush tarzi, ibtidoiy, diniy va eʼtiqodiy qarashlari bilan bogʻliq holda oʻrganish imkoniyatlari tugʻildi. Natijada ilgari shoʻro mafkurasi taqiqi tufayli nashr etilmagan “SHoh Mashrab qissasi” (1991), “Ibrohim Adham qissasi”(1991), “Hazrati Ali haqida qissalar” (1992), “Abu Muslim jangnomasi” (1992) va “Bobo Ravshan” (1992) singari diniy-axloqiy xarakterdagi xalq kitoblari keng jamoatchilik hukmiga etkazildi.

SHoʻro mafkurasi qatagʻon qilgan Navroʻz qayta tiklandi. SHu munosabat bilan har yili Respublika miqyosida ulkan xalq sayllari oʻtkazish anʼanaga aylanib bormoqda. Bunda xalq etnografik dastalari faol qatnashmoqda. SHu ommaviy harakat tufayli juda koʻp unutilib borayotgan anʼanaviy xalq ijodi namunalari, urf-odatlar qayta tiklanib, xalqimiz mentalitetini ifoda etuvchi milliy qadriyatlar sifatida eʼzozlana boshlandi. Bu jihatdan, ayniqsa, har yili bahorda Boysunda oʻtkaziladigan “Boysun bahori” koʻrik-tanlovi, xalq baxshilari koʻriklari, Jizzax viloyatining Forish tumanida oʻtkaziladigan “Oʻzbek xalq oʻyinlari” va Termizda oʻtkaziladigan “Alpomish oʻyinlari” tadbirlari ayrica ahamiyat kasb etmoqda. SHunisi quvonchliki, “Boysun bahori” HNESKO qarori bilan xalqaro festival maqomini oldi va nodir maʼnaviy yodgorlik sifatida roʻyxatga olindi.

SHuningdek, YUNESKO qarori bilan 1999 yilda oʻzbek xalqining qahramonlik eposi “Alpomish” yaratilganligining 1000 va xalqimiz mifologik tafakkurining nodir durdonasi “Avesto” yaratilganligining 2700 yilliklari oʻzbek folʻklorshunosligi taraqqiyotida ayrica ahamiyatga ega boʻlib, jahon miqyosida oʻzbek folʻkloriga qiziqishni kuchaytirdi.

Xullas, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlari – oʻzbek folʻklori taraqqiyotida alohida bir bosqichni tashkil etadi. Bu davrda yaratilgan ogʻzaki ijod namunalarida davrning muhim ijtimoiy – siyosiy voqealarini kuylash, xalq ommasining sinfiy va siyosiy ongi hksala borishini koʻrsatishga intilish, ozodlik harakatlarini tasvirlash muhim oʻrin tutadi.

### **ZARURIY ADABIYOTLAR:**

1. X.Razzoqov va boshqalar. Oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi. Toshkent: «Oʻqituvchi», 1980, 210-221 betlar.
2. T.Mirzaev. «Alpomish» dostonining oʻzbek variantlari. Toshkent: «Fan», 1999.
3. E.Musurmonov. Oʻzbek xalq dostonlari. SamDU, 2005.



4. M.Jo'raev. Fol'klorshunoslik asoslari. Toshkent: «Fan», 2009.
5. O'zbek xalq dostonlari. 1-2 tom. Toshkent: «Fan», 1956-1957.
6. Z.Husainova. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Toshkent: «Fan», 1996.

## **15-MAVZU: O'zbek marosim folklori**

### **REJA:**

1. Marosim va bayram, an'ana, urf-odat tushunchalarining mohiyati, o'zaro munosabati va farqli tomonlari.
2. Marosimlarning ijtimoiy – etnografik mohiyati va g'oyaviy-estetik vazifalari.
3. Mavsumiy marosimlar tabiati va fol'klori.
4. Oilaviy-maishiy marosimlarning o'ziga xos xususiyatlari va turlari.

**Tayanch iboralar:** Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish va uni ilmiy tadqiq etish. Mustaqillik va xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash va nashr ettirish masalalari haqida ma'lumot.

**Darsning maqsadi:** Xalq an'ana va marosimlarining xalq hayotida tutgan o'rni, ularning tili va badiiy xususiyatlarini yoritib berish.

**Darsning vositalari:** Ko'rgazmali o'quv qurollari, fol'klorshunos olimlarning xalq og'zaki ijodiga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

**Darsning metodi:** Blitz so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

**Darsning mazmuni:** Marosim insoniyat madaniyatining eng muhim shakllaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda uni rivojlantirishdagi samarali vosita ham hisoblanadi. Marosim xalq san'ati va madaniyati shakllari orasida eng ulkan auditoriyani o'ziga jalb qiladigan ommaviy tadbir hisoblanadi. Marosimlar xalqning eng yaxshi an'analari, odatlari, ahloqiy qoidalarini o'zida mujassamlashtirishi, saqlashi va rivojlantirishi jihatidan yoshlarni tarbiyalashda, ularning odobli-axloqli bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Marosim inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy vaziyatda o'tadigan, o'z ramziy harakatlariga hamda maxsus aytim-qo'shiqlariga ega hayotiy tadbiridir.

Marosimlar an'anaviy xarakter kasb etadi. Har bir marosim o'ziga xos tuzilishga ega. Marosimlar ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida undagi

taraqqiyotning muntazam shakliy o'zgarishlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib boradi. SHuning uchun ijtimoiy hayot talablariga javob bermaydigan ba'zi marosimlar yoki ularga xos ayrim unsurlar asta-sekin unutila boshlanadi yoxud davr mazmuniga muvofiq yangi, zamonaviy marosimlar paydo bo'ladi.

Marosimlar kishilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ma'naviy hayot qadriyatlari sirasiga kiradi.

Insonga sihat-salomatlik tilash, uning turmushida to'kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o'tkaziladigan, xalq orasida qat'iy an'anaga kirib qolgan hatti-harakatlar majmuidan iborat holda tashkil topgan tadbir **marosim deyiladi**. Marosimni o'tkazish paytida ijro etiladigan qo'shiq va aytimlar, o'qiladigan afsun va duolar marosim fol'klorini tashkil etadi. Ular marosimning verbal qismi sanaladi.

Kuchli an'anaviyligi, turli-tuman ijtimoiy hodisalarni rasmiylashtirishi, tabiat hodisalariga ta'sir ko'rsatishga intilishi bilan marosimlar ijtimoiy hayotda katta o'rin tutadi. Marosimning ruhiy va estetik ta'sir ko'rsatishi, biror ijtimoiy akti uhshtirish, yo'naltirish vazifalari bevosita hatti-harakat, so'z hamda sehr-jodu qudratiga ega deb hisoblangan narsalar vositasida amal qiladi.

O'zbeklar-marosimlarga boy xalqdir. Xalqimizning ijtimoiy-madaniy hayotini marosimlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan an'ana, urf-odat va bayramlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular turmushning alohida shakli hamda hayotning tarkibiy qismi sifatidagina namoyon bo'lib qolmaydi, balki har bir xalqning o'ziga xosligi, betakrorligini ifodalovchi milliy mentalitetini, binobarin, xalqning tarixan shakllangan milliy ruhiyatining asosini tashkil etadi, til va territorial yaxlitlik singari uning millat sifatidagi qiyofasini belgilaydi.

**Marosim** - bu ko'pincha an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, asosan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadi, o'zining umum qabul qilgan ramziy harakatlariga ega bo'ladi. Masalan, aqiqa – ism qo'yish marosimi, nikohdan o'tish marosimi, dafn qilish marosimi, xotirlash marosimi, ekishga kirishish (urug` qadash) marosimi, o'rimga kirishish marosimi va hokazolar.

Marosimga, bo'layotgan voqeaga «guvoh» sifatida odamlar chaqirilgan, ular dardga yoki quvonchga sherik bo'lishgan, yorqin kelajak uchun niyatlar qilishgan. Har bir marosimning o'ziga xos umum qabul qilgan tuzilishi (boshlanishi, o'rtasi, oxiri) bo'ladi.

Ko'pincha an'ananing tarkibiy qismi-odat, odatning muhim bir bo'lagi-marosim bo'ladi. SHu sababli inson hayotida bo'lib o'tayotgan muhim voqeani turmushda burilish yasaydigan katta «nuqtalar»ni nishonlash jarayonida ham

an`ana, ham odat, ham marosim o`zaro uyg`unlashgan holda sodir bo`lishi mumkin.

SHuni ta`kidlab o`tish kerakki, «an`ana», «odat», «marosim», tushunchalarining izohi bir-biriga bog`liq. SHu bilan bir qatorda an`analarning tarkibiy qismi odat, odatning tarkibiy qismi esa marosim dir. «An`ana» va «odat» tushunchalariga nisbatan «marosim» ko`proq bayram bilan aloqadorroq. Ba`zi marosimlar (dafn qilish va qayg`uli hodisalardan tashqari) bayramlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo`ladi. Ba`zi marosimlar bayram kunidan tashqarida ham tashkil qilinsa, u bayram holatini vujudga keltirishi mumkin. Masalan, «chigit qadash», «diplom topshirish» marosimlarini bayram holatisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Demak, birinchidan, marosim bayramning tarkibiy (yoki asosiy) qismi sifatida ham namoyon bo`ladi. Ikkinchidan, ko`pgina marosimlar alohida o`tkazilganda ham bayram holatini vujudga keltiradi.

«An`ana», «marosim» kabi bayram bilan bog`liq atamalar qotib qolgan tushunchalar emas. Ularning mazmuniga hayot rivojlanishi va turmush ehtiyojlari ta`sir etib turadi.

Ijtimoiy hayotning shunday muhim bir qonuniyati borki, u taraqqiyotning muntazam shakldagi o`zgarishlari bilan uzviy bog`liqdir. Binobarin, biron yangi narsa, hodisa vujudga keladi, ikkinchisi rivojlanadi, uchinchi hayot talabiga javob bermay, o`z o`rnini boshqa shakllarga bo`shatib beradi va hokazo. Jumladan, hayotiy an`ana va bayramlar ham xuddi shunday qonuniyatlarga rioya qiladi.

Ijtimoiy hayot taraqqiy etishi bilan uning talablariga javob bermaydigan an`analar, marosimlar va bayramlar asta-sekin unutila boshlanadi.

Mohiyatan xalqchil, ijtimoiy foyda keltirishi mumkin bo`lgan, kishilarning estetik talablarini qondirishga xizmat qiladigan marosimlar taraqqiy etadi. Masalan, «Navro`z», «chigit qadash», tug`ilish, uylanish, o`lim va boshqalar bilan bog`liq marosimlar zamonaviy talablarga ham javob bergani uchun yashab kelmoqda.

«Bayram» deganda hayotdagi muhim voqea, sanani (ko`tarinki ruhda va xursandchilik bilan) nishonlash tushuniladi. Biroq bayram tushunchasi ancha keng va chuqur ma`noga ega. Uning ildizlarini inson tabiati zaminidan topish mumkin. SHuni nazarda tutib A.I.Mazaev: «Bayram – bu ma`lum vaqtdagi ideal hayotdir», - deb ta`kidlagan edi.

Bayram hayotning davomi, muhim qismi, undagi eng yirik hodisa, voqea, sanalarni qayd etadi, ularni nishonlash uchun kerakli imkoniyatlar yaratadi. U kishilarning kurashi, mehnati hamda boshqa sohalarda erishgan htuqlarini ifodalaydigan hodisadir. Bayram arafasida kishilar bir-birini tabriklashadi, kelajak hayotlari uchun yaxshi istaklar bildirishadi, ishlariga muvaffaqiyatlar, omad, baxt tilashadi. Bir-biroviga sovg`alar hadya qilishadi. Bayramlar hayotning davomi

hisoblansa-da, biroq u vaqtning monotonligini (bir xilligini) buzib, unga muayyan ritm baxsh etadi. SHu sababli qadimdan bayramlar (ma`lum vaqtda takrorlanib turgani uchun) o`ziga xos vaqt o`lchovi hisoblangan. Hozir ham bayram kunida muayyan vaqt o`tganligini his qilish mumkin. SHunday ekan, bayramlar vaqt qadriga etish, uni e`zozlash uchun sharoit yaratadi.

Bayramlar hayotning eng yaxshi tomonlarini aks ettiradigan «ko`zgu» dir.

Bayramlar ozodlik, erkinlik, tenglik, tinchlik kuni sifatida qabul qilingan. Marosimlar esa aniq bir belgilangan vaqtda takrorlanib turmasligi (masalan, bir kishi har yili belgilangan aniq bir kunda to`y qilavermaydi), hayotning nafakat yaxshi, balki yomon, qayg`uli tomonlarini ham aks ettirishi, ijtimoiy hayotda hz berayotgan voqea-hodisalarga bir qadar daxlsizligi bilan bayramlardan farq qilib turadi. Marosimlar bir oila, bir qavm yoki bir xalq doirasida o`tkazilsa, bayramlar xalqaro ko`rinish kasb eta oladi.

Bayramlar, odatda, taqvim (kalendar`) bilan bog`liq bo`ladi. Bahorda tabiatdagi boshlangan jonlanishni qayd qiluvchi, nishonlovchi Navro`z bayrami, kuzda o`suvchi narsalarning o`sisidan, hayvonlarning nasllanishdan to`xtalishini belgilovchi Mehrjon bayrami O`rta Osiyo xalqlarining qadimgi taqvim bilan bog`liq marosimlari sirasiga kiradi. Navro`z bayramidan keyin odamlarning mehnat jarayoni kuchayadi. Dehqonchilik va chorvachilik ishlari jonlanadi. Mehrjon bayramidan so`ng esa, odamlar qishga tayyorgarlik ko`ra boshlaganlar.

Ramazon va Qurbon hayiti bayramlari taqvim bilan aloqador diniy bayramlardir. Bu bayramlarni o`lkamizga islom olib kelgan. Ularda nomozgohda ertalab nomoz o`qish, o`tganlarni xotirlab, ruhlariga duo-fotiha qilish xatti-harakatlari e`tiqod bilan amalga oshiriladi. Ramazon hayitida o`ttiz kun tutilgan ro`zaning tugashi, “og`iz ochish” , fitr-sadaqa berish kabilar uning xususiy unsurlari bo`lsa, Qurbon hayitida jonliq (mol, qo`y) so`yib, Olloh yo`liga qurbonlik qilish, haj safariga otlanish singarilar unga xos xususiyatlardir.

Taqvinga aloqador bayramlarning katta qismi xalq sayli ko`rinishida nishonlanadi. Masalan, bahor bayrami “Qizil gul sayli”, yoz bayrami “Qovun sayli”, “Suv sayli” tarzida nomlab nishonlanadi.

Bayramlarda, odatda teatrlashtirilgan tomoshalar, xalq o`yinlari va musobaqalari tashkil qilinadi. O`zbekistonda nishonlanib kelinayotgan bayramlarni tabiat yoki tabiatsevarlar bayramlari (“Lola sayli”, “Gul bayrami”, “Qush bayrami” kabilar), zamonaviy bayramlar ( har yili 1 sentyabrda keng nishonlanadigan Mustaqillik bayrami), mehnat bayramlari (turli kasb bayramlari, Hosil bayrami, ), madaniyat va san`at bayramlari (Fol`klor bayrami, Kino bayrami), ma`rifiy bayramlar (Bilimlar kuni, “Kitob bayrami”, birinchi sinf o`quvchilarining “Alifbe bayrami”), badiiy-sport bayramlari, oilaviy-maishiy bayramlar (tug`ilgan kun, muchal) va hokazo kabi turlarga bo`lib o`rganish mumkin.

Ba'zi bayramlar xalqaro miqyosda nishonlanadi. 8 mart Xalqaro xotin-qizlar kuni, 7 may Radio kuni va hokazolar shular sirasiga kiradi.

Jamiyatda ro'y beradigan ijobiy o'zgarishlar, hayotdagi yirik voqealar, sanalar va htuqlar xalq turmushining tarkibiy va muhim qismi, madaniyatning asosiy shakllaridan biri, shodlik va quvonch manbai bo'lgan bayramlarning kelib chiqishiga turtki bo'ladi.

Marosimlar o'ziga xos kiyim-kechak, taom, irim-sirimlar, poetik aytimlar, xatti-harakatlarga egaligi bilan ham bayramlardan farqlanib turadi.

Ko'pincha marosimlar o'z maxsus tashkilotchisiga ega bo'ladi. Masalan, to'yda kayvoni, azada go'yanda, hvguchi, xatnada usta kabi va hokazo.

Marosimlar biror sababsiz yoki asossiz hzaga kelmaydi. Ular maxsus uhshtiriladi. Marosimlar etnografik mohiyat kasb etib, xalqning ijtimoiy-madaniy munosabatlarini o'zida aks ettirib turadi. SHu bilan birga ular xalqning qadimiy animistik, totemistik, fetishistik qarashlari hamda zardushtiylik va islomiy e'tiqodlari izlarini o'zida saqlab qolgan. Bu xususiyat hatto tirikchilikning asosiy vositasiga aylangan mehnatga munosabatni ifodalovchi qator an'analar va ularning verbal (badiiy so'z)qismini tashkil etuvchi aytim-qushiqlarda ham o'z ifodasini topgan.

Tarixan marosimlar ma'lum diniy tizimlarda vujudga kelgan. Ularda shaxsning ijtimoiy hayotga munosabati, aloqasi ifodalangan. Hozirgi jamiyatda marosim, asosan, maishiy turmush, siyosiy va ijtimoiy tizimlar hayotida ham namoyon bo'lmoqda. SHuning uchun ularni diniy marosimlar, fuqarolik marosimi, etnik marosim, siyosiy marosim, diplomatik marosim kabi turlarga bo'lib o'rganish mumkin.

Bular orasida diniy marosimlar eng avval shakllangan bo'lib, marosimning boshqa turlari asta-sekin ular orasidan ajralib chiqqan va o'zining dastlabki xususiyatlarini yo'qota boshlagan. Masalan, o'zbek va tojik mifologiyasidagi qo'llab-quvvatlovchi, oilaviy baxt ato etuvchi, ezgu niyat va orzu-havaslariga etishishga ko'maklashuvchi homiy kuchlar Bibiseshanba va Bibi Mushkulkushodlarga bag'ishlab o'tkaziladigan marosimlar shular jumlasidandir. Bibiseshanba tikuvchilik va to'quvchilik bilan shug'ullanadigan ayollarning ruhiy madadkori sifatida talqin qilinadi. Bibiseshanbaga ishonch tojik mifologiyasi tas'sirida o'zbek mifologiyasiga ko'chgan. Bu obrazning dastlab tojik mifologiyasida paydo bo'lganligi uning nomidan bilinib turadi. CHunki "seshanba" so'zi tojikcha bo'lib, haftanining ikkinchi kuni nomini ifoda etadi. Ayollar shu kuni Bibi Seshanba ruhiga sig'inib, unga bag'ishlangan ritual marosim o'tkazadilar. Bu marosim ikki qismdan iborat bo'ladi. Uning ritual o'qishdan iborat birinchi qismida Bibiseshanbaning etim-esirlarni qo'llab-quvvatlaganligi haqidagi afsona bayon etiladi. Marosimga yig'ilgan ayollar shu marosim tarixi, o'tkazilish sababi va tartibi bilan tanishtiriladi. Bu ishni el ichida e'tibor qozongan, momolar ruhiga sig'inib qo'l olgan yoki otinoyilik qilib, yoshlarga diniy-islomiy saboq beradigan ayol bajaradi. "Bibiseshanba" tarixi maxsus tayyorlangan kitobdan o'qib eshittiriladi.

Marosimning ritual ovqatlanishdan iborat ikkinchi qismi ziyofat ko`rinishida tashkil qilinadi. Lekin hozir ayollar Bibiseshanba afsonasini to`ppadan-to`g`ri dasturxon atrofida, ya`ni ziyofat vaqtida o`tirib tinglayveradilar.

“Bibiseshanba” marosimi o`tmishda faqat beva ayollar, etim-esir qizlar uchun o`tkazilgan. Lekin yildan-yilga bu marosimga ishtirok etuvchi ayollar oilaviy sharoitidan qat`iy nazar ommaviy tarzda ishtirok etmoqdalar.

“Bibiseshanba”da o`qib-eshittiriladigan afsona shjeti G`arbiy Evropa xalqlari orasida keng tarqalgan “Oltin kovush”, “Zolushka” hamda “Podachining qizi” nomli o`zbek xalq ertaklarining shjeti bilan bir xildir. Ma`lumki, bu ertaklarning shjetida sehrgar kampir o`gay onasi tomonidan qattiq azoblarga giriftor qilingan etim va kambag`al qizni qo`llab-quvvatlaydi. Uning mushkulini oson qiladi. Qizga baxt-saodat ato etadi. Bundan ko`rinadiki, Bibiseshanba marosimi qadimgi insonlarning ona ruh, momo ruh homiyligi haqidagi mifologik qadriyatlari asosida paydo bo`lgan. Unga islomiy e`tiqod bilan bog`liq qarashlar esa keyinchalik singdirilgan. Negaki, baxtsiz etim qizga baxt, yaxshi turmush ato etishga islom dinida faqat xudo qodir deb ko`rsatiladi. Xudogina insonni har tomonlama qo`llab-quvvatlashga, uni to`kis baxt-saodatga erishtirishga qodirdir deb uqtiriladi. Hqorida esa biz boshqacha manzarani kuzatdik. Unda qizni xudo emas, momo ruh, sehrgar kampir Bibiseshanba qo`llab-quvvatlaydi. SHundan ko`rinyaptiki, Bibiseshanba timsolining yaratilishiga islomiy qarashlar emas, momo ruh haqidagi qadimgi mifologik tasavvur-tushunchalar asos bo`lgan.

Bibi (momo)lar ruhiga sig`inib o`tkaziladigan ritual tadbirlardan yana biri Bibimushkulkushod marosimidir. Aytishlaricha, Bibiseshanba va Bibimushkulkushod buxorolik taniqli avliyo Bahovaddin Naqshbandiyning ayol qarindoshlari (ammasi va xolasi) ekan. Bibimushkulkushod uning xolasi bo`lgan. Bibimushkulkushod ham Bibiseshanba kabi o`zbek va tojik mifologiyasidagi momo ruh timsollaridan biri bo`lib, u odamlarning mushkulini echuvchi, oson etuvchi, kishilarni turli qiyinchiliklardan, mehnatdagi omadsizliklardan qutqaruvchi homiy kuchdir. Odamlar, odatda, biror-bir baxtsizlikka yoki omadsizlikka duchor bo`lganlarida Bibimushkulkushod ruhini chaqirib, unga sig`inib, undan madad tilaganlar. Bibimushkulkushod marosimi hozirgacha xalqimiz orasida keng o`tkazilib kelinadi. Uning o`tkazila boshlanishini epik bayon etuvchi afsona bor. Unda aytilishicha, bu marosimning hzaga kelishiga bir kambag`al o`tinchi chol sababchi bo`lgan. U har kungiday o`tin terib hrganida boltasini yo`qotib qo`yadi va izlab cho`lga borib qoladi. SHu erda unga Bibimushkulkushod yo`liqadi. Bibimushkulkushod cholning nega bu erda tentirab hrganligini eshitgach, unga shunday shart qo`yadi. “Agar har chorshanba kuni menga bag`ishlab ritual ovqatlanish marosimini tashkil qilsang, boltangni ham topasan va har doimgidan ko`proq o`tin ham yig`asan”,- deydi kampir. CHol bunga rozi bo`ladi va va`da beradi. SHunday qilib, cholning ishlari hrishib ketadi. Lekin bir chorshanbada chol ehtiyotsizlik

qilib, kampirga bergan va`dasini unutib qo`yadi va u yana avvalgiday g`am-g`ussaga botadi. Iqtisodiy ahvoli yomonlashib, qiynala boshlaydi. SHunda u yana Bibimushkulkushodga bag`ishlab marosim o`tkazadi va shu bilan ishlari qayta izga tushadi.

Xullas, haftaning chorshanba kuni ayollar tomonidan o`tkaziladigan Bibimushkulkushod marosimi islomgacha shakllangan momo homiy ruh haqidagi mifologik qarashlar, tasavvur-tushunchalar negizida kelib chiqqan. Unda ham kerakli madad va yordam xudodan emas, balki momo ruhdan so`raladi. Momo ruhga sajda qilinadi. SHuning uchun bu marosimlarning o`tkazilishiga va keng ommalashib ketishiga islom dini yo`l bermaydi.

Umuman, o`tkazilish vaqti, o`rni, tarzi, tartibi, ijodkorlari, ishtirokchilari tarkibi va vazifalariga, o`ziga xos xususiyatlariga ko`ra o`zbek marosim fol`klorini uchta katta guruhga bo`lib o`rganish mumkin:

1. Mavsumiy marosimlar fol`klori.
2. Oilaviy – maishiy marosimlar fol`klori.
3. So`z magiyasiga asoslangan marosimlar fol`klori.

O`z navbatida, bu uch guruhga mansub marosim fol`klorining har biri yana ichki xilma-xillikka ega.

O`zbeklar mavsumiy marosimlarga boy xalqlardandir. Bu marosimlar yilning to`rt fasliga oid xalqning yashash va mehnat tarzi bilan aloqador bo`lib, fasllarga qarab, to`rt turga bo`linadi:

- a) bahorgi mavsumlarga aloqador marosimlar;
- b) yozgi mavsumlarga aloqador marosimlar;
- v) kuzgi mavsumlarga aloqador marosimlar;
- g) qishki mavsumlarga aloqador marosimlar.

Bahor mavsumi bilan bog`liq marosimlar, asosan, kishilarning mehnat faoliyatiga aloqadorlikda o`tkaziladi. YA`ni, ular bahor kirishi bilan dehqon va chorvadorning hayoti va faoliyatida hz beradigan o`zgarishlarga bog`liq tarzda o`tadi. Masalan, ekin ekishga tayyorgarlik ko`rish, ariq – zovurlarni tozalash, chorvani yaylovlarga ko`chirish kabi ishlar kishilar tomonidan belgilangan kunda maxsus tayyorgarlik bilan tashkil qilinadi va bajariladi. SHu boisdan ular o`ziga xos marosim tarzida namoyon bo`ladi. Bahoriy marosimlar sirasiga «SHox moylar», «Navro`z», «YOmg`ir chaqirish» singarilarni kiritish mumkin.

«**Shox moylar**» – dalaga qo`sh chiqarish marosimidir. Uni o`tkazish vaqtini qishloq oqsoqollari belgilab berishadi. Ushbu marosimga erkagu ayol teng ishtirok etaveradi. Pishiriqlar pishirilib, o`tirish uchun joylar tuzalib, maxsus

tayyorgarlik ko`riladi. Olqishlar aytiladi. Qo`shga olib chiqilgan ho`kizlarning shoxlariga «ko`z tegmasin» deya zig`ir moyi surtilib, ins – jinslar - yomon ruhlardan pok bo`lsin uchun isiriqlar solinadi.

«SHox moylar» dehqon faoliyatining boshlanishidan darak beruvchi marosim, u birinchi kun magiyasi bilan bog`liq. «SHox moylar» ham agrar marosim. Dehqon hayotiga texnikaning kirib kelishi bilan u o`tkazilmay qoldi.

**Navro`z** – qadimiy bahor bayrami. Bahorgi kun va tun tengligi paytida, ya`ni 21 – 22 mart kunlari nishonlanadi. Navro`z – yangi kun degani. U islomgacha ham nishonlangan. SHuning uchun diniy bayram emas. SHO`rolar davrida u noto`g`ri talqin qilindi va nishonlanishi nohaq cheklab qo`yildi. Sosoniylar davrida Navro`z davlat bayramiga aylantirildi. O`shanda uni yozda, kunning eng uzunligi paytida – 21 – 22 iyn` kunlari nishonlaganlar.

Navro`z oldidan etti xil donlik ekinning urug`idan etti kator ekib undirilgan. Bular bug`doy, arpa, zig`ir, tariq, no`xat, jo`xori va sholidan iborat bo`lgan. Ularning unishiga qarab yilning hosildorlik darajasi chamalangan. Ko`pchib turgan erga mo`l qilib suv sepilgan. Bu bilan yil bo`yi suv, namgarchilik mo`l bo`lishi istalgan. Qizlar va ayollar arg`imchoq uchishgan. SHu kuni kishilar bir – birlariga sovg`a – salomlar ulashishgan, gina – kuduratlar unutilgan, urushlar to`xtatilgan. Navro`z dasturxoniga etti xil taom qo`yilgan va bu taomlar arab yozuvidagi «sin», ya`ni «s» tovushi bilan boshlangan. Bular hazorispan (sipand), olma (seb), siyohdona ( sedona), sinjid ( zaytun yog`i), sirka, sarimsoq, sabziy ( bug`doy maysasi) dan iborat bo`lgan.

Dasturxon o`rtasiga tol, zaytun, behi, anor, tut kabi daraxt novdalaridan etti dona qo`yilgan. Bir idishda pushti rang, boshqa idishda toza suv qo`yilgan. Toza suv ustiga mevali daraxtning yaproqlari tashlangan. Dasturxonga patir, qatiq, sut, pishloq, bo`yalgan tuxum, xo`roz go`shti, quritilgan mevalar , yong`oq, bodom, pista, baliq va oyna (ko`zgu) qo`yilgan. Navro`z dasturxoni uchun yoqilgan shamlar oxirigacha yonishi shart sanalgan. YAna dasturxon uchun go`ja oshi, sumalak, halim singari maxsus taomlar pishirilgan.

Qolaversa, Navro`z shodiyonalari qirq kungacha, asosan, may oyining o`rtalarigacha davom etganligidan xilma – xil marosimlarni o`z ichiga olgan. Sumalak, boychechak, lola sayli (sayli guli surx) singari marosimlar ham aslida Navro`zning uzvlari sanalib, ana shu muddat davomida o`tkazilaveriladi.

Sumalak – o`lib– tiriluvchi tabiatning abadiy harakatini ifodalovchi ramziy taom bo`lib, Navro`z shodiyonalarida pishiriladi va alohida an`ana sifatida nishonlanadi. Sumalak asli forschaga «si malak» so`zidan olingan, o`ttiz malak (pari) ma`nosini anglatadi. Go`yoki bu muqaddas taomni shu o`ttiz malak



pishirganmishlar, uning nomi ham o`shandan kelib chiqqanmish. Sumalak Navro`z kunlarida maxsus ko`kartirilgan bug`doy maysasini o`g`ur (keli)da tuyib yoki go`shtko`bakda chopib (yanchib), so`ngra uning siqib olingan sharbatining qaynatmasiga un aralashtirib pishiriladigan taomdir.

Uni, asosan, ayollar tayyorlaydilar. Tagi olmasligi uchun qozonni muttasil kovlab turishlari lozim. Bu ish sharbat qozonga solingan oqshomdan tun bo`yi davom etgan. SHu boisdan uni tayyorlovchi ayollar tun bo`yi sumalak qozoni atrofida bazm uhshtirib, zavq – shavq bilan elib – hgurganlar, sumalakni alqagancha tubandagi qo`shiqnlarni kuylab raqsga tushganlar:

|                        |       |                         |
|------------------------|-------|-------------------------|
| Gullola alvon-alvon,   | YOki: | Navro`z kelay deganda,  |
| Sumalak jonga darmon.  |       | Bug`doy undirib qo`ydik |
| YAyrab ich sumalakni   |       | Mehmon bo`lib kelingiz, |
| Qilmayin desang armon. |       | Sumalak qilib qo`ydik.  |

Mavsumiy marosimlar qadimgi ajdodlarimizning kundalik talab va ehtiyojlari tufayli vujudga kelgan. Aytaylik, bahor oylari yog`in – sochin kam bo`lsa, ekin – tikinning mazasi bo`lmagan. SHunday kezlarda yomg`ir chaqirish maqsadida ikki xil ko`rinishdagi marosim o`tkazilgan.

Qadimgi ajdodlarimiz yada (jada) toshi vositasida yomg`ir chaqirganlar. YAda – jodugarlikni anglatuvchi jat so`zidan olingan bo`lib, qadimiy turkiy tilda sehrli kuch – qudratga ega bo`lgan predmetlarga nisbatan qo`llangan.

«**Sust xotin**» **marosimi** – yomg`ir tangrisi Sust xotinga iltijo qilish orqali yomg`ir chaqirishdan iborat. Bu marosim turli joylarda turli shakllarda o`tkazilgan. Marosim jarayonida «Sust xotin» qo`shig`i kuylangan. Bu marosim tarixan qadimiy bo`lib turli joylarda turlicha ataladi, jumladan, Buxoro viloyatining Qorako`l va Olot tumanlarida «CHala xotin» deb ham hritiladi.

«Sust xotin» – «Avesto»da madh etilgan osmon suvlari tangrisi Tishtriyaning xalq o`rtasida fonetik o`zgarishlarga uchrab Tishtriy, Tusht, Sustr va nihoyat Sust xotin shaklini olgan namunasi, deya izohlaydi B.Sarimsoqov. U o`zbeklar orasida «Sust xotun» «Sut xotun», «Suv xotun», «CHala xotun» nomlari bilan tarqalgan bo`lsa, turkmanlarda «Shyt xatyn», tojiklarda «Sust momo» yoki «Ashaglen» deb hritiladi. Marosimning o`tkazilish tartibi ham turli joylarda turlichadir. B.Sarimsoqov uning to`rt variantini aniqlab izohlagan. Ammo uning mushtarak jihati hamma joylarda ham ayollar tomonidan o`tkazilishidir. Belgilangan kun va vaqtda o`ndan ortiq ayol qo`g`irchoqqa, ba`zi joylarda qo`riqchi (xo`sa)ga qari ayol ko`ylagani kiydirib, ayollardan biri uni ko`tarib olgan holda oldinda hrsa, boshqalar unga ergashib qishloq yoki mahalla bo`ylab xonadonlarga birma-bir kirib chiqa boshlaydilar. Ular xonadonlarga kira turib:

Sust xotun, sulton xotun,

Ko`lankasi maydon xotun,  
Havo yog`mas bo`lama, Sust xotun,  
Tomchi tommas bo`lama, Sust xotun.  
Etmishdagi kampirni, Sust xotun,  
Sel opketmas bo`lama, Sust xotun,-

qo`shig`ini ayta boshlaydilar. Xonadon egalari ularni xursandlik bilan kutib olib, qo`g`irchoq yoki qo`riqchi (xo`sa) ustidan suv sepib, qo`shiq ijrochilariga xayr-ehson qilishadi. Ular shu xayr-ehson evaziga is qilishib, yomg`ir yog`ishidan umidvor bo`lib qolaveradilar.

Marosim keyingi taraqqiyotida erkaklar va bolalar ijrosida ham o`tkazila boshlangan. Uning qo`shig`ida mo`l-ko`l hosil etishtirish orzusi etakchi motivdir:

Havolarni yog`dirgin, Sust xotun,  
Bug`doylarni bo`ldirgin, Sust xotun.  
Osmondan tomchi tashlab, Sust xotun,  
Elu hrtni to`ydirgin, Sust xotun.

«Sust xotin» marosimi matriarxat davrida vujudga kelgan. U ibtidoiy kishilarning tabiat inijliklarining tub sabablarini bilmasdan ularning oldini olish choralarini topishga ojizliklari oqibatida vujudga kelgan.

YOzgi marosimlar fol`kloridan atigi bitta janr saqlanib qolgan. Bu «CHoy momo» - shamol to`xtatish marosimi va unga aloqador aytimdir. Bu marosim surunkali davom etgan qattiq shamolni to`xtatish maqsadida o`tkazilgan.

«CHoy momo» aslida «CHuy momo» bo`lib, qadimgi turkiy tilda «shamol ona» deganidir. Qadimda shamolni jonli narsa sifatida tasavvur qilishgan. Bu marosimni dastlab ayollar, keyinchalik erkaklar ham o`tkazishgan.

Marosimni o`tkazish tartibiga ko`ra ikki kampir eski chopon va kiyim kiyib, hzlariga qorakuya surtishib, qo`llarida hassa bilan tubandagi «CHoy momo» qo`shig`ini aytib berishadi:

CHoy, choy,choy momo,  
CHoy momosi o`libdi,  
Bosa-bosa beringlar,  
Bosilib qolsin bu shamol.  
Uga-uga beringlar,  
Ugilib qolsin quv shamol.  
To`ka-to`ka beringlar,  
To`kilib qolsin bu shamol.  
Bosa-bosa beringlar,  
Bosilib qolsin quv shamol.  
CHoy, choy, choy momo.

Ular yonida bo`yga etgan besh qiz boshlariga qizil sholcha yopib olgan holda jo`r bo`lib borishadi. Orqadan etti-sakkiz yoshdagi o`g`il bola katta xurjun solingan eshakni minib olgan bo`ladi. O`qlog`, hmsheq supurgi va keli (o`g`ur) sopi birga qo`shib bog`langan holda o`sha eshakka sudratilib boriladi. «CHoy momo»chilar qaysi xonadonga borsalar, o`sha xonadon egalari ularga bug`doy, non, pul sadaqa qiladi. Eshak ustidagi bola bularni xurjunga solaveradi. Nihoyat qishloq yoki mahalla to`la aylanib chiqilgach, belgilangan joyda yig`ilgan undan SHamol otaga is chiqariladi. Buning uchun chalpak pishirilib, SHamol otaga atalgan o`n ikki dona chalpakni erga yoki muqaddas sanalguvchi joydagi biror teshikka tiqishadi. Bu bilan shamol yo`li bog`lanarmish, shamol esa tinarmish. Ba`zan yig`ilgan narsalarni sotib, qo`y sotib olingan va u shamol chiqadigan joyga eltib qurbonlik uchun so`yilgan. Qo`y go`shtidan tayyorlangan sho`rvadan ortib qolganini shamol chiqishi taxmin qilingan teshikka to`kib qo`yilgan. Marosimdagi ramziy narsalardan o`qlog` va keli (o`g`ir) sopi rizq-ro`zini anglatsa, supurgi shamol xudosi qahrini keltiruvchi ziyon-zahmatlarni quvuvchi va supurib tashlovchi ma`nosini ifodalaydi. Umuman, bu marosim matriarxat davrining qoldigi bo`lib, keyinchalik transformatsiyaga uchrab, erkaklar ijrosida ham bajariladigan bo`lgan.

Kuzgi marosimlar fol`klori janrlaridan faqat ikkitasi-oxirgi tutam bug`doyni o`rib olish («Oblo baraka») va shamol chaqirish «YO, Haydar» marosimlarigina saqlanib qolgan.

Oxirgi tutam bug`doy - «ona bug`doy» deyiladi. Qaysi o`roqchi ana shu tutamga etib olsa, «ettim-ettim, oblo baraka bersin» deb uni o`rib oladi.

«YO Haydar» qo`shig`ida shamol homiysi sifatidagi Haydar aslida Muhammad payg`ambarning kuyovi Hazrati Ali bo`lib, unga shunday murojaat qilinadi:

Haydar-Haydar,  
Ota-onang o`libdir,  
Moli senga qolibdir,  
Bolang suvga oqibdir,  
SHamolingni qo`yib ber.

Emishki, Hazrat Ali barcha tabiat hodisalari, jumladan, shamolning ham otasi sifatida uni o`z ixtiyorida tutib saqlarmish. Unga shu xilda murojaat qilinganda esa, tutib turgan shamolni qo`yib hborarmish. Ikkinchi bir talqinda u Duldulini minib, qamchi bosarmish. SHunda ot shiddat bilan chopayotganida yolining ko`tarilib tushishidan shamol hosil bo`larmish.

O`zbeklarning shamol kul`ti bilan bog`liq mifologik tasavvurlarining matriarxat davri e`tiqodiy qarashlariga aloqador turkumi YAlli momo yoki YAlala momo, patriarxat davri esa YAlang`och ota haqidagi e`tiqodiy ishonchlar tizimini

tashkil etadi. Ular to'g'risidagi xalq qarashlari Quyi Zarafshon vohasi o'zbeklarining shamol to'xtatish marosimlari tarkibida saqlanib qolgan.

Fol'klorshunos M.Jo'raevning fikricha, YAlli momo turkiy xalqlar mifologiyasida shakllangan obrazlardan biri bo'lib, CHoy momoga qaraganda qadimiyroqdir. CHunki unda shamol egalariga qurbonlik qilishning o'ziga xos bir ko'rinishi – shamol qo'g'irchoq yasab, dafn etish udumi saqlangan.

Qishki marosimlar fol'kloriga «gap-gashtak» va «yas-yasun» marosimlari kiradi. Ular mehnat jarayoni bilan bog'liq emas.

«Gap- gashtak marosimi ba'zi joylarda gapxo'rlik deb ham hritiladi. Unga ko'ra, dala mehnatidan bo'shagan erkaklar uzun qish kechalarini zerikib o'tkazmaslik uchun o'z uylarida yo choyxonalarda galma-gal ziyofat berishgan. Uni boshqaruvchi oqsoqol va yordamchisi bo'lib, ziyofat navbatini, tartibini, unda o'ynaladigan o'yinlarni nazorat qilgan va boshqarib borgan. Ziyofat oldidan polvontavoq kimning oldiga eltib qo'yilsa, ziyofat gali o'shaniki sanalgan. O'tirish choyxo'rlikdan boshlanib, ishtirokchilar xohishiga ko'ra tayyorlangan taom tanovulidan keyingi o'yin- kulgilar bilan allamahalgacha davom etgan. YArim tunda palov suzilgan. YAna o'yin-kulgi va choyxo'rlik davom etgan. Nihoyat, davraboshi ruxsati bilan gapxo'rlar uy-uylariga tarqalganlar. Bunday gashtaklarda mayxo'rlik bo'lmagan. Bu marosim shaxsda o'zini davralarda tuta bilish, mehmon kutish va uning ko'nglini olish malakasini shakllantirgan va targ'ibot-tashviqot olib borish vazifasiga ko'ra madaniy-oqartuv xizmatini ado etgan.

«**Yas-yasun**» ko'chmanchi chorvadorlar o'rtasida qimizxo'rlik marosimi sifatida hzaga kelgan bo'lib, uning ma'nosi davrada o'tirish qoidalari demakdir. Ba'zi joylarda u «bo'zaxo'rlik» yoki «ko'na o'tirishlari» deb ham hritiladi.

«YAs-yasun» sherda o'tkaziladi. SHerdaning raisi, o'ng va chap otaliqlari (o'rinbosarlari) butun marosimga rahbarlik qiladi. Eshik og'asi (sherda o'tadigan uy xo'jayini), biy va uning o'rinbosarlari beradigan buyruqlarni bajartiruvchi yasovul, kosagul (soqiy) kabi javobgar shaxslar ham marosimda muhim vazifa bajaradilar.

Marosimning quyidagicha shartlardan iborat qat'iy talablari mavjud: ishtirokchilar kosagul uzatgan bo'zani bir nafasda ichib hborishlari lozim; kosadagi bo'zani to'kmasliklari yoki to'kib hbormasliklari shart; doim cho'kka tushib o'tirishlari va biy ruxsatidan so'nggina oyoq uzatib yoki yonboshlab o'tirishlari mumkin; sherda oxiriga qadar mastlik qilmay, odob saqlashlari shart; sherda o'tirishini faqat biy yoki eshik og'asi ruxsati bilangina tark etishlari mumkin; biy yoki o'rinbosarlarning topshiriqlarini so'zsiz ado etishlari lozim; kosagul sherda ishtirokchilariga bo'za tutganida turli to'rtliklar aytmog'i va sherda a'zolari ham unga javob qaytarmog'i shart.

Marosimda aytilgan to'rtliklarning sharti shuki, birinchi band qaysi so'z bilan boshlansa, ikkinchi band ham o'sha so'z bilan boshlanmog'i, shu asosda bandlararo anafora hzaga kelib, ritmik-kompozitsion yaxlitlik ta'minlanishi shart. Masalan, kosagul sherda ishtirokchilariga bo'za uzata turib, shunday murojaat qiladi:

Alyor bo'lsin-ay,  
Xo'jam yor bo'lsin-ay.  
Xo'jam bergan davlatga  
Dushman zor bo'lsin-ay.

Kosagulning bunday murojaat qo'shiqlari turlicha bo'lishi mumkin, eng muhimi, bir to'rtlik qayta takrorlanmasligi lozim. Bo'za uzatilgan kishi kosani ola turib, kosagulni yoki bo'zani alqab juft bayt yoki juft to'rtlik aytmog'i, bunda ikkala bayt ham yoki to'rtlik ham bir so'z yoki ibora bilan boshlanmog'i shart. CHunonchi:

*Bo'za* ichdim-boshga chiqdi xumori,  
YOr qo'ynida qoldi bo'ynim tumori.  
Hech bahona topmas edim borgani,  
Xo'b bahona bo'ldi bo'yning tumori.  
*Bo'zaning* piyolasi ham lolasi,  
Yigitga hamdam bo'lur qaynonasi.  
Ul yigit chiqsa bo'zadan mas(t) bo'lib,  
Oldiga o'ynab chiqar jononasi.

YOki:

*Qizlarjon*, oting nima?-Gulbozori!  
Sanga tushdi man etimning nazari.  
Sanga tushsa man etimning nazari,  
Qachon bo'lgay ikki etim bozori?  
*Qizlarjon*, qiliqqinang qil yoradi,  
Lablaringning shakkari til yoradi.  
Qoshlaring qozi bo'lib hrt so'rasa,  
Kipriging jallod bo'lib dil yoradi.

YAs-hsun marosimida aytiladigan bunday qo'shiqlar Turkiston, Sayram, Qarnoq va Iqon atroflarida «haqqonalar yoki ko'nalar» deb hritilsa, boshqa joylarda «bo'zagarlar qo'shig'i» deb hritiladi.

O'zbek fol'klarida oilaviy-maishiy marosimlar fol'klori katta o'rin tutadi. CHunki insonning asosiy umri oilada kechadi. Insonning tug'ilishini, kamolotining ma'lum bosqichi, vafotini oilada maxsus marosimlar orqali qayd etish esa o'ziga

xos an'anaga aylangan. Bu an'ana barcha xalqlar orasida bor. Inson hayotiga aloqadorligiga ko'ra oilaviy - maishiy marosimlar ikki katta guruhga bo'linadi.

1. To'y marosimlari
2. Motam marosimlari

Oilada o'tkaziladigan marosimlar oilaviy-maishiy marosim hisoblanadi. Ular rang-barang bo'lib, kattagina qismi to'y marosimlarini tashkil qiladi. Beshik to'yi, o'g'il (sunnat yoki xatna) to'yi, nikoh to'yi, hovli to'yi, yosh to'yi kabi nomlar bilan hritiluvchi har bir to'y tadbiri inson hayotidagi eng quvonchli muhim burilish nuqtasini qayd qilishga qaratilgan.

«To'y» so'zi «to'ymoq» to'liqsiz fe'ldan olingan bo'lib, katta ziyofatli yig'in ma'nosini anglatadi. To'y o'z nomi bilan nafaqat shirin taomlarga, balki yaqin qarindosh-urug'lar, do'st-yorlar diydoriga, orombaxsh kuy va qo'shiqlarga, xursandchilik ulashadigan turli qiziqarli tomoshalarga ham to'yish demakdir.

To'y-ko'pchilik ishtirok etadigan yirik marosim. O'zbek to'ylarini o'tkazish tarzi, ishtirokchilari tarkibi, vazifalari hamda uning verbal qismini tashkil etuvchi poetik fol'klorini janriy tarkibiga ko'ra bir necha turga bo'lib o'rganish mumkin.

**Beshik to'yi.** Oilada farzand tug'ilib, u besh kunlik bo'lgach, «Besh kechasi», to'qqiz kunlik bo'lganida «To'qqiz kechasi» marosimlari o'tkazilgan. Odatda, bunday marosimlarni uzoq vaqt farzand ko'rmay, nihoyat niyatiga erishgan yoki bolasi turmaydigan ayollar tomonidan o'tkazilishi rasmiyatga aylangan. Ushbu marosimlarning o'z poetik aytimlari, irim – sirimlari mavjud, albatta.

CHAqaloq qirq kunlik bo'lganida esa unga bag'ishlab «beshik to'yi» o'tkazilgan. Ushbu qadimiy marosim Buxoroda «gavorabandon» deb hritiladi.

Beshik to'yini ikki tomon qudalar birgalikda tashkil qilib o'tkazadilar. Yangi beshikni chaqaloqning ona tomonidan bobosi turli–tuman sovg'alar bilan birgalikda olib keladi. Beshik jo'natishning o'ziga xos tartibi bor. Eng oldinda yog'och oyoqqa minib, qo'lida qayroq bilan raqsga tushganlar, keyin karnay-surnaychilar, ular ortidan boshlarida sovg'a–salom solingan dasturxonlarni ko'targan ayollar va yangi beshikni elkalagan beshikbardor uzun safda tizilib boradilar. Bular borkashlar deyiladi.

Uy egalari borkashlarni ularning hzlariga un surtish bilan kutib oladilar. Bu bilan chaqaloqning baxti oppoq bo'lishiga ramziy ishora qilinadi.

Borkashlar sharafiga taomlar suzilib, ziyofat uhshtiriladi. Raqsga tushiladi. Qo`shiqalar kuylanadi. SHundan so`ng chaqaloqni beshikka solish boshlanadi. Bundan avval beshikka maxsus to`shakchalar solinadi. Bolaning yostiqchasi ostiga piyoz (sarimsoq), non, qayroqtosh yoki pichoq qo`yiladi. Ular chaqaloqni turli ins-jinslar yoki ziyon-zahmatlardan asrovchi magik predmetlar hisoblanadi. So`ngra beshik ichi va hg`isi ustida uch joyda paxta yoqib qo`r-qo`r qilinadi. Otashparastlikdan saqlanib qolgan bu udum orqali beshik turli insu jinslardan tozalangan.

Qo`r-qo`r deb ataluvchi shu irim tugagach, chaqaloqni kayvoni-vakila qo`liga olib, dast ko`targanicha, shunday deydi:

SHugina jonim-bir jonim,

Bo`ynimdagi marjonim.

Xudo berdi sevsin deb,

Oltin beshikka kirsin deb.

So`ngra chaqaloqni beshikka sola turib, dastlab uni teskari qo`yib, shunday deydi:

-Bunday bog`laymizmi?

Beshik atrofdagilar birvarakayiga jo`r bo`lishib:

-Yo`q, yo`q! -deydilar.

Endi chaqaloqni o`ng tomoni bilan chalqanchasiga yotqizib yana so`raydi:  
-Bunday bog`laymizmi?

YAna barchaning: «Yo`q, yo`q» -degan e`tirozi jaranglaydi. Vakila bu safar chaqaloqni chap tomonlama chalqanchasiga qo`yib, o`sha so`zlarni takrorlaydi. YAna e`tiroz eshitadi. Nihoyat u chaqaloqni to`g`ri holatda beshikka qo`yadi va shunday deydi:

-Bunday bog`laymizmi?

Ishtirokchilar: - «Ha, ha!» -deya uni ma`qullashadi. SHundan keyin vakila aytim –olqishni davom ettiradi:

-Qoch, qoch babasi,

Keldi egasi.

Ota-ona gapirishsa,  
Qichqirishsa, yana qo`rqma!  
Opalaring, akalaring,  
Baqirishsa, yana qo`rqma!  
Olapar it akillasa,  
Qo`rqib qolma!  
Mosh mushuk xirillasa,  
Qo`rqib qolma!

Olqishni vakila cho`ziq ohangda, qiroat bilan aytayotgan lahzada boshqa bir ayol beshikning bosh tomonida o`tirib olib yong`oq chaqa boshlaydi. CHaqaloqni bog`lash tugatishi bilan chaqilgan yong`oq mag`zlari qand bilan aralashtirilib, beshik ustidan sochqi qilib sochiladi.

Buning ikki ramziy ma`nosi bor: biri - taqillash ovozidan bola cho`chimaslikka da`vat etilsa, ikkinchisi - yong`oq mag`zini sochishdan esa bolaning sermag`iz-kelajakda bola -chaqali bo`lib, shirin va to`kin turmushga erishmog`i orzu qilingan.

SHundan keyin isiriq tutatilib, beshik ustidan uch marta aylantiriladi va quyidagi aytim-olqish aytiladi:

Isiriq, isiriq,  
CHatnasin isiriq,  
Patlasin isiriq,  
Bachaga ko`z tegmasin.  
Kim bachaga ko`z qilsa,  
Ko`zlari oqib tushsin.

SHu zaylda beshik to`yi marosimi intihosiga etadi. CHaqaloq beshigi bilan alohida xonaga o`tkazilib, onasining ixtiyoriga topshiriladi.

**Xatna to`ylari.** Xatna yoki sunnat to`yi faqat o`g`il bola uchun o`tkaziladi. Xatna xalq o`rtasida «sunnat», «qo`lni halollash (poklash)», «chukron», «chukburon», «gulla» kabi atamalar bilan ham hritiladi.



Sunnat to'yi, odatda, bolaning toq yoshlarida: uch, besh, etti yoki to'qqizga kirganida qilinadi. Uni juft yoshda o'tkazilsa, baxtsizlik keltiradi deb irim qilinadi. Hozir sunnat to'yi bola maktabga borgunga qadar o'tkaziladi.

Udumshunos G.P.Snesarevning fikricha, xatna to'yining ildizlari qadimgi initsiatsiyaga, ya'ni kishilarning turli yosh sinflariga bo'linishi, bir yosh sinfidan ikkinchisiga o'tishi maxsus marosimlar, initsiatsiyalar vositasida nishonlanishi udumiga borib bog'lanadi.

Fol'klorshunos K.Ochilov e'tiroficha esa, "O'rta Osiyo xalqlari islom dini qabul qilingan vaqtgacha sunnat va xatna qilish nima ekanligini bilmaganlar. Ularda bunday odat bo'lmagan. Arab manbalari bilan puxta tanishgan va ulardan foydalangan olimlar bu fikrni tasdiqlaydilar. Xususan, arab tarixshunos olimi Tabariyning materiallariga asoslangan V.V. Bartol'd quyidagilarni ta'kidlaydi. Xuroson noibi Ashras 728 yilda Movarounnahr aholisini musulmonchilikka kiritishga harakat qiladi. SHu bois o'zining yaqin kishilari, ya'ni ikki din peshvosiga musulmonchilikni qabul qilganlardan soliq olmasligini odamlarga etkazishni amr etadi. "Bu amr ijrosi tufayli xazinaga pul tushmaydi... SHunda Ashras faqat yangi musulmon bo'lganlar orasidan kimdan-kim sunnat qildirilsa, ana shularni soliqdan ozod etishni buhradi"<sup>1</sup>. SHu tariqa Movarounnahr ahli orasida xatna odati sekin-asta qaror topa boradi va islomlashtirilishi natijasida sunnat nomini oladi, qolaversa, payg'ambarimiz tomonidan bajarilganligi tufayli boshqa musulmonlar tomonidan ham bajarilmog'i shart sanalgan qoida tarzida qabul qilingan.

Xorazmda sunnat to'ylari "bak-bavak" marosimi deb hritiladi, uning ramziy belgisi sifatida jiyda butog'iga turli shirinliklar, rangli yaltiroq bezaklar, turli-tuman qoqilar solinib, to'yxona to'ridagi baland joyga osib qo'yiladi. Jiyda hosildor daraxt bo'lganligidan to'ybolaga ham serfarzandlik tilanib, shunday irimga amal qilinadi.

O'zbekistonning boshqa joylaridan farqli o'laroq Xorazmda sunnat to'yini alqovchilarni chamanchilar deyishadi. Ular tarkiban uch kishi - garmonchi, doirachi va raqqosdan iborat erkaklar guruhi bo'lib, tubandagi an'anaviy alqov qo'shig'i bilan to'yxonaga kirib kelishadi:

To'y ataman deb elga berdi ovoza,

O'tgan oyda kunji berdi juvoza.

Barakallo, Odilbekni to'yina,

---

<sup>1</sup> Qarang: Kamol Ochilov. Sunnat to'yining xalq og'zaki ijodida tasvirlanishiga doir. –O'TA, 2004, 5-son, 65-b.

Orqa yona gashir – piyoz aktirgan,  
Xirmon joyda oltin qovoq diktirgan.  
Barakallo, Odilbekni to'yina.

SHuni ta'kidlash joizki, chamanchilar to'ybola va to'ychilarni alqab kuylashni avj pardaga chiqara boradilar. Xudi shu jarayonda bolani sunnat qilish boshlanadi. Xatna boshlanishi oldidan to'ybolaning onasi boshqa xonada bir qo'li barmog'ini unga, ikkinchi qo'li barmog'ini yoqqa botirib turishi shart. Xatna bajarilgach, bola maxsus baland to'shakka-taxtga yotqizib qo'yiladi.

CHamanchilar tashqarida xizmat qilishsa, xalfalar ichkarida – xotin- qizlar bazmida xizmat qilishgan. Ular repertuarida ham xatnani alqovchi aytimlar mavjud:

Jahonda farzand a'lodur,  
Ato etuvchi ollohdur.  
Bolali uy-bozor, derlar,  
SHod bo'ling, to'ylar muborak!

O'rta Osiyo arablar tomonidan bosib olingach, shu joyda yashovchi barcha xalqlar qatori o'zbeklardagi xatna qilish odati ham kuchli ravishda islomlashtirilgan. Hatto marosimning nomi ham sunnat, ya'ni payg'ambarimiz tomonidan bajarilgan va boshqa musulmonlar ham bajarishi shart sanalgan qoida sifatida qabul qilingan.

Xalq o'rtasida «bolaning qo'lini halollash» iborasi bejiz aytilmaydi. CHunki ilgarigi zamonlarda hali sunnat qilinmagan bolalarning kattalar bilan bir tovoqdan ovqat eyishlariga ruxsat etilmagan.

Xatna to'yi uch qismdan iboratdir:

*Birinchi qismi* -to'yga tayorgarlik ko'rish qismi. Bu davrda tandir qurish, non yopish, so'qim so'yish, maslaxat oshi tortish kabilar amalga oshiriladi.

*Ikkinchi qismi*- xatna to'yi o'tkaziladigan hmushlarni qamrab oladi. Bunda mehmonlarni kutib olish uchun joy hozirlanadi. Dasturxonlar tuzatiladi. Qishloq yoki mahalla ahliga maxsus jarchilar orqali xabar qilinadi. (Hozirda bu ish to'yxat hborish orqali amalga oshirilmoqda).

Sunnat to'yida ijro etiluvchi *xatna janri* maxsus janrni tashkil etadi. Ular to'yga chorlash vazifasini ado etadi. Xatna jarlarida to'y egasining qozonlar qurdirgani, semiz va ko'p qo'y-mollar so'ydirgani, qimmatbaho sovg'a-salomlar evaziga ko'pkari choptirmoqchi ekanini ta'riflash motivi etakchilik qiladi:

Tevali (qashqa) qo'yni-yo so'ydirgan,  
To'shini menga-yo qo'ydirgan,  
Katta- katta qozonlarni qurdirgan,  
Barakala-yo, boyvachcha-yo , Ubaydullo.  
O, nor tuyaga ulog'ini orttirgan,  
O, hz ellik so'm pulni qo'yib choptirgan,  
Barakalla-yo, boyvachcha-yo, Ubaydullo.

Jar qo'shig'ining oxirida jarchi engil hmo vositasida o'z nasibasi haqida ham engilgina ishora qilib o'tadi:

O, omborchi-yo sho'x ekan,  
O, jarchi boshi-yo bo'sh ekan,  
O, emishlari-yo to'rt kilo go'sht ekan,  
Barakalla-yo, boyvachcha-yo , Ubaydullo.

Jar chaqirilgandan keyin mehmonlar birin-ketin to'yxonaga yog'ilib kela boshlaydilar. Ular dasturxondagi noz-ne'matlardan totishishgach, osh tortiladi. Oshdan keyin hamma tarqaladi. To'y egalari kechqurun o'tkaziladigan bazmga tayyorgarlik ko'radilar. Kechqurun mashshoq va xonandalar, ayrim joylarda qiziqchi va dostonchilar ishtirokida bazm bo'lib o'tadi. Ertasi ertalab bolani xatnaga yotqizish uchun hozirlik ko'riladi. To'yning asosiy **uchinchi qismi** shu xilda boshlanadi. Bu paytda ba'zi qishloqlardagi odatga ko'ra qishloq bolalari xatna qilinadigan bolani biror-bir xonadonga yashirishadi. To'y egasi ularning jo'raboshisi talabini qondirib, bolalarga ziyofat uchun pul yoki masalliq bermagungacha, bola yashirilib qo'yilgan xonadon aytilmaydi. Berilsagina ular bolani to'yxonaga olib kelib beradilar. Bu paytda to'yxonada har xil o'yin-tomoshalar o'tkaziladi. Masalan, Xorazmda «Oltin qovoq», Andijonda «Quloq cho'zma», Toshkentda «Bola mast» yoki «Mast bola» kabi o'yinlar uhshtiriladi. Aytaylik «Mast bola» o'yinida to'yxona hovlisining o'rtasida gulxan yoqilib, uning atrofini to'ychilar va mehmonlar o'rab olishadi, karnay-surnay, childirma,

nog`ora chalinadi. To`y bolaning amakisi yoki tog`asi uni opichlab ko`tarib oladi-da;

-Mast bola, gud-gud,

-Mast bola, gud-gud,- deya, takrorlaganicha, gulxan atrofida aylantiradi. CHildirmachilar har zamonda «amma-xolalari havodor (nazr) beradilar. SHunda yig`ilganlarning barchasi shodu xurramlik bilan qiyqirib, «biz ham shunday to`ylarga etaylik» degan niyat bilan o`rtaga nazr tashlaydilar. Yig`ilgan nazrlarni sozchilar o`zaro bo`lishib olishgan.

SHundan so`ng to`y bolaga ozgina sharbat yoki boshqa ichimlik ichirishgan va xatna qilish uchun tayyorlagan maxsus xonaga olib kirishgan. SHunday paytda Samarqandning Bulung`ur va Urgut tumanlarida, Surxondaryoning Boysunida «CHorqarsak» hamda «Beshqarsak» deb ataluvchi o`yinni o`ynashgan. Unda to`y ishtirokchilari maxsus usulda qarsak chalishib, aytilayotgan lirik qo`shiqlarning naqoratlariga jo`r bo`lib turishgan.

Sunnat to`ylari “chavqi”siz ham o`tmagan. “CHaqqi” – to`y-tomoshalarda, sayllarda ijro etiladigan o`yin, o`ziga xos etnofol`klor hodisasi. Turfa lirik va maishiy qo`shiqlaru o`yinlarni o`z ichiga olgan bu silsila Bulung`ur, Zomin, Baxmal, Poyariq, Jomboy, Urgut, G`allaorol tumanlarida keng tarqalgan. “CHaqqi” yoki “chovki” atamasi “gulxan” degan ma`noni bildiradi. CHunki to`y kuni qishloq yigitlari bazmga alohida tayyorgarlik ko`rishgan. Qurigan daraxt kundalari, g`o`larni kesib, o`tin qilishgan va to`yxonaga olib kelishgan. Qorong`i tushgach, “chavqi”da ishtirok etadigan qarsakbozlaru laparchilar, qo`shiqchih o`yinchilar har iomondan kela boshlaganlar va davra hosil qilganlar. “CHavqi” to`yning eng avj nuqtasi hisoblangan. Hovli o`rtasiga uyib tayyorlab qo`yilgan gulxan yoqilgan. Yigitlar va keksa yoshli erkaklar davra qurib o`tirishgan. Bazm dastlab yakka qarsak bilan boshlanib, o`yin avjiga chiqqani sayin qarsaklar soni oshib boravergan. YAKka qarsakdan so`ng juft qarsak, so`ngra uch, to`rt, besh, to`qqiz, o`n bir qarsakkacha ko`tarilgan. Qarsak zarbiga qarab qo`shiq ohangi va o`yin usuli ham o`zgargan.

Boysun atroflarida «YAllama-yorim», «YAqu-yaq», «Um-ufu» kabi qo`shiqlar misralarining musiqaviy ijrosi maxsus usulda chalinadigan to`rtqarsak usuliga mos kelishi kuzatilgan.

CHorqarsak xatna to`ylarining eng avj va hal qiluvchi lahzasidir. U boshlanishi bilan to`y ishtirokchilari katta doira shaklida turadilar. Ichki qatordagilar esa tiz cho`kib o`tirib olishadi. O`rtaga bir yoki ikki yigit tushib,

chalinayotgan qarsak ohangiga mos raqsga tushishadi. «YAllama yorim» qo`shig`i chorqarsakning birinchi bo`limini tashkil etadi.

Qo`shiqning to`rt misrali bandlarini istagan yakkaxon aytishi mumkin. Naqoratlarda esa barcha unga jo`r bo`ladi. Masalan:

Bun-dan bor-dim, yo-tib-siz,

Par yos-tiq-qa bo-tib-siz,

Par yos-tiq-ni ko`-tar-sam,

Gul-day to-za yo-tib-siz.

Naqorat:

YAl-la-ma, yo-rim, yal-la-la,

YAl-lo-la-shay-lik, yal-lo-la-shay-lik.

SHundan so`ng ritm tezlashib, chorqarsakning ikkinchi bo`limi «YAqu-yaq» qo`shig`i boshlanadi. O`rtada o`ynayotgan yigitlar ham almashadi.

Aylansin, yor aylansin,

Qoshlari qaro, aylansin.

SHaftolizor ichida,

Bodom qovoq aylansin.

Naqorat:

YAqqu-yaqqu, yaqqu-yaq.

YAqqu-yaqqu, yaqqu-yaq.

Bu naqorat qo`lni paxsa qilib olgan holda hamma o`ynayotgan yigitlarga tahdidli intilib, ijro etilgan.

So`ngra «Um-ufo`» qo`shig`i boshlanadi. U to`rtqarsakning uchinchi bo`limini tashkil qiladi va raqs uslubi bilan ajralib turadi. To`rtqarsakning hqoridagi ikkinchi qo`shig`ida yigitlar, asosan, ikki yonga,- oldinga va orqaga sakrab o`ynasa, bunda balandga sakrab «katta oyoq»da o`ynaydilar.

Suv keladi Moridan,

Moridan ham naridan.

Akaginang aylansin,

Kokilingning toridan.

Qo`shiqning har bir misrasidan keyin jo`r bo`luvchilar «yor-yor, yoron-ey», deb, naqoratga esa:

Um-ufo`, um jaqala,

Um-ufo`, um jaqala, - deya qo`shilib turadilar.

CHorqarsak o`yinidan so`ng beshqarsak o`yini boshlab hboriladi. Boysun beshqarsagi Denov va Urgut beshqarsaklaridan farq qiladi. Bu farq faqat karsak ritmida kuzatiladi. YA`ni, Boysunda beshqarsak 2-1-2 tarzida chalinadi.

Beshqarsakda asosiy bayt yakkaxon tomonidan, naqorat esa ko`pchilik tomonidan aytiladi:

Bir qizil gulni uzib,

Qoldim qiyomat dog`ida.

Naqarot:

Ha-ha, ho, ha-ha

Ha-ha, ho, ha-ha.

CHorqarsak va beshqarsak o`yini paytida bolani xatna qilish intihosiga yotqazilgan bo`ladi. Xatnadan so`ng to`y tarqaydi.

Oradan 5-6 kun o`tib, bola sog`ayib, oyoqqa turib sog`ayib ketgach, «to`shak yig`di» marosimi o`tkazilgan. U to`y intihosi sanaladi. Bola botamom sog`ayguniga qadar, chillali hisoblanib, ehtiyotlab hriladi. Oq matodan lozim-ko`ylak kiydirib qo`yiladi.

Xullas, o`zbek xatna to`ylari fol`klori janriy tarkibi ham rang-barang va o`ziga xos bo`lib, ma`lum tizimni tashkil qiladi.

**Nikoh to`yi** - to`ylarning eng yirigi va ma`suliyatlisi sanaladi. U orqali voyaga etgan yigit-qiz qismati payvandlanadi, ularning oila qurishi aqdi nishonlanadi. Yigit va qizning umum oldida naslni davom ettirish va jamiyat nizomlari asosida yashash ahdini zimmalariga olganligi qayd etiladi.

Nikoh masalasi ijtimoiy-ahloqiy hodisa sifatida barcha mamlakatlarda din va qonunlar bilan mustahkamlanib kelingan va kelinmoqda. Hatto nikoh yoshi ham belgilanib qonuniylashtirilgan.

Nikoh to'yi uch bosqichli tarkibiy tuzilishga ega:

*Birinchi bosqich.* Nikoh kunigacha o'tkaziladigan marosimlarni qamrab oladi. Bunga beshikqudalik, qiz tanlash, sovchilik, «non sindirish» yoki «non ushatish», «ro'mol berdi» yoki «oqlik o'rab berish», fotiha to'yi, qalin olish, maslahat oshi, «qiz yig'in» (qizlar majlisi yoki Buxoroda hinobandon kabilar kiradi. Unashtirilgan qiz «boshi bog'liq» hisoblanadi. O'tmishda bu qizlarning soch turmaklashlari orqali ham anglatilgan. Unashtirilgungacha qizlar ko'cha-ko'ya sochlarini durra shaklida bir tutam qilib turmaklab hrgan bo'lsalar, unashtirilgandan keyin ikki tutam holatida turmaklab, ikki elkalari osha tashlaganlar. Bu ularning band yo egalik bo'lganliklarini, demakki, endi ularga og'iz solmaslik lozimligini anglatgan.

*Ikkinchi bosqichga* kelinni olib kelish yo'lini ochuvchi nikohlashdan iborat tantanali kun kiradi. U nikoh to'yining oliy nuqtasi bo'lib, fol'klor aytimlariga, turli-tuman urf-odat va irim -sirimlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu bosqichda olkishlar, laparlar, yor-yorlar, kelin o'tirsinar, kuyov o'tirsinar, salomnomalar, kelin va kuyovni maqtovchi madhiya qo'shiqlar, sharbat yalatar, oyna ko'rsatar, isiriq tutatar aytimlari ijro etiladi.

*Uchinchi bosqich* kelin kuyovnikiga olib kelingandan so'ng, ya'ni nikoh kunining ertasidan boshlab o'tkaziladigan «bet ochar» yoki «kelin salom», «kuyov salom», «to'shak yig'di» («joy yig'di» yoki Buxoroda «joy g'undoron»), charlandi (charlar yoki Buxoroda talbon), «kelin ko'rdi» («ko'rdi» yoki Buxoroda kelinbinon) singari xilma-xil marosimlarni o'z ichiga oladi.

Sovchilik turli viloyatlarda turlicha bajariladi. Ba'zida kuyovning yaqinlaridan biri tanlangan qiz yashaydigan hovli darvozasining oldini supurib keladi. YOki kuyov bola tomonidan hborilgan sovchi-elchilar qizning ota-onasi huzuriga tashrif buhrib, o'z maqsadlarini turli poetik ifodalar orqali bayon etadilar. Masalan, «Sizda bir gul bor ekan. Bizda bir bulbul», «Sizda bir cho'ri bor ekan, bizda bir qulbachcha. SHunga qulchilikka keldik», «Eshigingizni supurishga keldik» kabi.

Sovchilar uyga qaytib kelishgach, ulardan «Bo'ri bo'ldimi, tulki», deb so'rashgan. Bo'ri deyilsa – masala ijobiy hal bo'lganini anglatga, tulki- masala ochiq qolgani, hal bo'lmagani yoki tamoman rad javobi berilganini anglatgan.

Ijobiy javobdan so'ng fotiha, ro'mol berdi marosimlari o'tkazilgan, unda keksa, bir nikohli kishi yoshlarni sharaflab, quyidagicha olqish aytgan: «Qo'shgani bilan qo'sha qarisin, uvali-juvali bo'lib yashasin, omin, ollohu akbar».

To`ydan oldingi kuni kechqurun qizning uyida uning dugonalari yig`ilib «qizlar bazmi» yoki «qizlar yig`ini» o`tkazadilar. Ba`zi joylarda uni «laparlar kechasi » deb ham aytadilar. Lapar aytishuvida kelin dugonalari bilan kuyov jo`ralari so`zda tortishishgan.

**Lapar** aytish an`anasi hozir Toshkent viloyatining Bo`stonliq, Parkent, Pskent, YAngiyo`l, shuningdek, Janubiy Qozog`istonning Turkiston va CHimkent muzofotlarida yashovchi an`ana sifatida hamon davom etmoqda. Taniqli fol`klorshunos T.Mirzaevning ta`kidlashicha: «Ilgarilari obu osh tortilgach, hovlida gulxan yoqilib, hovli bazmi o`tkazilgan. SHundan keyin qizlar ro`mol yoyilgan uyga, ya`ni kelinning sepi yoyilgan maxsus tayyorlangan uyga kirganlar. Qizlar uy ichida, yigitlar tashqarida – eshik oldida yoki qizlar uyning to`rida, yigitlar poygakda tik turishib lapar aytishgan. Lapar aytishni e`tiborli kayvoni ayol, hamma tan olgan laparchi childirma jo`rligida yoki childirmasiz boshqarib turgan. Bunda boshqaruvchi ruxsati bilan ikki yigit o`z belbog`ini echib, lapar aytib, o`ziga ma`qul bo`lgan ikki qiz oldiga tashlaydi. O`z navbatida, qizlar ham lapar bilan javob aytib, yigitlar belbog`iga biror narsa ( olma, nok, anor, tuxum, shirinliklar, qo`l ro`molcha yoki xat) tugib qaytaradi. Buni «lapar solishish» deb aytiladi. SHu tariqa lapar aytishish davom etadi». Laparni, odatda, kuyov tomondan biror yigit boshlab bergan. Buni «Boshlang`ich laparlar» deyishgan, lekin so`zga chechan, tajribali laparchi ayol jarayonni nazorat qilib turgan. Bu laparning o`zida shunday ifodasini topgan:

Avval boshlab aytganda, qiz boshlamas,

Qiz boshlagan laparni el xushlamas.

Aytmayin deb bir xayol qilib edim,

YOru jo`ram qo`ymadi, endi bo`lmas.

Aslida qiz yig`inlarida laparxonlik bilan bilan birga o`lan aytish ham an`anaviy bo`lgan.

O`zbek to`y marosimi fol`klori namunalari orasida lapar alohida o`rin egallaydi. Laparlar boshqa qo`shiqlardan voqebandligi, raqsop kuyga ega bo`lishi hamda dialog shaklida ikki qo`shiqchi tomonidan ijro etilishi bilan ajralib turadi.

**YOr-yorlar** esa kelinni kuyovnikiga kuzatib borish qo`shiqlari bo`lgan, Navoiy ularning «turk ulusi zufof va qiz ko`chirur to`ylarida» kuylanganligini maxsus qayd etgan.Hozirgi zamonda esa yor-yorlar kelin-kuyovni nikoh bazmiga olib chiqish va bazm tugagach, davradan kuzatib qo`yishda, shuningdek, nikoh bazmida, kelinni kuyovnikiga kuzatayotganda, kuyovning xonadonidagi bazmiy



tadbirlarda kuylanadigan bo'lgan. SHu mantiqdan qaralsa, ularning o'rnini va vazifasi bir qadar kengaygan.

YOr-yorlarda kelin-kuyovga ezgu tilaklar bildiriladi. Uzatilayotgan qizga dalda-tasalli beriladi. Unga umr yo'ldoshi bo'layotgan kuyovning ta'rifi keltirilib, qiz ovutiladi, qizdagi yotsirash tuyg'usini so'ndirishga harakat qilinadi.

SHuni ta'kidlash joizki, Navoiy zamonasida yor-yorlar chinkalar deb atalgan, biroq o'sha davrda ham «yor-yor» ularda faol radif vazifasini bajarib kelgan. Qolaversa, fol'klorshunos M. Alaviya guvohligicha, hozir ham Ohangaron shahri va uning atroflarida halq tilida uni «chinka» yoki «changi» shakllarida qo'llash davom etmoqda.

«YOr-yor» - takror asosida hzaga kelgan juft so'z bo'lib, mohiyatan kelin-kuyov juftligini ramzan alqovchi, ta'kidlovchi, e'tirof etuvchi ohangga egaligidan, qolaversa, tasavvufiy ma'noda Olloh (yor) nomini ifodalab, yangi oilani bunyod etayotgan qiz (kelin) va yigit (kuyov) juftligi uning irodasi bilan sodir bo'layotgan ilohiy aqd ekanligidan ham jonli so'zlashuvda, ham ilmiy taomilda bir xilda singishib o'zlashdi.

YOr-yorlar yakkaxon tomonidan yoki ko'pchilik tomonidan xor sifatida kuylanadi. YOr-yorning uzun-qisqaligi kelin boradigan manzilning uzoq-yaqinligiga bog'liq. Kelin kuyovnikiga etib borgach, yor-yorga kuyov tomon yangalar ham qo'shilib, tarafma-taraf bo'lib kuylaydilar. SHundan so'ng kelin gulxan atrofidan uch marta aylantiriladi. Ayrim yor-yorlarda kuyovning hmoristik portreti chizib beriladi.

YOr-yorlarning aksariyati uzatilayotgan qiz tilidan kuylanadi:

Ninam uchi sindi deb,

Urding onam, yor-yor.

Mana ketib boraman,

Tinding onam, yor-yor.

Ayrim yor-yorlar qizning dugonasi, akasi, onasi, yangalar tilidan ham ijro etiladi.

To'y qo'shiqlarning yana bir turi - **o'lan** bo'lib, ular «YOr-yor»lar rivojidadagi dastlabki bosqichni tashkil etadi. O'lanlar faqat to'ylarda emas, turli yig'in marosimlarida ham aytilgan. O'lan aytish ko'proq ko'chmanchi chorvadorlar

orasida kengrok tarqalgan bo`lib, ular tarafma -taraf aytishuv sifatida kuylangan.  
Masalan:

Yigit:- O`lanlarning avval boshi tamal toshi,  
To`y oldidan tortganim so`qim oshi.  
Hadding bo`lsa, qani kelib o`lan boshla,  
Bu elatning menman degan kekxa-yoshi.

Qiz: -O`lan aytsam-o`lanim adashmaydi,  
YOlg`iz aytgan o`lanim yarashmaydi.  
Ikkov-ikkov aytaylik, birday bo`lib,  
Savog`idan ochilgan gulday bo`lib.

YOr-yorlarda asosiy maqsad kelin-kuyov ta`rifi,ularga tilak bildirish bo`lsa, o`lanlardagi bosh maqsad aytishuvda g`olib chiqishdir. O`zbek halqining mashhur «Alpomish» dostonidagi Alpomish va Bodom bikach aytishuvlarini nazarda tutsak, o`lanlarning vujudga kelishi juda qadimiy ekanligiga amin bo`lamiz.

«O`lan» aslida «ulang» so`zining «o`lang va ulan» shakllaridagi fonetik o`zgarishi tufayli hzaga kelgan bo`lib, kelin (qiz) va kuyov (yigit)ni bir-birlariga ma`naviy jihatdan bog`lash, ulash maqsadini ifodalovchi ma`noga ega. Alisher Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonida shunga ishora qila turib, o`lanlarning yor-yorlarga hamohangligini va vazifadoshligini nazardan qochirmaydi.

Mug`anniy tuzib chinga vaznida chang,  
Navo chekki, hay-hay o`lang, jon o`lang.  
Desang senki: -Jon qardoshim, yor-yor,  
Men aytayki: -Munglug` boshim, yor-yor.<sup>1</sup>

O`lanlarning tematik doirasi kengdir. Ularda ishqda vafodorlik, yor visoliga mushtoqlik motivlari etakchilik qiladi. O`lan aytishni, odatda, yigitlar boshlab berishadi. Kuyov taraf-kuyovni, kelin taraf-kelinni ta`riflash musobaqasiga kirishadi. Taraflar aytishuvi sho`x-shodon qiyqiriqlar oqimida quvnoq

---

<sup>1</sup> «Xamsa», 1960, 778-b.

hazilkashlikka aylanadi, bunda ayrim hollarda quhshqondan chiqib ketishganini sezmay qolishadi. CHunonchi:

Yigitlar: - O`lan-o`lan deganda, o`lan ko`pdir,  
O`lan aytgan tilingdan menga o`ptir.  
O`lan aytgan tilingdan o`ptirmasang,  
Sen o`ngga-h men chapga- yo`llar ko`pdir.

Qizlar: -Uyal, uyal, deganda, uyalsa-chi,  
Aytolmagan og`zini tiyolsa-chi!  
O`lan aytgan vaqtida kim aynisa,  
Hzlariga qozonkuya surkalsa-chi!

O`lanlar, odatda, yakkaxon o`lanchining oddiy ovoz solishi asosida kuylanib, u to`rtlikni aytib bo`lgach, tarafdorlarining jo`rovoz qiyriqlari asosida yo to`rtlik, yo uning so`nggi satri hayqirib takrorlanadi. O`lanlar hozirjavoblikni, hazil-mutoyibani talab etadi.

Buxoroning talay qishloqlarida kelinni kuyovnikiga yoki aksincha kuyovni kelinnikida kutib olinishida gulxan yoqib, uning atrofidan uch marta aylanib «Uv-ho-uv!!!» deya **jar** solish udumi mavjud. Bu hayqiriq aslida Kur`oni Karimdagi «Havalloh hu» oyatining jonli talaffuzda o`zgargan shaklidir. Kuyov jo`ralari yoki kuyovnavkarlarning jari vaqtida ham ma`lum poetik aytimlar ijro etilgan. Kuyovnavkarlar jarini, odatda, yigitlar orasidagi so`zga chechan, kuylay oladigani yakkaxon tarzida ashula uslubida musiqiy asbob jo`rligisiz (ayrim hollardagina doira jo`rligida) juda baland ovozda kuylagan. Kuyovning boshqa navkarlari esa har band oxirlagach, jar solib unga jo`r bo`lishgan. Masalan:

Yakkaxon: - Sen qachon gul deb hbording,  
Men senga gul bermadim.  
Sen qachon shahzoda bo`lding,  
Men senga qul bo`lmadim.  
Dutorimni qo`lga olib,  
Qomatingday turmadim.

Kuyovnarkalar: - Huy-huy-huy, huy-bale!

Huy-bale-bale, huy-bale!

Jarlarning yana bir turi «Antalhodiy» deb hritiladi. U o`ziga xos ijrosi bilan farqlanib turadi. Unda yakkaxon har bir satrni alohida kuylaydi. Kuyovnavkarlari esa «Antalhodiy Mavlon do`st oblo rabbano» satrini naqorat sifatida jo`rlikda hayqirib kuylaydilar.

«Anta-l-hodiy»-«Sen yo`lga soluvchi, to`g`ri yo`lni ko`rsatuvchisan, qulingman o`zingni, robbim», -degan ma`nolarni anglatadi.

O`tmishda «Kelin olib kelish» udumida ham jarlarni ijro etish an`anasi mavjud bo`lgan. Ular, asosan, kelinning kelganidan xabar berish maqsadida «yor-yor» aytimi to`xtatilgandan keyin kuylangan.

Kuzatishlar kelin-kuyovga chimildiq tortish jarayonida ham uni ta`riflab qo`shiqlar kuylanganini tasdiqlaydi. Masalan:

CHimildiq-cho`pi chinor,

Etti kunlik siri bor.

Ichida bor bo`y chinor,

Siynasi qo`limga zor.

CHimildiqning chilbog`i,

Bemavrid uzilmasin,

Kelinoyim ko`zina,

Bevaqt yosh tizilmasin.

CHimildiq yoki go`shanga yigit-qiz - kelin-kuyov uchun yangicha hayot oilaviy turmushga kirib borish eshigidir. Uning go`shanga deyilishida aslida yangidan bunyod bo`layotgan shu navqiron oilaning endilikda katta hayot bag`rida o`z go`shangasi, o`lan-to`shagi qaror topayotganiga ishora ma`nosi bor.

Buxoro nikoh to`ylarida «**Salomnoma**» o`qib, kelin-kuyovni chimildiqqa kuzatish an`anaga aylangan. Uni «Kelin salom» bilan almashtirmaslik lozim. Salomnomaxonlik, asosan, islomiy aqidalar va e`tiqodlarni o`zida aks ettiradi. Samarqandlik Sayid Ahmad Vasliy bitgan «Salomnoma» bugungacha ommalashibgina qolmadi, balki o`zbek tilida ham uning yangi – yangi variantlarining hzaga kelishiga ta`sir ko`satdi va marosimning mustahkam verbal qismiga aylanib qoldi.

«Salomnoma» o`qilgach, «Kelin o`tirsin» va «Kuyov o`tirsin» marosimlari o`tkaziladi. Ular ham kelin, ham kuyovning uyida ijro etiladi.

«**Kelin o`tirsin**» marosimida o`ziga xos badiiy tizimga ega bo`lgan, odatda, barmoq vaznining engil va o`ynoqi uslubida yaratilgan, olqishga xos motiv etakchilik qilgan «Kelin o`tirsin» badihalari kuylanadi:

Appoq upaday kelinim,

Maydon supaday kelinim.

Husni Samarqanddan kelgan.

Ko`nglimdagiday kelinim.

Kelinposhsho o`tirsinlar!

«Kelin o`tirsin» aytimlarining nasriy ko`rinishi ham keng tarqalgan. Buxoro va Samarqandda «Xush omaded» («Xush kelibsiz»), «Ta`rifi duxtar» («Qiz ta`rifi») singari aytimlarda kelinni ta`rifu tavsiflash, uning fazilatlarini madh etish motivi etakchilik qiladi.

«**Kuyov o`tirsin**» marosimi kuyovning kelinnikiga ilk bor kelishi munosabati bilan o`tkazilgan. U orqali kuyovning kelin xonadoniga qo`ygan ilk qutlug` qadami sharaflangan. Kuyov ustidan turli sochqilar sochilib, «Kuyov o`tirsin» aytimi ijro etilgan. «Kuyov o`tirsin» aytimlarida kuyov ta`rifini keltirishga alohida diqqat qilingan. Uning o`tirishi uchun qaynona bor bisotini, hatto jonidan ortiq dilbandini nisor etajagini izhor etgan:

Kuyov to`ra o`tirmasa,

Uylarni berdim,

Qoziqda kishnagan

Duldulni berdim.

Hovlida ochilgan,

Oq gulni berdim.

O`tirsinlar kuyov to`ra!

«Hovlida ochilgan oq gul» – kelin boʻlayotgan qizdir, albatta, u pokizaligi, maʼsumaligi uchun «oq gul» birikmasi orqali sifatlantirilmoqda. Bu bilan kuyovga ham uni eʼzozlash, ardoqlash lozimligi uqtirilmoqda.<sup>1</sup>

Buxoro nikoh toʻylarida yana bir ajoyib anʼana mavjudki, unda toʻyga yigʻilgan ayollar, qarindoshlar oʻzaro *muxammasxonlik* qilishadi yoki *bayt barak* aytishadi.

Nikoh toʻyining ertasi kuni «hz ochar» marosimi oʻtkaziladi. Bunda kelin kuyovning qarindoshlariga tanishtiriladi. Bu marosim, odatda, ertalab barvaqt oʻtkaziladi. Unda «Kelin salom» aytimlari kuylanadi. Kelin salomlar, odatda, ikkilik shaklida qofiyalanib, hmoristik ruhda, engil, oʻynoqi ohangda, sodda va ixcham shaklda yaratilgan boʻladi. Kelin salom aytilganda, kelin kuyovning qarindosh- urugʻlariga va toʻyga yigʻilganlarga hurmat va ehtirom ramzi sifatida taʼzim qilib, salom berib turadi.

Kelin salom deydilar,  
Avval xudoga salom.  
Karmonidan pul bergan,  
Koʻcha toʻla toʻy bergan,  
Qaynatasiga salom.

Qozon hvishga eringan,  
Oʻgʻil tugʻdim, deb kerilgan,  
Qaynonasiga salom.

Nikoh toʻyidan uch- etti kun oʻtgach, aniqrogʻi, kelin-kuyovning oʻzaro tillashuvi bir qadar qaror topgani ayonlashgach, «Kuyov salom» marosimi oʻtkazilgan. Unda kuyov qaynota va qaynonasiga qulluq qilgani kelgani sharaflangan. Oʻtmishda bu marosimda chillali boʻlgani bois kelin qatnashmagan. Hozir toʻyni ixchamlashtirish bahonasida bu marosimda kelin ham qatnashadigan boʻldi va u «Kuyov salom» marosimidan koʻra koʻproq challandi marosimiga oʻxshab qoldi. Marosim boshida kuyovga poyandozlar toʻshab kutib olingan. U taʼzim bajo etib, salom bergan. Marosim oxirida dastlab qaynotasiga, soʻngra davra ahliga shohkosada suv (baʼzi joylarda gulob, sharbat) tutib, ular xizmatini boʻyniga olajagini ramzan ifoda etgan. SHundan soʻng kuyov qaynatasining uyiga bemalol kelib ketaverishi mumkin sanalgan. Bu marosimlardan keyin «joy yigʻdi», «challandi» marosimlari oʻtkaziladi. SHular bilan nikoh toʻyi yakunlanadi.

---

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Safarov O. «Kelin oʻtirsin» va «kuyov oʻtirsin» marosim oʻqshiq-lari. - OʻTA, 1989, 5-son, 35-39 –b. YAna: «Kuyov eltish», «Kelin eltish» udumlari va jarlar – OʻTA, 1991, 6-son, 35-39-b.

Xullas, o'zbek nikoh to'yi marosimi fol'klori shu qadar boy va rang-barangki, ularning har biri o'ziga xos vazifasi, ijro o'rnini va ijro usuliga ko'ra farqlanib turadi. SHuningdek, ularning har bir vodiy va vohadagi ijro usullari ham o'ziga xosdir.

#### **Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:**

1. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. T.: «Fan», 1974.
2. Jo'raev M. O'zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar. T., 1994.
3. Ismoilov Hayot. O'zbek to'ylari. T.: «O'zbekiston», 1992.
4. Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. T.: «Fan», 1953.
5. Navro'z. Tuzuvchilar: Mirzaev T., Jo'raev M. T., 1992.
6. Oy oldida bir hlduz. O'zbek halq marosim qo'shiqlari. Nashrga tayyorlovchi M.Jo'raev.T.: G'ASN, 2000.
7. Sarimsoqov B. O'zbek marosim fol'klori. T.: «Fan», 1986.
8. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. T., 1998.
9. To'y muborak, yor-yor. O'zbek nikoh to'yi xalq qo'shiqlari. To'plovchi va nashrga tayorlovchi. O.Safarov. T.: «Ma'naviyat», 2000.
- 10.O'raeva D. O'zbek motam marosimi fol'klori. T.: “Fan”, 2004.
- 11.Qizil gulning g'unchasi. Kelin salomlar. To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar: M. Jo'raev va O.Ismonova. T.: FASN, 1999.
- 12.Qoraboev U. O'zbekiston bayramlari.T.: «O'kituvchi», 1991.

13.G`ulom G`afurov. Udumlarda xalq qalbi. T.: «YOsh gvardiya», 1986.